

**H.O. UZOQOV, SH.H. QULIYEVA, O.N.
MUXIDOVA, K.T. XOLMATOVA**

**TEXNOLOGIK MADANIYAT KOMPETENTLIK
ASOSLARI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

H.O. UZOQOV, SH.H. QULIYEVA, O.N. MUXIDOVA, K.T. XOLMATOVA

(5112100 - Texnologik ta'lif yo'nalishi magistr talabalari uchun o'quv qo'llanma)

**TEXNOLOGIK MADANIYAT KOMPETENTLIK
ASOSLARI**

“KAMOLOT NASHRIYOTI”

BUXORO 2022-YIL

UDK: 373.2(073)

KBK: 74.263

H.O. UZOQOV, SH.H. QULIYEVA, O.N. MUXIDOVA, K.T. XOLMATOVA

Texnologik madaniyat kompetentlik asoslari/ o‘quv qo‘llanma [Matn]

“BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti. 2022 y. 310-b.

T 25

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5A112100 - Texnologik ta’lim yo‘nalishi magistr talabalarini o‘qitish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda fanning maqsad va vazifalari, o‘qituvchining o‘qitish uslublari, kreativligini, kompetentligini rivojlantirishga, qaratilganligi, hozirgi davr talablari asosida o‘qituvchi darslarni tashkil qilib borishi kabi masalalar yoritilgan.

ISBN: 978-9943-8333-7-1

© Komolot nashriyoti

© H.O. UZOQOV

© SH.H. QULIYEVA

© O.N. MUXIDOVA

© K.T. XOLMATOVA

*Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2022-yil «17» martdagi « 106 »sonli burug’iga asosan nashrga ruxsat
berildi. Ro‘yxatga olish raqami 106-211.*



MUNDARIJA

Kirish

- 1 Kirish. “Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari” faniga kirish.....
- 2 Zamonaviy o’qituvchining texnologik madaniyati.....
- 3 Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning madaniy-texnologik aspekti.....
- 4 Zamonaviy o’qituvchining texnologik madaniyatiga qo’yiladigan shaxsiy va kasbiy sifatlar.....
- 5 O’qituvchining texnologik madaniyatining tarkibiy qismlari.....
- 6 O’qituvchining texnologik madaniyatini shakllantirish tizimi va uni baholash.....
- 7 Texnologik ta’limda kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari.....
- 8 Kompetentsiya, kompetentlik tushunchalarining mohiyati va ilmiy maktablar talqini.....
- 9 Texnologik ta’limda kompetentsiyaviy yondashuvning xorijiy tajribalar.
- 10 Texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....
- 11 Texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning didaktik xususiyatlari.....
- 12 Ta’limga an’anaviy va kompetentlikka yo’naltirilgan yondoshuvlarning qiyosiy tavsifi
- 13 Texnologik ta’lim o’qituvchisining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish shakllari.....
- 14 Texnologik ta’lim o’qituvchisining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish shakllari.....
- 15 Texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlanganligini baholash mezonlari, ko’rsatkichlari va darajalari.....

Kirish

Professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

SH.M.Mirziyoev

Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar - bizning kelajagimiz. Bu sohadagi davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish uchun yaqinda O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonuni yangi taxrirda qabul qilindi. Bularning barchasi bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda. Yoshlarimiz biznes, ilm-fan, madaniyat, san’at, adabiyot va sport sohalarida olamshumul muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu mamlakatimiz istiqboliga, buyuk ajdodlarimiz boshlagan ezgu ishlarni kelajak avlodlar munosib davom ettirishiga katta ishonch bag‘ishlaydi.

Ma’lumki, biz bugun yurtimizda erkin va ozod, adolatli, insonparvar jamiyat barpo etmoqdamiz. Shu borada, avvalo, odamlarimizning halol mehnatiga hurmat bilan qarash, ularning qadr-qimmatini munosib baholashni biz o‘zimizning bosh maqsadimiz, deb bilamiz. Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida insonga aynan mana shunday munosabat mustahkam qaror topdi. Shuning uchun ham mamlakatimiz ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Va bu yutuqlar jahon hamjamiyatining hayrati va havasini uyg‘otmoqda. Ana shunday ijobiy o‘zgarishlar asosida odamlarimizning dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalmoqda. Ularning hayotga, mehnatga munosabati tubdan o‘zgarmoqda.

Mamlakatimiz bozor munosabatlarigao‘tish davrida mavjud bo‘lgan barcha turdag‘i sanoat korxonalarining rivojlanishi, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning oshib borishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, ichki bozorni yuqori sifatli, takomillashgan texnologiya va mahsulotlar bilan to‘ldirish iqtisodimizning yuksalishiga muhim omil bo‘ladi. Respublikamiz oldida turgan asosiy masalalardan

biri ichki bozorlarimizni o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish va jahon bozorlarida raqobat qilaoladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Ya’ni barcha turdagи sanoat korxonalarida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish uchun birinchi navbatda korxonalarda mavjud bo‘lgan eski asbob-uskunalar o‘rniga zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, ishlab chiqarishda idishlarga joylashtirish, saqlash va transportda tashish davrida hamda ulardan samarali foydalanishda qo‘yilgan talablarga rioya qilish, mahsulot sifatining barqarorligini ta’minlash lozim. Davlatlar orasida iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatish va rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan standartlarni uyg‘unlashtirish kerak. Bundan tashqari mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirib borish uning ishlab chiqarish darajasining yaxshilanishigaolib keladi. Mahsulot sifatidan davlatning texnik takomillashgani va rivojlanganligiga baho bersa bo‘ladi. Iqtisodni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri mahsulot sifatini doimiy ravishdaoshirib borishdir. Mahsulot sifatini oshirish, assortimentlarini kengaytirish va iste’molchilar talabini qondirish hozirgi bozor iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mahsulotning sifat darajasini ta’minlash uchun standartlar va texnik shartlarning me’yoriy talablariga bog’liq holda uzlusiz nazorat ishlarini olib borish lozim. Shu bilan birgalikda mahsulotning sifat darajasini yaxshilashda standartlarning ilmiy-texnik darajasini oshirish, standartlar va texnikshartlarni muntazam yangilab borish, mahsulot sifati va yuqori texnik darajasini kafolatlash lozim. Bozor iqtisodiyotida boshqarishning yangi shartlari mahsulot sifatiga yangi talablar qo‘ymoqda. Bu yanada muhimroq bo‘lib, to‘qimachilik mahsulotlari aholining doimo o‘sib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak. Har bir yo‘nalish, har bir sanoat korxonalari ishlab chiqarishdagi yangilanishning aniq yo‘liga ega bo‘lishi lozim. Mahsulot sifatini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish mahsulotni dunyo bozorlariga chiqarishni ta’minlaydi. Istalgan mahsulot sifatini, ya’ni shu qatori to‘qimachilik materiallarini baholash uchun materiallarning ratsional qayta ishlanishi va qo‘llanilish imkoniyatlarini aniqlashda muhim xossalari me’yoriy talablar belgilab o‘tiladi. Mahsulot sifatini baholash natijalari nafaqat jami xossalari

darajasiga va yetarli o‘lchashdagi aniqligiga, balki bu xossalari bo‘lgan talab darajasiga bog’liq. Eng muhimlaridan biri ma’lum bir maqsadlar uchun ishlatiladigan yoki qayta ishlanadigan mahsulotlarning yetarli darajadaasoslangan sifat ko‘rsatkichlarini tanlashdir. Yuqori sifatli mahsulotni yaratish, ta’minlash va rejalashtirish zamonaviy baholash uslublari va sifat ko‘rsatkichlarining standartlari bo‘yicha bilimni talab etadi. Ushbu qo‘llanmaning asosiy maqsadi kerakli ma’lumotlarni berish va amaliyotda uslublarning qo‘llanilishini ko‘rsatishdir. Keyingi paytlarda iste’molchilarining to‘qimachilik buyumlariga bo‘lgan talabi kundan kungaortib bormoqda. Chunki hozirgi paytda respublikamiz ichki bozorlarining xorijdan keltirilayotgan sifatli mahsulotlarga bo‘lgan talabi katta. Bizning asosiy maqsadimiz ichki bozorlarimizni o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan sifatli kiyimkechaklar bilan to‘ldirish hamda respublikamiz eksport salohiyatini oshirishdir. Demak, to‘qimachilik mahsulotlari dunyo va ichki bozorlarda raqobatlasha oladigan bo‘lishi kerak. Mahsulot sifat ko‘rsatkichlari nafaqat mahsulotning barcha ko‘rinishdagi xossalari darajasiga yoki ularni aniq o‘lchamiga muvofiqligiga, balki bu xossalari bo‘lgan talab darajasiga ham bog’liqdir.

Mahsulot sifatini baholash natijalari, nafaqat umumiylar xossalari darajasiga va yetarli o‘lchashdagi aniqlikka, balki bu xossalarga bo‘lgan talab darajasiga ham bog’liq. Shuningdek, ma’lum bir maqsadlar uchun ishlatiladigan yoki qayta ishlanadigan mahsulotlaming yetarli darajada asoslangan sifat ko‘rsatkichlarini tanlash ham muhim. Yuqori sifatli mahsulotni yaratish, ta’minlash va rejalashtirish zamonaviy baholash usullari va sifat ko‘rsatkichlarining standartlari bo‘yicha bilimni talab etadi.

Ushbu qo‘llanmaning asosiy maqsadi, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilariga texnologiya ta’lim praktikumi bo‘yicha kerakli ma’lumotlar berish va amaliyotda ulardan foydalanishni ko‘rsatishdan iboratdir. Mazkur qo‘llanma mutaxassislar bildirgan taklif-mulohazalarni inobatga olgan holda, fanga oid bir qancha ma’lumotlarni yoritishga harakat qilindi. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining bilimlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

1.O'QUV MATERIALLARI

1-MARUZA MASHG'ULOTI.

Mavzu: “Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari” faniga kirish.

Mavzu rejasি:

- 1.” Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari ” faniga kirish, fanning maqsad, vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasi.“
- 2.“ Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari ” fanining texnologiya o’qituvchisini tayyorlashdagi o’mi.
3. O’qituvchi madaniyati tushunchasi, o’qituvchining texnologik madaniyati tushunchalari.

Tayanch tushunchalar: texnika, axborot, intellektual, tabiiy resurslar, ekologik, tejamkorlik, muvozanat, global, uzlusiz ta’lim, ma’naviy yuksalish.

Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari **fanning vazifalari** – magistrlarni “Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari” fanining maqsad, vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, texnologiya o’qituvchisini tayyorlashdagi o’rni, o’qituvchi madaniyati, texnologik madaniyati va kompetenligini rivojlantirishning xalqaro tajribalari, pedagogik shart-sharoitlari, didaktik xususiyatlari, texnologiyalari, shakllari, nazorat qilish va baholash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

- “Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari” fanining maqsad, vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasini;
- “Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari” fanining texnologiya o’qituvchisini tayyorlashdagi o’rmini;
- o’quvchilarda loyihalash va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish madaniyatini;
- zamonaviy madaniyat, texnologik madaniyati, ishlab chiqarish madaniyatini;
- texnologik ta’limda kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslarini;
- kompetentsiya, kompetentlik tushunchalarining mohiyati va ilmiy maktablar talqinini;

- texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini;
- texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning didaktik xususiyatlari *haqida bilimga ega bo`lishi*;
- zamonaviy o’qituvchining texnologik madaniyatiga qo’yiladigan shaxsiy va kasbiy sifatlarni farqlash;
- o’qituvchining texnologik madaniyatining tarkibiy qismlarini tahlil qilish;
- o’qituvchining texnologik madaniyatini shakllanganlik darajasini baxolash;
- professional ta’limda tayanch kompetentsiyalar (soft skills) hamda maxsus kompetentsiyalar (hard skills)ni qo’llash;
- o’qituvchining texnologik madaniyati (reproduktiv, produktiv hamda kreativ) darajalarini aniqlash *ko ‘nikmalariga ega bo‘lishi*;
- texnologik ta’limda kompetentsiyaviy yondashuvning xorijiy tajribalaridan foydalanish;
- texnologik ta’lim o’qituvchisining kompetentligini rivojlantirish tuzilmasini ishlab chiqish;

Texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlanganligini baholash mezonlarini ishlab chiqish *malakalariga ega bo‘lishi*; modulli-kompetentli yondashuv asosida kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish; kompetentlikning tuzilmasi komponentlari (motivatsion, kognitiv, operatsion-texnologik, amaliy-faoliyatli, refleksiv)ni amaliyotda qo’llay olish; Blum taksonomiysi, muammoli ta’lim, loyihalash, Keys-stadi, Rolli o’yinlar va treninglar asosida kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish *kompetentsiyalarni o’zlashtirishi lozim*.

Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari **fanning maqsadi** – magistrlarni texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari fani bo'yicha ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirish, texnologik madaniyat, kompetentlik, kompetentsiya tushunchalari, zamonaviy o’qituvchining texnologik madaniyati va kompetentligi, unga qo’yiladigan talablar, rivojlantirish metodikalari bilan tanishtirish.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ma’lum bir kasbda qullaniladigan standartlar buyicha bajara olish qobiliyati. «Yevropadagi o’rta ta’lim» proekti doirasida tuzilgan mundarijasida (spisk) kursatilgan kalit kompetensiyalarini ko’rib chiqamiz.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sish, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalari yuzasidan so‘z yuritiladi.

O‘rganish:

- tajribadan foydani undira olish;
- egallangan bilimlarning o’zarobog‘liqligini tashkilashtirish va joylashtirish;
- o‘z shaxsiy bilim qo‘llashni tashkillashtirish;
- muammolarni xal eta olish ;
- uz xoxoshi buyicha ta’lim bilan shug’ullanishi.

Izlanish:

- turli xil ma’lumotlarni izlash;
- atrofdagilardan surash;
- ekspertlardan konsultatsiya olish;
- ma’lumotlarni olish;
- hujjalarni bilan ishlay olish va ularni klassifikatsiya qila olishi.

O‘ylamoq:

- bo‘lib o‘tgan va xozir sodir bulayotgan voqealarning o‘zaro-bog‘liqligini tashkillashtirish;
- jamiyat rivojlanishi jarayonining u yeki bu aspektiga tanqidey yondashish;
- qiyinchiliklarni yengish;
- baxs-munozalarda o‘zining pozisiyasini egallash va uz shaxsiy fikriga ega bo‘lish;
- o‘qish va ish jarayonida sodir bo‘layotgan siyosiy va atrof muhitdagi muhim tomonlariga e’tibor berish;
- sog‘lik va atrof-muhit bilan bog‘liq bulgan sotsial ko‘nikmalarni baxolash;
- san’at va adabiet durdonarini baxolash.

Xamkorlikda bulish

- guruxda ishla olish va xamkorlik kilish;
- karor kabul kila olish;
- konflikt va kelishmovchiliklarni bartaraf eta olish;
- kelishish;
- kontraktlarni tuzish va boshqarishi.

Ishga kirishish

- loyixaga kirishish;
- javobgarlikni xis etish;
- gurux va kollektivgv kushilib, uz xissasini kushish;
- xamfikrlikni bildirish;
- uz ishini tashkillashtira olish;
- xisob-kitob asboblari bilan ishlashi.

Ko‘nikish

- Yangi informasion va kommunikasion texnologiyalarni kullay bilish;
- tez-tez sodir bulayotgan uzgarishlar oldida ixchamlikni isbotlash;
- kiyinchiliklar oldida uzining kuch - matonatini kursatish;
- yangi qarorlarni chiqarish;

Shunday qilib, kompetent yunaltirilgan ta’limning barcha yunalishlarida, shaxsning tajribasi, uning aktiv pozitsiyasi, faoliyatga tayyorgarlik darjasи, sotsial madaniy jamiyat talabining roliga asosiy urg’u beriladi.

Nazorat savollari:

1. ”Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari” fanining maqsadi nima ?
2. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati nimada?
3. Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur ?
4. “Kompetentlik” nima?
5. Shaxsning aktiv pozitsiyasi deganda nimani tushunasiz ?

Adabiyotlar ro’yxati:

- 1.Texnologii vospitaniya i obucheniya: Uchebnoe posobie dlya stud. vysssh. T38 ucheb. zavedeniy / N.N. Nikitina, V.G. Balashova, O.M. Jeleznyakova, N.M. Novichkova; Pod red. N.N. Nikitinoy. – Ul’yanovsk: UlGPU, 2011. – 210 s. (5-12 betlar)
- 2.Isaev V.F. Professional’no-pedagogicheskaya kul’tura prepodavatelya. Ucheb. posobie dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniy. - M.: Izdatel’skiy tsentr «Akademiya», 2002. - 208 s. (16-22 betlar)
3. Rubtsova Ye.T. Texnologicheskaya kul’tura v vysshem pedagogicheskem obrazovanii. (1-7 betlar).

2-MARUZA MASHG’ULOT.

Mavzu: 2 Zamonaviy o’qituvchining texnologik madaniyati.

Mavzu rejasi:

- 1.O’quvchilarda loyihalash va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish madaniyatini shakllantirish o’rni.
- 2.Ta’limning ilg’or amaliyotini ommalashtirish va texnologiya fanini o’qitishning shakllari xilma-xilligini rag’batlantirish.

3. Amaliy jihatdan texnologiya sohasidagi bilim–texnologiyalar transferi bilan bog’liq, keng ma’noda kelajak avlodni yuz berishi mumkin bo’lgan texnologik o’zgarishlar bilan ishlashga tayyorlash.

Tayanach tushunchalar: madaniyat, ziddiyat, ijtimoiy, mehnat, falsafiy, diniy, g’oya, qobiliyat, moddiy natija, investitsiyalar.

Insoniyat XXI asr—yuksak rivojlangan texnika, axborot texnologiyalar asriga qadam qo`ydi. Bu texnologiyalarni intellektual, xar tomonlama bilimga ega bo’lgan barkamol avlodni samarali boshqara oladi. Shuningdek bu avlod zimmasiga, Koinotda nuqtadek bo’lgan va hayot baxsh etilgan noyob sayyora—Yer, ona zaminimizni ko`z qorachig`idek avaylab asrash, ekologik muvozanatlash, saqlash, uning moddiy—tabiiy resurslaridan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanish, insonni ma‘naviy yuksaltirish kabi global ahamiyatga molik muammolarni hal etishga hissa qo`shish ma‘suliyatini anglash va amalga oshirishdek sharaflı vazifa ham yuklatilgan. Bu vazifalarni xis etadigan har tomonlama yuksak bilimga ega bo’lgan intellektual yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Hozirgi davr jahon pedagogikasi yoshlarni tarbiyalashda, ularning kasb bo`yicha tor professional bilimlarni egallashlariga chek qo`yishni, uzlusiz ta’lim tizimida, jumladan, umumta’lim fanlaridan keng integrativ bilimlarga ega bo`lishlari zarurligini taqoza qiladi.

«*Har qanday fan bo`yicha malakali o’qituvchini osongina tayyorlash mumkin va u o’quv jarayoni mexanizmining bir detali sifatida istalgancha dasturlanishi va yo’naltilishi mumkin?!*» Bu tezis o’z-o’zidan o’qituvchining jamiyatdagi mavqeyini juda ham pasaytirib, o’quvchilarining unga bo’lgan hurmat va e’tiborga sezilarli darajada putur yetkazadi. Natija ham darhol ayon bo’ladi – malakali o’qituvchi bo’lishga intilish yo’qolib, bu sohada yetuk mutaxassis bo’lishga layoqatlilar soni keskin kamayadi. Bu esa, o’z navbatida, ta’lim berish sifatini ancha pasaytiradi. Lekin

bu tezis hozirgi jadal sur‘atda rivojlanayotgan hayotga aslo mos kelmaydi va uni jadal rivojlanish davriga mos boshqa tezis bilan almashtirish maqsadga muvofiq:

Zamonaviy o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida qarashlarini tashkil qilishi, ularda mustaqil ishlar ko`nikma va malakalarini rivojlantirishi va albatta ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo`ladi.

Boshlang`ich ta’lim umuta’lim mакtablarining bosh bo`g`ini bo`lgani sabali, ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsini mukammal rivojlanib borishiga ko`proq e’tibor berish lozim. Bunda boshlang`ich sinf o‘qituvchilarining ma’suliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo`ygan bolalarni mакtab hayotiga ko`niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo`l ochib beradilar. O‘qituvchilarning asl maqsadi, o‘quvchilarning o‘quv istagi va shaxsidagi ijodkorlikni shakllantirib, ularni barcha darslarda faol bo`lishlariga jalb qilish, ta’limga bo`lgan qiziqish va mustaqillik tuyg`usini uyg`otishdir. Boshlang`ich sinflarda o‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faollikka undovchi yangi o‘qish metodalarini o`ylab topishga, ilg`or pedagogik texnologiyalarni boshlang`ich ta’lim tizimiga tadbiq etish yo`llarini izlashga harakat qiladi.

Jamiyat rivjlanishinig har bir davrida bo`lganidek mehnat va mehnat ta’limiga munosabat bugungi shiddatkor davrda ham o‘z ahamiyatini yo`qotgani yo`q. Texnologik ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni olib kirishda mehnat ta’limini o‘qitishda keng ko`lamda foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Texnologik ta’limi darslari mazmuni o‘quvchining qo`l harakat tizimlarini mukammal shakllantirish, ijodiy fikrlash, amaliy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, amaliy san’at na’munalarini bilan tanishtirish, kasb-hunarga qiziqish uyg`otish asosiy vazifa sifatida qaralayotganligi sir emas.

Mana shunday vazifalarni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi turli xil interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

«Malakali o‘qituvchini tayyorlash juda murakkab va qimmat turadigan faoliyat turi bo‘lib, u o‘quv jarayonining ijodiy, yaratuvchi va yurituvchi kuchidir. Har bir o‘qituvchini juda ham qimmatli insoniy zaxira sifatida hisoblab, uning jamiyatdagi

mavqeyini imkon darajasida ko'tarish mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga aynan mos keladi».

Shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o`rgatib kelingan edi. Bunday usul o`quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish tashabbuskorlikni so`ndirar edi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta`limning samaradorligini ko`tarishga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo`llanilgan mashg`ulotlar o`quvchilar egallayotgan bilimlarni o`zları qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o`zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O`qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o`qituvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagog-olimlarning yillar davomida ta`lim tizimida *Nega o`qitamiz?*

Nimani o`qitamiz?

Qanday o`qitamiz? savollari bilan bir qatorda “Qanday qilib samarali o`qitamiz kabi savollarga javob izlaydilar. Bu esa, olim va amaliyotchilarni o`quv jarayonini texnologiyalashtirishga, yani o`qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga o`rinib ko`rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug`ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo`nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e`tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida — “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunlarda ta`limni amalga oshirish masalasiga alohida e`tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o`quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o`qituvchini ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo`lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To`rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo`llashga asoslanganligi sababli, talablar hozirgi zamon bilan hamnafaslikda ta`lim olishiga asoslanadi. O`quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi o`qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o`qituvchidan ko`proq mustaqilllikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Madaniyat- bu murakkab hodisa, uning yangi va yangi talqin va ta`riflar bilan tasdiqlash mumkin. Ammo uchta yondashuv eng keng tarqalgan hisoblanadi.

- texnologik yondashuv (madaniyat butun jamiyatning moddiy va ma`naviy hayotini rivojlantirishdagi barcha yutuqlarning yig`indisi sifatida)
- faoliyatga asoslangan yondashuv (madaniyat jamiyatning moddiy va ma`naviy hayoti sohasida amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat sifatida)
- qiymat yondashuvi (madaniyat odamlar ishlarida va munosabatlarida umuminsoniy qadriyatlarni amaliy tatbiq etish sifatida)

Mehnat tarbiyasining shaxs fazilatlarini shakllantirishdagi yetakchi o`rnini belgilab berishga muvaffaqiyatli harakat qiladi. Yirik pedagogik olim U.N. Nishonaliyevning asosoiy ilmiy ishlari tadqiqotlarining natijalari oily ta`lim pedagogikasini, didaktikasini rivojlantirishga qaratilgan. U o`zining “mehnat ta`limi o`qituvchisi shaxsiyati shakllanishi, istiqbol va muammolari” monografiyasida mehnat va kasb ta`limi o`qituvchisini oliy pedagogik ta`lim tizimida tayyorlash muammolarini tahlil etadi. Texnologik ta`limi o`qituvchisining ushbu sohani tashkil etishda uning shaxsiy kasbiy fazilatlarining shakllanganligi ham muhim o`rin tutadi. Ushbu ta`lim sohasining o`ziga xos murakkabligi, ko`pqirraliligi, amaliyligi, ishlab chiqarishligi va boshqalar shu soha o`qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi ko`lami sohalarida ko`rinadi. “ Texnologik ta`limi o`qituvchisi tegishli

predmetni o`qitish uchun pedagogik ma'lumotga va kasbiy tayoorgarlikka ega bo`lgan mutaxasis bo`lib, umum ta'lim maktablari o`quv ishlab chiqarish kombinatlari va hunar-texnika o`quv yurtlarida doimiy mashg`ulot olib boradi. Jumladan, yo`nalishlarda texnik (metallarni metallmaslarga va yog`ochlarga ishlov berish) 4-8-sinflarda qishloq xo`jaligi mehnati, 9-10-sinflarda metallarga ishlov berish, qishloq xo`jaligi mexanizatsiyasi, avtomobil ishlari, chizmachilik va boshqalar. Demak, ushbu fikr-mulohazalardan ko`rinib turibdiki, mehnat ta'limi sohasi jumladan, uni o`qitadigan o`qituvchi kasbiy faoliyati, bilim, ko`nikma va malakalari juda xilma-xildir. Texnologik ta'limining ko`p tarmoqlari sohalarni juda rang-barang bo`lishi, ushbu fan to`g`risida yaxlit mukammallashgan tushunchalarning bir butun tizim sifatida uyg`unlashmaslikka olib keldi. Chunki mehnat ta'limining ya`ni bevosita o`quvchilarning qaysi sinflarda qanday bilimlarni o`zlashtirishlari, qanday ko`nikmalarni shakllantirishlari va rivojlanТИrishlarni bir tizimga solish uchun maxsus tadqiqotlar obyekti qilib tanlanib, yirik ko`lamda ishlar olib borilishi lozim. U.N.Nishonaliyevning oliy o`quv yurtlarida bo`lg`usi mutaxasislarga pedagogik bilimlar berish, ularning pedagogik mahoratini shakllantirishni mukammallashtirish maqsadida olib borgan kuzatishlari I.Tursunov bilan muallifdoshlikdagi “Pedagogika kursi”da mujassamlashgan. Ushbu kursda olimlar bo`lg`usi mutaxasis pedagoklarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarining shakllanishi va rivojlanishi, ta'lim – tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy garovi sifatida talqin etadilar. Mehnat va kasb ta'limining muhim sohalaridan hisoblangan kasb tanlash, kasblarga havas uyg`otish, kasbiy axborotlar uyuştirish ishlariga, talabalarni tayyorlash ishlarini tadqiq etish bilan N.Sh.Shodiyev shug`ullandi. U o`zining “Talabalarga O`quvchilarni kasb tanlashga yo`llash ishlarini o`rgatish” “O`quvchilarning kasb tanlash ishlari bo`yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlari qishloq xo`jalik ishchi kasblari” kabi monografiya va qo`llanmalarida ushbu soha muammolarini tadqiq qildi. Olim ko`p yillik kuzatishlari, olib borgan tadqiqot ishlarida texnologik ta'limining bevosita mas`uli bo`lgan, yoshlarning hayotdagi faol o`rinlarini, kelajak hayot yo`lini belgilaydigan turli kasb-hunarlarini egallashning umumta'lim maktablarida, hunar o`quv yurtlarida oliyohlardagi o`quv

tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirishga doir muvaffaqiyatli ishlar olib bordi. Texnologik ta’lim o`zining ko`p jihatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Ana shunday xususiyatlardan biri ushbu sohaning alohida o`quv moddiy va metodik ta’minotga egaligidir. Texnologik ta’limni samarali o`qitish uchun uni o`qitadigan mutaxasisi pedagoglarni tayyorlash uchun ham alohida e’tiborga molik o`quv uslubiy majmualar lozim bo`ladi. Bo`lg`usi mehnat ta’limi o`qituvchilarini tayyorlash uchun zaruriy o`quv metodik ta’minotni yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqarish vauni amalda sinab ko`rish bilan pedagogik olim A.R.Xo`jaboyev kuzatishlar, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Uni o`zining “Texnologik ta’limi o`qituvchisini tayyorlashda o`quv metodik majmuuning ilmiy edagogik asoslari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida ushbu ta’minotning turlarini, tuzilishini maqsad va vazifalarini yoritdi. Olim majmuani quyida qismlarga ajratadi:

O`quv ko`rsatmali qo`llanmalar(o`kq)

O`quv metodik adabiyotlar (o`ma)

O`quv ishlab chiqarish laboratoriya jihozlari va materiallar (o`ichj)

O`qitishning texnik vositalari (o`tv)

Demak, umumta’lim maktablarida pedagogik faoliyatni olib boruvchilarni tayyorlash uchun ham alohida tuzilishga, mazmunga ega o`quv uslubiy majmua ham zarur bo`ladi. Yirik pedagogik olima R.Mavlonova o`zining qator chop etilgan materiallarini qo`llanmalarini umumta’lim maktablarining boshlang`ich sinflarida oquv tarbiyaviy jarayonni barkamollashtirish uchun xususan bu sinfdagi mehnat ta’limi va tarbiyasi mazmunini darsliklarda namoyon etishni amalga oshirdi. U o`zining “O`zbekistonda boshlang`ich ta’limning nazariyasi va amaliyoti” deb nomlangan doktorlik disssertatsiyasi ilmiy ma’ruzasi, “Mehnat-2” , “Mehnat-3” , “Mehnat-4” kabi darsliklarida uzluksiz ta’lim tizimida asosoiy bo`g`inlardan hisoblangan boshlang`ich sinflarda mehnat ta’limi darslarining an’anaviy mazmunini belgilashni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

Texnologik ta`limi o`qituvchisi shuni unutmasligi kerakki,o`quv ustaxonasidagi har qanday amaliy mashg`ulotda yuqorida sanab o`tilga mehnat ta`limi tamoyillaridan bitta yiki ikkita emas balki o`quvchilarga o`quv materiallarini sifatli va to`la yetkazib berish imkonini beradigan didaktikaning butun tizmiga amal qilinadi .Texnologik ta`lmi o`qituvchisining didaktik tamoyillaridan mohiron foydalana bilishi ularni bir – biriga to`g`ri bog`lab olib borishida namoyon bo`ladi. O`qituvchi faqat o`qitishning qonuniyatlarini bilishigina emas balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim . Bunga ayrim yetakchi boshlang`ich qonuniyatlarini chuqur tushunish va ularni o`quv jarayonida qo`llash orqali erishiladi . Bunday qonuniyatlar didaktikada ta`lim tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb nom olgan.

O`qituvchining texnologik madaniyatini o`rganishdagi izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo`lish mumkin:

- 1.O`qituvchining adabiyotlarni o`rganish va amaliy ishlar asosida muammoni aniqlash.
- 2.Gipoteza qurish, ya`ni o`qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish;O`qituvchining faktlari va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifini berishi.
- 3.Izlanish natijalarini rasmiylashtirishi va o`quv jarayonida qo`llashi, mehnat ta`limi o`qitish metodikasi kasb tanlashga yo`llashda ilmiy izlanishlarning ummummilliy va maxsus metodlari qo`llaniladi.

Texnologik madaniyat o`qituvchi va o`quvchilarning xatti - harakatlaridan iborat . Bunday faoliyat natijasida o`quvchilar bilim iqtidor va ko`nikmalarga ega bo`ladilar , o`z dunyoqarashini shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradi . Tahsil natijasida o`quvchi shaxsining turli xislatlari shakllantiriladi. Bunday o`zgarishlarni kuzatish , hisobga olish pedagogik tadqiqotlarning asoslaridan hisoblanadi. Yuqoridagi o`zgarishlar , o`qituvchining didaktik faoliyati ta`siridagi va o`z shaxsiy xatti - harakatlari tasiridagi o`zgarishlar orasidagi qonuniyatlarini

ochishga , ularni tahlil qilishga imkon beradi . O`quvchilar va o`qituvchilarning o`quv ishlari sharoitlari, harakatlari, ta`lim mazmuni,metod va vositalari orasidagi bog`liqliklar tabiat qonunlari qanday obyektiv xarakterga ega bo`lsa shunday obyektiv xarakterga egadir.Ta`lim va tarbiyaga taaluqli xatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usul hisoblanishi Yan Amos Konenskiyniying “Buyuk didaktika” va K.D.Ushinskiyning “Inson tarbiya fani sifatida” asarlarida ko`rish mumkin. O`quv tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba faktlarga asoslangan empirik tadqiqoqlar natijalariga asoslanishi zarur. Texnologik madaniyatlardan biri ta`lim va tarbiya birligidir: Masalan, ta`lim jarayonida o`quvchilarni tarbiyalash. Masalan, ; gazlamadan biror buyumni bichishni o`rgatishda buyumni bichish bo`yicha bilimlar ko`nikmalar va malakalar hosil qilish bilan birga gazlamadan tejamkorlik bilan foydalanishni o`rgatish bilan iqtisodiy tarbiya shakllanadi . Yoki tikuv buyumiga moslab bezaklar tanlab , sifatli tikishni o`rgatish bilan o`quvchilarda badiiy tarbiya tikuv mashinasida o`tirib tikayotganda tikuv mashinasiga qarash, sozlangan mashina bilan ishslash ish kiyimiga qarash ish joyini batartib bo`lishiga e`tabor berish orqali axloqiy tarbiya shakllanadi . Kasb ta`limi jarayonida o`tilayotgan katta – kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to`g`ri belgilash va uni ta`lim bilan birga butunlikda amalga oshirishni ta`minlash juda muhum va hal qiluvchi ahamiyatga ega .Texnologik ta`limi darslari o`quvchilarni mehnat vositasida axloqiy tarbiyalash uchun eng munosib obyekt hisoblanadi . Chunonchi otaliq tashkilotining ishab chiqarish buyumlarini o`quv ustaxonalarida o`quvchilar kuchi bilan bajarish ularda topshirilgan ish uchun ma`suliyat va iftixor hissini tarbiyalashga yordam beradi . Bunday buyurtmalarni bajarish natijasida o`quvchilarda bir - birlariga o`zaro o`rtoqlik yordam ko`rsatish umumiylar mehnat natijalari uchun jamoa va shaxsiy ma`lumot , topshiriqni bajarishga tashabbus va ijodkorlik bilan yondashish kabi muhim axloqiy fazilatlar shakllanadi . Ta`lim jarayonida talabalarda asbob - uskunalar, materiallar ustaxona binolariga o`quv vaqtida tejamkorlik bilan munosabatda bo`lish hissi

tarbiyalanadi . o`quv ustaxonalaridagi mehnat madaniyati - ish o`rnini tashkil etish va o`quv mehnat mashg`ulotlarini to`g`ri rejalashtirish , mehnat ta`lim darslarini qo`l asboblari bilan bir qatorda turli moslamalar bilan ta`minlash ham katta ahamiyatga ega , chunki ular faqat o`quvchilarning ish sifatini yaxshilab qolmasan , ayni vaqtida mehnat unumdorligini ham oshiradi.O`qituvchining mehnat usullarni ko`rsatish vaqtidagi shaxsiy namunasi, uning umumiyligi madaniyati o`quvchilar uchun kuchli tarbiyaviy vosita bo`lib hisoblanadi. Texnologik ta`limining tarbiyaviy xususiyati , shundaki mehnat tarbiyaviy vazifalarni o`qitishning mazmuni shuningdek o`quv ishlarini amalga oshirishdan iborat . Har bir taraqqiyot bosqichiga o`tishning shartli faqat mehnat unumdorligini muntazam oshirish va moddiy ne`matlar mo`l - ko`lligini yaratishdan iborat bo`lib qolmasdan , balki yosh avlodda yuksak axloqiy sifatatlarni tarbiyalashdan iborat . Bu eng avvalo jamiyat manfaatlari yo`lida qilinadiga mehnat jarayonida shakllanadi. Texnologik ta`limi darslari o`quvchilarni mehnat vositasida axloqiy tarbiyalash uchun eng munosib obyekt hisoblanadi . Demak o`quvchi nazariy bilimga ega bo`lgandan so`ng , bilimlarni mustahkamlash uchun amaliy mashg`ulotlar o`tkazish davomim ettiriladi . Nazariyani amaliyot bilan bog`lashning har xil shakllaridan foydalanish orqali biz o`quvchilardagi bilim sifatini oshirishga erishamiz. Texnologik madaniyatdagi o`qitishning mazmuni ta`lim metodlariga mos kelishi shunigdek, o`quvchilarning aqliy jismoniy va yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu talabalar o`quv materialllarini qismlarga to`g`ri taqsimlash, obyektiv me`yorlarni to`g`ri belgilash o`quvchilarning muvaffaqiyatli o`qishini ta`minlash maqsadida individual xususiyatlarni hamda qiziqishlarni o`rganish yo`li bilan erishiladi. O`quvchilarning yosh individual xusuiyatlarni o`rganish amaliy ish jarayonida o`quvchilarning ulg`ayishlariga yordam beradi. Demak, texnologik ta`limi bo`yicha o`quv materialllarining mazmuni fan va texnika taraqqiyotining hozirgi darajasiga mos ravishda o`quvchilarga tushunarli bo`lishi kerak. Bundan tashqari o`quvchilarning jismoniy tayyyorgarligini ham nazarda tutish kerak. Dars mavzulari o`quvchiga mos va tushunarli bo`lishi uchun quyidagilar ko`rib o`tilgan:

- a- O'tilayotgan mavzuning ma'nosи va hajmi, amaliy mashg`ulotlari, o`quvchilar tayyorgarligiga jismoniy rivojlanganligiga va yoshiga mos bo`lishi kerak.
- b- Mavzular soddadan murakkablashib borishi kerak. Shuningdek, o`quvchilar bilim doirasini yangiliklar bilan to`ldirib boorish zarur.
- v- Ayrим o`quvchilarga individual yondashsih kerak, chunki o`quvchilarning ayrimlari yangi mavzuni oson tushunsa, ayrimlari qiyinchilik bilan tushunadilar.
- s- Ko`rgazma qurollaridan to`g`ri va o`rinli foydalanish.

Mazkur tamoyillar texnologik ta'limining dasturiga ko`ra o`rganilayotgan materiallarni o`quvchilarga ongli ravishda ijodiy o`zlashtiriladigan qilib tashkil etilishini ko`zda tutadi. Texnologik ta'limining bunday o`tilishiga o`quvchilar dars vaqtida yuksak darajada faollik ko`rsatganlaridagina erishish mumkin. Texnik texnologik bilimlar va mehnat ko`nikmalarini ongli ravishda o`zlashtirish mazkur tushunchalar zamirida yotgan ichki murakkab bog`lanishni anglash, o`rganilayotgan tushuncha va o`zlashitirilayotgan mehnat jarayonlarining eng asosiy muhim jihatlarini farqlay bilishida namoyon bo`ladi. Texnologik ta'limiga tatbiqan aytganda, bu o`quvchilar texnik bilimlar va o`rganilayotgan ishni ish jarayonidagi harakat usullaridan tortib to mehnat jarayonigacha ongli ravishda o`zlashtirishlarida va keyinchalik olingan bilimlarni mehnat hunar usullarini o`qish davrining har bir bosqichida takomillashtirish, o`zlashtirilayotgan bilimlar bajarilayotgan mehnat topshiriqlarning sifatini nazorat qilib borish va hokazolarda ifodalanadi. Texnologik ta'limi mazmunini anglashi yoki tushunarli bo`lishi bu o`quvchilarning o`quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish vaqtida zarur bo`lgan ilmiy, texnik, tashkiliy iqtisodiy asoslarni: stanok, asbob-uskuna, moslama materiallardan oqilona foydalanishi, ishslash rejimi hamda nazorat usulini to`g`ri tanlashni bilib olish demakdir. Masalan, cho`yan yoki po`latni qirqish vaqtida zubilaning o`tkirlanish burchagini nega 60 dan kam olish mumkin emas, uglerodli po`latni qizdirib so`ng, sovitilganda uning tarkibida qanaday jarayonlar ro`y beradi. Metallarni qirqish vaqtida nima sababdan bolg`a dastasini uning metall qismiga yaqin joydan zubilani chap qo`l bilan qattiq

qisib ushslash tavsiya etilmaydi, nima sababdan yo`nalish vaqtida qirqish tezligini chuqurligini va surishni taxminan oshirish mumkin emas kabi savollarga o`quvchilarning to`g`ri javob berishlariga erishish kerak. Texnologik ta`lim darslaridagi o`quvchilarning yuksak faolligiga har bir mashg`ulotning maqsad va vazifalari, shuningdek, uning mazmunini aniq bayon etish o`quvchilarga ijodiy tarzdagi mehnat topshiriqlarini berish, ta`limning eng samarali metodlaridan foydalanish natijasigagaina erishish mumkin. Chunonchi, texnologik ta`limi darslarida zamonaviy texnika modelini ishlash jarayonida o`quvchilarga modelning alohida uzel va detallarini konstruksiyalash hamda tayyorlash, modellar va uzellar orasidagi kinematik aloqani ta'minlash, va hokazolar yuzasidan ijodiy tarzdagi topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlar o`quvchilarda mehnat ta`limi darslariga qiziqish maqsadga erishish yo`lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda faoliik ko`rsatish istagini uyg`otadi. Shunday qilib texnolgik madaniyatda, onglilik va faoliik tamoyillariga o`quvchilarga mustaqil ijodiy ishlarni atroficha singdirishni taqozo qiladi. O`qitish o`quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqil tarbiyalanadigan tarzda olib borishi kerak. Bu xislatlar o`quv mashg`ulotlaridan ko`zda tutilgan maqsad va vazifalarni oddiy bayon qilib berilishi o`quv materiallarining ongli o`zlashtirilishi, nazariy va ishlab chiqarish ta`limining bog`liqlikda olib borishi natijasida vujudga keladi. Mazkur, tamoyillar mehnat va hunar ta`limining dasturiga ko`ra o`rganilayotgan materialarni o`quvchilar ongli ravishda ijodiy o`zlariladigan qilib tashkil etilishini ko`zda tutadi. Mehnat va kasb ta`limining bunday bo`lishiga o`quvchilar dars vaqtida yuksak darajada faoliik ko`rsatganlaridagina erishish mumkin. Texnologik darslarida o`quvchilarni yukak faolligiga har bir mashg`ulotning maqsad va vazifalarini shuningdek, uning mazmunini aniq bayon etish, o`quvchilarga ijodiy tarzdagi mehnat topshiriqlarini berish ta`limning eng samarali metodlaridan, foydalanish natijasida erishish mumkin.

Texnologik madaniyatning ko`rgazmaliligi. Mazkur tamoyil texnologiyaga doir o`quv materiallarini o`quvchilar o`rganilayotgan hodisa va jarayonni jonli idrok etish asosida o`zlashtirishlari bilan bir qatorda ularda abstract tafakkurni shakllantirishni ham ko`zda tutadi, Texnologik ta`limi darslarida ko`rgazmali

vositalar sifatida ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar uyushtirish, mehnat usullarini plakatlar, sxemalar, jadvallar namuna buyumlarini ko`rasatish, o`quv kino filmlari, diofilmlar, diopozitivlar, informatika EHM va hokazolarni namoyish qilish, texnologik ta'limida ko`rgazmali vositalardan to`g`ri foydalanish o`quvchilarning texnik bilimlarni puxta o`zlashtirib olishlariga ularda mehnat ko`nikmalari va malakalarining hosil bo`lishiga yordam beradi. Ko`rgazmalilik tushunchasi faqat o`z ko`zi bilan ko`rish mumkin bo`lgan vositalarnigina emas, balki eshitish, sezish va idrok etishning boshqa turlarini ham o`z ichiga oladi, ko`rgazmalilik o`quvchilarning o`rganilayotgan o`quv materialiga qiziqishini oshiradi, ana shu obyektga e'tiborni jalb qiladi. Kuzatuvchanlik va faol idrok etish sifatlarini rivojlantiradi. Masalan, mehnat usullari va jaryonini tushuntirish vaqtida mehnat ta'limi o`qituvchisi, muayyan mehnat usullarini ko`rsatishda rangli plakatlardan foydalanibgina qolmasdan baki ish-harakatlar va jarayonlarni bajarishni ko`rsatadi. Bunda u o`quvchilarning e'tiborini ish joyida gavdani qanday tutish va asboblarni qanday ushslash kerakligi harakatlarni bir maqsadga qaratish kabilarga jalb qilinadi. Biroq mehnat ta'limi darslarida ko`rgazmali vositalardan foydalanishga katta ahamiyat berib unda haddan tashqari, o`rin ajratish, foyda o`rniga zarar keltirishni ham unutmaslik kerak. Shu sababli ko`rgazmali vositalardan foydalanganda bir qator metodik talablarga rioya qilish zarur.

- 1.Ko`rgazmali qurollar, darsdagi o`quv materiali mazmuniga mos kelishi kerak.
- 2.Darsda foydalaniladigan barcha ko`rgazmali qurollarni birdaniga osib ko`rsatib qo`yish yaramaydi.Chunki bu o`quvchilar diqqat e'tiborini chalg`ishi olib kelishi mumkin.
- 3.Darsni ko`rgazmali qurollar bilan haddan tashqari to`ldirib yubormaslik kerak;
- 4.Ko`rgazmali qurolni ko`rsatish vaqtida mehnat o`qituvchisi o`quvchilarning bu qurolini idrok etish jarayonini boshqarib borishi lozim.

Biroq o`quvchilarning ko`rgazmali qurollar yordamida sezib idrok etishi, bilishning boshlang`ich bosqichidir, xolos.Bilish jarayoning navbatdagi bosqichi

abstract tafakkurdir. Bu texnologik madaniyatda o`qituvchining yangi ish jarayonini tushuntirishi va mehnat usullarini ko`rsatishi, o`quvchilarning faol ish yuritishi bilan olib borilishida namoyon bo`ladi. Garchi o`quvchilarning mehnatga doir o`quv materialini o`rganishda aniq idrok etishi ustunlik qilsa ham, har xil yoshdagi abstark tafakkur elementlarini ham, tarbiyalashni unutmaslik kerak. Bunda maxsus ishlab chiqilgan konstruktorlik, texnologik tarzdagi topshiriq o`quvchilardan, hisob kitoblar qilish, detallar eskitzlarini ularni tayyorlashning texnologik jarayonlarini etuzishnigina emas, balki konstruktorlik yechimlarini amalga oshirishni ham talab qiladi. Shunday qilib, texnologik ta'limdi aniq idrok etish bilan abstarkt tafakkur o`zaro bog`lanishda ta`sir ko`rsatadi.

O'qituvchining uslubiy madaniyati taqdimoti. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining uslubiy madaniyatini uning kasbiy tayyorgarligi.

Kasbiy pedagogik madaniyat - bu pedagogik kasbga ega bo'lgan, uning umumiyligi madaniyatini loyihalashtiradigan o'qituvchi shaxsining ajralmas sifati. Bu ustozning yuqori professionalligi va ichki xususiyatlarining sintezi, o'qitish usullarining mohirligi va madaniy va ijodiy qobiliyatlarning mavjudligi. Bu insoniyat tomonidan to'plangan tajribani ijodiy o'zlashtirish va o'zgartirishning o'lchovidir. Pedagogik madaniyatga ega, pedagogik tafakkur va ong yaxshi rivojlangan, ijodiy salohiyatga ega bo'lgan o'qituvchi.

1. Madaniyat pedagogik fikrlash- ham pedagogik, ham ijtimoiy voqelikni chuqr nazariy tushunishga asoslangan. Bu pedagogik jarayonni rivojlantirish tamoyillari, kasbiy faoliyat natijalarini oldindan bilishdir. Pedagogik fikrlashning xususiyatlari: moslashuvchanlik, muqobililik, ijodkorlik.

2. Madaniyat pedagogik ish kasbiy mahorat va ko'nikmalarni yuqori darajada egallashni, ijodiy bo'lish qobiliyatini nazarda tutadi.

3. Madaniyat o'qituvchining ijodi- nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning butun to'plamidan foydalanishni, tashqi tanish vaziyatda yangi muammoni va uni hal qilish yo'llarini izlashni, yangi pedagogik muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlashni o'z ichiga oladi.

4. Madaniyat pedagogik aloqa- o'qituvchining atrofdagilar bilan munosabatlari me'yorlarini mazmunli rivojlantirish. Ushbu me'yorlarga amal qilgan holda, o'qituvchi his-tuyg'ularini, irodasini, xarakterning shaxsiy namoyonliklarini va boshqalarini tuzatadi.

5. Madaniyat nutqlar aloqa madaniyati bilan bog'liq.

Shuning uchun o'qituvchining so'zi talabalarga ta'sir qilishning eng muhim vositasidir.

Quyida o'qituvchining nutqiga ilova qilinadi talablar:

- a) shakl va tarkibdagi izchillik;
- b) to'g'ri (fonetika, grammatika);
- v) hissiy ekspressivlik;
- d) so'z boyligining boyligi va boshqalar.

O'qituvchining kasbiy vakolatlari.

Kasbiylik, malaka tavsifi , kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetentsiya. Ushbu tushunchalar deyarli bir xil, mohiyatiga mos keladi. Shunday qilib, kasbiy kompetensiya - bu kasbiy bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar (tarkib); bular nazariy va amaliy tajriba darajasidir.

Adabiyotda kasbiy vakolat uning vakili hisoblanadi *turlari*:

Maxsus vakolat - amaldagi kasbiy faoliyatni yetarlicha yuqori darajada egallash;

Ijtimoiy kompetentsiya - bu kasbda qabul qilingan birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlik, aloqa texnikasi, ish natijalari uchun ijtimoiy javobgarlik;

Shaxsiy kompetentsiya - shaxsiy o'zini o'zi ifoda etish, o'zini o'zi rivojlantirish va o'z taqdirini o'zi belgilash uslublarini, shaxsning kasbiy deformatsiyalariga (professional xavf-xatarlarga) qarshi turish vositalarini mohirona qo'llash;

Kasbiy kompetentsiya - kasb doirasida o'zini anglash va shaxsni rivojlantirish texnikasini o'zlashtirish, kasbiy o'sishga tayyorlik, individual o'zini himoya qilish, kasbiy qarish (turg'unlik) ga sodiqlik, ishingizni oqilona tashkil etish qobiliyati.

Umuman olganda, kasbiy kompetentsiya:

a) ilmiy va nazariy tayyorgarlik;

b) amaliy tayyorlik.

Pedagogik bilim va pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy mahoratining tuzilishini belgilaydi. Adabiyotda o'qituvchining kasbiy mahoratining turli xil modellariga duch keladi. Eng yorqin model o'qituvchining pedagogik mahoratini aniqlash bilan bog'liq. Ushbu model nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligini anglatadi. Bu erda ko'nikmalar mahorat guruhlariga bo'linadi:

- 1. Konstruktiv** - pedagogik vazifalarni belgilash qobiliyati (tahlil qilish, natijalarni prognozlash, harakatlarni rejalashtirish).
- 2. Tashkiliy** - pedagogik jarayonni amalga oshirish bilan bog'liq pedagogik harakatlarni dasturlash qobiliyati.
- 3. Kommunikativ** - pedagogik jarayonni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim sohasidagi pedagogik harakatlarni bajarish qobiliyati (pertseptual qobiliyatlar, aloqa qobiliyatları, pedagogik texnikalar, refleksiv ko'nikmalar).
- 4. Gnostik** - vaziyatni hisobga olish, pedagogik jarayonni baholash bilan bog'liq muammolarni hal qilish natijalarini o'rganish qobiliyati (refleksiv ko'nikmalar, tahliliy, prognostik, proektsion).

SHAXSIYLIKNING PEDAGOGIK MADANIYATI

1. Umumiy madaniyat - bu o'qituvchining professionalligi shartidir

2. Ilmiy bilim, qadriyat yo'nalishlari pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida

3 . Pedagogik ishning etikasi va estetikasi

4 . Pedagogik ijod va mahorat

O'qituvchi tomonidan kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy sharti - o'qitish, o'qitish va tarbiya - bu shaxsiy (individual) pedagogik madaniyat. Zamonaviy tadqiqotchilar (V.L.Benin, E.V. Bondarevskaya, K.M. Levitan, N.V. Sedova va boshqalar) insonning pedagogik madaniyatini integratsiya, o'qituvchilik faoliyatining yuqori darajasini ta'minlaydigan tabiiy va orttirilgan shaxs xususiyatlarining sintezi deb bilishadi. bo'sh o'qituvchi, ish beruvchi - umuman, so'zning keng ma'nosida o'qituvchi. E'tibor bering, ushbu bobning sarlavhasida "madaniyat" asosiy tushunchadir. Uning talqini bizning ko'zgu mavzusi bo'lgan madaniyat turlaridan birining mazmuni va xususiyatlarini tushunishimizga imkon beradi. Madaniyatning ko'plab ta'riflari orasida ushbu tizimli ijtimoiy hodisani odamlar tomonidan yaratilgan qadriyatlar jamg'armasi sifatida ham, dunyonи ijodiy o'zlashtirish, shaxsning, ijtimoiy guruhning muhim kuchlarini anglab etishning yo'li sifatida talqin qiladiganlar eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Shunday qilib, madaniyat ma'naviyatning markazidir, yaratilish energiyasi, hayotning turli sohalarida erishilgan yutuqlarning eng yuqori mezoni. Jamiyat madaniyati (sivilizatsiyaning jami mahsuloti) va shaxsiyat xususiyatiga ega bo'lgan va jamiyatning muayyan a'zosining mulki bo'lgan shaxs madaniyatini farqlash kerak. Sotsiologlarning fikriga ko'ra (va bunga rozi bo'lishning iloji yo'q) shaxsning madaniy darjasni, avvalambor, shaxsiyatning prizmasidan, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida umuminsoniy qadriyatlarni "o'zlashtirish" o'lchovi bilan belgilanadi.

O'qituvchining umumiy madaniyati uning malakasi va kasbiy o'sishi uchun tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Keling, o'zimizga shunday savol beraylik: "Cheklangan dunyoqarashli odamga ta'lim va tarbiya kabi nozik, mas'uliyatli, ahamiyatli ishni ishonish, hissiy tajribaning kamligi, dogmatik fikrlash, yomon odatlarga ishonish mumkinmi?" Salbiy javob aniq. Pedagogik aloqa sohasida bu

o'qituvchi, tarbiyachining insoniy fazilatlari bo'lib, ular ma'naviy shakllanish manbai yoki yomon misolga taqlid qilish ob'ektiga aylanadi. Madaniyat, shu jumladan ma'lum pedagogik fazilatlar o'ziga xos dunyoqarashga, xarakterga, ijodiy potentsialga ega bo'lgan shaxs bo'lganligi sababli, bu fazilatlar individual rangga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, pedagogika klassiklari tomonidan o'qituvchi, tarbiyachining shartsiz ustuvorligi, uning pedagogik ta'sir ko'rsatish tizimidagi shaxsiy namunasi haqida bir necha bor ta'kidlangan fikrni eslash o'rinnlidir. V. A. Suxomlinskiy yozganidek, hech narsa ajablantirmaydi, o'spirinlarni o'ziga jalb qilmaydi, bunday kuch bilan hech narsa aqli, intellektual jihatdan boy va saxovatli odamdan yaxshiroq bo'lish istagini uyg'otmaydi. Ong ong, ong - vijdon, vatanga sadoqat - vatanga samarali xizmat qilish orqali tarbiyalanadi.

O'qituvchining umumiyligi madaniyati tarkibiga nimalar kiradi! Bular, birinchi navbatda, uning hayotga bo'lgan munosabati (A.S. Makarenko istiqbolli yo'nalish deb atagan) va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorliklari - Haqiqat, Sevgi, Mehribonlik, Go'zallik, Ozodlik va boshqalar. Biz madaniyatli shaxsni ish, bilim, san'at, sport, tabiat bilan aloqa qilishda keng ma'naviy va jismoniy ehtiyojlarga ega inson deb ataymiz; etarli ilmiy, siyosiy, badiiy dunyoqarashga ega bo'lish; jamiyatda, ishlab chiqarishda, uy sharoitida qabul qilingan xulq-atvor normalariga rioya qilish. Shaxsning umumiyligi madaniyatining yadroси ularning uyg'un birligida ta'lim va tarbiya. Agar ta'limning asosi inson tomonidan to'plangan va dunyoning yaxlit manzarasini taqdim etishga imkon beradigan nazariy va o'ziga xos bilimlar jamg'armasi bo'lsa, unda ta'limning mohiyati mehnat, xulq-atvor va kundalik hayot madaniyatida boshqalarga nisbatan insoniy munosabatdir. Bu erda A.P. Chexov o'z ukasi Nikolayga kasb-hunar bo'yicha rassomga qanday yozganligi haqida shunday yozadi: "Yaxshi tarbiyalangan odamlar ... inson shaxsiyatini hurmat qiladilar, shuning uchun ular doimo xushmuomala, muloyim, muloyim va xushmuomala ... Ular hatto arzimas narsalarda ham yolg'on gapirishmaydi. Yolg'on tinglovchini g'azablantiradi va uni ma'ruzachining nazarida qabih qiladi ... Ular kiyimlarida uxmlay olmaydilar ... iflos havodan nafas oladilar, sochilgan polda yuradilar ... iroda ... Bu erda har bir soat

juda qadrli ... ". O'qituvchining umumiy rivojlanish ko'rsatkichi uning kognitiv jarayonlar darajasi: fikrlash, e'tibor, idrok, xotira, tasavvurdadir.

Kasbiy pedagogik faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan hissiy-irodaviy sohaning rivojlanishi, hissiyotlarning boyligi va "intizomi", ya'ni o'zini tuta bilish, kayfiyatga berilmaslik, aqlning ovozini tinglash qobiliyati bilan belgilanadi. Hissiy madaniyatga ega odam aqliy sezgirlikka, empatiyaga xosdir, bu ko'pincha turli xil ta'lif vaziyatlarida zarurdir. Maxsus tadqiqotlar va amaliyotlar o'qituvchi fe'l-atvori xususiyatlarining muhimligini tasdiqlaydi. Energiya, muloyimlik, mustaqillik, nekbinlik va hazil tuyg'usi kabi fazilatlar didaktik va tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi. Aksincha, befarqlik, izolyatsiya, hayotni salbiy idrok qilish tendentsiyasi pedagog xodimning kasbiy qobiliyatsizligi uchun zarur shartdir.

O'qituvchi shaxsining umumiy rivojlanishida yetakchi o'rnlardan birini uning axloqiy xususiyatlari egallaydi, bu insonning tashqi dunyo bilan aloqasini yaxshilik va yomonlik mezonlari asosida belgilaydi. Madaniyat tarixi axloqning "oltin qoidasini" lakonik tarzda belgilashga qaratilgan ko'plab urinishlarni biladi. KA Gelvetius buni odamlar va haqiqatga bo'lgan muhabbat bilan taqqoslagan; L. Betxoven - mehribonlik bilan; L.N.Tolstoy - odamning iloji boricha boshqalarga berish istagi bilan, deb ta'riflab kelishgan.

Amaliy jihatdan texnologiya sohasidagi bilim–texnologiyalar transferi bilan bog'liq, keng ma'noda kelajak avlodni yuz berishi mumkin bo'lgan texnologik o'zgarishlar bilan ishlashga tayyorlashda, jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning harakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Shunga ko'ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilishi lozim. Har bir talabada zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun oliy ta'liming texnologiya ta'lif yo'nalishida va hatto boshqa yo'nalishlardaham ta'lif va tarbiyani rivojlantirish lozim. Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralarini kengaytirish, zamonaviy bilim bilan qurollantirish va jismoniy mehnatni har tomonlama uyg'unlashtira olishga o'rgatishdan iboratdir. Texnologik ta'limi va kasbga tayyorlash vazifalari oliy

ta’limda butun ta’lim va tarbiya tizimida hamda barcha o’quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o’rinda texnologik ta’lim darslari yetakchi rol o’ynaydi. Oliy ta’limdagи texnologik ta’limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va ruhiy taylorlash, o’quvchilarni boshlang’ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy taylorlashlardan iboratdir.

Mehnatga axloqiy taylorlash – talabalarni jamoada ishlashni, o’zaro do’stona yordamni, ijodiy tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish, mehnat kishilari va mehnat natijalarini hurmat qilishga o’rgatishdan iboratdir.

Mehnatga ruhiy taylorlash - Mehnatga ruhiy taylorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko’p qirrali jarayon bo’lib, u butun ta’lim va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lsada mehnatga axloqiy taylorlashga juda yaqindir.

Mehnatga ruhiy taylorlash – talabalarni mehnatga ruhiy taylorlash va unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy musbatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko’nikmalarni egallahsga qiziqishini shakllantirishdan iboratdir. O’qituvchining vazifasi o’quvchilarga yoshligidan boshlab mehnatning yaxshi tomonlarini singidirishdir. Talabalarni mehnatga qobiliyati har bir kishi uchun zarur bo’lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini anglashlari juda muhimdir. Mehnat ruhiy taylorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib-anglash, psixomotor, emotsiyalidir. Mehnatga o’rgatishda talabalarning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari talabalarning xotirasini o’stirish ham alohida ahamiyatga ega. Texnologik ta’lim fani bo’yicha o’quv materiallarni eslab qolish boshqa predmetlarga nisbatan o’ziga xos xususiyatlarga ega. Barcha yangi asboblar, materiallarni, opreatsiyalarning so’z nomini, predmetini ko’rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar, tushunib oladilar. O’qituvchi mehnat darslarida faqat tushuntiribgina qolmay, balki asosan materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni metarialga ishlov berish usullarini, ish bosqichlarini izchillagini ko’rsatadi. Shunung uchun texnologik

ta’limida eshitish, ko’rish hotirasi va harakatlanuvchi xotira muhim rol o’ynaydi. O’quvchilarda mehnat darsidan mehnat darsigacha yangidan-yangi bilim va ko’nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash va xotiralab qolish kerak. Texnologik ta’lim fanini to’g’ri tashkil etish talabalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo’yilgan maqsadga erishish yo’lida matonat va qattiyat bilan kirishishga, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o’rgatish lozim. Bu o’rinda ijobjiy natijalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo’lishi juda muhimdir. Mehnatda shaxsning qiziqish, qobiliyat, intiluvchanlik kabi shaxsiy psixologik xususiyatlari shakllanadi. **Mehnatga psixologik va axloqiy tayyorlash** – bu jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir. Talabalarni mehnatga amaliy tayyorlash. Boshlang’ich tushunchalarni keng ma’nodagi ilmiy asoslar haqida emas, politexnik ta’limning elementlari to’g’risida gap boradi. Bu talabalarda fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg’onishiga yordam beradi. Biroq, umum ta’lim predmetlarini o’qitish texnologik ta’lim darslarini ma’lum darajada politexnik asoslarda, darsdan darsga politexnik bilimlarni qo’shib olib borishga yordam beradi. Politexnik tayyorgarlikka ega bo’lib, qo’yilgan mehnat vazifalarini bajarishda asboblardan to’g’ri foydalanishga yordam beradi. Shuningdek bu tayyorgarlik kerakli ishlab chiqarish bosqichlarini qanday va qaysi izchillikda amalga oshirish, qanday asboblarni qo’llash va undagi sabablarin anglashga ko’maklashadi. Mehnat bo’yicha dasturning istalgan bo’limini o’tishda o’qituvchi bolalarga mahlum hajmdagi politexnik bilimlarni beradi. Boshlang’ich politexnik bilim bilan qurollantirish talabalarga predmetni yasash, ishlov berilayotgan materialning xususiyatlari, texnologik o’ziga xosliklari, materialga qo’lda ishlov berilganda qo’llaniladigan asbob moslamalarning xususiyatlari, ulardan foydalanish qoidalari haqida ma’lumot berishdan iboratdir. Politexnik bilimlar asosan boshlang’ich sinf o’quvchilarida fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg’otadi. Talabalarga berilayotgan politexnik bilim, amaliy ko’nikma va malakalarga o’rgatishni ma’lum nazariy darajada amalga oshirishga imkon beruvchi zamindir. Mehnat malaka va ko’nikmalarini bilan qurollantirish. Mehnatga amaliy tayyorlash texnologik ta’limining muhim omillaridan biridir. U o’zaro bog’langan bir nechta

elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'irlay olish kabilardan tarkib topadi. Mehnatga amaliy tayyorlash faqat kerakli bilimlar bazasida amalga oshishi mumkin. U oliv ta'limda boshlang'ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Texnologik ta'limining mazmuniga muvofiq talabalarda mazkur yosh uchun qulay bo'lgan materiallarga ishlov berishda qo'llaniladigan oddiy asbob va moslamalarni ishning amaliy malaka va ko'nikmalarini egallaydilar. Oddiy asbob va moslamalar maxsus asbob va moslamalarning bosh asosi hisoblanadi. Amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rgatish ham demakdir. Talabalardagi mehnatga bo'lgan qiziqishni o'z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg'ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir.

Nazorat savollari:

1. O'quvchilarda loyihalash va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish madaniyatini shakllantirish o'rni ?
2. Kasbiy pedagogik madaniyat - bu ?
3. Shaxsiy kompetentsiya – bu ?
4. Ijtimoiy kompetentsiya – bu ?
5. Kasbiy kompetentsiya – bu ?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Texnologii vospitaniya i obucheniya: Uchebnoe posobie dlya stud. vysssh. T38 ucheb. zavedeniya / N.N. Nikitina, V.G. Balashova, O.M. Jeleznyakova, N.M. Novichkova; Pod red. N.N. Nikitinoy. – Ul'yanovsk: UlGPU, 2011. – 210 s. (5-12 betlar)
2. Isaev V.F. Professional'no-pedagogicheskaya kul'tura prepodavatelya. Ucheb. posobie dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniya. - M.: Izdatel'skiy tsentr «Akademiya», 2002. - 208 s. (16-22 betlar)
3. Rubtsova Ye.T. Texnologicheskaya kul'tura v vysshem pedagogicheskem obrazovanii. (1-7 betlar).

3-MARUZA MASHG'ULOTI.

Mavzu:3 Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning madaniy-texnologik aspekti

Mavzu rejası:

- 1.Madaniyatning ziddiyatli tomonlari.
- 2.Zamonaviy madaniyat haqidagi g'oyalarni kengaytirish.
- 3.Jamiyatning texnologik madaniyati. Ishlab chiqarish madaniyati.
- 4.Fanda madaniyat haqida.

Tayanach tushunchalar: madaniyat, ziddiyat, ijtimoiy, mehnat, falsafiy, diniy, g'oya, qobiliyat, moddiy natija, investitsiyalar.

Madaniyat deyilganda , mehnat quollarini yaratish va ulardan foydalanish fan-texnika yutuqlari va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish , kishilarning ishlab chiqarish va ijtimoiy ko'nikmalarini, mehnatni ijtimoiy tashkil etish, salomatlikni saqlash ishini yo'lga qo'yish aholi o'rtaida bilimlarning yoyilish darajasi va oliy ta'limni amalga oshirish, ijtimoiy , falsafiy, diniy g'oyalar va shu kabilar nazarda tutiladi. Ko'rindiki ,madaniyat odamzod aql-idrokining eng yuksak cho'qqilarigcha bo'lgan narsalarning hammasini qamrab oladi. U inson faoliyatining faqat moddiy natijalarinigina emas shu bilan birga kishilarning mehnat jarayonida voqe' bo'ladigan bilim boyliklari, tajribalari, qobiliyatları, ishlab chiqarish va kasb malakalari, o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish

madaniyati – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lган moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulaotlar) ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljallangan tovorlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Kishilik jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi. Ishlab chiqarish jarayoni 3 element - mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bo'lishini taqozo etadi.

Ishlab chiqarish madaniyatining eng muhum tushunchalaridan biri xodimlar mehnatini tashkil etishda ish beruvchining oldida turgan dolzarb masalalardan biri xodimlar uchun talabga javob beradigan va o'z navbatida xodimlarni korxonada muqim qolishga harakat qilishlari uchun bir vosita bo'ladigan mehnat sharoitlarini yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasida xavfsiz va qulay mehnat sharoitida ishlash yuzasidan fuqarolarning huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab quyilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 37- modda: Har bir shaxs mehnat qilish erkin kasb tanlash adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadirlar.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksida ham mehnat munosabatlarida xodimning mehnat sharoitlarini yaxshilash masalasiga to'xtalib o'tilgan. 211 – modda . Mehnatni muhofaza qilish talablari. Barcha korxonalarda xavfsiz va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak. Bundan sharoitlarni uaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi. Bularning barchasi ishlab chiqarish madaniyatining shakllanishidan darak beradi.

Madaniyatning ziddiyatlari tomonlari deganimizda - taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf qilinishi jarayonidan iborat. Shunga ko'ra, ziddiyatlarning ko'rinishi ham har xil bo'lib, ular narsa-hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha ahamiyat kasb etadi. Ziddiyatlar ichki, tashqi, asosiy, asosiy bo'lмаган каби ко'rinishlarga bo'linadi. Jumladan:

Ichki ziddiyatlar - narsa va hodisalardagi ichki jarayonlaming ifodasi, harakatlanishning manbai hamda rivojlanishning asosiy sababidir.

Tashqi ziddiyat - narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning ifodasi hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishining mazmuni va mohiyati ham asosan ichki ziddiyatlaming hal qilinishi bilan belgilanadi. Biroq rivojlanishda tashqi ziddiyatlaming ishtiroki kamroq bo'ladi, degan fikrga bormaslik kerak. (Zero, globallashuv va integratsiya jarayonlarida tashqi ziddiyatlarning ham o'z o'rni bor). Narsa-hodisalarning mohiyatini, holatini, kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilovchi ziddiyatlar esa asosiy ziddiyatlar deb ataladi. Asosiy ziddiyatlar taraqqiyotda belgilovchi (boshqaruvchilik) vazifani bajaradi va barcha boshqa ziddiyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatdagi ziddiyatlar turli shakl va usullar bilan bartaraf qilinadi. Ulardan ba'zilari eskining yemirilishi va yangining vujudga kelishi asosida hal qilib borilsa, boshqalari shu ziddiyatni tashkil qilgan qarama-qarshi tomonlarni o'zaro kelishtirish, murosa-yu madoraga keltirish, hamjihatlik va hamkorlikka erishish yo'li orqali hal qilinishi mumkin. Keyingi vaqtida jamiyatdagi ziddiyatlarni hal qilishda qo'llanilayotgan samarali tamoyillardan biri o'zaro kelishuv, murosa- yu madora tamoyilidir. Ziddiyatlarning turlarini bir-biridan farqlash kerak, biroq ular o'rtasida chegara qo'yib bo'lmaydi: voqelikda ular o'zaro chirmashib ketadi va bir-biriga o'tib turadi. Shuning uchun ziddiyatlarning har biriga aniq yondashish, ziddiyat namoyon bo'ladigan sharoitni, muhitni, vaziyatni to'g'ri aniqlash lozim. Ziddiyat qonunlariga mantiqiy nuqtai-nazaridan yondashsak, unda ikki qarama-qarshi fikr ayni bir vaqtida va ayni bir nisbatda to'g'ri bo'lishi mumkin emasligini kuzatamiz. "Ziddiyat qonuni tafakkur rivojida qarama-qarshi flkrlar to'qnashuvini inkor etmasdan, bir vaqtning o'zida bir predmet haqida ikki zid fikrga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi, ya'ni vaqt, predmet, nisbat jihatdan birlikni nazarda tutadi" Masalan, yaxshilik va ezgulik tushunchalari o'rtasidagi munosabatda ziddiyat unsurlari ko'rinxaydi, ular bir- birini doimo to'ldirib boradi. Lekin ikkala tushuncha ham axloqning ijobiy sifatlari hisoblansada, yaxshilik bu ezgulik darajasidagi tushuncha emas. Ziddiyat shundaki, axloqshunoslik etika faniga doir rus tilidagi adabiyotlarda ezgulik tushunchasi bilan yaxshilik tushunchasi aynanlashtirib yuborilgan. Yaxshilik ma'lum birpaytda muayyan kishilar uchun ijobiy xususiyat kasb etadi, ayrim kishilar uchun yomonlik bo'lib xizmat qiladi va salbiy holatlarni vujudga keltiradi. Ezgulik esa mutlaqo ijobiylikka asoslanadi. Har birimiz ziddiyatli holatlarga duch kelganmiz. Ziddiyatlar

ijtimoiy guruh va institutlarning barchasida hamda insonlararo munosabatlarda uchrab turadi. Buning ajablanadigan joyi yo‘q. Shuni aytish kerakki, har qanday dahoning tug‘ilishi va shakllanishi ziddiyatlarsiz kechmaydi. Masalan, olmon faylasufi Fridrix Nitsshe hayoti davomida bunday ziddiyatlarga juda ko‘p duch keldi. Xususan, Germaniya ilmiy jamoatchiligi Nitshening ilk davr filologik tadqiqotlarini ancha-muncha hurkib-cho‘chib, yuragi orqaga tortib qarshi oldi. Chunki uning favqulodda o‘tkir, serhayqiriq, fantaziya jo‘sh urgan asarlarini to‘g‘ri baholashga hamma ham birday qodir emas edi. Nitshening “Bemavrid mulohazalar” degan to‘rt kitobdan iborat asari Germaniyanigina emas, butun Evropani zabit etdi. Unda fikrlar va original qarashlar dunyosi xuddi Somon yo‘lidek jimirlab ochildi. Evropada yangi tafakkur fenomeni yuzaga kelganligidan darak berdi. Bu asaming birinchi - uchinchi kitoblari ustida Evropada babs qizigandan qizidi. ‘Nitshening ko‘p kuchli g‘oyalariga qo‘shilmagan va ularni «hazm qilolmagan» Vagner va ustoz Richl bilan yosh mutafakkir o‘rtasida ixtiloflar chiqdi. Oralari uzilish darajasiga yetdi”1... Amerikalik psixolog B.Vul aytganidek, “ Hayot cheksiz ziddi- yatlarni hal etish jarayoni. Inson ularni chetlab o‘ta olmaydi, faqat - gina ularni hal etishi yoki uni bartaraf qilishning o‘zgacha usulini tanlaydi”. Shuning uchun har bir rahbar ularning paydo bo‘lishi va hal etish yo‘llarini bilishi lozim. Afsuski, ko‘pchilik odamlar mazkur holatlarda odilona yo‘l topa olmaydilar, ziddiyatlami chetlab o‘tishga harakat qiladilar. Ziddiyatlami chetlab o‘tish ziddiyatni bartaraf qilish degani emas. Bundan tashqari, ziddiyatli vaziyatning vujudga kelishi jamiyat va inson uchun ham moddiy ham ma’naviy zararni olib keladi. Ziddiyat tushunchasi barcha sohalarda, barcha jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, ziddiyat psixologiyada bir-biriga qarama qarshi fikrlarning alohida individlar, guruqlar hamda shaxslararo munosabatlaridagi ruhiy kechinmalar bilan bog‘liq hodisalar deb ta’riflanadi. Ziddiyat mantiqda - muhokama yuritishda, matnda va nazariyada biri ikkinchisini inkor etadigan ikki mulohazaning mavjudligi tushuniladi. Ziddiyat dialektikada - predmet va hodisalarga obektiv ravishda xos bo‘lgan bir butunning qarama-qarshi tomonlari, belgilari, yo‘nalishlari o‘rtasidagi muhim munosabatlardan iborat. Ziddiyat badiiy asarda turkum qahramonlarning intilish va holatlaridan, alohida

qahramonlar to‘qnashuvidan, shuingdek, aniq bir qahramolining o‘zida kechadigan psixik holatda maydonga keladi. Shuning uchun ziddiyat hayotdagi real qarama-qarshiliklarning badiiy ifodasidir. Asarda esa u syujetni harakatga soluvchi kuch, rivoj beruvchi asosdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ziddiyat muomalada - insonlar o‘rtasidagi muloqotlarda — so‘zlashish, fikr almashish, muzokara olib borish, bahslashishda biri ikkinchisini inkor etadigan ikkita muomala natijasida vujudga keladi. Shuni ta’kidlash lozimki, ziddiyatli vaziyatlar asosida alohida shaxslar va guruhlarning qarama-qarshi fikrlari, maqsadlari hamda shu maqsadlarga erishishning vositalari yotadi. Ijtimoiy psixologiya ziddiyatlaming manbaiga qarab, uning bir necha turlarga ajratadi. Masalan, ziddiyat ichki-shaxsiy (O’qituvchi bilan talaba o‘rtasida) shaxs-tashkilot (shaxslar, guruhlar va tashkilot o‘rtasida) bolishi mumkin. Shuningdek, ziddiyatlaming gorizontal tasnifi ham mavjud (bir—biriga bo‘ysinmaydigan xodimlar o‘rtasida), vertikal (bir-biriga bo‘ysinuvchi xodimlar o‘rtasida) va aralash turdag'i ziddiyatlar ham mavjud. Kundalik hayotda vertikal va aralash turdag'i ziddiyatlar uchrab turadi. Agar bunday ziddiyatlar jamoada 70-80% ni tashkil etsa, bu rahbar uchun xavfli hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda rahbarning har qanday harakatlari ziddiyatlar prizmasi orqali olib qaraladi. Muomala madaniyatida ziddiyatlar anglashilmovchilik, bir- birini tushunmaslik hamda o‘zaro manfaatlarto‘qnashuvi natijasida kelib chiqadi. Shuningdek, ziddiyatlami keltirib chiqaruvchi sabab- larning xususiyalariga qarab tavsiflash mumkin. R.L.Krichevskiy o‘zining «Agar siz rahbarsiz” kitobida ziddiyatlami keltirib chiqaruvchi omillarni 3 ta guruhga bo‘ladi:

Birinchi guruh — mehnat jarayonidagi ziddiyatlar.

Ikkinchi guruh — insonlararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ya’ni simpatiya va antipatiya, madaniy-etnik xilma- xillik, rahbar xatti-harakatlari, psixologik moslasha olmaslik va hokazo.

Uchinchi guruh — jamoa a’zolarining o‘ziga xosligi. Masalan, o‘zini boshqara olmaslik, ehtiroslarga berilish, tajovuz, do‘q-po‘pisa, haqoratlash-so‘kinish, munosabatga kirisha olmaslik.

Ziddiyatlar ma'muriy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalari uchun ahamiyati va hal etish yo'llariga ko'ra farqlanadi va umumiy ma'noda konstruktiv va destrukтив ziddiyatlarga ajraladi. Konstruktiv ziddiyatlarga tashkilotning hayotiy muammolarini hamda ularni hal etish orqali samarali taraqqiyotga olib chiqish xos. Destruktiv ziddiyatlar salbiy, vayronkor natijalarga olib keladi. Shuningdek, ayrim hollarda bu vaziyat janjallarga va tashkilot faoliyatining susayishiga olib keladi. Madaniyatda ziddiyatlarning kelib chiqmaslik sabablari ham muomila madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, madaniyat ma'naviyatning mavjudlik shakllaridan biri. U ma'naviyatning predmetlashgan, moddiy lashgan, voqelashgan ko'rinishidir. Masalan, har qanday badiiy, texnik g'oya san'at asarida yoki texnik qurilmada o'zining moddiy predmetlashgan aksini topadi. Muayyan axloqiy, siyosiy va huquqiy g'oyalar ham tegishli meyorlarda, jamiyat a'zolarining munosabatlarida, xulq-atvori va faoliyatida yuzaga chiqadi. Ma'naviyat madaniyatning mohiyatli mazmunidir, madaniyat esa ma'naviyatning voqeligidir. Ushbu mushtaraklik nafaqat ma'naviyat va yuksak madaniyatga, shuningdek ma'naviyat va ommaviy madaniyatga ham xos. Zero, ommaviy madaniyat zamonaviy jamiyatning barcha asosiy va xarakterli xususiyatlarini, shu jumladan ziddiyatlarini aks ettiribgina qolmay, ko'p hollarda ularning ijtimoiy-madaniy poydevori va shart-sharoitini tashkil etadi. Hozirgi amon jamiyatining yutuqlari-yu ma'naviy inqirozi, tabiiyki, turli sabablarga borib taqaladi. Ular orasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, diniy-e'tiqodiy va rang-barang boshqa mafkuraviy-ijtimoiy sabablar bor. Lekin ularning hammasi inson ongi orqali o'tib, uning amaliy xatti-harakatida muayyan tarzda o'zini namoyon etadi. Boshqacha aytganda, madaniyat hodisasiga aylanadi. Shu sababdan biz madaniyatni aniq shakllarga ajratamiz: axloqiy madaniyat, badiiy madaniyat, huquqiy madaniyat, lisoniy madaniyat, iqtisodiy madaniyat, maishiy madaniyat, texnologik madaniyat va h.k. va h.k. Uning turli darajalari, shakllari ma'naviyatni turlicha aks ettiradi va unga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda pedagogning tutgan o‘rni, davlatning pedagoglarga bo‘lgan munosabati, pedagog o‘qituvchilarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli o‘sha davlat, mamlakatning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi. Pedagog va pedagoglik kasbi qanchalik jamiyatda yuqori mavqyega ega bo‘lsa, o‘sha mamlakatning kelajagi ham porloq bo‘ladi. Agarda mamlakatda bo‘lsa u davlatning porloq kelajagi, jadal rivojlanishi haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Qadimda ham pedagoglarning jamiyat rivojlanishidagi yuksak o‘rnini tushunishgan, ularning mehnatlarini qadrlashgan va buyuk so‘z bilan ustoz deb atashgan. Ustozlar ham bundan muqaddas so‘zga munosib bo‘lishga harakat qilishgan va o‘z kuchlari, bilimlari, aqil zakovotlarini yosh avlodga berishgan. Jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma‘naviy munosabatlar o‘zgarganda bu jarayonning istiqloliy rivojlanishi bevosita ta‘lim tarbiya tizimi isloh etish bilan bog‘liq holda ko‘chib o‘tish davriga xos so‘ngi o‘n yil mobaynidagi tajribalardan ko‘rinib turibdi. „Ta‘lim to‘g‘risida “gi qonunlarda belgilab berilganidik, islohatlarni muvaffaqiyatli amalgam oshirishga ma‘sul bo‘lgan jamiyat a‘zolari birinchi galda o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan pedagog kadrlar taylorlash dolzarb vazifa bolib qolmoqda. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lida vujudga kelayotgan ma‘naviy va moddiy qiyinchiliklarning oldini olishda hamda yuzaga chiqish ehtimoli bo‘lgan bo‘shliq o‘rnini sog‘lom fikr, yangicha tafakkur g‘oyalari, ilmiy bilimlar bilan to‘ldirishda pedagog – ustozning kasbiy-insoni yunusabatlarini muhim ahamiyatga ega ekanligi hayot jarayonida o‘z isbotini topdi. Endigi asosiy vazifa usluksiz ta‘lim tuzimida o‘quvchi va talabani faqat o‘qitib, passiv tinglovchiga aylantirish emas, balki ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi o‘rtasida „sub‘ekt-sub‘ektlari“ munosabatlarini o‘rnatib, o‘quvchi va talabani ta‘lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish pedagogika fanlarining va pedagogiklarning asosiy fazifasi hisoblanadi. Birinchi prezident I.A.Karimov: «O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallash juda qiyin kechayapti. O‘qituvchining bosh vazifikasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tushunamiz. Lekin afsuski amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz» -deb bejiz ta‘kidlab o‘tilmagan edi. Ayniqsa milliy g‘oya va milliy

mafcura asosida amalga oshadigan rivojlanishga yoshlarning ongli munosabatlarini shakillantirish pedagoglar oldiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Shundan kelib chiqib, birinchi prezident I.A.Karimov yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan hozirgi kun talablari asolarida fikrlay oladigan yetuk kadrlarni taylorlash –ham ijtimoiy, ham iqtisodiy muommolarimizni hal etishning kaliti hisoblanadi deb alohida uqtirib o‘tgan. Sharqona kasbiy- insoniy munosabatlarni shakillanishi axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning ma‘naviy asosi xususida birinchilar qatorida allomalar, Yusuf Xos Xojib va Alisher Navoiy tomonidan fikr yuritilgan. Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy madaniy insoniy xususiyatlarining shakillanishida boy ma‘naviy merosimiz asoslari Koshifiy Abdulla Avloniy va boshqa kabi allomalarimizning ulkan merosini o‘rganish hamda amalga tadbiq etish bugunning, ayniqsa pedagogika faning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Ushbu muommoning ijtimoiy pedagogic mohiyati N.Abdukarimov, M.Achilov, M.Ashurov, N.Shodiyev, M.Qurbanov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Ammo ko‘rib chiqilgan tadqiqot ishlarida bo‘lajak pedagogning kasbiy madaniy va insoniy munosabatlarini shakillantirishi muammosi to‘laligicha o‘z yechimini topgan deb bo‘lmaydi. Bo‘lajak pedagog- talaba erkin shaxs sifatida munosabatlar olamida o‘zining kasbiy - madaniy, insoniy mavqeyini to‘liq anglab olish imkloniyatiga qodir emas. O‘z yechimini kutayotgan bu masalalar muommoning dolzarbligini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, ushbu muommoning qo‘yilishi va ilmiy jihatdan hal etilganligiga, O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari deb bilgilanadi Respublikamiz hukumati tomonidan ta’limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohasi deb e’lon qilinishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining demokratlashuvi va insonparvarlashuvi hamda “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning qabul qilinishi ta’lim tizimining rivojlanishiga asos bo’ldi va ta’lim tizimida tub islohotlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy voqelik ta’limni boshqarish muammolarini ko‘rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo’naliш sifatida ajratib olish, ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratini belgilab berdi. Uning o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o’rtasidagi tashkiliy-boshqaruв, axborot aloqalari; ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni

shakllantirishdagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatidagi ahamiyatini oshirdi. Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish asosiy ustuvor yo'nalishdir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarni joriy etish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta'lismuassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta'lism boshqaruvini demokratlashtirishni o'z ichiga oladi. O'qish, o'qitish – inson faoliyatining boshqa sohalari singari - ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tizimlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday ishlab chiqarayotgani va qanaqa mehnat qurollari yordamida ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g'oya o'qish-o'qitish faoliyatiga ham ta'luqlidir. Ijtimoiy kompetentlikning yuqori darajasi o'zarota'sirga turli rollardakirish va ularga mos harakat qilish, shu bilan birga destruktiv o'zaro ta'sirgayo'l qo'ymaslik qobiliyatini ko'zda tutadi. Hamkorlikdagi kompetentlik ko'rsatkichlari sifatida ishonch, tolerantlik, empatiya, inson huquqi va erkinligi haqidagi bilimlar, refleksiya, raqiblar o'zaro ta'siridagi malaka va ko'nikmalar xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Madaniyatning ziddiyatlari tomonlari deganimizda nimani tushunamiz ?
2. Ichki ziddiyat deganda nimani tushunamiz ?
3. Tashqi ziddiyat deganimizda nimani tushunamiz ?
4. Konstruktiv ziddiyatlarga nimalarni misol qilish mumkin?
5. R.L.Krichevskiy o'zining qaysi kitobida ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni 3 ta guruhga bo'ladi:

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Texnologii vospitaniya i obucheniya: Uchebnoe posobie dlya stud. vysssh. T38 ucheb. zavedeniy / N.N. Nikitina, V.G. Balashova, O.M. Jeleznyakova, N.M. Novichkova; Pod red. N.N. Nikitinoy. – Ul'yanovsk: UlGPU, 2011. – 210 s. (5-12 betlar)
2. Isaev V.F. Professional'no-pedagogicheskaya kul'tura prepodavatelya. Ucheb. posobie dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniy. - M.: Izdatel'skiy tsentr «Akademiya», 2002. - 208 s. (16-22 betlar)

3. Rubtsova Ye.T. Texnologicheskaya kul'tura v vysshem pedagogicheskom obrazovanii. (1-7 betlar).
4. Anis'kin V.N. Texnologicheskaya kul'tura budushego uchitelya kak kategoriya didaktiki. (1-2 betlar)

4- MA'RUA MASHG'ULOTI

Mavzu:4 Zamonaviy o'qituvchining texnologik madaniyatiga qo'yiladigan shaxsiy va kasbiy sifatlar.

Mavzu rejasi:

- 1.Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan shaxsiy fazilatlari.
- 2.Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan kasbiy sifatlari.
3. Zamonaviy o'qituvchining texnologik madaniyatiga ta'sir etuvchi omillar.

Tayanch tushunchalar: zamonaviylik, auditoriya,sifat,yuksalish, qa'tiyatlilik, kasbiy daraja, shaxsiy sifat, kasbiy sifat, texnologik madaniyat.

Zamonaviy o'qituvchi – bu avvalo mohir ustoz. U kasbining asosiy vazifasi bilan kurashadi. Bu boshqalarga ta'lim berish uchun berilgan odam. Yaxshi o'qituvchi bolalarga ajoyib sifat – dunyoni o'rGANISH va rivojlanish qobiliyatini beradi . U ma'lumotni idrok etish, qayta ishslash va qo'llashga o'rgatadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish , yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida shunday degan edilar ; "Men muallimlarning jamiyatimizdagi obro'sini oshirish haqida ko'p o'ylayman. Chunki o'zim ko'p yillar oliygohda domla bo'lib ishlaganim uchun bu sohaning qanchalik qiyin va mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman"deb ta'kidlagan edilar.

Odamlar doimo o'qituvchiga alohida munosabatda bo'lib ,”Ustoz” deya nisbat berib kelishgan. Xalq og'zaki ijodida esa “Ustoz –otangdek ulug” kabi jumlalar ustozlar sha'nini ulug'lab ,ularga bo'lgan hurmatni oshirib kelgan. Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan bir qator talablar haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo ustoz o'zining shaxsiy xulq- atvori, hayotga munosabati bilan ma'naviy hayotning namunasini ko'rsatishi , talabalarni insoniy fazilatlar , haqiqat va ezbilikning yuksak ideallari asosida tarbualashga majburdir.Bugungi kun

o'qituvchisiga quyiladigan muhim talab – bu talabalar bilan ishslash bolalarga bo'lgan muhabbat va ualrga bilan muloqot qilishdan zavqlanishni namoyon qila oladigan shaxs sifatidagi pedagogik qobiliyatlarning mavjudligi. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy fazilatlari sifatida – mehantsevarlik samaradorlik, intizom, ma'suliyat, maqsadni qo'yish qobiliyati, unga erishish yo'llari bilan bir qatorda qa'tiyatlilik , kasbiy darajani muntazam va tizimli ravishda yaxshilash istagida bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchi avvalo, har doim ijodkor insondir . U o'z talablarining kundalik hayoti tashkilotchisi. Auditoriyada o'qituvchi – pedagog , raxbar, tarbiyachi ,ixtirochi ,tizkor, qa'tiyatl , har doim har qanday vaziyatni mustaqil hal qilishga tayyor bo'lган professional.

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy zaruriy fazilatlari - bilimdonlik , kreativlik, yangilikka chanqoqlik , chidamlilik , va o'zini tuta bilishi, boshqaruvchanlikdir. O'qituvchining o'ziga xos kasbiy sifati - bu adolatligidir. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim oluvchilardagi ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga layoqatli, ularning ehtiyojini anglay olish, mustaqil fikrlashga o'rgatish ko'nikma va malakasiga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga o'quv materialini mustaqil ravishda o'zlashtirishlari, ularning ehtiyojini to'liq qondirish, ta'lim mazmunini o'zlashtirishga bo'lган motivatsiyasini rivojlantirishi va kengaytirishi, ta'lim oluvchilarning qiziqish va hohishlarini hisobga olishi, shuningdek, doimo ta'lim oluvchilarni «nimaga o'qitish kerak?», - degan dolzarb masalaga javob topish istagida bo'lishi lozim. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim oluvchilarga va o'z pedagogik faoliyatiga mehr-muhabbatni uzviy ravishda bog'lab olib boradi, faqatgina ta'lim oluvchilarga ta'lim beribgina qolmay, ulardan ham nimanidir o'rganish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonida zamonaviy o'qituvchi eng muhim kasbiy va shaxsiy fazilatlarini namoyon eta olishi zarur. U har bir ta'lim oluvchi qalbidagi ijobiy va salbiy sifatlarni his qiladi, olgan bilimlaridan o'zlari zavq olishlari uchun ularni rag'batlantirib turadi. O'qituvchi ta'lim oluvchilar ta'lim muassasasini tamomlab jamiyatdagi o'z o'rnini egallashlari hamda hayotdagi hozirgi va keyingi dolzarb muammolarni hal eta olishlari uchun ko'rsatma berib boradi. Zamonaviy o'qituvchi - har tomonlama mahoratli, yetuk bo'lishi lozim. Mahoratli o'qituvchi kasbiy

yaroqliligi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini rivojlantirishi, maqsadga yo'naltirilganlik sifatlari bilan ajralib turadi. Zamonaviy o'qituvchinig mahorati - bu o'zini namoyon etish, qoniqish va o'zgalar tomonidan tan olinish manbai hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyati bilan qiziqadigan, ular bilan ijobjiy muloqot o'mnata oladigan bo'lishi kerak. Zamonaviy pedagogning o'ziga xos alohida xususiyatlari - mukammal va chuqur bilimga ega bo'lishi, doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, o'z-o'ziga tanqidiy qarashi va milliy madaniyatiga ega bo'lishdan iborat. O'qituvchi mahoratining ortib borishi, mustaqil bilim olish ehtiyoji bilan chegaralanib qolmasdan, balki ijodkor bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashni taqozo qiladi. Chunki, o'qituvchining ijodiy izlanishi samarali natijalar manbai hisoblanadi. O'qituvchi faoliyatidagi asosiy narsa - bu uning bilimi, malakasi va ko'nikmasidir. Tez o'zgarayotgan hozirgi davrda o'qituvchi o'z faoliyatini doimo mukammallashtirib borishi lozim. O'qituvchining kasbiy mahoratini ta'limdagi ayrim o'zgarishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim sohasida ham ko'plab yangi tushuncha va ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Bunday tushunchalardan biri kompetentlikdir.

Kompetentlik - bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, kasbga yaroqli, mos, loyiq, muvofiq kabi ma'noni bildiradi. O'qituvchi kasbiy kompetentligi zamirida pedagogik foliyatning integral tavsifi, yuksak mahorat bilan ta'lim jarayonini tashkil etish qobiliyati, uning bilimi, tajribasi, hayotiy va ma'naviy qiziqishlari yotadi. So'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda kompetentli yondoshuv ko'proq qo'llanilmoqda. Unga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarini, shu jumladan matematika o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalasi uning kasbiy kompetentligi, kasbiy mahorati nuqtai nazaridan qaralishi lozim. Pedagogika fanida «pedagogning kasbiy kompetentligi» tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan hal etiladigan ilmiy masalalarga bog'liq holda turlicha qaralgan. Agar, bo'lajak pedagogda shakllanadigan kasbiy kompetentlikni oliy ta'lim tizimi ichida qaralsa, u holda uning uchta asosi haqida gapirish mumkin:

- 1) maqsad, mazmun, ob'yekt va pedagog mehnati vositalari haqidagi maxsus bilimlarni o'zlashtirish;

2) pedagogik faoliyatning tayyorgarlik, bajaruvchanlik va yakuniy bosqichlarida maxsus ko'nikmalarga ega bo'lish;

3) pedagogik faoliyatni amalga oshirish va kutilayotgan natijalarga erishishga imkon beradigan shaxsning o'ziga xos xususiyatlari va tavsifini egallash. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra bo'lajak matematika o'qituvchisining kasbiy kompetentligida kompetentlikning uchta turini ajratish mumkin:

a) mazmunli (maxsus matematik bilimlarning mavjudligi);

b) texnologik (matematikani o'qitish usullariga egalik);

v) shaxsiy (shaxsning ayrim xususiyatlariga ega bo'lish).

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bir qator

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetenstiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rGANISHNI, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:


Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi;
- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda .

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishi.

II. Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi (1-rasm):

Pedagogik faoliyat - bu ijodiy jarayon, chunki har bir o’qituvchi o’ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun pedagogik ish madaniyati sof individualdir.



1- jadval: Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar:

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko’rsatish ko’nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.
2. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo’lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informastion, kreativ, innovastion va kommunikativ kompetentlik ko’zga tashlanadi.

Ular o’zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda olish;

b) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to’fri belgilash, Ijtimoiy kompetentlik

- Shaxsiy kompetentlik ;
- Texnologik kompetentlik;
- Maxsus (yoki kasbiy) kompetentlik ;
- Ektremal kompetentlik;
- Psixologik, metodik, informastion, kreativ, innovastion, kommunikativ va boshqa kompetentlik muvofiq tanlab olish, metodlarni samarali qo’llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo’llash.

c) informastion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinni, samarali foydalanish.

d) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o’zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

e) innovastion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi foyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

f) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtiroychilar, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo’lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko’rsata olish.

g) Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o’sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o’z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

h) Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilfor texnologiyalarni o’zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

i) Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to’g’ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligini qayd eta Pedagogning kasbiy xususiyatlari. E'tiqod, odob, fuqorolik burchini anglash – o`qituvchining asosiy xususiyatlardan biridir .O`qituvchi o`zi targ`ib qilayotgan idealning fazilatlarini shaxsiy namunasida ko`rsatishi kerak. Bolalarga mehr-muruvvat ko`rsatishdir o`qituvchning eng muhim fazilatidir. Bu bolalarning hamma qiliq qilmishlarni kechirish ularga xushomadgo'ylik qilish emas, balki talabchanlik va qattiqquillik adolatlilik bilan qo`shilgan mehrmuhabat bo`lib, ana shu sifatga ega bo`lgan shaxs o`zining ko`p vaqtini va kuchini bolalarga bag`shlaydi. U zarur vaqtida istaklarini qurban qilib, bolalar manfaati yo'lida ehtiyojini cheklashga tayyor turadi.

Ijtimoiy faollik va fuqorolik burchini anglash o`qituvchi shaxsiga xos sifat, zero haqiqiy pedagog to`la ma`nodagi jamoatchi bo`lib, bolalarga hayotda ijtimoiy faol hayotda turishning amaliy namunasini ko`rsatadi. O`qituvchining muhim fazilati – kishilar bilan tiz kerisha olish, ko`pchilikka aralasha bilish, do'stonalik, dilkashlik bo`lib, bunda muomala madaniyatning yuksakligini ifodalaydi. Chunki o`qituvchiga hamisha odamlar bilan aloqa qilishga ular bilan ishslashga to`g`ri keladi. O`qituvchi ishidagi muvoffaqiyatini kundalik faoliyatida kattalar va bolalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyatini taminlaydi. Aloqalarda, faoliyatida duch keladigan turli xil voqyealarga pedagogik qoidalar nuqtai nazardan dogmatik munosabatlarda bo`lish emas, balki ularni o`z holicha idrok etib,adolatli baholash, munosabita odil bolish o`qituvchining orasini oshiradi. O`qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo`lsagina, insonlarga nisbatan mexribon, saxovatli bo`la oladi, uni hamma hurmat qiladi. Buning uchun ochiq ko`ngil, qat`iy bo`lish, o`zini tuta bilish, bardoshli bo`lish kerak. Talabalarga nisbatan talabchanlik bo`lish bilan birga o`z shaxsiga tanqidiy nuqtaiy - nazardan qaray olish kerak. O`qituvchining odobi umuminsonoy axloqning kategoriyalari, qoidalari va normalarini ta'lim - tarbiya jarayoniga xos xususiyatlari bilan uyg`unlashtirib, pedagogning o`quvchilar,

o`qituvchilar jamoasi ota-onalar va jamoatchilik vakillari bilan munosabatida ifodalanadigan kasbiy-axloqiy xususiyatdir.O`qituvchi pedagogik etikaning normalarini o`zlashtirib olish tajribada qo`llash, o`zining dunyo qarashi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikirlash va his etish, turmushda sinab ko`rish natijasida pedagogik etikaning qoidalari o`qituvchining o`z e`tiqodiga, intilishiga, o`z axloqiy sifatiga aylanadi. Bu axloqiy e`tiqod o`qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o`qituvchi va boshqa kishilar bilan munosabatida, muomalasida, kundalik turmushida o`zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta`sir o`tkazishda ko`zga tashlanadi. Pedagogik takt o`qituvchi axloqining amaliy ko`rinishlaridandir. Muallim axloqning natijalari uning yoshlarga axloqiy ta`sirining samaradorligida namoyon bo`ladi. Pedagogik etikaning asosiy tushunchalari umuminsoniy axloq kategoriylariga mos keladi va ularni o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq tarzda bir qadar aniqlanadi. Pedagogik etikada gumanizm, adolatlik, vijdonlik, halollik, yaxshilik qilish kabilar o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq ravishda tahlil qilinadi. Axloq nazaryasida yaxshilik eng muhim kategoriya hisoblanadi yaxshilik-axloqiy ijobiy fazilat bo`lib, normativ etikaning idealini individual axloqda ijobiy-xulqiy fazilatlarning mazmunini inson faoliyati yoki biror hatti-harakatiga aks ettiradi yaxshilik kishining ongi va axloqiy amaliyotida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligini aks ettirib jamiyat va shaxsga manfaat keltiradigan, ijtimoiy tariqqiyotga mos keladigan tushunchadir. Pedagogik etikada yaxshilik tushunchasi o`quvchi faoliyati bilan bog`liq xolda aniqlashtiriladi. Unda o`qituvchi va o`quvchilar jaomasining manfatlarining birligi, muallim va o`quvchi maqsadining birligi talim va tarbiya samarasi uchun kurashning birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati ikkala tomonning ham yaxshi niyatli, xayrihox, mehribon bo`lishini taqozo qiladi.

Pedagogning shaxsiy xususiyatlari tasnifi

Pedagogik faoliyat - bu ijodiy jarayon, chunki har bir o`qituvchi o`ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun pedagogik ish madaniyati soj individualdir.

Pedagog kasbi unga mansub bo`lgan shaxsga shunday talab va vazifalarni qo`yadiki ular, birinchi navbatda, faoliyat ob`ekti bo`lgan o`quvchi shaxsiga bo`lgan munosabatda o`z aksini topishi lozim. Buyuk polyak pedagogini Yamush Karchak

buni «bolalarni sevmoq kerak» – deb e‘tirof etgan. Buning uchun esa pedagogning o`zi haqiqiy inson bo`lmog`i lozim. Haqiqiy inson esa, birinchi galda, insonparvar, ya‘ni kim bo`lishidan qat‘iy nazar uni sevmog`i, o’quvchi shaxsini esa insoniyatning kelajagi sifatida hurmat qilmog`i lozim. O`zbek xalqining pedagog va uning sifatlari, roli to`g`risida muqaddas donishlari mavjud, ya‘ni «ustoz otangday ulug`», «ustoz ko`rmagan shogird yuz usulda yo‘rg`alar», «ota-onan bolani dunyoga keltiradi, lekin ustoz ularni inson qilib tarbiyalaydi» va hokazolar. Ustoz bola shaxsini tarkib toptirar ekan, uning o`zi to`liq ma‘noda ijobjiy axloqiy sifatlarga ega bo`lmog`i lozom, ular quyidagilardan iborat: samimiylilik va beg`arazlik, bag`rikenglik, oljanoblik va xushfellik, kechirimlilik sofdillik va pokizalikadolatlilik va insoflilik, hamdardlik va hayrixoxlik, andishalik, sabr- toqatlilik, bosiqlik, kamtarinlik, iltifotlilik, fidoiylik, rahimdillilik, g`amxurlik, mehribonlik, sadoqatlilik, vafodorlilik, mas‘uliyatlilik, aqlilik va boshqalar. Ushbu xususiyatlar qanchalik ko`proq darajada ustozda tarkib topgan bo`lsa, uning bolalar o`rtasidagi o`rni, obro`yi shunchalik yuqori bo`ladi. Obro`ni pedagoglar esa har qanday o`quv muassasaning faxri o`quvchilarning yaqin maslakdoshi, do`sti, haqiqiy ma`noda belgisi hisoblanadi. O`quvchilar bunday pedagogga talpinadilar ular bilan turli o`quv, hayotiy muammolarini echishga harakat qiladilar, namunali ustozlarga o`xshash uchun ta`qlid qiladilar. O`qituvchi pedagogning asosiy xislatlaridan yana biri talab va xurmat tarozisining to`g`ri his qilish hamda uni muvozanat holatida saqlay bilishdir. Ya‘ni o`qituvchi talabalrga qancha talablar qo`ysa uni shaxsini shu talablar darajasida hurmat qilish lozim. Agar talab ko`p bo`lib hurmat pasangisi kamayib ketsa, o`qituvchi o`z obro`sini yo`qota boshlaydi, o`quvchi o`z faoliyati befarqlik nuqtai nazarda qaray boshlaydi. Agarki talabaga nisbatan hurmat mazmuni ko`payib borsa unda o`quvchi o`zini, asta-sekinlik bilan mag`rurlikka erisha boshlaydi va oqibatda man-manlik kasaliga muttalo bo`lgan shaxs tarkib topadi. Undan tashqari o`quv jamoasining a‘zolari bunday insonga nisbatan salbiy munosabatda bo`lish boshlaydi va oxiri uni o`ziniki emas, muallimni erkatoysi sifatida o`z jamoalaridan chetlatadilar. Pedagoglar asosiy fazilatlaridan biri bag`ri kenglik samimiylilik, oljanoblik va xushfellikdir. Ustoz hamma uchun va hammani bir hilda yaxshi ko`radigan, ularning ijobjiy va salbiy harakatlariga chidash

bera oladigan, hammani o`z farzandiday tan oladigan bolalarni dil torlariga yo`l topa oladigan mehribon, o`quvchilarni yaxshi va yomon kunlarida unga quvonch beradigan inson bo`lmog`i lozim. Adolatlilik – pedagogning insoniy sifatlaridan biri hisoblanadi. Adolatli pedagog hamma o`quvchilarni bir ko`z bilan ko`radigan, hammaga bir xil ko`z bilan qaraydigan insofli, pok yurakli murabbiydir. O`quvchi – tarbiyalanuvchi ustoz qo`lida tarbiya olar ekan, uni o`zining eng yaqin kishilardan biri deb hisoblaydi, u bilan ochiq gaplashgisi yuragidagi, fikrlari bilan o`rtoqlashgisi, o`zining quvonch va dardlari bilan hamfikrlashgisi keladi. Eng qizig`i shundan iboratki, o`quvchi jamoasining hammasi o`qituvchini mening o`qituvchim deb hisoblaydi, uni jamoaning boshqa a`zolardan rashk qiladi, boshqalardan uni o`ziga yaqinroq oladi. Pedagog o`quvchilarning ushbu xususiyatlaridan samarali foydalanishi lozim, ya`ni o`quvchilarga ikkinchi ota – ona sifatida mubnosabatda bo`lmog`i lozim, ya`ni o`quvchilarni unga nisbatan bunday munosabatlardan ijobiy foydalanishi va birinchi navbatda, o`quvchilarning unga nisbatan g`amxo`r, mexribon, raxmdil, xAMDARD, oliyjanob, sirdosh, beg`araz bo`lmog`i lozim. Buning uchun esa o`qituvchi fidoyi bo`lmog`i lozim. Fidoiyilik bir qarashda o`qituvchining kasbiy xususiyatiga taalluqlidek ko`rinadi to`g`ri, pedagog birinchi navbatda o`z hayotiy kasbini yaxshi ko`rmog`i, uni hurmatlashi ulug`lashi lozim. Lekin pedagog inson sifatida fidoyi bolmasa u hech qachon haqiqiy pedagog bo`la olmaydi. Pedagoglar ichida faqat olayotgan maoshi – puli uchun ishlayotganlar qancha? Fidoyi pedagog esa murabbiylikga o`qituvchilik. Kasbi uchun o`zini to`loq baxshida etadi uni savodi hurmat qiladi inson sifatida ushbu kasbga egaligidan faxrlanadi, unga dog` tushurmaslika harakat qiladi kasbning eng nozik, qiyin tomonlarining egalashiga harakat qiladi, boshqalarni ham ushbu kasbni egalashlariga har tomonlama yordam beradi. Hayot jarayonida o`quvchilik, talabchanlik yillarini boshidan kechirgan sobiq tarbiyalanuvchilarning o`z o`qituvchi tarbiyachilarini to`g`risida turli xil baholovchi fikrlarni eshitish mumkin, ya`ni falon o`qituvchi yaxshi edi, falon o`qituvchi esa umuman yomon edi va hokazolar. Demak pedagoglar tarbiyalanuvchilar ko`nglida turli xil qoldirilgan yaxshi deb ataganlar, o`quvchilar yuragiga haqiqiy yo`lni topa olganlar, ular o`quvchilarning namuna mezoni,hurmat bayrog`i, sirdoshi, do`sti

ikkinchi ota-onasi. Bunday pedagoglarning fe'l atvorlari, hulqi, hatti harakatlari o`quvchilar uchun namuna belgisi hisoblanadi, o`zлari bilmagan holda taqlid qilishga harakat qiladilar, o`sha pedagoglar singari yaxshi'degan namuna olishga intiladilar ba'zan o`sha pedagogning kasbini egalashga ham moyil bo'ladilar. Ba'zan tarbiyalanuvchilar o`z kasbini mukammal biluvchi, yaxshi darslar beruvchi, o`z faniga nisbatan talabchan o`qituvchilar yomon deb ta'riflaydilar. Bunning mohiyati nimada. Bunday pedagoglar o`quvchi qalbiga yo'l topa olmagan, o`quvchiing haqiqiy sirdoshi, fikrdoshi bo'la olmagan o`quvchining Intilishlari, qiziqishlari, hislarini tushuna olmagan, uning hayotidan ancha uzoqda turgan kasb egasidir. Bunday pedagogliklarga o`quvchi o`zining fikirini to`yg'ulari, orzulari bilan o`rtoqlashmaydi, undan uzoqroq yurishga harakat qiladi. Bundan kelib chiqadigi tom ma'nodagi pedagog kasbiy mahorat egasi bo`lishi bilan birgalikda inson sifatida ijobiy insoniy fazilatlarga boy va ega bo`lgan shaxs bo`lmog'i lozim. Faqat shunday bo`lgan taqdirdagina pedagog haqiqiy tarbiya ob`ekti sifatida tarbiyalanuvchilarga ijobiy ta`sir ko`rsata oladi va natijada o`quvchi talablarning komil inson bo`lib tarbiyalishlariga sababchi bo`ladi.

O`qituvchilik vijdoni axloqiy madaniyatlilikning ifodasidir. U faol ta`sir o`tkazish xususiyatiga ega bo`lib, bolalarda vijdon, sha'n, qadr-qimmat haqidagi tasavvurlarni hosil qiladi. Shuning uchun ham o`qituvchining vijdoni doimo pok bo`lmog'i kerak. O`qiyuvchi hamma vaqt o`z-o`zini, o`z xatti-harakatlarini o`quvchilar va ota-onalar ko`zi bilan nazorat qilib borishi darkor. Muallim bolaning ko`z oldida kelajakning timsoli sifatida namoyon bo`lmog'i lozim. Chunki bugun undan saboq olayotgan o`quvchilar o'n besh yigirma yildan so'ng jamiyat hayotida, ijtimoiy mehnatda faol qatnashadi. O`qituvchi bugun qanday yashab, qanday ishlab, o`quvchilarni qanday o`qitgan bo`lsa, uning timsoli o`quvchilar uchun ularning hayot yo'lini yorituvchi axloqiy nur bo`lib xizmat qiladi. O`qituvchining o`z vijdoniga qilgan har bar xilof ishi, nafaqat bugun uning atrofidagi kishilar uchun, balki jamiyatning kelajagi uchun ham zararlidir. Pedagoglik vijdoni o`qituvchidan faqat bugunni emas, balki o`z o`quvchilarining kelajagini ham o`ylab qadam bosishni talab etadi. O`qituvchining kasbiy-axloqiy fazilatlaridan biri talabchan vaadolatli

bo‘lishdir. O‘qituvchining talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi ifodalanadi. Bu haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo‘lishi, ya‘ni rivojlanayotgan bola shaxsi to‘g‘risida, jamiyat uchun foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to‘g‘risida g‘amxo‘rlikdir. O‘quvchilar loqaydlikni yoqtirmaydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi. O‘qituvchi avvalo o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lmog‘i kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qo‘yayotgan talablari o‘rinli, samarali bo‘ladi. Muallimning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i zarur. Kuch adolat va haqiqatdadir. Adolat tushunchasining mazmunida haqiqat, poklik, to‘g‘rilik, kuchqudrat mujassamdir. Adolatlilik umuminsoniy va milliy axloqimizning muhim xislatlaridan hisoblanadi. Islom ta‘limotida adolat, adolatli bo‘lish fazilati yuksak qadrlanadi. Adolat kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda odillik bilan ish tutishni taqozo qiladi. Adolatlilik kishida o‘tkir akd, sof mulohaza, oljanoblik va mardlik mavjudligini bildiradi. Adolatli bo‘lish o‘z so‘zida turish, qat‘iylik demakdir. Adolatli kishiningdili pok, ko‘ngli xotirjam, o‘zi xavf-xatar, kulfatdan uzoq, odamlarning ishonchiga sazovor bo‘ladi. Adolatlilik insoniylikning asosi hisoblanadi. Odobli va insonparvar bo‘lish uchun adolatli bo‘lish zarur. Adolat boshqa kishilarga muomala-munosabatda namoyon bo‘ladigan fazilatdir. Adolatli kishi yaxshi xulkdi odam hisoblanadi. Bunday odam o‘ziga ravo ko‘rmagan biror ishni bosh-qaga ravo ko‘rmaydi. Adolatlilik va insoniylik kishini yomon ishlardan sakdash bilan birga boshqalarni ham xatoliklardan asrash, yaxshi yo‘lga solish uchun zarurdir. Adolatli kishi boshka birovga yoki jonivorlarga ozor bermaydi, zulm qilmaydi. Aql-idrok bilan ish qiladi. O‘qituvchi odobida adolatlilik fazilati pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi odobida adolatlilik muallimning xolisligida, axloqiy tarbiyalanganlik darajasida, o‘quvchilar xulqini, jamoat ishlariga munosabatini, bilimini baholashda ko‘rinadi. Demak, adolatlilik bir tomonidan muallimning axloqiy fazilati hisoblansa, ikkinchi tomonidan o‘quvchilarga tarbiyaviy ta‘sirini bahrlashning mezoni hisoblanadi. O‘qituvchining o‘quvchilarga va pedagogik jarayon qatnashchilariga bo‘lgan munosabati manmanlikdan,

noxolislik, o‘zboshimchalikdan xoli bo‘lishi lozim. Shundagina u adolatli hisoblanadi. Muallimlik ishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u har kuni o‘quvchilar bilan uchrashadi, ularning bilimini, xulqini baholaydi. Yaxshi ishlarini rag‘batlantira-di, nojo‘ya xatti-harakatlari, sho‘xliklari uchun tanbeh beradi. Albatta, muallimning fikr-mulohazalari, baholarida nisbiylik belgilari mavjud. U hamma bolalarga aynan birdek, juda to‘g‘ri munosabatda bo‘la olmasligi mumkin. Lekin o‘qituvchi hammaga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, bolalarning kelajagi, taqdiri to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barcha o‘quvchilarning ishonchi komil bo‘lmog‘i darkor. O‘quvchilarda muallim «yoqtiradigan», «yoqtirmaydigan» bolalar bor degan fikr tug‘ilmasligi kerak. O‘qituvchining savollarini, javobini, ba‘zan juda g‘alati bo‘lib tuyuladigan mulohazalarini diqqat bilan tinglash, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, maslahatlar berish, javobini odilona baholash muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. O‘qituvchi bolaning mustaqil ijodiy fikrlarini, to‘g‘ri javoblarini ma‘qullashi, qo‘llabquvvatlashi, rag‘batlantirib borishi lozim. Bolaning javobi noto‘g‘ri, fikrlari chalkash, xato bo‘lsa, o‘qituvchi buni o‘quvchiga yetarli asoslar bilan isbotlab ko‘rsatishi kerak. U, o‘z obro‘sini pesh qilib, «men shunday dedimmi, demak shun-day» deb turib olmasligi, balki o‘z fikrini ilmiy dalillar bilan isbotlashi talab etiladi. O‘qituvchining ta‘lim-tarbiya sohasidagi ijtimoiy qimmatli xatti-harakatlari adolat mezoni bilan baholanadi. Adolatli muallim, odil ustoz degan nomga sazovor bo‘lish har bir o‘qituvchining sharaflı burchidir. O‘qituvchining qandayligi ishchanlik va axloqiy fazilatlarda o‘z ifodasini topadi. Adolatlilik boshqalarga yaxshilik qilish fazilati bilan chambarchas bog‘liq. Adolat bo‘lmasa, yaxshilik bo‘lmaydi. Shuningdek, yaxshiliksiz adolat ham bo‘lmaydi. Pedagoglik odobi nuqtai nazaridan adolatlilik bu, ta‘lim-tarbiya jarayonini normal amalga oshirishning sharti hamdir. Pedagoglik ishida adolatli bo‘lish, bu o‘quvchining ishonchini qozonishdir. Buning uchun esa bolaning qalbidagini, dilidagini bilmoq, tushunmoq kerak. O‘qituvchining adolatliligi bolaning bilimini baholashda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, umumta‘lim maktablarida o‘quvchining bilimi besh ballik tizim asosida baholanadi. Dastur materialini to‘liq o‘zlashtirgan o‘quvchiga «besh» baho qo‘yiladi, mutlaqo bilmagan bolaga «ikki»

baho qo‘yiladi. Bodalarning bilim o‘zlashtirishi-ga bo‘lgan qobiliyati, qiziqishlari bir xil emas. Masalan, zehni o‘tkir o‘quvchi daryo materialini hyech qiynalmay, bir pasda o‘zlashtirib olishi mumkin. Ikkinchi bola esa buning uchun ko‘p mehnat qilishi, intilishi kerak bo‘ladi. O’qituvchi ana shu holatni e‘tiborga olmay ish tutsa, o‘quvchiga nisbatanadolatsizlikka yo‘l qo‘ygan bo‘ladi, uning qo‘ygan bahosi ayrim bolalarni olg‘a intilishga da‘vat etmasligi mumkin. Zehni o‘tkir bo‘lgani uchun mehnat qilmay, kuch sarflamay yuqori baho olish bolaning axloqiga salbiy ta‘sir etib, aqliy rivojlanishiga to‘sinqilik qiladi. Ayrim zehni o‘tkir bolalar dars jarayonida o‘qituvchining fikrlarini to‘liq o‘zlashtirib ola-di va shu bilan cheklanadi. Uyda dars tayyorlamaydi. Natijada uning akdiy rivojlanishi sekinlashadi, aksin-cha, intiluvchi, haraqat qiluvchi bolaga bahoni past qo‘yish ham unda o‘z qobiliyati va kuchlariga, yaxshi o‘qiy olishga ishonmaslik tuyg‘usini vujudga keltiradi. Talabaning bilimini baholashda O’qituvchining adolatlilagini o‘quvchilar ham o‘zlaricha muhokama qilib, baholab boradilar. O’qituvchi o‘z fanidan biror bolaga hadeb «ikki» yoki «uch» baho qo‘yaversa, bu bilan o‘quvchini qobiliyatsizga chiqarib qo‘ygan bo‘ladi, talabada o‘zining insoniy qadrqimmatiga ishonchini, bilim egallahda uchraydigan kiyinchiliklarni yengishga intilish tuyg‘usini barbod qilgan bo‘ladi. O’qituvchi o‘qitish jarayonida boladagi o‘zgarishlarni, yutuklarini payqab, rag‘batlantirib, uni ruxlantirib borishi kerak. Ayrim O’qituvchilar ilg‘or o‘quvchining bilim o‘zlashtirish darajasiga qarab boshqa o‘quvchiga ham baho qo‘yadi. Bir maktabda a‘lochi bo‘lib o‘qigan bola boshqa maktabga o‘tganda «uch» oluvchilar safiga tushib qolishi ham mumkin. O’qituvchi o‘quvchilar bilimini baholashda adolatli bo‘lish uchun har bir bolaning bilim o‘zlashtirishga sarflagan kuch g‘ayrati, intilishlarini hisobga olishi kerak.

SHAXSIYLIKNING PEDAGOGIK MADANIYATI

1. Umumiy madaniyat - bu o‘qituvchining professionalligi shartidir
2. Ilmiy bilim, qadriyat yo‘nalishlari pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida

3. Pedagogik ishning etikasi va estetikasi

4. Pedagogik ijod va mahorat

O'qituvchi tomonidan kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy sharti - o'qitish, o'qitish va tarbiya - bu shaxsiy (individual) pedagogik madaniyat. Zamonaviy tadqiqotchilar (V.L.Benin, E.V. Bondarevskaya, K.M. Levitan, N.V. Sedova va boshqalar) insonning pedagogik madaniyatini integratsiya, o'qituvchilik faoliyatining yuqori darajasini ta'minlaydigan tabiiy va orttirilgan shaxs xususiyatlarining sintezi deb bilishadi. bo'sh o'qituvchi, ish beruvchi - umuman, so'zning keng ma'nosida o'qituvchi.

Nazorat savollari?

1. Kompetentlik - bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, qanday ma'noni bildiradi?
2. Pedagogik faoliyat –bu ?
3. Ektremal kompetentlik - bu ?
4. Shaxsiylikning pedagogik madaniyatini nimalarda ko'rish mumkin?
5. Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan shaxsiy fazilatlari nimalarda?

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Texnologii vospitaniya i obucheniya: Uchebnoe posobie dlya stud. vysssh. T38 ucheb. zavedeniya / N.N. Nikitina, V.G. Balashova, O.M. Jeleznyakova, N.M. Novichkova; Pod red. N.N. Nikitinoy. – Ul'yanovsk: UlGPU, 2011. – 210 s. (5-12 betlar)
- 2.Isaev V.F. Professional'no-pedagogicheskaya kul'tura prepodavatelya. Ucheb. posobie dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniya. - M.: Izdatel'skiy tsentr «Akademiya», 2002. - 208 s. (16-22 betlar)
- 3.Rubtsova Ye.T. Texnologicheskaya kul'tura v vysshem pedagogicheskem obrazovanii. (1-7 betlar).
- 4.Anis'kin V.N. Texnologicheskaya kul'tura budushhego uchitelya kak kategoriya didaktiki. (1-2 betl

5- MA’RUZA MASHG’ULOTI:

Mavzu:5 O’qituvchining texnologik madaniyatining tarkibiy qismlari.

Mavzu rejasি:

1. Texnologik ta’lim o’qituvchisining “Texnologik madaniyati” tushunchasi.
2. O’qituvchining texnologik madaniyatini shakllantirishning maqsadi, vazifasi va mazmuni.
3. O’qituvchining texnologik madaniyati tarkibiy qismlari: texnologik bilimlar; texnologik dunyoqarash; pedagogik pozitsiya; kasbiy-shaxsiy sifatlar; texnologik ko’nikmalar.

Tayanch tushunchalar: Madaniyat, shahar, pozitsiya, sifatlar, texnologik dunyoqarash, ko’nikma, madina, suyash, mexanizm.

Madaniyat –bu insoniyatning shakllanishida , turli tamaddunlarni yuzaga keltirishda muhim mexanizm sanalishi bilan birga odamlarning o’zaro aloqa almashish, bir-biriga yordam qo’lini uzatish , suyash kabi odamiylik amallarini ham tasniflaydi . Bu tushuncha arabcha “madina” so’zidan olingan bo’lib, soda qilib aytganda “ shahar (lashish)”degan ma’noni anglatadi.

Madaniyat jamiyatning tashkil etuvchi kishilar aqliy faoliyatining mahsuli hamdir.Albatta , madaniyat jamiyatning har bir a’zosining emas , balki ong-tafakkuri va salohiyati bilan boshqalardan ajralib turuvchi shaxslar mehnat faoliyatining mahsulidir. Madaniyat mehnat jarayonining ijtimoiylashuvi natijasida shakllana brogan va kishilarning o’z davriga xos ehtiyojlarini qondirish vositasiga aylangan.

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlaridagi madaniy hayotni tahlil qilish zaruratga aylanadi. Chunki har bir davrning ijtimoiy hayoti doimo rivojlanib, o’zgarib va takomillashib boradi. Muayyan bir davrda yaratilgan madaniyat hech qachon o’zidan oldingi davr madaniyatlarini aynan takrorlamaydi. Har bir tarixiy taraqqiyot bosqichida madaniyat o’zidan oldingi davr madaniyatidan yaratilishi va bajaradigan vazifasiga ko’ra ancha takomillashgan holda mavjud bo’ladi.

Madaniyat – bu odamlar va hayotni tashkil etish turlari va shakllarida , o’zaro munosabatlarida, shuningdek ular yaratadigan moddiy va ma’naviy qadriyatlarda

ifodalanadigan jamiyat va inson rivojlanishining ma'lum darajasidir. Bugungi kunda Madaniyat tushunchasi inson va jamiyat faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Odatda madaniyatning moddiy va ma'naviy sohalari ajralib turadi. Birinchisiga moddiy ne'matlar, ularni ishlab chiqarish ob'ektlari va vositalarining umumiyligi kiradi. Ikkinchisi - bilimlar to'plami, ijtimoiy ong shakllari va ma'naviy qadriyatlar. Madaniyatning barcha elementlari uzviy bog'liqdir.

Umumiy madaniyatning tomonlaridan biri bu texnologiyaga asoslangan texnologik madaniyatdir. Umumlashtirilgan shaklda texnologik madaniyat deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning erishilgan texnologiyalarning umumiyligida ifodalangan insonni o'zgartiruvchi faoliyatining rivojlanish darjasini tushunilishi mumkin.

Kasbiy-pedagogik madaniyat turlari: axloqiy, didaktik, psixologik va boshqalar.

O'qituvchi - pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligbo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda O'qituvchining pedagogik mahoratida "*Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish baholash*" kabi didaktik qonuniyatlar taiim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. "Milliy dasturi"da barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g'oyasi - milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy ezzgulikka undaydigan olijanob g'oya sifatida ulug'langan. Mazkur g'oyani yosh avlod ongiga singdirishda o'qituvchi kadrlaming roh beqiyos. Bu esa ulardan avvallo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo'lishni, bilimi, mahorati, ilmiy nazariy va amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Birinchi prezidentimiz I. AKarimov ta'kidlaganidek: "*Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiytiklanish, iqtisodiy rivojlanishni m anaviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila u yg'un*

bo'lishni istayotgan.davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim - tarbiyasi bilanshug 'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega boish lozimligini taqozo qilmoqda”

Dastlab, u qayd etish lozim madaniyat tushunchasi o'zi tarixan va ijtimoiy. Dastlab, so'z madaniyat'' keyinroq so'z ta'lim, rivojlantirish xurmat bilan bog'liq bo'lib, lotin ildizlarini edi va yerning yetishtirishi. Uning asosiy madaniyat u jamiyatda tanlangan guruahlarga muayyan bilim va ko'nikmalarini taqazo etadi va doimo vaqt davomida o'zgarib turadi. Professionalniy madaniyati kabi bir narsaning qalbi turli bilan bog'liq bir shaxsning individualniy xususiyatlari deb texnologik ta'lim turlaridir. Talablarga malakasi har xil borligi bilan belgilanadi. Real va rasmiy; faqat ikkita asosiy yo'nalishlari bor. Professiomalney inson madaniyatini taraqqiyot unda shaxsiy rivojlanadi qiymati tizimi, obedinyayushiy evolutseyasi davomida . tuzulishi kasb madaniyati ko'rib chiqish faqat umum nuqtai nazaridan mumkin. Ijtimoiy madaniyat juda yaqindan oldingi madaniyati bilan bog'liq. Ichki (настоящие) va tashqi (формальные) qismlari: xap qanday boshqa kabi, bu ikki generatorlaridan iborat.

Ichki madaniyat –maxoratm bilim va har bir inson hayotining asosi tuyg'ulari hisoblanadi. Bu bo'lishi mumkin: razvedka, ta'lim akslokiy va tarbiya rivojlantirish.

Tashqi madaniyat – boshqa odamlar bilan jamiyat va o'zaro yuqumli inson xulq hisoblanadi. Ayrim hollarda tashqi va rasmiy madaniyat butunlay bir biriga , bazan xattobir-biriga zid bo'lishi mumkin.

O'qituvchining texnologik madaniyatining turlaridan : texnologik bilim deganimizda , texnologik bilim texnologik artefaktlarni yaratish , manipulyatsiya qilish va baholashga qaratilgan bilimlar to'plamiga ishora qiladi.Bu mavjud hodisalarни kuzatish doirasidan tashqariga chiqadigan bilim shaklidir.Uning qiziqishi yangi artefaktlar yoki tizimlarni yaratish va muammolar yoki ehtiyojlarni yangi texnologik vositalar yordamida hal qilishdan iborat. Texnologik bilimlarni insonlar egallaydi. Masalan, kimdir radio, kompas yoki televizor yasashni bilishi mumkin.

Biroq, eng ilg'or texnologik bilimlar ko'pincha yirik kompaniyalarga tegishlidir. O'qituvchilarning texnologik bilimi u ixtirochilik va yangilikka asoslangan, chunki u mavjud bo'limgan narsalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Tabiiy va ilmiy prinsiplarga asoslangan, ammo

IJTIMOIY MADANIYATNI MOSLASHTIRISH

Madaniyat eng muhim vazifasi- moslashish.Bu tabiiy va ijtimoiy muhitga individualniy moslashish beradi. Inson moslashtirish jarayoni biologik evolyutsiya jarayonida moslashtirish mexanizmi asosda juda farq qiladi. U ekologik o'zgarishlarni va yangi o'z muhitini tashkil etish orqali o'zlari uchun uni odatiga emas. Ijtimoiy madaniyat jamiyat rivojlanishi ko'proq va ishonchliligi va qulayligini oshiradi. Madaniyat yo'liq shaxsiy huquqlarini oshkor qeladi. Ijtimoiy madaniyat biologik odam meros emas, lekin u genetik darajada uning rivojlanishi uchun ba'zi sharoitlar olish mumkin. Faqat ijtimoiy tajriba, bilim, qattiy normani jamiyatda bularning ijtimoiy roli o'zlashterish kabi, mavzu jamiyatning to'laqonli azosi bo'aladi.Shaxsiy shakllantirish jarayoni an'ana va urf-odatlari bilan belgilangan bo'lib ,har bir kishi o'z o'rmini egallaydi va yashash imkonini beradi.

Pertseptiv qobiliyat - o'quvchi va talabaning qalbiga yo'l topa olish, o'z navbatida uni qalban his etib, o'zining o'rниga qo'yib ko'ra bilish, yoshlarni ruhiy ma'naviy olamini o'rganish, unga ob'ektiv baho berish, bolani psixologik xususiyatini bilgan holda uning kayfiyati, hissiyoti, diqqati va boshqa psixik jarayonlarini o'rganib borish o'qituvchining pertseptiv qobiliyatini tashkil etadi.

Nazorat savollari:

1. Madaniyat so'zi nima degan ma'noni anglatadi ?
2. Tashqi madaniyat deganda nimani tushunasiz ?
3. Ichki madaniyat deganda nimani tushunasiz ?
4. Pertseptiv qobiliyat bu- ?

5. Madaniyatning moddiy va ma’naviy sohalariga misol keltiring ?

Adabiyotlar ro’yxati:

- 1.Texnologii vospitaniya i obucheniya: Uchebnoe posobie dlya stud. vysssh. T38 ucheb. zavedeniy / N.N. Nikitina, V.G. Balashova, O.M. Jeleznyakova, N.M. Novichkova; Pod red. N.N. Nikitinoy. – Ul’yanovsk: UlGPU, 2011. – 210 s. (5-12 betlar)
- 2.Isaev V.F. Professional’no-pedagogicheskaya kul’tura prepodavatelya. Ucheb. posobie dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniy. - M.: Izdatel’skiy tsentr «Akademiya», 2002. - 208 s. (16-22 betlar)
- 3.Rubtsova Ye.T. Texnologicheskaya kul’tura v vysshem pedagogicheskom obrazovanii. (1-7 betlar).
- 4.Anis’kin V.N. Texnologicheskaya kul’tura budushhego uchitelya kak kategoriya didaktiki. (1-2 betlar)

6- MARUZA MASHG’ULOTI

Mavzu:6 O’qituvchining texnologik madaniyatini shakllantirish tizimi va uni baholash.

Mavzu rejasi:

- 1.O’qituvchining texnologik madaniyatini shakllantirish tizimi va bosqichlari.
- 2.O’qituvchining texnologik madaniyati (reproduktiv, produktiv hamda kreativ) darajalari.

Tayanch tushunchalar : Kreativlik, ta’lim , tarbiya, reproduktiv, produktiv, darajalar, tizim baholash.

Pedagogik kreativlik (ijodkorlik) - pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g’oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobjiy hal qilishga bo’lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

“Pedagogik ijodkorlik” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

- 1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o‘quvchilar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalg etish;
- 2) o‘qituvchilarga o‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsija etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardir:

1. Me’yoriy hujjatlar (o‘quv fanlari bo‘yicha DTS, o‘quv dasturi va rejalarini tayyorlash;
2. O‘quv manbalari (darslik, o‘quv-metodik va metodik qo‘llanma, tavsyanoma, lug‘at, ensiklopediya, atlas, ish daftari va b.)ni yaratish ;
3. Ta’lim jarayoni va ma’naviy-ma’rifiy ishlar loyihamalarini tayyorlash;
4. O‘quv axborotlari, nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish;
5. Ta’lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo‘shqin tashkil etish;
6. Ilmiy-tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish;
7. Ilmiy va metodik anjumanlarda faol ishtirok etish, chiqishlar qilish;
8. Ilmiy, ilmiy-metodik va metodik ishlarni chop ettirish;
9. Davriy hisobotlarni topshirish, attestatsiyadan o‘tish;

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi; tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta’minlovchi (protsessual) malakalar;

8) texnik-texnologik malakalar

O'quvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar o'quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish èki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. o'quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni barataf etishga e'tibor qaratishlari lozim.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, o'quvchilarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, o'quvchilar ham shunday bo'la oladi. O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, o'quvchilarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi.

O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Mashg'ulotlarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra

quyidagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi.

- 1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
- 2) o‘quvchilarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natijasi.

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik; noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo‘lish.

Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’milnadi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va

vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishslash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Shaxs kreativligini rivojlantiruvchi metodlar

Pedagogik taksonomiya – pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liq va xossasiga ko‘ra ko‘p bosqichli (iyerarxik) tuzilishga ega ob’ektlarini tavsiflash, tartibga solish va tizimlashtirish nazariyasi. B.Blu m rahbarligida 1956 yilda AQSHda “Pedagogik taksonomiya” g‘oyalari e’lon qilindi.

XX asrning 60-yillarda D.Kratvol va boshqalar tomonidan pedagogic maqsadlarni ifodalovchi taksonomiyaning . navbatdagi g‘oyalari shakllantirildi.

Professional kompetensiyani baxolash metodlarining prinsiplari.

A:

1.Tashkiliy prinsiplar ishning optimalligigyunaltirilgan bo‘lib,partnerlar orasidagi vazifa va javobgarlik taqsimlanadi.

2.Yuridik huquq prinsipi. Mexnat soxasidagi normativ xujjatlar, xukukiyl aktlarga muvofik, ishni olib borishni nazarda tutadi.

3.Urinishlar koordinatsiyasi prinsipi. Kompetentlikni baxolashda ishtirok etgan barcha ishtirokchilarning (xodimlarnibaxolash buyicha mutaxassislar, kadrlar agentligi, tibbiyot va sotsial xizmatlari xodimlari va boshqalar) xamfikrligini nazarda tutadi.

4.Tomonlarning javobgarligi prinsipi- tomonlarining professional kompetensiyani baxolash ishlarini amalga oshirishdamajburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarini aniklashni nazardatutadi. Kabul kilinayotgan majburiyatlar tegishli xujjatlardakursatilgan bulishi kerak: protokollar, dasturlar, kelishuv bitimlarida.

5.Qabul qilingan kelishuv ustidan nazoratni urnatuvchi tizimli prinsip-yukori sifatli ishning ta’milanishning imkoniniberadi. Erishilgan natijalarning kuzatuvi xamda ishda vujudgakelayotgan muammolarning kuzatuv jarayonini nazarda tutadi.

B:

1.Ilmi-medotik prnsipi-ishni Anna xam asosli kilib, sifatlinatijalarni erishishga yerdam beradi. Professional kompetensiyanibaxolash xodimlarining bashorat ishining baxosini oshiradi.

2.Tizimli prinsip xodimlarni tanlash yulida tizimli jaraenga xosbulgan yondashuvni taklif etadi. Bu uz navbatida mexnat bozoridasodir bulaetgan dinamik jaraenlarni inobatga olgan xolda modelniyaratishni kuzda tutadi.

3.Kompleks prinsipi kompetentlikni baxolash faoliyatini xartarafdan kurib chiqishni taklif kiladi. Bunda sotsial, iktisodiy, tibbiyot, psixologik, professional va boshqa tomonlar ajratib ko'rsatiladi.

4.Varianlilik prinsipi professional baxolash ishida standartlashmuximligini inkor etmagan xolda, stereotiplashdan kutilish imkoniniberadi. Bu yunalishning muximligi shundan iboratki, kompetentlikbaxolash jaraeniing kupkiralilagini xamda turli xil xarakteristika vatalablarni inobatga olishni takazo qiladi.

5.Bashoratlilik prinsipi professional loyixani amalga oshirishdagimuoffakiyatni bashorat kilishni, bulajak raxbar va kollektiv bilanuzaro munosobatlarning xarakterini nazarda tutadi.

6.Maqsadga muvofiklik prinsipi kompetentlik baxolash jarayoning optimalligini nazarda tutadi.

7.Individual-tipologik yondashuv prinsipi shaxslarning individual- tipologik xarakteristikalarini ajratishning muximliginikursatishga asoslangan.

S:

3.Etnik prinsiplari kompetentlik baxolash ishi doirasiga kiruvchixizmatlarning sifatini ta'minlashga karatilgan. Bunda inson xuquqlariga rioya kilish, faoliyatning madaniyatini kutarish nazardatutiladi. Kuyidagilar etik prnsiplari orasida eng muximlari xisoblanadi:

1.Konfidensiallik prinsipi kompetentlik baxosini aniklashgamurojaat etgan mijozlarning ximoyasiga karatilgan bir kanchatalablarni bajarishga karatilgan. Kompetentlikni baxolash bilan bog'liqbulgan jaraenida katnashish uz xoxish irodasini bildirgan xoldaamalga oshirilgan bulishi kerak. Professional kompetensiyanibaxolash buyicha mutaxassis mijoz xakidagi xama

ma'lumotnituplashga intilishi kerak emas, balki fakat baxolashga ta'lukli bulganma'lumrtni tuplashi kerak.

2.Kompetentlik prinsipi eng muxim prinsiplardan biri xisoblanadi.Bu prinsipga muvofik, professional kompetentlikni baxolash buyicha hamma ish mazkur soxadagi oxirgi yutuklar bilan tanish bulgan ,maxsus tayyorlangan malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishikerak. Professional baxolash olib borietgan mutaxassis uz ishimukammal bajarishi uchun boshka mutaxassislar bilan xamkorlik qilishi kerak bo'ladi.

3.Pozitivlik prinsipi butun faoliyatni shunday tarzda olib borishni taqozo kiladiki, bunda maksimal pozitiv natijaga erishilishi kerakbuladi. Pofessional baxolashni utaetgan shaxslarning individual xususiyatlarini inobatga oluvchi tomonlariga e'tiborni karatishninazarda tutadi(jinsi, yeshi, millati, sotsial- iqtisodiy mavke'i, diniva boshqalar).

4.Ishtirokchilarining manfaatlari va xurmatini inobatga olish prinsipi kompetentlikni baxolash bilan shugullanadiganmutuxassislarning faoliyati davomida tomonlarning bir biriga o'zaroxurmati nazarda tutiladi. Uzaro manfaatlarni aniklash, talab va taklifurtasidagi uzaro kelishuvni izlab, bundan xam samarali professionalloyixani yaratish yuqoridagi prinsip asosida imkon topadi.

Kompetentlikni baholash mezoni

Kompetentlikning tarkibiy qismlari	Kompetentlikni baholash mezonlari
1. Tayyorgarlik	Maxsus xususiyatlar, axborotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari, o'rganish qobiliyati, tipologik xususiyatlar va boshqalar
2. Bilim	Kompetentlik, stereotiplar, bilim, kompetentlik bilan bog'liq bo'lgan o'rganishning ustunligi haqidagi tasavvurning mavjudligi
3. Tajriba	Kompetentlikka yaqin yoki aynan unga mos keladigan masala va topshiriqlarni bajarish
4. Munosabat	Kompetentlikni amalga oshirish yoki faoliyat kompetentligi bilan bog'liq holda o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabatlarning shakllanishi
5. Muntazamlik	Kompetentlikka bog'liq amallarga «turtki»larni nazorat qilish qobiliyati, matonat, qat'iyat, sabrlilik, kompetentlikni amalga oshirish bilan bog'liq maqsadga erishishdagi to'siqlarni zabit etishga tayyorgarlik

2- jadval : Kompetentlikni baholash mezoni

Ushbu konsepsiya asosida M.D. Lapteva talaba-yoshlar uchun ijtimoiy o'zaro ta'sirlashuvda kompetentlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqqan.

Kompetentlikni namoyish qilishga tayyorgarlik darajasini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash mumkin:

- o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon etish g'oyasi;
- kasbiy yo'l tanlash, turmush qurish, farzandli bo'lishga nisbatan qarorqabul qila olishga tayyorgarlik;
- o'z hayotiga javob berishga tayyorlik;
- hayot yo'lini mustaqil tanlash;
- kasb sohasida ko'nikishlar hosil qilishga tayyorlik vaboshqalar .

Kompetentlik mazmuni haqida bilimlarga egalik quyidagi tavsiflarni o'zida aks ettiradi: fikr yuritishning dialektikligi, shaxsning kognitiv yetukligi, tajriba uchun ochiqlik, rasionallik, turli standart va nostandard holatlardakompetentlikni namoyish etish tajribasini esa, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish vabajarishdagi muvaffaqiyati, hattiharakat va faoliyatning individual yo'llari vaboshqalar. M.D. Lapteva fikriga ko'ra, kompetentlik mazmuni va uning tadbiqiob'yektiga munosabat, kasbiy o'z-o'zini baholashning shaxsga tegishli jihat vaota-onalik munosabatlarining hissiyotlari orqali amalga oshiriladi.

Kompetentlikning namoyon bo'lish natijalarining hissiyotli-idrokli regulyasiyasibaholash mezonlari sifatiga istiqbolli masalalarni qo'yish, ularni hal etishyo'llarini topishda qat'iyatlilik, talabgorlikning moslik darajasi, kasbiypotensialni o'zi baholashni, hissiy-shaxsiyatli avtonomlik va boshqalarga ega. Ijtimoiy kompetentlikning yuqori darjasasi o'zarota'sirga turli rollarda kirish va ularga mos harakat qilish, shu bilan birga destruktiv o'zaro ta'sirga yo'l qo'ymaslik qobiliyatini ko'zda tutadi. Hamkorlikdagi kompetentlik ko'rsatkichlari sifatida ishonch, tolerantlik, empatiya, inson huquqi va erkinligihaqidagi bilimlar, refleksiya, raqiblar o'zaro ta'siridagi malaka va ko'nikmalarxizmat qiladi.

Bo'lajak mutaxassislarini faoliyatga tayyorlashda N.S. Aulova, ularning quyidagi tayyorlik mezonlarini keltirgan:

- shaxsning refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv harakatlarning shakllanganligi;
- asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operasional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, usullariva yo'llarini egallash;
- bilish faollik darajasi – o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarini hal etish usullarini qo'llash ko'nikmasi;
- kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchlikningshakllanganligi;
- samarali kasbiy faoliyat usullarini o'zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;
- ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;
- bashorat qilishning faollik darajasi .

V.A. Serunyanning fikriga ko'ra, kompetentlik mezonlari faoliyatning ob'yektiv natijalari va tavsifini, shuningdek, sub'yektiv omillar, ya'ni motivlariva qiziqishlarini aks ettirishi kerak, ya'ni sub'yekt kompetentligi bir tomondanfaoliyat maqsadi shaxsning motivlarining umumiyligiga tuzilishiga qanchalik kirishibilan, boshqa tomondan, u yoki bu natijaga erishish uchun faoliyat qandayamalga oshirilishi bilan baholanadi .

O.M. Bobiyenko kompetensiyalarni baholash usullari sifatida quyidagilarni taklif etadi: kuzatish, savolnomalar, natijalar papkasi (portfolio), yozma jurnal (kundalik), rag'batlantirish (ishbilarmonlikni o'rgatish), amaliytopshiriqlar (kasbiy malakalarni namoyish etish), videotasvirlar .

Qayd etilganlarni e'tiborga olgan holda faoliyat sub'yekti kompetentligini baholash mezonlarini ikki guruhga ajratish mumkin: tuzilmali (motiv, bilim, ko'nikma, qobiliyat); funksional-faoliyat jarayoni va natijasi tavsifi.

Pedagogika va psixologiyada «kompetensiya» va «kompetentlik» deganda mutaxassis kompetentligining asoslari bo'lgan ma'lum kompetensiyalarga egalikni anglatuvchi shaxsning tavsiflanishi tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, bunday tushunish soddalashgan hisoblanadi, chunki bu tushunchalar mazmunida muhim farqlar kuzatilmaydi va shundagina kompetentlik

o'zaro bog'liq yoki bog'liq bo'limgan kompetensiyalarning yetarlicha sonini o'z ichiga olishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining komptentligini shakllantirish bo'yicha ta'lim jarayonining maqsadini aniqlashni ham, loyihalashni ham qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, kompetentlik tuzilmasini ta'riflashga ikkita turlicha yondoshuvlar mavjud: tushunchaning shajarali ahamiyati (kompetentlikning mazmuni va tabiatini ta'riflash) va tur jihatlari (kompetentlik tuzilmasidagi mutaxassis kompetensiyalari turlari). tushunchalari bilan bir qatorda «asosiy kompetensiyalar», «malakalar», «asosiy malakalar», «kasbiy kompetentlik», «kasbiy muhim sifatlar» kabi tushunchalarham qo'llaniladi. Ammo, bu tushunchalarni tasniflashning yagona asosi va umumlashtirilgan ta'riflari mavjud emas.

Oliy ta'lim tizimida ko'zda tutilgan natijalar sifatida kompetensiyalarga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarda asosiy urg'u «asosiy kompetensiyalar» va «asosiy malakalar» tushunchalariga berilgan.

Yevropa davlatlari kasbiy ta'limida quyidagi asosiy kompetensiyalar alohida ahamiyatga ega:

- a) **ijtimoiy** – o'ziga mas'uliyatni his etish, hamkorlikda qaror qabul qilish va unda ishtirok etish qobiliyati, turli etik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning korxona va jamiyat talablari bilan mosligi;
- b) **kommunikativ** – turli tillardagi yozma va og'zaki muloqot texnologiyalariga egalik, shu bilan birga kompyuter savodxonligi;
- c) **ijtimoiy-axborotli** – axborot texnologiyalariga ega bo'lish va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;
- d) **kognitiv** – doimiy ravishda ta'lim olganlik darajasini oshirishga tayyorlik, o'z shaxsiy potensialini faollashtirish va amalga oshirishga ehtiyoj, ya'ni bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati;
- e) **madaniyatlararo** kompetensiyalar;
- f) **mustaqil bilish** faoliyati sohasidagi kompetentlik;
- h) **maxsus** – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o'z mehnati natijalarini baholash.

Asosiy kasbiy kompetensiyalar mutaxassislarning ijtimoiy-kasbiy harakatchanligini aniqlaydi, turli ijtimoiy va kasbiy jamoalarga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. S.Ye. Shishovning fikriga ko'ra, asosiy kompetensiyalar - insonning kasbiy faoliyati davomida o'zining barcha bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar qilish, harakatlarning umumlashtirilgan usullarini qo'llash qobiliyatni hisoblanadi.

Asosiy kompetensiyalarning ko'rinish jihatidan turli xilligi yuqorida qayd etilgan mualliflar ishlarida umumilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborotkommunikativva umumkasbiy bilimlar bilan taqdim etilgan.

Kasbiy ta'lim pedagogikasi va psixologiyasida «asosiy kompetensiyalar» tushunchasi bilan bir qatorda «malakalar», «asosiy malakalar» tushunchalari ham uchraydi.

E.F. Zeer va G.M. Romansevlarning fikriga ko'ra, malaka – insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo'yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi hisoblanadi .

L.G. Semushina esa, malaka «past», «o'rtacha» va «yuqori» darajada bo'lganligi sababli mutaxassis tomonidan birorbir kasb yoki mutaxassislikning egallaganlik darajasini tavsiflaydi – deb ta'kidlaydi .

E.F. Zeer «kasbiy malaka» tushunchasini quyidagicha ta'riflagan: kasbiy malaka – mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi va turi, unda ma'lum ishni bajarish uchun zarur bilim, malaka va ko'nikmalarning mavjudligidan iborat .

Shunday qilib, malaka ham kompetensiyalar kabi asosiy va kasbiy bo'lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko'pincha oddiy «malakalar» deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar deb quyidagilar hisoblanadi:

- individning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunktional bilimi, ko'nikmalari, sifatlari va xususiyalari;
- aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlarini va sifatlari;
- turli kasbiy jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, malakalar va qobiliyatlar.

Asosiy malakalarning tuzilmali elementlari qatoriga shaxsning kasbiy yo'naltirilganligi, kasbiy kompetentligi, kasbiy ahamiyatli sifatlari va psixofiziologik xususiyatlarini kiritish mumkin.

Masalan, E.F. Zeer va E.E. Simanyuklar asosiy malakalar tarkibiga metakasbiy sifatlarni, ya'ni mutaxassisning kasbiy va ijtimoiy faoliyatining samaradorligini ta'minlovchishaxsning qobiliyatlarini xususiyatlarini, ya'ni tashkilotchilik, mustaqillik, javobgarlik, ishonchlilik, muammolarni rejalashtirish, muammoni hal qilishgaqobiliyatlilik va boshqalarni kiritgan. «Asosiy malakalar» tushunchasiningo'zini esa, asosiy kompetensiyalar va metakasbiy sifatlardan iborat kengmiqyosda qo'llaniladigan metakasbiy tizimlarlar sifatida ta'riflagan .

V.I. Baydenko kompetensiyadan farqli ravishda malaka mustahkam kasbiy maydon va algoritmlar bilan chegaralangan faoliyat ustuvorligini bildirishiga e'tibor qaratgan .

Yevropa hamjamiyati mamlakatlarida (masalan, Angliyada) «tayanch malaka» atamasi «bazaviy malaka», «asosiy malakalar» atamalari bilan bir qatorda qo'llaniladi va faoliyatning turli xil holatlari hamda ijtimoiy hayotda turli shakllarida namoyon bo'luvchi shaxsiy va shaxslararo sifatlar kabi ta'riflanadi.

Asosiy (bazaviy) malakalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy qobiliyat, psixomotorli malakalar, o'rganish qobiliyatları, umummehnatli sifatlar, individual yo'naltirilgan qibiliyatlar;
- asosiy (savodxonlik, hisob), hayotiy (o'zini boshqarish, kasbiy va ijtimoiy o'sish ko'nikmalari), tayanch (kommunikatsiya), ishbilarmonlik, boshqaruvchanlik ko'nikmalari, tahlil va rejalashtirishga qobiliyatı;
- ijtimoiy - kasbiy malakalar, kasbiy kompetentlik, kasbiy-shaxsiy qibiliyatlar.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari nisbati muammosiga bag'ishlangan manbalar tahlili quyidagi ikki holatni qayd etish imkonini berdi:

- 1) «kompetensiya» va «kompetentlik» atamalari bilimlar tizimining amaliy qo'llanishini anglatuvchi sinonimlar sifatida aniqlanadi;
- 2) «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari turli asoslar bo'yicha bir-biridan farqlanadi.

Ko'pincha bu tushunchalarni farqlash asosi bo'lib, ularning turli ko'rinishdagi mazmuni xizmat qiladigan holatlar uchraydi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik kreativlik (ijodkorlik) deganda nimani tushunasiz ?
2. S.Ye. Shishovning fikriga ko'ra, asosiy kompetensiyalar to'g'risida qanday fikr bildirgan?
3. Shaxs kreativligini rivojlantiruvchi metodlarni sanab o'ting?
4. E.F. Zeer «kasbiy malaka» tushunchasiga qanday ta'rif bergan?
5. Pedagogik taksonomiya – bu ?

Adabiyotlar:

1. Texnologii vospitaniya i obucheniya: Uchebnoe posobie dlya stud. vysssh. T38 ucheb. zavedeniy / N.N. Nikitina, V.G. Balashova, O.M. Jeleznyakova, N.M. Novichkova; Pod red. N.N. Nikitinoy. – Ul'yanovsk: UlGPU, 2011. – 210 s. (5-12 betlar)
2. Isaev V.F. Professional'no-pedagogicheskaya kul'tura prepodavatelya. Ucheb. posobie dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniy. - M.: Izdatel'skiy tsentr «Akademiya», 2002. - 208 s. (16-22 betlar)
3. Rubtsova Ye.T. Texnologicheskaya kul'tura v vysshem pedagogicheskem obrazovanii. (1-7 betlar).
Anis'kin V.N. Texnologicheskaya kul'tura budushhego uchitelya kak kategoriya didaktiki. (1-2 betlar)

7 . MARUZA MASHG'ULOTLAR

Mavzu:7 Texnologik ta'limga kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari.

Mavzu rejasি:

- 1.Oliy ta'limga muassasalarida texnologik ta'limga o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.
- 2.Texnologik ta'limga o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili.
- 3.Texnologik ta'limga o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Pedagogika, psixologiya, oliy ta'limga, rivojlanish, barkamol, kompetent.

Oliy ta'limga muassasalarida texnologik ta'limga o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, oliy ta'limga sifatini yaxshilash bevosita barkamol avlodga ta'limga tarbiya beruvchi bo'lajak pedagoglarni har tomonlama yetuk kadr bo'lib yetishishlarini kafolatlaydi.Chunki, pedagogik kasb bir paytning o'zida ham islohotchilik, ham boshqaruvchilik kasbi hisoblanadi.Shaxs kamolotini boshqarish uchun esa kompetent bo'lishi lozim.

Shuning uchun o'qituvchini kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'limga to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasida «Yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega» ekanligi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligi tarkibi pedagogik ko'nikmalar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Bugungi zamonaviy ta'limga tizimiga nazar tashlaydigon bo'lsak pedagogning mahorati, uning kasbiy kompetentligi ta'limga sifatli amalga oshirish garovi desak mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, texnologik kompetentlik ham kasbiy kompetentlikning asosiy qismlaridandir. Bizga ma'lumki XXI asr axborot texnologiyalari asri bo'lishiga qaramay pedagoglarimiz ta'limga jarayonida bu borada hali ham oqsashmoqda. Ko'plab pedagoglarimiz faoliyati quruq

ma’ruza bilangina cheklanib qolyapti, zotan buyuk rus pedagogi Y.A.Komenskiy ta’kidlaganidek:”Eshitsam unutaman, ko’rsam eslab qolaman, bajarsam anglab yetaman”, degan edi. Shunday ekan bo’lajak pedagoglarimiz ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, multimedia, slayd, audio-video vositalari bilan boyitishi uchun ularda texnologik kompetentlikni, mahoratni shakllantirish lozim.Bu esa o’z navbatida pedagogning o’z ustida ishlashiga, mavjud zamonaviy axborot texnologiyalaridan, zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lishga undaydi.

- Bo’lajak pedagoglarda texnologik kompetentlkini shakllantirishning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- Yangi pedagogik texnologiyalardan kelib chiqan holda bo’lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishni omillari;
- Pedagogik fanlarni o’qitish jarayonida axborot telekomunikatsiya vositalari imkoniyatlarini o’rganish;
- Bo’lajak o’qituvchilarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlabchiqish va ularni amaliyatga joriy etish.

Pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari:

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi .

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha èritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayèrlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashni izchil rivojlantirib boorishbo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

Sifatlar:

Ijtimoiy kompetentlik

Shaxsiy kompetentlik

Texnologikkompetentlik

Maxsus (yoki kasbiy)kompetentlik

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Ektremal kompetentlik Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik;

- murakkab jaraènlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jaraènda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jaraèniningboshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jaraènni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim èki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy èndashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jaraènni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jaraènining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliètga samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jaraènining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

7) Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

8) Texnologik kompetentlik kasbiy-pedagogikniboyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

9) Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish,

to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiykompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bun day tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova , va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi .

10)Pedagogning kasbiy kompetentligi. O‘zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘ranilgan bo‘lib, ularorasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishslash,o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishslash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy èndashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo’lganligi uchun ularning har biri o‘z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiyo ko’rinishlari bilan kompetensianing jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumo’quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylik, badiiy, texnik, shu bilan birga pedagogik-psixologik, ijtimoiy va boshqa ko’nikmalariga mos keladi.

Psixologik tavslif sifatida kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv (bilimlar) va operasion-texnologik (faoliyatli), balki motivatsion-etik, ijtimoiy va ahloqiy tashkil etuvchilarni ham o‘z ichiga oladi.

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

- 1) tashkiliy-boshqaruvchanlilik** (o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta'lif jarayonini moddiy-texnik ta'minlash);
- 2) o'quv-uslubiy** (mashg'ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g'oyalarni ajratish);
- 3) texnologik** (nazorat-baholash, o'qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash);
- 4) psixologik-pedagogik** (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o'qitishga motivatsiyani rag'batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo'llash). Pedagogika metodikasi tadqiqot va amaliyotni qanday o'tkazish kerakligini ko'rsatadi. Bunday bilim har bir o'qituvchi uchun zarurdir.

O'qituvchi metodik madaniyat darajalari to'g'risida g'oya va ma'lum bilimlarga ega bo'lishi kerak o'qituvchilar tarkibi, pedagogika metodikasi to'g'risida va ushbu bilimlardan muammolarni hal qilishda va turli xil bo'lganida amaliy qo'llanishda o'z faoliyatida foydalana olish pedagogik muammolar. O'qituvchining uslubiy madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Ta'lif jarayonini loyihalashtirish va qurish.
2. Pedagogik muammolarni anglash, shakllantirish va ijodiy hal etish.
3. Metodik aks ettirish.

O'qituvchining metodik madaniyati bilimlari va metodikasining asosiy mezonlari o'qituvchi o'zining amaliy ishida tahlil va boshqa tadqiqot usullaridan foydalangan holda o'z ishini takomillashtirish uchun ilmiy va pedagogik bilimlardan foydalanishidir. Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdag'i malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zarur. Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini

shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta.” Texnologiya” so’zi – ishlov berish, holatni o’zgartirish san’ati, mahorati, malakasi va metodlar yig’indisi degan ma’nolarni bildiradi. Zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko`zda tutilmagan noaniq, ya`ni muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallangan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo`llay oladigan xususiyatlarni egallahni tarbiyalashdan iboratdir.

Bo’lajak pedagoglarda texnologik kopetentlikni shakllantirishda oliy ta’lim muassasalarida inavatsion texnologiyalarining ro’lli ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta’lim olish mumkin. Zero, an’anaviy ta’lim o’z mavqeini saqlab tursa ham, keying payitlarda masofaviy o’qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. 2012-yildan boshlab O’zbekiston Respublikasi barcha oliy ta’lim muassasalari o’rtasida birinchi videokonfrentsiya ta’lim texnologiyasi amalga oshirildi va hozirgi kunda bu borada elektron ta’limgakata e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim va ko’nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan mos o’qitish tizimini yaratmasdan mumkin emas.

Mutaxassisning kompetentligini ta’riflashga turlicha yondoshuvlar mavjud. Masalan, N.F. Talizinaning nuqtai nazaricha, u uchta asosiy tarkibiy qismlarga (sifatlar, bilimlar, ko’nikmalar) mos kelishi kerak.

Ularga quyidagilar kiradi:

Sifatlar: ishga munosabatni ifodalovchi: mehnatsevarlik, e’tiborlilik, ijodiy yondoshuv;

6. hatti-harakat va faoliyatning umumiy ma'romini tavsiflovchi: ijrochilik, mustaqillik, so'ziga sodiqlik, obro'lilik, faollik va shijoatlilik; aqliy qobiliyatlar: egiluvchanlik, zukkolik, uzoqni ko'ra bilishlik;
7. ma'muriy-tashkiliy: ish muhitini yaratish ko'nikmasi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmasi, jamoani himoya qilish, insonlarni farqlay olish, ularni ishontira olish ko'nikmasi;
8. insonlarga munosabatni tavsiflovchi: rostgo'ylik, tarbiyalilik;
9. o'ziga munosabatni tavsiflovchi: talabchanlik, kamtarlik, dadillik, mukammallik.

Bilimlar: o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy, umummadaniyat, kasbiy faoliyat haqida ma'lumotlilikka.

Ko'nikmalar: qo'yilgan masalalarni yechish, adabiyotlar bilan ishslash, faoliyatni rejalashtirish.

Bu ro'yxat faoliyat turiga qarab to'ldirilishi yoki qisqartirilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetensiyalari ajratiladi: o'quv-bilish, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-foydali, shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish. Bularning barchasi bitiruvchiga kasbiy bilim, ko'nikma va keyingi hayotda faoliyat usullari majmuasini ongli ravishda qo'llash imkonini beradi. **Kompetentlik** - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo'lishi kerak. Umumiyligi holda bular mehnat, o'quv, o'yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yana quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin:

- kompetentlikni faoliyatning yo'naltirilgan ob'yekti bo'yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiat», «insonbelgili tizim» sohalarida kompetentlikni beradi;
- kasblarning alohida sinflari va guruhlari sohasidagi kasbiy kompetentlik;
- aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik.

Jamiyatning turli sohalarida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: maishiy xizmat sohasida, san'at sohasida, sport sohasida va boshqalar.

«Bilimlilik» tavsiflari ham kompetentlikka kiradi va ijtimoiy bilimlar sohasi (matematika, fizika, gumanitar fanlar, biologiya va boshqa fanlar sohasida kompetentlik), ishlab chiqarish sohalari (energetika, transport, aloqa, mudofaa, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar) bo'yicha tasniflanadi. Texnologiya fani darslari o'qituvchi rahbarligidagi o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga, ongi ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga tayyorlashlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini shakllantirishga qaratilgan o'quv fanidir. Maktablardagi texnologiya fanini shartli ravishda o'quv va unumli mehnatga bo'lish mumkin. O'quv mehnati aktiv faoliyat bo'lib, o'zini atrofidagi muhitni va o'zini bilishga qaratilgan, maqsad, kuch, g'ayrat va erishilgan natijalar mavjud bo'lgandagina ta'lim jarayoni mehnatga aylanadi. O'quv mehnati faol fikrlash, bilimlarni mustaqil egallash, qayta ishlash va ijtimoiy tajribada qo'llash asosida amalga oshiriladi. Shu asosda kishining o'z qarashlari va e'tiqodi shakllanadi. Kamol topayotgan kishilar faqat fan asoslarinigina emas, balki ularning amaliy texnologik mazmuni va tadbiq etilishini ham o'zlashtirib oladilar. Shu bilan birga bu jarayon amaliyotning nazariyaga singib ketishi sifatida emas, balki nazariy va amaliy mo'ljal asoslarining qo'shilib ketishi singari namoyon bo'ladi. Unumli mehnat bolalar va kattalarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va olamni o'zlashtirishga qaratilgan samarali mehnati, shaxsning hozirgi vaqtidagi va kelgusidagi jismoniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyatni ishlab chiqarishdir. Haqiqiy foyda keltiradigan unumli mehnat tarbiyaviy mehnatga aylanadi, bunda sodir bo'ladigan mehnat munosabatlarida uning qatnashchilarini shaxsiy va ijtimoiy manfaatlari ongli va uyg'un ravishda qo'shilib ketadi. Unumli mehnat iqtisodiy masalalardan tashqari tarbiyaviy, ta'limiy, ma'lumot beradigan vazifaga ham egadir. texnologiya fanini

unumli o‘qitishning maqsadi o‘quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko‘nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnat va kasblarni qadrlash, ularni ahamiyatini tushunishga o‘rgatish hamda kasb tanlashga tayyorlash orqali ularni kasbga tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat. Ushbu maqsad amalga oshirish uchun, ta’limiy-tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish lozim. Ta’limiy vazifa-o‘quvchilarni barkamol shaxslar bo‘lib shakllantirishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar, umumiylar texnologiya, texnika va ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini o‘rgatish, kasb tanlashga yo‘naltirish va kasb-hunar kollejlarida ta’lim olishga tayyorlashdan iborat. Tarbiyaviy vazifa-o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalari shakllantirish jarayonida mehnat va kasb munosabatlari yuqori ahloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va tadbirkorlikni rivojlantirib borishdan iborat. Rivojlantiruvchi vazifa- texnologiya fani mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarga aqliy, jismoniy, ahloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta’lim berish kasbga tayyorgarliklarini amalga oshirish orqali ularning barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlariga yordam berishdan iborat. Texnologiya fanining mazmuni shartli ravishda uchga, ya’ni mehnat ta’limi tayyorgarligi, kasblar bo‘yicha tayyorgarlik va kasbgacha maxsus tayyorgarlik qismlariga bo‘linadi. Bu qismlar har bir dars va amaliy mashg‘ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo‘lib, ularni o‘qituvchilar tomonidan ilmiy, uslubiy nuqtai nazardan hisobga olingan holda tahlil qilib borilishi, texnologiya fani mashg‘ulotlarini aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta’minlaydi.

Nazorat savollari:

1. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuning 5-moddasida nima keltirilgan?
2. Innovatsion kompetentlik bu-?
3. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar bular ?
4. Y.A.Komenskiy ta’kidlaganidek: ”Eshitsam unutaman, ko’rsam eslab qolaman, bajarsam anglab yetaman”, degan so’zini ta’riflang ?

5. Pedagokning o’z ustida ishlashi nimalarda ko‘rinadi ?

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. BMuslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

8-MARUZA MASHG'ULOTI

Mavzu:8 Kompetentsiya, kompetentlik tushunchalarining mohiyati va ilmiy maktablar talqini.

Mavzu rejasi:

1. Pedagogik kategoriya sifatida kompetentlikning mohiyat va mantiqiy jihatdan tahlili.
2. Kompetentlik va madaniyat o'rtaсидаги bog'liqlik shaxsning rivojlanishi. Kasbiy faoliyat (mehnat funktsiyalari)da kompetentlik. Kasbiy kompetentlikni psixologik xususiyatlari.
3. Kasbiy kompetentlik shaxs sifatlari. Falsafiy, psixologik, sotsiologik va madaniy komponentlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida.

Tayanch tushunchalar: Shaxs, faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka, falsafiy, sotsiologik, psixologik.

Kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

Kompetentlikning mohiyati - shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir .

Demak, kompetentlik bu aniq faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega bo'lgan shaxs tavsifi bo'lib, u ta'lim oluvchi tomonidan alohidabilim va ko'nikmalarni emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrallashgan bilimlar va sifatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kompetentlik bo'lajak mutaxassisning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat metodlari majmuasini maqsadgamuvofig qo'llash qobiliyatini anglatadi. Bulardan ko'rinish turibdiki, pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan kompetensiya - bu bilim va vaziyat orasidagi aloqani o'rnatish imkoniyati yokikeng ma'noda muammoni

hal etish uchun zarur bo'lgan jarayonini (harakat vabilim) ko'rsatish, topish qobiliyatidir.

Kompetensiyalar tayanch va asosiy kompetensiyalarga bo'linadi.

Tayanch komepetensiya - bu o'z tavsifi va qo'llanilish darajasi bo'yicha ommaviy.

Asosiy kompetensiya - bu o'z tavsifi va qo'llanish darajasi bo'yicha qaralayotgan mutaxassislikka mos keluvchi kompetensiyadir. Uni kasbiy kompetensiya deb ham atash mumkin.

Tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatnitashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarini egallashga imkon beruvchi asosiyturlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi kompetentlik turlariga bo'linadi:

Kompetensiya tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:-bitiruvchining tayyorgarligi, «mutaxassislashtirilgan» ligi, faoliyat usullari va vositalariga haqiqiy egaligi, qo'yilgan masalalarni hal eta olishligi bilan ifodalanuvchi ta'lim natijasi; - atrof-muhitni shakllantirib maqsadni qo'yish va unga erishish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarning mosligi. O'zbek tilidagi «-lik» qo'shimchasi ma'lum sifatga egalik darajasini bildiradi. Shuning uchun «kompetentlik» atamasi ma'lum sifatlar va ularga egalik darajasini belgilash uchun qo'llaniladi. **Kompetentlik** - deganda ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiyligi qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlari tushuniladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. M.A. Choshanov fikricha kompetentlik bu nafaqat muammo mohiyatini tushunish, balki uni hal etish metodlarini egallash . Shuning uchun ham kasbiy kompetensiya mavjud bilimlar asosida vujudga kelgan muammoni hal etish usulini tez va to'g'ri

tanlash ko'nikmasida namoyon bo'ladi. V.A. Slastenin, I.F. Isayev, D.I. Mishyenko, K.N. Shiyanovlar kompetentlik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi sifatida qaraydi . Ye. Vaxromov kompetentlikni kundalik hayotdagi real vaziyatlarda vujudga keladigan tipik muammolar va masalalar ni samarali hal etishga imkon beruvchi spesifik (o'ziga xos) qobiliyat sifatida qaragan . Kompetentlik - deganda insonning kompetensiya va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatidan iborat mos kompetensiyaga egaligi ham tushuniladi. N.A. Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta'riflagan: «kompetentlik bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi» . A.X. Mahmudov esa, kompetentlikka quyidagicha ta'rif bergen: «kompetentlik bu doimo o'zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxasisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir» . «Kompetentlik» va «kompetensiya» atamalari sinonim tushunchalar bo'lib, bu tushunchalar O'zbekiston pedagogikasida yangi hisoblanadi. Shuning uchun ularning turli xil talqinlari mavjud. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartida kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha ta'riflar berilgan: kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish; kompetentlik - shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir . Demak, kompetentlik bu aniq faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega bo'lgan shaxs tavsifi bo'lib, u ta'lim oluvchi tomonidan alohida bilim va ko'nikmalarni emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrallashgan bilimlar va sifatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kompetentlik bo'lajak mutaxassisning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat metodlari majmuasini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi. Bulardan ko'rinish turibdiki, pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan kompetensiya - bu bilim va vaziyat orasidagi aloqani o'rnatish imkoniyati yoki keng

ma'noda muammoni hal etish uchun zarur bo'lgan jarayonini (harakat va bilim) ko'rsatish, topish qobiliyatidir. Kompetensiyalar tayanch va asosiy kompetensiyalarga bo'linadi. Tayanch komepetensiya - bu o'z tavsifi va qo'llanilish darjasи bo'yicha ommaviy, asosiy kompetensiya esa, o'z tavsifi va qo'llanish darjasи bo'yicha qaralayotgan mutaxassislikka mos keluvchi kompetensiyadir. Uni kasbiy kompetensiya deb ham atash mumkin. Tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarни egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazaridan ular quyidagi kompetentlik turlariga bo'linadi:

Kompetensiya iborasi zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladigan termin bo'lib, ta'lim, xodimlarni tanlash, mehnatnatijasini baholash, ta'limnmng muvoffaqiyatligi, professionalyo'naltirilganlik va shu kabi masalalarni qamrab oladi. Bugungi kundama'no nuktai nazaridan oxirgacha aniklashtirilmagan debxisoblanadi.

1970 yillarda kupgina Garb Yevropa davlatlarida paydo bulib, bunda kompetentlik professional tayyorgarlikning yangi yunalishinikursatadigan buldi. «Kompetentlik» termini ta'lim fakatgina individual, texnik yeki tajribiy bilim va kobiliyatni egallash masalalaribidan bog'liq bulib kolmay, balki individ shaxsni keyinchalikrivojlantrishga baza bulib, xizmat kala oladigan kobiliyat vako'nikmalari majmuasini ifoda kiladi. Ammo bu goya barcha Yevropadavlatlarida turlicha uz ifodasini topdi.

Masalan, Germaniyada 1980 yillardan boshlab, «professionalfaoliyatda kompetentlik» iborasi boshlangich professional tayergarlikmabaynida erishilishi shart bulgan maksadni ifodalagan. Bu ukitishkursi uzaro oglilik, texnik kompleks va umumiyl bilim yigindisidaniborat bulib, bu bitiruvchiga kompaniyaning turli ish joylarida ishnidavom ettirish imkonini berar edi. Bu umumiyl malaka uzgarishsiz qolishi mumkin emas, u rivojlanib borishi kerak, chunki individ vajamiyat

manfaatlaridan kelib chikkan xolda mexnat dunesiningtalablari va shartlari xam uzgarib turadi.

Buyuk Britaniyada «kalit kompetensiyalari» debyuritiladigan sistema aktiv qullanilmoqda. Kalit kompetensiyalari bumuxim maxsus kompetensiyalar bklid, ular kundalik xayotdaekiprofessional tayergarlikni utaetganda qullaniladi.

Kalit kompetensiyalari 3 ta funksiyani bajaradi:

- 1) Ular talabalarning ta'lim olishga yerdam beradi.
- 2) Xodimlar ishga qabul kiluvchilarning talablariga ixchamlik bilan javob berish imkonini beradi.
- 3) Xayotlarida muvoffakiyatli bulishlariga yerdam beradi.

Quyidagi asosiy kompeteknsiyalarni ajratishadi:

- 1.Raqamlar orqali oshiriladigan kompetensiyalar raqamli ma'lumotlarni yaratish, xisoblarni utkazish, yakuniy xulosalarni taqdim etish qobiliyati.
2. Kommunikatsiya- ma'lumotlarni tinglash, uqish,yozish va qabul qila olish qobiliyati.
- 3.Informasion texnologiya-olingan ma'lumotlarni turli obrazda taqdim etish, masalan , tekst, rakam, diagramma sifatida.
- 4.Mustaqil ta'lim va mustaqil prezintatsiya-xodimlarni boshqarish, karerani rivojlantirish va ta'lim olish qobiliyati.
- 5.Insonlar bilan ishlash- kollektivda umumiylarini maksadlarni kuzlagan xolda faoliyatni rejorashtirish va amalga oshirishda insonlar bilan ishlay olish qobiliyati.

Kalit kompetensiyalari faoliyat mobaynida rivojlanadi, masalan, lavozim majburiyatlarini bajarishda professional tayyorgarlik programmalarini utishda, ta'limning turli xil shakllarini egallashda rivojlanadi.

Mashxur ingliz psoxologi Dj.Raven nazariy kompetentlik modelini va shu bilan birga uni baxolashda yangi yunalishlarni taklifetgan.Ravenning fikriga kura, kompetensiya bu anik bir vazifanisamarali bajarish uchun talab kilinadigan tor doiraviy maxsus bilimlar,fikrlash yullarini kamrab oluvchi maxsus kobioiyat xamda uzining harakatlari uchun javobgarlikni xis etishdir.

Ravenning «yuqori kompetensiyalar» deb nomlanuvchi kompetensiyalar tug’risida suz yuritadi. Yuqori kompetensiyalar insonlarda yuqori tashabbuskorlik qobiliyatini, uz maksadlariga erishish uchun insonlar faoliyatini tashkillashtirish bilan bog‘liq bulgan tashabusskorlik qobiliyati, uz harakatlarining sotsial oqibatlarini va amal qilishni talab qiladi.

Ravenning qarashlariga muvofik, kompetentlikning tabiatishundan iboratki,bunda inson uzining faoliyatida chukur qizikish bilan qaraydi va inson qiymati bilan bir butunlikda namoyon buladi.

Komponentlikni baxolashda 2 bosqichli model mavjud:

Avvalambor inson nima bilan shug’ulanmoqchi ekanligi aniqlanadi keyin esa mazkur faoliyatda ular qaysi kompetentlik komponentlarini kursatishi aniqlanadi.

Raven ilgari surgan kompetentlik modeli kompetentlik soxalaridan iborat bulgan uziga xos «xarita»ni ifodaydi, ular motivatsiyalik, irodalik va natijalilik komponentlaridan iboratdir.

J.Lebo ter «kompetensiya injeniriysi» deb nomlangan nazariyani ishlab chiqdi va sistemlashtirdi. Leboterga muvofik,kompetensiya bilimlarning yigindisi,ko‘nikma, qobiliyat,oldingi vayangi tajribalarning biron bir faoliyatda qullanilishi kuzatiladi.

Yevropa ta’lim fondining glossariysida bu terminga umumiy mazmun berilgan:

Kompetensiya kirish, chiqish, jarayon sistemalarini ham ko’rib chiqadi.

Kompetensiada kirish bu - shu guruxga mansub vazifanibajarish uchun real kobiliyat tushuniladi. Bu bilim, kobiliyat,munosaballarni uz ichiga oladi. Bu kabi kompetensiya tugma yokita’lim olish , trening va professional tajriba mobaynida egallangankompetensiya bulishi mumkin.

Kompetensiada chiqish bu - professional vazifani samarali xal eta olish qobiliyatini kursatadi. Bunda asosiy vazifa boshlang’ich natijani emas, balki eng samarali natijani baxolash xisoblanadi.

Kompetensiada jarayon bu - kutilayotgan natija yoki maqsadga erishish uchun egallangan bilim va ko‘nikmalarini qo’llay olishimkonidir.

Xodimni baxolash tugrisida suz yuritilganda, bunda «baxolash so’zini aniqlashtirishga asosiy e’tibor beriladi. Kadrlarni tanlashdagi kompetentlik nuqtai nazaridan, mexnatning naqadar samaradorligini baxolash tushuniladi. Shuning uchun samaradorlik kriteriyalari asosida, mazkur samarali natijalarga erishish uchun muljallangan kompetensiyalarni egallagan mutaxassis modelini ko’rish kerak deb hisoblanadi. Shunday bir kasb borki, jamiyat uchun zarur bo’lgan biror mutaxassis uning ishtiroki va mehnatisiz o’z kasbini mukammal egallab chiqa olmaydi. Bu - o‘qituvchilik kasbidir. O‘qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasbdir. Chunki har qanday odam ham bu murakkab kasbni egallab ololmaydi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchilarga g‘amxurlik qilishning juda ko‘p qirralari mavjud, bular «O‘qituvchilar va murabiylar kuni» ni bayram sifatida nishonlanishi, turli faxriy unvonlar ta’sis etilganligi, turli imtiyozlar berilayotganligi fikrimiz dalilidir. O‘zbek xalqi qadimdan ustozni e’zozlab kelgan xalq bo‘lishi bilan shuxrat qozongan. « Ustoz otangdan aziz », « Usta qanday-shogird shunday », « Ustoz bilimli-shogird ilmli » singari xalq maqollarida ham o‘z ifodasini topgan. Pedagogik faoliyat - bu o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi faolligidir. U umumiy ta’limni isloh qilishda, yosh avlodni xar tomonlama shakllantirishda muxim rol o‘ynaydi. Xalqimiz ular qo‘liga shirindan-shakar jigargo‘shalarini ishonib topshiradilar. O‘qituvchi bola shaxsini shakllantiradi, ma’naviy, hayotiy va ilmiy e’tiqodlarni, qiziqish va ideallarni shakllantiradi. Umuman olganda, o‘qituvchilar qo‘lida yosh avlodimizning taqdiri yotadi. Ularni baxtli va baxtiyor, badbaxt va yomon bo‘lishi ham, olim va zolim bo‘lishi ham o‘qituvchilarimizga bog‘lik. Shuning uchun ham o‘qituvchi jamiyatimizning yetuk o‘g‘il qizlarini tarbiyalashda alohida o‘rin egallaydi. Pedagogik faoliyat hamma faoliyatlar ichida o‘zining chukur insoniy mazmuni bilan ajralib turadi. U o‘zining ma’suliyati va uning yurakdan xis qila bilishi bilan ahamiyatlidir. Uning mazmuni esa o‘qituvchi shaxsining faoliyati motivlari bilan belgilanadi. Agar bu motivlar ta’lim-tarbiya jarayonida uzoqni ko‘zlagan, ma’lum ijobjiy maqsadlarga qaratilgan bo‘lsa - bu oliyjanob ideallarning paydo bo‘lishiga, o‘qituvchini bola qalbiga chuqurroq kirishiga, izlanishiga, yangi bilimlar sistemasini

bolalarimizga singdirishiga, ularda o‘qishga, mexnatga nisbatan ijobiy, ongli munosabatlarni tarbiyalashga olib keladi.

Pedagogik faoliyat motivlarining mazmuni ta’lim-tarbiya ishini muvaffaqiyatini belgilovchi omil xisoblanadi. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va uni qayta qurish o‘qituvchi shaxsi oldiga katta vazifalar va talablar qo‘yadi. Bular,

1. O‘qituvchi o‘zining sog‘lom dunyoqarashi, aniq insoniy yo‘nalishi, g‘oyaviy-siyosiy e’tiqodining yuksak darajada ekanligi, o‘z vazifasini vijdonan bajarishi.

2. Bolalarga, pedagogik mexnatga mexr qo‘yishi, bolalar jamoasi bilan ishslash va birga bo‘lishga moyilligi.

3. Tarbiyaviy ishlarning sifatiga ahamiyat berish va ularni hayotga e’tiqodli qilib tarbiyalash.

4. Talabalar, ota-onalar va turli millatlar orasidagi ijobiy va samimiy munosabatlarni o‘rnatalishi.

5.Ta’lim jarayonini takomillashtirish, unda talabalarni bilish va fikr yuritish jarayonini faollashtirish.

6. Mustaqil, faol va ijodiy tafakkurni shakllantirish.

7.Ta’lim jarayonida talabalarni maxsus va umumiy qobiliyatlarini shakllantirish.

8.Yoshlarni mexnatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishini shakllantirish malakasiga ega bo‘lish.

9.Ta’limning mazmunini takomillashtirish va intensivlantirishda uni yangi, samarali metodlarini qidirib topish va undan foydalanish.

10.Ta’lim-tarbiyaning effektiv yo‘llarini topa bilish. Talabalarning psixologik qobiliyatlarini tushunish va unga qarab individual munosabatda bo‘lish.

11.Talabalarni hozirgi zamon talabiga binoan tarbiyalash, o‘z millatining urf-odatlari , ahloqlari ruhida shakllantirish kabi qator vazifalarni hal qila oladigan bo‘lmog’i lozimdir.

Bu vazifalarni hal qilish turli vaziyatlarda turlicha bo‘lishi mumkin.

1-vaziyatda: o‘qituvchining professional bilimlarni egallashi, o‘z ustida samarali ishlashi, fan yangiliklaridan foydalanishi, izlanishi, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda amalga tadbik qila olishi bilan ;

2-vaziyat: o‘qituvchining mustaqil, faol, ijodiy ish ko‘ra bilishiga;

3-vaziyatda: talabalar faoliyatini analiz qilishi, uning ijobiy va salbiy tomonlarini o‘rganish, ulardan o‘z ishida foydalanish yoki tanqidiy karashga bo‘lgan munosabatida;

4-vaziyat: o‘qituvchining ta’lim-tarbiya ishida sodir bo‘lgan kamchiliklar va ularga bo‘lgan munosabatlari, ya’ni ularni bartaraf qila olishi yoki sabr-qanoat bilan ishlash qobiliyatining turlicha bo‘lishi.

5-vaziyat: o‘qituvchining talaba shaxsini turlicha shakllantirishiga, ularda bilim, malaka va kunikmalarni xosil qilishga bo‘lgan munosabati uni xar tomonlama kelgusi faoliyatga tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liqdir.

Bu vaziyatlar o‘qituvchining pedagogik faoliyati mazmunini tashkil qiladi.

Agar pedagogik faoliyat :

1-dan, pedagogik yo‘nalishning aktivligini;

2-dan, ijtimoiy buyurtmalarni qanday bajarilishini,

3-dan, shaxsni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyat boshqa foaliyatlar orasida eng murakkab va ta’lim-tarbiya berishdan oliy maqsadga qaratilgan faoliyatdir. Shuning uchun bu faoliyatning turi, tuzilishi ham o‘qituvchi shaxsi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy talablarning qanchalik murakkabligini ko‘rsatishi mumkin.

Pedagogik faoliyat turlariga:

1. Ta’limiy faoliyat.

2. Tarbiyaviy faoliyat.

3. Tashkilotchilik faoliyati.

4. Tashvikotchilik faoliyat.

5. O‘z ustida ishlash faoliyati.

6. Maslahat berish,bolalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish faoliyati.

Pedagogik faoliyat strukturasiga:

1) ta’lim-tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarining motivlarini aniklash;

2) talabalarga ta’lim-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullarini tanlay olish;

3) talabalarni nazorat qilish va ularning faoliyati, bilimlarini baxolay olish kiradi.

Pedagogik faoliyatning bu strukturasida bevosita uning komponentlari:

- 1) konstruktiv;
- 2) tashkilotchilik;
- 3) kommunikativ faoliyatlar yotadi.

Chunki, ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarining motivlarini belgilash, unga ta’sir etuvchi usullarni tanlab olish, qo’llash; talabalarni nazorat qilish va bilimlarni baxolash bevosita o‘qituvchining konstruktiv, ya’ni ta’lim jarayonini tashkil etishga, uning tashkilotchiligi va ta’limni boshqarishi, talabalar bilan o‘zaro munosabati va ularning bilimlari, imkoniyatlarini baholay olishiga, talabalar qalbiga kira olishiga bog‘liqdir.

Konstruktiv komponent - o‘qituvchining mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari bo‘ladigan tarbiyaviy ishlarni ishlab chiqish, unga tegishli bo‘lgan usullar yoki metodlarni tanlay bilishi, talabalarga chuqur bilim bera olishi, darsni faollashtirishi va intensivlashtirish (tezlatish) yo‘llarini, muammoli vaziyatlarni paydo qila olish va uni talabalar oldiga qo‘ya bilishdagi faoliyat komponentidir. Pedagogik faoliyatning bu komponenti ta’limni isloh qilish jarayonida jamiyatimiz hayoti, rivoji uchun zarur bo‘lgan komil insonni tarbiyalashda o‘qituvchilar oldiga ulkan talablarni qo‘yadi.

Tashkilotchilik komponenti - bu komponent konstruktiv komponent bilan bog‘lik bo‘lib, u butun o‘quv faoliyati va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish malakasidan iboratdir.

Tashkilotchilik faoliyatida uch yo‘nalish: bayon etish, o‘z xulqini dars va tarbiyaviy ishlarda tashkil qila bilish, boshqarish, talabalar faoliyatini tashkil qilish asosida amalga oshadi.

O‘quv va bilish faoliyatini tashkil qilishda talabalarning individual ish faoliyatini tashkil qilish, jamoa faoliyatini, ota-onalar va ta’lim muassassalarga yordam beradigan tashkilotlar ishini boshqarish ham shu faoliyatning ish mazmunini tashkil etadi.

Kommunikativ faoliyat - bu faoliyat o‘qituvchining talabalar, ota-onalar va makkab ma’muriyati bilan o‘zaro munosabatlarini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi bilan talabalar orasidagi munosabat o‘quv faoliyatining mazmunini qanday bo‘lishini belgilaydi.

O'qituvchining talabalarga bo'lgan emotsional munosabatlarini 5 tipga ajratish mumkin:

- 1) emotsional-ijobiy faollik;
- 2) emotsional-ijobiy passivlik;
- 3) emotsional-salbiy faollik;
- 4) emotsional-salbiy passivlik ;
- 5) muvozanatsizlik.

Bunday munosabatning xar biri bolaga turlicha ta'sir ko'rsatadi va o'zaro munosabatlarning mazmunini, sifati tashkil qiladi. Talabalar shu munosabatlarga turlicha berilishlarida ularni o'qishga, mexnatga bo'lgan munosabatlari shakllanadi. har bir shaxsning o'ziga xos xususiyati mavjud. Har bir shaxsning ijobiy va salbiy xususiyatlari ham mavjud. Ammo milliy maktab o'qituvchisi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari va sifatlari, qobiliyatları, boshqa kishilarnikidan farq qilmog'i, u iloji boricha bola uchun, talaba (talaba) uchun ideal bo'lmog'i, unga taqlid qilishiga munosib bo'lmog'i lozim. Chunki, o'qituvchi qo'lida bo'lg'usi insonning taqdiri yotadi. O'qituvchi shaxsining professional, ya'ni kasbga yo'naluvchi sifatlari, avvalo, uning bilim va bilim berishga bo'lgan ehtiyoji, istedod va qobiliyati, axloqiy sifatlari: haqqoniyligi pritsipialligi, talabchanligi, mexribonligi, o'z burchini his qilishidir. O'qituvchining professional ahamiyatga ega bo'lgan muxim sifatlari - bolani sevishi, talabaning ichki dunyosini tushunishga qobiliyatligi, ularga, maqsadga muvofiq pedagogik-psixologik tasir ko'rsatishi, talabaning ayni paytdagi psixologik holatini tushunib, yosh hamda individual xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rishidir. O'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi turli xil vaziyatlardagi o'zaro munosabatlarni taxlil qilish natijasida bolalar jamoasidagi psixologik muxit va kommunikativ madaniyat o'qituvchining talabalar bilan bo'ladigan muomala stili va uning pedagogik nazokatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.O'quv jarayonini rejalashtirish o'qituvchining mashg'ulotlariga tayyorlanishida asosiy o'rin tutadi. O'quv jarayonini rejalashtirish tufayli o'qituvchi va talabalarning mashg'ulotlarda kasb ta'limining vazifalari va maqsadlariga, uning prinsiplariga va

talabalar bilan ishlashga qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq hamma ishlarini oldindan ko‘rish mumkin.

O‘quv jarayonini rejalashtirishda o‘qituvchi quyidagi asosiy didaktik vazifalarni hal qiladi.

1. O‘quv protsessini moddiy jihatdan o‘z vaqtida ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Xususan, nazariy va amaliy darlarni turli materiallar va asboblar bilan ta’minlash muddatlari oldindan ma’lum bo‘ladi. Buning ahamiyati katta, chunki ta’minot ma’lum qiyinchiliklar bilan bog‘liq, shuningdek, har doim biror vaqt rezerviga ega bo‘lish kerak.

2. Kasb ta’limi mashg‘ulotlarining mazmuni bilan boshqa o‘quv predmetlarining mazmuni orasidagi bog‘lanish yoritiladi. O‘qituvchi o‘quv materialini alohida darslarga taqsimlab, kasb ta’limi bo‘yicha mazkur aniq mavzuni o‘rganishgacha talabalar fizika, ximiya, matematika va boshqa predmet darslarida qanday bilimlar olganliklarini aniqlaydi; shundan kelib chiqib kasb ta’limi bilan fanlarning asoslarini o‘rganish orasida didaktik bog‘lanishni ta’minlash mumkin.

3. O‘quv laboratoriyalarining o‘zaro muvofiq ish olib borishga erishiladi. O‘quv laboratoriyalaridagi mashg‘ulotlar jarayonida turli kompleks vazifalarni hal qilishlari mumkin. Bunday hollarda talabalarning ishlashini vaqt bo‘yicha moslashtirish juda muhim bo‘lib, bunga esa rejalashtirishda erishiladi.

4. Yarim yillik va yillik yakunlari chiqarishda o‘qituvchi uchun rejaning bajarilishini tekshirish oson. Buning uchun rejalashtirilgan ish bilan amalda bajarilgan ishni taqqoslash yetarli.

5. O‘quv bo‘limi va boshqa yuqori muassasalar tomonidan ta’lim jarayonini nazorat qilish yengillashadi. Ilg‘or o‘qituvchilar ishlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, u yoki bu mavzu bo‘yicha darslar sistemasini tashkil etishda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) mavzuning o‘quv predmetidagi o‘rni va talabalar egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar doirasi;
- 2) nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi;

- 3) mavzu materialining talabalar bilan imkoniyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati;
- 4) talabalarning yangi mavzuni o‘zlashtirishga tayyorligi;
- 5) materialning mantiqiy bayoni;
- 6) talabalar ijodiy ishlarining imkoniyatlari;
- 7) temani o‘rganishdan kutilgan natija;
- 8) darslar bilan talabalarning sinfdan tashqari mashg‘ulotlari orasidagi bog‘lanish jarayonlari muhimligini pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘qituvchi har bir mashg‘ulotning mazmunini oldindan bilsa, talabalarning tayyorgarliklarini aniqlash va ular orasidagi o‘tilgan materialni takrorlashga doir topshiriq qo‘yish imkoniga ega bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha ishlar natijasida navbatdagi temani o‘rganishning kalendar reja tuzilishi ham mukin.

O‘qituvchining darsga tayyorlanishida tashkiliy va metodik xarakterdagi tadbirlarni, shuningdek mahoratni oshirish tadbirlarini ifodalash mumkin. Mutlaqo ayonki, o‘qituvchining bilimlari talabalardan talab qilinadigan bilimlardan ancha keng, chuqur bo‘lishi kerak. O‘qituvchi talabalarning o‘quv dasturidan tashqari savollariga javob berishga tayyor bo‘lishi kerak. U shuningdek kasbiy malakalarni puxta egallab olishi zarur.

Maxsus kasbiy kompetentlik bitiruvchining kasbiy tayyorlik darajasi va turi, unda kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetentliklarning mavjudligini o‘z ichiga oladi.Umumiy ijtimoiy-psixologik kompetentlik tarkibiga atrofdagilar bilan samarali o‘zarota’sinda namoyon bo‘lgan tayyorgarlik, intilish va qobiliyatlar,o’zini va boshqalarni dinamik psixik holat sharoitlarida tushunish, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy muhit sharoitlari kiradi. Maxsus ijtimoiy-psixologik kompetentlik mazmunini mutaxassisning ma’lum mehnat faoliyati sharoitlarida samarali hamkorlik faoliyati va muloqotini ta’minlovchi shaxs sifatlari tashkil etadi. Mutaxassisning umumiy va maxsus ijtimoiy-psixologik kompetentliklarini tabaqalashtirish oson emas. Shu bilan birga, rahbar,o‘qituvchi, quruvchi yoki muhandisning kommunikativ kompetentligi birbiridan mazmuni, sifatiy va miqdoriy tavsiflari bo‘yicha farqlanishi

tushunarli. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, oliv ta’lim muassasasibitiruvchisining kasbiy kompetentligi invariantini quyidagicha ta’riflaymiz: kasbiy kompetentlik invarianti - bu uning komponentlari orasidagi mustahkam bog’lanishlar tizimi (qadriyatli-ma’noli, motivatsion, uskunaviy, individual psixologikva konativli) bo’lib, kompetentlikning aniq turi – umumiyl va maxsuskasbiy, umumiyl va maxsus ijtimoiy-psixologik ko’rinishlarida amalgaoshirilishining asosiy belgilariga ega.

Mutaxassisning kompetentligi invariantlarini mazmunli to’ldirish aniqlangan me’zonlarning aniq majmuasiga (tuzilmali va funksionalli) tayangan holda amalga oshirilishi kerak .

Mutaxassis kasbiy kompetentligi invariantlarining shakllanganlik mezoni Psixologopedagogik adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili «kasbiy kompetentlik» tushunchasi ta’rifiga bir necha yondoshuvlar mavjudligini ko’rsatdi. Masalan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bu tushuncha ko’pincha «chuqurlashtirilgan bilim», «harakatlarning samaradorligi» kabilar sifatida talqin etilgan.

Bizning nuqtai nazarimizcha esa, mutaxassis kompetentligi kasbiy faoliyat davomida orttirilgan ijtimoiy-ahamiyatli va shaxsiy-ahamiyatli kompetensiyalar tizimidan iborat. Agar, o’qituvchining kasbiy kompetensiyasi haqida so’z yuritsa, u holda bu tushuncha mazmuniga pedagogik masalalarnimustaql va yetarlicha samarali hal etish imkonini beruvchi o’qituvchi, tarbiyachi, pedagogning shaxsiy imkoniyatlari kiritiladi. U yoki bu pedagogicmasalalarni hal etish uchun pedagogik nazariya va uning qoidalarini amaldaqo’llay olish ko’nikmasi va tayyorgarlik zarur. Shu bilan birga yanao’qituvchining kasbiy kompetentligi uning mehnatida pedagogik faoliyat vapedagogik muloqotning turli tomondan shakllanganligidir.

Turli davrlarda va turli mualliflarda turli xil ta’riflar uchraydi va ular quyidagilardan iborat: ma’lum mehnat faoliyati vazifalarini bajarish ko’nikmasiva qobiliyatiga egalik, psixik holat, ta’lim olish va umummadaniyat darajasi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorgarlik va nazariyaningbirligi. Bular esa, kasbiy kompetentlikni pedagog shaxsining psixologikpedagogikva fan sohasida bilimlarga egaligini, kasbiy ko’nikma va malakalari, shaxsiy tajribasini tavsiflovchi

integrallashgan shaxsiy xususiyati sifatidaaniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagog o'z faoliyati istiqbolinimaqsad qilgan, bilimlarini boyitishga intiluvchan, o'ziga ishongan va kasbiynatijalarga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ba'zi bir tadqiqotchilar pedagogning kompetentligi tashkilotchilik, javobgarlik, mehnatsevarlik, maqsadga erishish, o'ziga ishonish kabi shaxsiy sifatlarini o'z ichiga oladi - deb hisoblasa, boshqa birlari esa, kompetentlik tuzilmasiga motivatsion-qadriyatli sohani ham kiritish zarur, chunki bu soha bilimlarga egalik darajasini aniqlaydi deb hisoblaydi. Shunday qilib, kompetentlikning qayd etilgan tashkil etuvchilari insonning kasbiy faoliyatida,kasbiy muloqotida, o'z kasbining ustasi sifatida shakllanib yetishganliginianglatadi.

Bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o'quv predmetlari ro'yxati, balki, fanni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiyko'nikma va bilimlar, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniyhayotdagi faol o'rnidan iborat ta'lim mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buningbarchasi majmuaviy holda, bo'lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, u o'z-o'zini rivojlantirish va o'z komilligi ustida ishlay olish usullariga egabo'ladi, bu esa, o'z vaqtida pedagogga «inson-inson» tizimida kasb ustasi -sub'yekti sifatida samarali faoliyatni ta'minlaydi. Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim va ko'nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G. Garanina quyidagi ikkita darajaning mazmunini ko'zda tutuvchi bilim, ko'nikma, malaka va fikrlashni qaragan:

- 1) tushunchalar, hissiy obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar hamda fikrlash tizimlari (kasbiy masalalarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);
- 2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zarota'sirlashuv malaka va ko'nikmalari tizimi .

Yu.V. Verdonyanning fikriga ko'ra, pedagog va psixologning kasbiy kompetentligi mutaxassis shaxsining holati va xususiyatlari, uning kasbiy faoliyati va zarur amallarni bajarishga qobiliyati (bilim va imkoniyati) ning yagona tizimidan iborat . O.A. Bulovenko esa, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida

emas, balki shaxsning turg'un oshirilganyoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarashni taklif etadi .

O'z navbatida A.V. Reysev mutaxassisning kasbiy kompetentligini kasbiy va shaxsiy sifatlar, integrativ majmuasi, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat madaniyatini, madaniy-ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish, dunyoqarashga egabo'lishga imkon beruvchi ilmiy bilim va malakalar mavjudligi sifatida aniqlaydi. «Kompetentlik» tushunchasida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo'ljalli va nutqli. Bunda mutaxassis kompetentligi har doimfaoliyat turiga bog'liq bo'lgan aniq holatda namoyon bo'ladi .

O'zining fundamental tadqiqotlarida I.A. Zimnyaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning emotSIONal-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Muallifning fikriga ko'ra, kompetentlik tuzilmasiquyidagi komponentlar tizimidan iborat:

- a) faoliyat va hatti-harakatda ushbu xususiyatni namoyon qilishga tayyorlik;
- b) amallarni bajarishning vositasi, usullari va dasturlarini bilish, ijtimva kasbiy masalalarni yechish, tartib-intizom qoidalari va me'yorlariga rionga qilish. Bu kompetensianing mazmunini tashkil etadi;
- v) bilimlarni amalga oshirish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;
- g) kompetensiylar mazmuniga qadriyatli-mazmunli munosabat, uning shaxsiy ahamiyatliligi;
- d) emotSIONal-irodaviy regulyasiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zarota'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini regulirovka qilish sifatida .

A.A. Dunyushinning fikriga ko'ra, shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi. Bu ta'rif, mualliflar tomonidan quyidagi bir qator natijalarda aniqlashtirilgan:

- a) kompetentlik aniq faoliyat sub'yekti tavsifi sifatida qaralishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyatning maqsadi, tuzilmasi va maxsus talablariga bog'liq;

c) irodaviy va kommunikativ xususiyatlar, intellekt, munosabatlar, asoslovchi dalillar va shaxsning yo'naltirilganlik tizimi kompetentlikka zaminbo'lib xizmat qiladi.

L. Spenser va M. Spenserlar o'z tadqiqotlarida kompetensiyalarni faoliyatning samaradorligi va muvaffaqiyat omili sifatida qaragan. Ular shaxs tuzilmasida kompetensiyalarning quyidagi besh turini ajratgan: motivlar kompetensiyasi sifatida; psixofiziologik xususiyatlar; «Men-konsepsiyasi» (ko'rsatmalar, qadriyatlar, insonning samarali faoliyat olib borishga ishonchi); inson nimaga qodirligini ko'rsatuvchi bilimlar; ma'lum jismoniy va aqliymasalalarni bajarish qobiliyati sifatida ko'nikma. Ular barcha kompetensiyalarni tashxislash va rivojlantirish qiyinroq bo'lgan ichki («menkonsepsiyasi», xususiyatlar, motivlar) va treninglar yordamida rivojlantirishmumkin bo'lgan tashqi (bilim va ko'nikmalar) omillarga ajratadi. Ichki omillar bilim va malakalarni qo'llashga «turtki» va intilishlarni ta'minlaydi. Bu yerdagap muhim komponent, ya'ni o'z-o'zini nazorat qilish haqida borayotgandek, ammo mualliflar uni kompetensianing tuzilmasiga kiritmagan. Ular motivlar vapsixofiziologik xususiyatlar ishning puxta nazoratsiz ham uzoq vaqtda bajarilishini ta'minlaydi - deb ta'kidlaydilar. Mualliflar ularni biror birlavozimdag'i kishining o'rnini boshqa bir kishi egallagan vaqt dagi harakatlarinianiqllovchi «javobli yoki reaktiv motivlar» sifatida qaragan. Bu yerda, bizning fikrimizga ko'ra, aynan o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilishning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida so'z bormoqda.

Boshqa tadqiqotchilar ham kompetentlik tuzilmasida o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmini ko'rsatgan. Masalan, Ye.V. Burseva kasbiy kompetentlikni shakllanishini o'z-o'zini boshqarish tizimiga kiritilgan kasbiy maqsadlarga aylanuvchi kasbiy motivlar mazmunining yaratilishi sifatida qaragan. Kasbiy kompetentlik - kasb talablariga javob beruvchi maxsus bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifatlari majmuasidan iborat. U ijtimoiy foydalatinatijalarni olishga yo'naltirilgan bo'lib, unga shaxsiy o'z-o'zini boshqarish natijasida erishish mumkin .

Bulardan ko'riniib turibdiki, kompetensiya tuzilmasida kompetentlik namoyon bo'lish holatlarida o'z-o'zini nazorat qilish, o'z imkoniyatini amalgaoshirish qobiliyatini aks ettiruvchi elementlarni ajratish zarur. Bilim vako'nikmalarni samarali qo'llash insondan o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'ziniboshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanganligini talab etadi.

A.K. Osniskiyning ta'kidlashicha, faoliyatning o'z-o'zini nazorat qilishi - bu sub'yekt tomonidan amalga oshiriluvchi va imkoniyatlarini shu faoliyat talablariga mos keltirishga yo'naltirilgan tartiblashdir. Shu bilan birga, bunday o'z-o'zini nazorat qilish insonning biokimyoviy va fiziologik funksiyalarining o'z-o'zini tartiblash va psixik holatlariga tegishli emas. Shu bilan bir vaqtdfaoliyatning o'z-o'zini nazorat qilishi doirasida fiziologik o'z-o'zini nazoratqilish va psixik holatning o'z-o'zini nazorat qilishning ma'lum qismi sub'yektoldida turgan masalalar bilan bog'liq maqsadga yo'naltirilgan boshqarishpredmeti bo'lishi ham mumkin .

O.A. Konopkinding fikriga ko'ra, faoliyatning ongli ravishda o'z-o'zini nazorat qilishi quyidagi tuzilmaga ega:

- maqsadni sub'yektiv qabul qilish faoliyatning muhim shartlarining sub'yektiv modeli;
- harakat dasturi (harakatlarni, vosita va usullarni tartiblashtirish);
- natijalarni baholash;
- tuzatish.

Ayrim tadqiqotchilar mutaxassis kasbiy kompetentligi mohiyati uning kasbiy faoliyatga tayyorligidan iborat deb hisoblaydilar. Faoliyatga tayyorlik kompetentlikning tuzilmali komponenti sifatida, shuningdek, kengroq ma'noda esa, kasbiy o'z-o'zini anglash, motivatsion-qadriyatli va mazmunli jarayonli komponentlarning birligini o'zida aks ettiruvchi shaxsning dinamik tuzilmali-darajali ta'limi sifatida qaralishi mumkin.

G.A. Larionovaning fikriga ko'ra, tayyorlik tuzilmasiga amaliy bilimlar majmuasi va shaxsning faoliyatga kirishini ta'minlovchi xususiyatlari kiradi.

Mehnatga tayyoragarlik esa ikkita, ya'ni operasional (bilim va ko'nikmalar) va shaxsiy (ko'rsatma, mehnatga yo'naltirilganlik, kasbiy motiv xususiyatlari, odat va

munosabatlar tizimi, emotsiyal va irodaviy funksiyalar, shaxsning kasbiy ahamiyatlari sifatlari) komponentlardan iborat murakkab tizim hisoblanadi .

Boshqa bir tadqiqotlarda esa, kasbiy faoliyatga psixologiktayyorgarlikning quyidagi bir qator komponentlari qayd etilgan: kasbiy o'zo'zinianglash, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy ahamiyatlisisfatlar, kasb ustuvorligini anglash . Bunday holatda kompetentlikmutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Kasbiy kompetentlik manbalarda muammoli holatlarda mos yechimlarni qabul qilishga tayyorgarlik sifatida qaralgan. Bunday tayyorgarlik shaxsiy faoliyatni tashkil etishning xususiyatlariga va real o'zarota'sirlashuv hamda faoliyat mahsuldarligi bilan bog'liq.

Yu.G. Tatur va V.Ye. Medvedevlar bo'lajak mutaxassisning kompetentligini kasbiy va ijtimoiy sohada muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat yuritishuchun o'z imkoniyatini (bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy sifatlar va boshqalar) amaliyotda namoyon qilishga intilish va qobiliyat sifatida, kompetensiyani esa,bo'lajak mutaxassisning ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yurita olishuchun o'zining butun imkoniyatlari (bilim, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlar) niqo'llash va uning natijasiga ongli ravishda mas'uliyatini anglashga tayyorligisifatida ta'riflagan .

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalarining ta'riflari qanchalik turli xil ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bu atamalar orasidagi farqni ajratish ham qiyin. Deyarli barcha tadqiqotchilar kompetentlik va kompetensiyaning muhim tavsiflaridan biri sifatida mavjud bilim va tajribalarning zarurligi hamda ularni egallovchilarning faolligi deb hisoblaganlar.

Kompetenlik atamasi «samaradorlilik», «erishish», «muvaqqiyatlilik», «tushunish», «natijalilik», «ega bo'lish», «sifat», «miqdor» so'zlari yordamida ta'riflanadi, shu bilan birga ko'pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. L. Spenser va M. Spenserlarning ta'kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o'lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi .

Dj. Raven kompetentlikni biror bir ob'yekt yoki ob'yektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak- deb hisoblaydi. Natijada ma'lum faoliyatning

individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo'ladi. U shaxskompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilganholdagina aniqlanishi ma'noga ega bo'ladi - deb tushuntiradi. Kompetentliktestlarida inson o'ziga muhim deb hisoblamagan maqsadlarga erishishdakompetentsiz deb tashxislanishi mumkin. Ammo, bunday hollarda tashxisnatijalari baholanuvchi kompetentligi emas, balki qo'yilgan maqsadning uninguchun kam ahamiyatliligi bilan izohlanishi kerak .

L. Spenser va M. Spenserlar kompetentlikning mezonlari sifatida yuqorida qayd etilgan elementlarni qarab chiqqanlar: shaxsning «Menkonsepsiysi» tuzilmasidagi motivlar, psixofiziologik sifatlar, ko'rsatmalar,qadriyatlar, shuningdek, bilim va ko'nikmalar. Mualliflar kompetensiyaning boshqa komponentlariga qaraganda bilim va ko'nikmalarni baholash varivojlantirish osonroq deb hisoblaydilar.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari nisbati muammosiga bag'ishlangan manbalar tahlili quyidagi ikki holatni qayd etish imkonini berdi:

- 1) «kompetensiya» va «kompetentlik» atamalari bilimlar tizimining amaliy qo'llanishini anglatuvchi sinonimlar sifatida aniqlanadi;
- 2) «kompetensiya» va«kompetentlik» tushunchalari turli asoslar bo'yicha bir-biridan farqlanadi.

Ko'pincha bu tushunchalarni farqlash asosi bo'lib, ularning turli ko'rinishdagи mazmuni xizmat qiladigan holatlar uchraydi. Bunday holatda kompetentlik- deganda mutaxassis kompetentligining asoslari bo'lgan ma'lumkompetensiyalarga egalikni anglatuvchi shaxsning tavsiflanish tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, bunday tushunish soddalashgan hisoblanadi, chunki bu tushunchalar mazmunida muhim farqlar kuzatilmaydi va shundagina kompetentlik o'zaro bog'liq yoki bog'liq bo'lмагan kompetensiyalarning yetarlicha sonini o'z ichiga olishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining komptentligini shakllantirish bo'yicha ta'lim jarayonining maqsadini aniqlashni ham, loyihalashni ham qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, kompetentlik tuzilmasini ta'riflashga ikkita turlicha yondoshuvlar mavjud: tushunchaning shajarali ahamiyati (kompetentlikning mazmuni va tabiatini

ta’riflash) va tur jihatlari (kompetentlik tuzilmasidagi mutaxassis kompetensiyalari turlar).

Nazorat savollari?

1. Kompetensiya sistemasi nichiga bo’linadi?
2. Kompetensiyada kirish bu-?
3. Kompetensiyada chiqish bu-?
4. Kompetensiya jarayon bu-?
- 5 Tayanch komepetensiya – bu ?

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t.

9.MA’RUZA MASHG’ULOTI.

Mavzu:9 Texnologik ta’limda kompetentsiyaviy yondashuvning xorijiy tajribalar.

Mashg’ulot rejasি:

1. O’zbekistonda ta’lim bosqichlarida shakllantiriladigan ustivor kompetentsiyalar va ularning tasnifi.
2. Professional ta’limda tayanch kompetentsiyalar (soft skills) hamda maxsus kompetentsiyalar (hard skills) ni mazmuni.
3. Xalqaro tajribalar

Tayanch tushunchalar: Professional, ustivor, xalqaro tajriba, didaktik, soft skills, hard skills.

Mamlakatimizning ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar ilg’or xorijiy ta’lim tajribasini o’rganish, tahlil etish hamda ta’lim muassasalari sharoitlariga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Hozirgi jamiyatni taraqqiy ettirish bosqichida «bilimli» ta’lim yondoshuvidan kompetentlikka yo’naltirilgan ta’lim tizimiga o’tish hamda bitiruvchilarda egallanishi ko’zda tutilayotgan kasbga doir shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. «Kompetentli» yondoshuvga asoslangan ta’lim tizimida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining roli ham o’zgaradi. Chunki, «bilimli» yondoshuvda ta’lim beruvchi faol va asosiy ishtirokchi bo’lsa, ta’lim oluvchi esa, sust qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. «Kompetentli» yondoshuvda ta’lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta’lim olish faoliyati ko’proq mustaqil individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg’ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo’ladi. «Bilimli» ta’lim yondoshuvida me’yoriy-huquqiy asoslar sifatida Davlat ta’lim standartlari, o’quv va ishchi rejalar, fanlarning o’quv metodik majmualari olinsa, kompetentli yondoshuvda bular qatoriga ta’lim oluvchining kompetentli shaxs modeli qo’shiladi. Ta’lim oluvchining kompetentli shaxs modelida Davlat ta’lim standartidan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchida shakllanishi lozim bo’lgan

kompetentlikning turli jihatlarining tavsifi keltiriladi. «Bilimli» yondoshuvning maqsad va mazmuni, ta’lim shakli, pedagogik va axborot texnologiyalari ta’lim oluvchiga bilim, malaka va ko’nikmalarni yetkazib berish hamda ularning o’zlashtirilganligini nazorat qilishga qaratilgan bo’lib, bular hozirgi jadal sur’atlarda rivojlanayotgan ta’lim tizimining asosiy kamchiliklari sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’limda yangi tadqiqot yo’nalishi bo’lgan kompetentli yondoshuvning paydo bo’lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda «kompetentlik» va «kompetensiya» toyifalarining paydo bo’lishi natijasida ular 1960 yillarning oxiri 1970 yillarning boshlaridan boshlab oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarining kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi. Kompetentlikka yo’naltirilgan ta’lim (competence-based education - CBE) amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetensiya» atamasining umumiy ma’nosida shakllanadi. Yevropa Kengashi dasturi bo’yicha Bern shahrida bo’lib o’tgan simpoziumda (1996 yil) «kompetensiya» tushunchasi «o’quv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilganligi ta’kidlandi. Yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Boloniya deklarasiyasida (1999 yil) ta’lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuvni belgilashdi. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida» gi Qonunida: «Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxslargina pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqiga ega» - deb ta’kidlangan. Ushbu hujjat talablarini bajarish uchun bo’lajak o’qituvchilarda, shu jumladan bo’lajak matematika o’qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish muhim hisoblanadi. Chunki, kompetentlikka yo’naltirilgan ta’lim tizimi tashkiliy, texnologik va metodologik o’zgarishlar qatorida juda katta hajmdagi didaktik ijodiy dars ishlanmalari (mustaqil ishlarga ijodiy individual vazifalar, amaliy mashg’ulotlar uchun individual ijodiy topshiriqlar, nazorat turlari uchun test savollari, tashxislovchi masalalar, amaliy topshiriqlar va boshqalar) ning ta’lim beruvchi tomonidan yaratilishini taqozo etadi. Ilg’or texnologiyalarning keng o’zlashtirilishi, uzlusiz ta’limda fanning ishlab chiqarish bilan integrasiyalashuvi, ta’lim oluvchilarining qobiliyatlari va

imkoniyatlariga mos ravishda ta’limga tabaqlashtirilgan yondoshuvning joriy etilishi hamda ta’lim berishning ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalari hamda zamonaviy o’quv-uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda ta’lim beruvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga asos solmoqda. Amir Temurning «Amr qildimki, vazirlar ushbu to’rt sifatga ega kishilardan bo’lishlari lozim:

birinchisi - asllik, toza nasllilik;

ikkinchisi - aql, farosatlilik;

uchinchisi - sipohu raiyat ahvoldidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalilik; to’rtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik», deb aytgan fikrlarida ta’lim beruvchi shaxsi va uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan shaxsiy sifatlariga ham talablar qo’yilganligi o’z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, ta’lim beruvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo’nalishidagi bilim, ko’nikma va malakalari, qobiliyati va imkoniyatlaridan ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda, ta’lim oluvchilarining faoliyatini muvofiqlashtirishda qanday darajada foydalana olishi, qulay ta’limiy muhit darajasi va uning natijaviyligi, ta’lim oluvchilarda shakllangan o’quv motivlari va qiziqish darajasi, refleksiv ta’limiy muhitning shakllanganligi ularning kasbiy kompetentligiga bog’liq bo’ladi.

Ta’limda kompetentli yondoshuv - bu Vatanimiz pedagogikasi uchun nisbatan yangi hodisa. Uning rivoji shu bilan bog’liqliki, mustaqil Respublikamizda ta’limni modernizatsiyalashning zamonaviy bosqichida eng avvalo uning maqsadi tubdan o’zgaradi. «Kompetentlik» va «kompetensiya» ta’limda kompetentli yondoshuvning asosiy tushunchalaridir. Manbalar tahlili esa, ularning ilmiy adabiyotlarda bir qiymatli ta’rifga ega bo’lmagan murakkab, ko’pkomponentli va fanlararo tushunchalar ekanligini ko’rsatadi . Tadqiqotchilar fikricha ular hajmi, turkumi, semantikasi va mantiqiy tuzilmasi bo’yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsiyi (xususiyatlari, odatlari va boshqalar) sifatida qaralishi mumkin. Kompetentli shaxs

tavsifi (xususiyat, shaxs sifati, uning komponenti), shaxs tuzilmasida yaxlit ta’lim, shaxs xususiyatlari tizimi, bilim, ko’nikma va malakalarni egallash natijasida yuzaga keluvchi holatlar (tayyorgarlik, yo’naltirilganlik va boshqalar) sifatida ifodalanishi mumkin, ko’pincha esa, kompetentli bilim va tajriba bilan tenglashtiriladi. Pedagogik adabiyotlarda, bugungi kunda, «kompetensiya», «kompetentlik» atamalari keng qo’llanilmoqda va barqarorlashmoqda. Ammo, hozirga qadar ta’limning u yoki bu bosqichi bitiruvchisining optimal obraziga qo’llash mumkin bo’lgan «kompetentlik» tushunchasining yagona va aniq ta’rifi mavjud emas. Manbalarda shaxsning bilimi, ko’nikmasi, malakasi, qobiliyati, mehnatsevarligi, kasbiy mahorati kabi sifatlarini ifodalash uchun kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodikasi va asosiy yo’nalishlari aniqlashtirilgan. Albatta, ushbu monografiyanı ham ayrim kamchiliklardan holi deb bo’lmaydi. Shu sababli, mazur monografiya haqidagi o’z fikr va mulohazalarini bildirgan kitobxonlarga muallif o’z minnaddorchiligini bildiradi. Ilmiy manbalarda kompetentlik va kompetensianing quyidagi ta’riflarini uchratish mumkin: motivlashgan qobiliyat; shaxsning xususiyat va sifatlari, shaxsiy chizgisi; faoliyatga tayyorgarlik mezoni; masalani hal etish va uning natijalarini olish uchun zarur bo’lgan qobiliyat; faoliyatga bog’liq bilim, ko’nikma, malaka va tajriba (inson tomonidan o’zlashtirilgan masalani yechish, usullar va yo’llarini bir butunga birlashtirish), shu bilan birga shaxsning motivlashgan va hissiy-irodaviy sohasidir. A.A. Verbiskiy va M.D. Ilyazovalar bu tushunchalarga quyidagicha ta’rif bergan: **kompetensiya - bu** inson tomonidan u yoki bu faoliyatning amalga oshirilishini ta’minlovchi uning maqsadlari, qadriyatlari, motivlari, shaxsiy sifatlari, bilimlari, ko’nikmalar, malakalari, qobiliyatlari va tajribalari tizimi; kompetentlik esa, amaliyotda namoyon bo’lgan va amalga oshgan insonning amaliy faoliyat texnologiyalarini egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiyahloqiy sifatlari rivoji bilan tavsiflanuvchi kompetensiyasi.

A.S. Belkin va V.V. Nesterovlar kompetensiyani ta’lim jarayonida samarali faoliyat uchun zaruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funksiyalar, kompetentlikni esa, kometensiyanı samarali amalga oshirishni ta’minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ta’riflagan .

V.N. Vvedenskiy fikricha kompetentlik - bu qandaydir shaxsiy tavsif, kompetensiya esa, aniq kasbiy yoki funksional tavsiflar majmuasi .

M.A. Xolodnaya kompetentlikni quyidagicha ta'riflagan: kompetentlik - bu mos faoliyatda samarali qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi predmetlio'ziga xos bilimlarni tashkil etishning maxsus tipi .

G.K. Selevko kompetensiyani atrof-muhitni o'zgartirish bo'yicha maqsadni qo'yish va unga erishishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi shakli sifatida tushungan.

Kompetentlik - bu shaxsning ta'lim olishi va ijtimoiylashuvi jarayonida egallagan hamda faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirokiga yo'naltirilgan bilim va tajribalariga asoslangan, uning faoliyatidagi umumiy qobiliyat va tayyorgarligida namoyon bo'ladijan integrallashgan sifat. Ilmiy-metodik adabiyotlarda kompetensiyaning quyidagi an'anaviy tasniflari qayd etilgan:

- javobgarlikni o'z zimmasiga olish, hamkorlikda qaror qabul qilishda ishtirok etish qobiliyatiga bog'liq siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar;
- madaniyati, tili va dinidan qat'iy nazar boshqa insonlar bilan yashashga, ularni tushunishga, ularga yordam berishga va o'zaro kelishmoqchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan, jamiyat hayotida uchraydigan kompetensiyalar;
- kasbiy faoliyatda va jamiyat hayotida muhim bo'lган yozma va og'zaki muloqotga egalikni aniqlovchi kompetensiyalar;
- axborot jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lган kompetensiyalar (yangi texnologiyalarga ega bo'lish va ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash) Ular o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va bir-biriga bog'liq bo'lган tushunchalar. Kompetensiyaga ega bo'lмаган kompetentli shaxs uni ijtimoiy ahamiyatli jihatlarda to'laqonli amalga oshira olmaydi. Bu fikrni kompetensiyani insonda mavjud bo'lган narsalar to'plami, kompetentlikni esa, shaxs ega bo'lishi kerak bo'lган narsalar to'plami sifatida tavsiflovchi A.S. Belkin tomonidan berilgan ta'rifda ham uchratish

mumkin. Xorijiy so'zlar lug'atida «kompetentlik» tushunchasi biror shaxs yoki muassasaning vakolati va huquqlari majmuasi yoki biror bir insonga tegishli ishlar, savollar majmuasi sifatida ta'riflangan. Fransuzcha «competent» so'zi kompetentli, vakolatli sifatida tarjima qilinadi. Shu bilan birga u yuridik ahamiyatga ham ega. Ingliz tilida «competence» atamasida shaxsning sifati ma'nosi mavjud: kompetentlik - qobiliyat sifatida keltirilgan.

L. Spenser va M. Spenserlar kompetentlikning mezonlari sifatida yuqorida qayd etilgan elementlarni qarab chiqqanlar: shaxsning «Menkonsepsiysi» tuzilmasidagi motivlar, psixofiziologik sifatlar, ko'rsatmalar, qadriyatlar, shuningdek, bilim va ko'nikmalar. Mualliflar kompetensiyaning boshqa komponentlariga qaraganda bilim va ko'nikmalarni baholash va rivojlantirish osonroq deb hisoblaydilar. Ular kompetensiya ta'rifining quyidagi sxemada keltirilgan.

1.Intilish Harakat Natija.

2.Shaxsiy sifatlar (motivlar, menkonsepsiysi, bilimlar).

3.Hatti-harakatlar (ko'nikmalar).

4.Ishni bajarish.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondoshuv ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning ham o'zgartirilishini taqozo etadi. Bilimlarni berishda kreativ pedagogik texnologiyaga o'tish talab etiladi. Kreativ pedagogik texnologiyada o'qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan turli individual topshiriqlar ijodiy faoliyatga qaratilgan bo'lishi va ta'lim oluvchilarda har bir topshiriqni bajarishga ijodiy yondoshuvni talab qilsin. Bu texnologiya o'qituvchi o'z o'quv fani yuzasidan doimiy ijodiy izlanishga, ta'lim oluvchini esa, topshiriqlarni bajarishda faqat o'z bilim va ko'nikmalariga tayanish kerakligini o'rgatadi. Ta'lim mazmuni, shakli, pedagogik texnologiyalarning o'zgarishlari nazorat usullarini takomillashtirish kerakligini ham taqozo etadi. Jumladan, «bilimli» yondoshuv tizimida ta'lim oluvchini har bir fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmalari nazorat qilinib, umumiylayotgan reyting bali o'zlashtirish ko'rsatkichi sifatida qo'llaniladi. Ta'lim oluvchining kompetentli darajasini

aniqlashga qaratilgan «kompetentli» yondoshuvda, eng avvalo kompetentlikni aniqlash talab etilib, bu integrallashgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniqlash degani. Ta'linda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishning yetakchi g'oyasi shundan iboratki, bitiruvchilarda kompetensiyalar majmuasini shakllantirish ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanuvchi oliy ta'lim muassasasiga an'anaviy bo'lgan maqsadga to'laqonli mos kelmaydi. Bu yondoshuv L.S. Grebnev, N.M. Rozina, S.A. Smirnova, A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, T.D. Makarova, Dj. Raven, N.A. Selezneva, Yu.G. Tatur, G. Xutmaxer, A.V. Xutorskiy, N.A. Muslimov va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan . Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tayyorgarligi sifatini tahlil qilish uchun kompetentlik bilan bog'liq mezонни tanlash shu bilan shartlashilganki, oliy ta'lim muassasasi uzoq mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan kasbiylashtirishni emas, balki bitiruvchining kasbiy tayyorgarligi va kompetentligini ta'minlashi mumkin. Demak, kompetensiya ta'lim oluvchining ta'limiy (yoki kasbiy) tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan talablarga qaysidir darajada uzoqlikni nazarda tutsa, kompetentlik esa, tayyor bo'lgan shaxsiy sifatlarni nazarda tutar ekan. Ushbu muammoni tadqiq qilishda, birinchi navbatda kasbiy kompetentlik nima ekanligini, uning tuzilmasi va shakllanish sharoitlarini aniqlash zarur. Psixologo-pedagogik adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili «kasbiy kompetentlik» tushunchasi ta'rifiga bir necha yondoshuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bu tushuncha ko'pincha «chuqurlashtirilgan bilim», «harakatlarning samaradorligi» kabilar sifatida talqin etilgan. Bizning nuqtai nazarimizcha esa, mutaxassis kompetentligi kasbiy faoliyat davomida orttirilgan ijtimoiy-ahamiyatli va shaxsiy-ahamiyatli kompetensiyalar tizimidan iborat. Agar, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi haqida so'z yuritsa, u holda bu tushuncha mazmuniga pedagogik masalalarni mustaqil va yetarlicha samarali hal etish imkonini beruvchi o'qituvchi, tarbiyachi, pedagogning shaxsiy imkoniyatlari kiritiladi. U yoki bu pedagogik masalalarni hal etish uchun pedagogik nazariya va uning qoidalarini amalda qo'llay olish ko'nikmasi va tayyorgarlik zarur. Shu bilan birga yana o'qituvchining kasbiy kompetentligi uning mehnatida pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning turli tomondan

shakllanganligidir. Turli davrlarda va turli mualliflarda turli xil ta’riflar uchraydi va ular quyidagilardan iborat: ma’lum mehnat faoliyati vazifalarini bajarish ko’nikmasi va qobiliyatiga egalik, psixik holat, ta’lim olish va umummadaniyat darajasi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorgarlik va nazariyaning birligi. Bular esa, kasbiy kompetentlikni pedagog shaxsining psixologikpedagogik va fan sohasida bilimlarga egaligini, kasbiy ko’nikma va malakalari, shaxsiy tajribasini tavsiflovchi integrallahsgan shaxsiy xususiyati sifatida aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagog o’z faoliyati istiqbolini maqsad qilgan, bilimlarini boyitishga intiluvchan, o’ziga ishongan va kasbiy natijalarga erishish qobiliyatiga ega bo’lishi zarur. Ba’zi bir tadqiqotchilar pedagogning kompetentligi tashkilotchilik, javobgarlik, mehnatsevarlik, maqsadga erishish, o’ziga ishonish kabi shaxsiy sifatlarini o’z ichiga oladi - deb hisoblasa, boshqa birlari esa, kompetentlik tuzilmasiga motivatsion-qadriyatli sohani ham kiritish zarur, chunki bu soha bilimlarga egalik darajasini aniqlaydi - deb hisoblaydi. Shunday qilib, kompetentlikning qayd etilgan tashkil etuvchilari insonning kasbiy faoliyatida, kasbiy muloqotida, o’z kasbining ustasi sifatida shakllanib yetishganligini anglatadi. Bo’lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o’quv predmetlari ro’yxati, balki, fanni o’zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiy ko’nikma va bilimlar, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faol o’rnidan iborat ta’lim mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buning barchasi majmuaviy holda, bo’lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, u o’z-o’zini rivojlantirish va o’z komilligi ustida ishlay olish usullariga ega bo’ladi, bu esa, o’z vaqtida pedagogga «inson-inson» tizimida kasb ustasi - sub’yekti sifatida samarali faoliyatni ta’minlaydi. Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim va ko’nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan mos o’qitish tizimini yaratmasdan mumkin emas. Mutaxassisning kompetentligini ta’riflashga turlicha yondoshuvlar mavjud. Masalan, N.F. Talizinaning nuqtai nazaricha, u uchta asosiy tarkibiy qismlarga (sifatlar, bilimlar, ko’nikmalar) mos kelishi kerak. Ularga quyidagilar kiradi: Sifatlar: ishga munosabatni ifodalovchi: mehnatsevarlik, e’tiborlilik, ijodiy yondoshuv; hatti-harakat va faoliyatning umumiylarini ma’romini

tavsiflovchi: ijrochilik, mustaqillik, so'ziga sodiqlik, obro'lilik, faollik va shijoatlilik; aqliy qobiliyatlar: egiluvchanlik, zukkolik, uzoqni ko'ra bilishlik; ma'muriytashkiliy: ish muhitini yaratish ko'nikmasi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmasi, jamoani himoya qilish, insonlarni farqlay olish, ularni ishontira olish ko'nikmasi; insonlarga munosabatni tavsiflovchi: rostgo'ylik, tarbiyalilik; o'ziga munosabatni tavsiflovchi: talabchanlik, kamtarlik, dadillik, mukammallik. Bilimlar: o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy, umummadaniyat, kasbiy faoliyat haqida ma'lumotlilik. Ko'nikmalar: qo'yilgan masalalarni yechish, adabiyotlar bilan ishlash, faoliyatni rejalashtirish. Bu ro'yxat faoliyat turiga qarab to'ldirilishi yoki qisqartirilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetensiyalari ajratiladi: o'quv-bilish, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-foydali, shaxsiy o'zo'zini takomillashtirish. Bularning barchasi bitiruvchiga kasbiy bilim, ko'nikma va keyingi hayotda faoliyat usullari majmuasini ongli ravishda qo'llash imkonini beradi. Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo'lishi kerak. Umumiyl holda bular mehnat, o'quv, o'yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yana quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin: - kompetentlikni faoliyatning yo'naltirilgan ob'yekti bo'yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiat», «insonbelgili tizim» sohalarida kompetentlikni beradi; - kasblarning alohida sinflari va guruhlari sohasidagi kasbiy kompetentlik; - aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik. Jamiyatning turli sohalarida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: maishiy xizmat sohasida, san'at sohasida, sport sohasida va boshqalar. «Bilimlilik» tavsiflari ham kompetentlikka kiradi va ijtimoiy bilimlar sohasi (matematika, fizika, gumanitar fanlar, biologiya va boshqa fanlar sohasida kompetentlik), ishlab chiqarish sohalari (energetika, transport, aloqa, mudofaa, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar) bo'yicha tasniflanadi. Psixologik tavsif sifatida kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv (bilimlar) va operasion-texnologik (faoliyatli), balki motivatsion-etik, ijtimoiy va ahloqiy tashkil etuvchilarni ham o'z ichiga oladi. Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo'lganligi uchun ularning har biri o'z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiyl

ko'rinishlari bilan kompetensianing jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumo'quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylik, badiiy, texnik, shu bilan birga pedagogik-psixologik, ijtimoiy va boshqa ko'nikmalariga mos keladi. Ijtimoiy rivojlanishi va maqomi pog'onalar bo'yicha kompetentlikni quyidagi turlarga ajratish mumkin: bolaning maktabga tayyorgarligi; Respublikamizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda kasbiy kompetentli yondoshuvni joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kompetentlik ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologo-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlarini ifodalaydi. Kasbiy imkoniyatni esa, ta'lim muassasasi o'qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin.

Professional ta'limda tayanch kompetentsiyalar (soft skills) hamda maxsus kompetentsiyalar (hard skills) ni mazmuni.

“Soft” ingliz tilidan tarjima qilinganda “yumshoq” degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, “hard skills” tushunchasi ham mavjud bo'lib, “hard” ingliz tilida “qattiq” ma'nosini beradi. Majoziy talqinda tushuntirilsa, kompyuterning ishlashi uchun asosan ikkita komponent zarur. Ingliz tilida bular “Hardware”, ya'ni kompyuter qurilmasi va uning qo'shimcha qurilmalari hamda “Software”, ya'ni dasturiy ta'minotdir. Kerakli dasturlar bo'lmasa, kompyuter qurilmasi shunchaki mashinaligicha qolaveradi. Shu singari, inson hayoti va faoliyatida zarur bo'lgan ikkita muhim ko'nikma hamda malakalar mavjud. Bular – “hard skills” va “soft skills”. “Hard skills” ta'lim muassasasida fanlarni o'zlashtirish natijasida orttirilgan hamda kasbiy-professional faoliyatni olib borish uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar tizimidir. Soddaroq qilib tushuntirganda, masalan, oshpazning “hard skills” bo'yicha ko'nikma va malakalari – bu ovqat pishira olish, ovqatni mazali tayyorlay olish va h.k. Axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassisning “hard skills”

bo‘yicha ko‘nikma va malakalari esa – bu kompyuter dasturiy ta’minoti bilan ishlay bilish, axborotni qayta ishlay olish va h.k.Insonning “hard skills” bo‘yicha ko‘rsatkichi odatda ta’lim muassasasini tamomlagach beriladigan diplomi ilovasida aks etadigan baho yoki ballarida namoyon bo‘ladi. Demak, ularni baholash mumkin va oson.“Soft skills” esa, aytilganidek, shaxslarning o‘zaro munosabatlarida zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar tizimidir. Bularga misol qilib samarali muloqot qila olish, diqqat bilan tinglay olish, empatiya, jamoada ishlay bilish, liderlik, vaqt ni boshqarish, maqsad qo‘yish va boshqalarni sanash mumkin. Ularni baholash murakkabroqdir. Odatda ish beruvchilar ishga qabul qilishda intervyudan o‘tkazish jarayonida bo‘lajak xodimlarida bunday ko‘nikma va malakalarning mavjudligini tekshirib ko‘radilar. Ularga psixologik savollar beradilar. Bunday amaliyot asosan rivojlangan xorijiy davlatlarda uchraydi. Insonga “Hard skills” va “soft skills” bir xil darajada zarurdir. Ularni ishga kirish maqsadida taqdim etiladigan rezyumeda aks ettirish intervyudan oldin ish beruvchida bo‘lajak xodim haqida muayyan tasavvurning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ko‘pgina davlatlarda “soft skills” bo‘yicha alohida modul o‘tilmaydi. Unga daxldor bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga turli fanlar kesimida e’tibor beriladi. Holbuki, ish beruvchilar ishga olayotgan insonlar “soft skills” bo‘yicha qanday malaka va ko‘nikmalarga ega ekanliklariga ko‘proq qiziqish bildirmoqdalar. Ta’lim muassasasining bitiruvchisi mehnat bozorida ish topib ketgan taqdirda ham “soft skills”ga ega bo‘lmasa, mehnat faoliyatini barqaror tarzda olib bora olmaydi. Misol sifatida quyidagi holatni keltirish mumkin. Biron kishi sog‘lig‘ini sug‘urta qilish maqsadida sug‘urta kompaniyasiga boradi. Ammo sug‘urta kompaniyasi xodimi mijozga qo‘pol va mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lsa, sog‘lig‘ini sug‘urtalashday muhim ish shunday insonlar tomonidan amalgaloshirilishidan xafsalasi pir bo‘lgan mijoz qayta bu kompaniyaga murojaat qilmaydi. Kerak bo‘lsa, ushbu xodim ustidan shikoyat yo‘llaydi yoki internetning tegishli sahifasida o‘zining salbiy fikrini qoldiradi. Kompaniya faoliyati bilan qiziqqan boshqa shaxslarning ushbu fikrlar bilan tanishishlari natijasida kompaniyaga nisbatan

salbiy tasavvur paydo bo‘ladi. Bunday holda ish beruvchi o‘sha xodimga nisbatan chora ko‘rmasdan qoldirmaydi.

Nazorat savollari ?

1. Ta’limda kompetentli yondoshuv – bu ?
2. Kompetensiya – bu ?
3. (soft skills) hamda maxsus kompetentsiyalar (hard skills) ni mazmuni ?
4. Soft” ingliz tilidan tarjima qilinganda qanday ma’noni bildiradi?
5. Insonlar “soft skills” bo‘yicha qanday malaka va ko‘nikmalarga ega ekanliklariga ko‘proq qiziqish bildirmoqdalar ?

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betla

10. MA’RUZA MASHG’ULOTI.

Mavzu:10 Texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari..

Mashg’ulot rejasi:

- 1.Kompetentli yondashuv davlat ta’lim standartlarining tayanch g’oyalaridan biri sifatida.
- 2.Texnologik ta’lim o’qituvchisining kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi.
- 3.Texnologik ta’lim o’qituvchisini kompetentligini rivojlantirishning faoliyatli modeli.

Tayanch tushunchalar: Aql-zakovat, shaxs, model,davlat ta’lim standarti, g’oya, yondashuv.

Har qanday pedagog, eng avvalo, u shaxsdir. Shunday ekan, pedagog intellekti birinchi navbatda shaxsning aql-zakovati, bilimi va tafakkuri, hayotiy tajribalarni egallaganlikdarajasini ifodalaydi. Pedagogik intellekt esa, bevosita yoki bilvosita kasbiyfaoliyat bilan bog‘liq. Biroq u pedagogik faoliyat bilan professional darajada shug‘ullanmaydigan kishilarda ham mavjud.

Hozirgi davrda jamiyatda pedagogik bilimlarni, pedagogik savodxonlikni rivojlantirish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim vazifasi sanaladi. Pedagogikintellekt ancha keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u kasbiy kompetensiya, pedagogic mahorat, pedagogik madaniyat, pedagog imiji kabi tushunchalarni ham o‘zida ifoda etadi.

Shaxs intellekti milliy, diniy va umumbashariy qadriyatlar bilan chambarchasbog‘liq holda shakllanadi. Har bir ijtimoiy hodisa bevosita yoki bilvosita ta’lim-tarbiyaga ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, pedagog intellekti qadriyatlarsiz rivojlanishi mumkin emas.

Har bir xalq milliy o‘ziga xoslikda, o‘zining intellektual darajasi doirasida fikrlaydi, shu asosda borliqni anglaydi, idrok etadi. Bu holat etnik mentalitetning pedagog intellektigata’siri bilan bog‘liq.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya milliy qadriyatlarimiz va sharqona pedagogik tajribalarasiga qurilgan ekan, bizda pedagogik intellekt milliy mazmun kasb etishini e’tiborgaolish lozim. Agar xalqning ijtimoiy tarixiy tajribasi uning madaniyati bilan uyg‘untarzda o‘quvchilarga taqdim etilmasa, jamiyatda ma’naviy xavf paydo bo‘ladi.

Hozirgi paytda ta’lim taraqqiyoti ayrim yo‘nalishlarda fan va ishlab chiqarishning rivojlanishidan orqada qolayotganligi yoki ta’lim fanning konseptual vazifalarini o‘zidato‘la ifoda etolmayotganligi muammosi mavjud. Bu muammo ta’lim muassasalari moddiy-texnik va o‘quv-metodik bazasidan samarali foydalanilmaslik holatlarida, pedagog kadrlar ta’limga oid huquqiy-meyoriy hujjatlar talablariga rioya qilib faoliyat ko‘rsatishda tushunmovchiliklarga duch kelayotganida, darsliklardagi kamchiliklarda, pedagog xodimlar axborotlarni boshqarishi va media savodxonligida, ta’lim jarayonini rivojlantirish, uni fan bilan integratsiyalashuvini ta’minalash, ta’lim muassasalarida ilmiy-ijodiy muhitni shakllantirish va ilmiy-metodik faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yish, ayrim innovatsiyalar va texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilishda ko‘zga tashlanadi. Mazkur muammolarning hal etilishi bir tomondan o‘qituvchi subyektini rivojlantirishgabog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan pedagog kadrlarning intellektual salohiyatiga bog‘liq. Demak, pedagogning intellektual salohiyati nafaqat ta’lim sohasidagi, balki butun jamiyatdagi islohotlar va modirenizatsiya jarayonlariga, global o‘zgarishlarga javob bera olishi zarur. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi davlat siyosatida pedagog kadrlarning intellektual va kasbiy salohiyatiga, shu bilan birga yoshlarning bilim salohiyatiga, ulardagagi iqtidor va iste’dodni aniqlash, ro‘yobga chiqarish va rag‘batlantirishga ham alohida e’tibot berib kelinmoqda. Buning huququy, dasturiy asosi, avvalo, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va asosida ishlab chiqilgan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida bilimli bo‘lish va iste’dodni

rag‘batlantirish ta’kidlangan. Texnologik ta’limning Milliy dasturida esa, iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va o‘qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratish vazifasi qo‘yilgan.

Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o‘ziga xos qobiliyati va iste’dodini o‘zvaqtida payqash, tarbiyalash va ro‘yobga chiqarish – bu o‘ta muhim vazifani nafaqat ota-onalarning ezgu-maqsadi, balki jamiyatning burchi sifatida o‘rtaga qo‘yish kerak.

Mutafakkirlar har qanday ta’lim-tarbiyada eng asosiy narsa muallim, uning tafakkurdunyosidir, deb bejizga aytishmagan. XXI asr intellektual tafakkur va salohiyat asridir.

Kuch – bilim va tafakkurda. Bunday sharoitda o‘z ishidan qoniqmasdan, doimoyangilikka intilib, bilim va malakasini oshirish ustida ishlaydigan, hayot bilan hamqadambo‘lib yashaydigan o‘qituvchi va muallimlargina har tomonlama yetuk insonlarnikamol toptirishga qodir bo‘ladi. Demakki, o‘qituvchi va murabbiylarimizning aqli, idrokli, zehnli bo‘lishi, ilm o‘rganishga, o‘z bilimini chuqurlashtirishga bo‘lgan intilishi farzandlarimizning taqdiriga daxldordir. Ilmli, intellektual salohiyatli o‘qituvchigina ana shunday har tomonlama kamoltopgan aql-zakovatli avlodni tarbiyalay oladi. Yangi davr bolasidan ham aynan shu xislatlarning bo‘lishi taqozo etiladi.

Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson qilib tarbiyalashda o‘qituvchi, tarbiyachi hamda ta’lim sohasidagi mas’ul xodimlarning xizmati kattadir. Yuksak saviyali, yuqori darajada kasbiy mahorat va kompetentlikka ega o‘qituvchilargina xalq orzusidagi barkamol shaxsni tarbiyalaydi. O‘qituvchi kasbi dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati hech qaysi davrda kamaymagan va so’nmagan. Chunki, ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. Bunda o‘qituvchining bilimi, mahorati beqiyosdir. O‘qituvchining bilim darjasи, sharqona fikr yurita bilishi, ish bilan harakatining birligi yoshlarda o‘z-o‘zini idora va nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularda ijodiy fazilatlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ta’lim oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy madaniyati bilan tanishtirish, ularda bilimlarni egallah ko‘nikma

va malakalarini oshirishga bo'lgan talablarni shakllantirish, estetik tushunchalarni kamol toptirish, ta'lif oluvchilarning ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit yaratish o'qituvchi faoliyatida chuqur o'rinni egallashi lozim. Shu bois xalqimizning «Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'limgay», - degan naqlini ta'lif oluvchi qalbiga singdirish mas'uliyati o'qituvchiga topshirilgan. Shu sababli, bugungi tez o'zgaruvchan sharoit oliy ta'lif muassasalari bitiruvchisida kompetentlik, tashabbuskorlik, egiluvchanlik, dinamiklik va konstruktivlik, yangilikka intiluvchanlik kabi sifatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Pedagogika oliy ta'lif muassasalarida tayyorlanayotgan o'qituvchilar, shu jumladan matematika o'qituvchisi butun hayoti davomida mustaqil ta'lif olishga intiluvchan, yangi texnologiyalarni egallagan va ulardan foydalanishni tushunishi, mustaqil qaror qabul qila oladigan ijtimoiy va bo'lajak kasbiy muhitga moslashuvchi, stressli (hayajonli) holatlarga tayyor va ulardan tez chiqa oladigan bo'lishi lozim.

Respublikamizda oliy ta'lif tizimini modernizatsiyalashning istiqbolli yo'naliishlaridan biri bo'lgan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda kasbiy kompetentli yondoshuvni joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kompetentlik ta'lif muassasasi o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologo-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlarini ifodalaydi. Kasbiy imkoniyatni esa, ta'lif muassasasi o'qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko'nikmalari orqali, ko'nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo'naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi. V.A. Slastenin barcha pedagogik ko'nikmalarni quyidagi to'rtta guruhga birlashtirgan:

- ob'yektiv pedagogik faoliyat, tarbiyalashning ob'yektiv jarayonini aniq pedagogik masalalarga «o'tkazish»ni bilish;

- mantiqan yakunlangan pedagogik tizimni qurish va amalga oshirishni bilish (ta'lim-tarbiya masalalarini rejalashtirish, ta'lim jarayonining mazmuni, usullari, tashkil etish vositalari, shakllarini tanlash);
- pedagogik faoliyat natijalarini e'tiborga olish va baholashni bilish, ya'ni ta'lim jarayoni va o'qituvchi faoliyati natijalarini tahlil qila olish;
- tarbiyaning turli komponentlari va omillari orasida o'zaro bog'lanishlarni ajratish va o'rnatishni bilish .

O'qituvchining nazariy tayyorlarligining mazmuni ko'p hollarda psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar majmuasi sifatida tushuniladi. Ammo, maqsad - faqat bilimlarni shakllantirishdan iborat emas. Jamiyat rivojining zamonaviy bosqichi ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bosh yo'naliш sifatida axborotli intellektual rivojlanish yo'lini tanlagan davlatlar katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu esa, o'z navbatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimiga yangicha qarashni taqozo etadi. Bugun umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari oliy ta'lim muassasalaridan, shu jumladan pedagogika oliy ta'lim muassasalaridan sifatli tayyorlangan, ish jarayoniga tezkorlik bilan kirishib keta oladigan mutaxassisni kutmoqda. Uzoq vaqtlar davomida pedagogik tizimlar talabalarning insoniyat tomonidan to'plangan tayyor bilimlarni o'zlashtirishiga yo'naltirilgan. Ammo, bilimlar hajmi va sifati o'sib borayotgan bir vaqtda bu mumkin ekanmi? Javob aniq: mutaxassisni bu tarzda tayyorlashda hech qachon sifat haqida gapirib bo'lmaydi. Bundan esa, ta'lim tizimini modernizatsiyalash zaruriyati ko'rinish turibdi. Barcha rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimi islohoti davomida pedagogik va axborot texnologiyalari rivojlanishidagi tub burilish kerakli ma'lumotlarni mustaqil topish, muammolarni ajratish va ularni rasional hal etish yo'llarini izlash, olingan bilimlarni tahlil qilish va ularni yangi masalalarni yechishda qo'llashni bilishda amalga oshirilgan. Tayyor bilimlarni o'zlashtirish maqsad bo'lib qolmasdan, balki mutaxassisni tayyorlashda yordamchi vositalardan biri bo'lib qolishi kerak. Shunday qilib, zamonaviy jamiyatga mustaqil,

tanqidiy fikr yurituvchi, vujudga kelgan muammolarni ijodiy hal etishni biladigan va shu bilan birga o'z-o'zini ta'minlash ko'nikmasiga ega bo'lган shaxs kerak. Ta'limni modernizatsiyalashning muhim yo'naliшlaridan biri tabiatiga ko'ra shaxsga yo'naltirilgan kompetentli yondoshuv hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish jamiyatni axborotlashtirishning global jarayonining asosidir. Bunda u jamiyat faoliyatlarining boshqa yo'naliшlariga ko'ra tezroq odimlashi kerak, chunki aynan ta'lim berish jarayonida axborotlashtirilgan jamiyatning ijtimoiy, psixologik kabi asoslari shakllanadi. Jamiyat va shaxsning yangi ehtiyojlari axborotli kompetensiyani asosiy, bazaviy asoslardan biri sifatida aniqlaydi. Bundan tashqari kompetentlik quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega:

- 1) ustunlik (zamonaviy mutaxassis faoliyatida axborotli faoliyat katta ulushga ega bo'lmoqda);
- 2) dinamizm (bo'lajak bitiruvchini tayyorlashda faqat axborotlashtirishning zamonaviy holatini hisobga olish yetarli emas, uni axborot rivojlanish tendensiyasiga yo'naltirish shart);
- 3) optimallik (axborot muhitining tezkor rivojlanish holatida bitiruvchini optimal axborotli faoliyatga tayyorlash shart, kompetensiya ko'p ham, oz ham bo'lmasligi, u qo'yilgan kasbiy masalalarni hal etishga yetarli bo'lishi lozim).

Jamiyat va ta'limni axborotlashtirish jarayonida ma'lum an'analar axborotlashtirilgan xulq stereotipi, axborotning muhim manbalari va axborot almashish usullari asta-sekin hosil bo'ladi, shaxsiy qadriyatlar faollashadi, bularning barchasi axborot madaniyatining zamonaviy bosqichi shakllanishida aks etadi. **Axborot madaniyati** - bu ilmiy va amaliy axborotli bilimlar va tajribalarning muhim sohasini qamrab oluvchi yetarlicha keng va umumiyl tushuncha. Biz axborot madaniyatini shaxs madaniyati tuzilmasi komponenti sifatida qaraymiz. Axborot madaniyati tushunchasi ko'pincha axborot savodxonligi tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Axborot savodxonligi bo'lajak mutaxassisning zaruriy axborot ko'rinishini identifikasiyalash, uni izlash, tanlash va tahlil qilish, kasbiy faoliyatda

samarali qo'llash ko'nikmasi sifatida ta'riflanadi. Demak, axborot savodxonligi, eng avvalo, axborot bilan ishslashning texnologik jihatini o'z ichiga oladi. Axborot bilan ishslash texnologiyasini tanlash asosan texnik vositalar bilan aniqlanadi. Zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ishslashni bilish kompyuter savodxonligi sifatida aniqlanadi. Ammo, savodxonlikning kompetentlikdan asosiy farqi shundan iboratki, savodxon inson bilimlarnio'zlashtirish, kompetentli inson esa, bilimlarni amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qayd etilganlar axborot-texnik va axborot-texnologik komponentlar birlashishda axborotli kompetentlikning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat ekanligini aniqlashga imkon beradi:

- texnik qurilmalarni (telefondan boshlab to kompyuter tarmoqlarigacha) qo'llash bo'yicha aniq ko'nikmalarga ega bo'lish;
- o'z faoliyatida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish qobiliyati;
- turli manbalardan (davriy nashrlar va elektron ta'lim resurslari) axborotni olish, uni tushunarli ko'rinishda taqdim etish va qo'llash;
- axborotni analistik qayta ishslash asoslariga ega bo'lish;
- turli axborot bilan ishslashni bilish;
- o'z predmetli sohasida axborot oqimlarining xususiyatlarini bilish.

Axborotli kompetensiya mazmunidan kundalik va kasbiy faoliyatning, ijtimoiy hayotning turli muammolarini hal etish uchun uni shakllantirish zaruriyati ko'rinish tursada, uni tayanch kompetentlik sifatida aniqlovchi yana bir nechta xususiyatlar mavjud. Axborotli kompetensiya ko'p qirrali, ya'ni mos qobiliyatlarni shakllantirish uchun katta intellektual rivojlanish, abstrakt fikrlash, algoritmik fikrlash, o'z o'rnini aniqlash va boshqa shu kabi bir qator sifatlarning namoyon bo'lishini talab etadi. Harakatlarning turli ko'rinishlari, ya'ni mustaqil harakat qilish, interaktiv rejimlarni qo'llash, turli ijtimoiy guruhlarga kirish va ularda amal bajarish ko'nikmalarini zarur.

Axborot kompetentligini shakllantirish ta'limning maqsadlaridan biri, ammo, shu bilan birga bu ta'lim berish jarayonining yetakchi vositasi hisoblanadi. Axborot kompetentligi asosiy bo'lganligi uchun uning rivojlanishi ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi, shuning uchun ham unda uzluksizlik va uzviylik tamoyili bajarilishi zarur. Ta'limning har bir bosqichida qaysi kompetensiyalar shakllanishini aniqlash muhimdir. Ya'ni asosiy, predmetlararo va predmetli kompetensiyalarni loyihalash zarur, shu bilan kompetentli yondoshuv orqali ta'lim mazmunini aniqlashimiz mumkin. Talabalar bilan o'tkazilgan so'rovlar tahlili ularning 50 foizi Internetda elektron pochta bilan, 20 foizi esa, klaviatura va matnli hujjatlar bilan erkin ishlay olishini ko'rsatdi. Bundan tashqari ta'lim oluvchilar orasida axborot tengsizligi aniqroq namoyon bo'ladi: 60 % dan ortiq talabalar uyda shaxsiy kompyuterga ega, qolgan talabalar esa bir haftada o'rtacha 2-6 soat unda ishlash imkoniyatiga ega. Yuqorida qayd etilganlardan axborot kompetentligini loyihalash yagona ssenariy bo'yicha emas, balki talabalarning boshlang'ich tayyorgarligidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak - degan xulosaga kelish mumkin. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga qo'yilgan talablardan biri undan foydalanishning intuitiv (ichki hissiyat bilan) tushunilishidir. Natijada foydalanuvchidan kasbiy faoliyat muammolarining kompyuterli yechimi mazmuni yashiriladi va bu talabada kompyuter hammasini o'zi hal qiladi - degan noto'g'ri fikr shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun, axborot texnologiyalarini o'rganishdan fundamental tushunchalar va metodologik yondoshuvlarni o'rganish ehtiyoji kelib chiqmaydi. Bu kompetensiyalarni ishlab chiqish informatikaning fundamental asoslarini bilmasdan turib mumkin emas. Talabaning axborot kompetentligini shakllantirishda o'qituvchi o'rni haqida to'xtalib o'tish zarur. O'tkazilgan so'rovlar natijasida shu narsa aniqlandiki, ishtirokchilarning deyarli 60 foizi axborot texnologiyalari bilan ishlashga tayyorgarligining sustligini informatika o'qituvchilarining past malakaliligidagi - deb hisoblaydilar. Axborot texnologiyalari fanlari o'qituvchilari va maxsus fanlar o'qituvchilari bir-biridan «uzulgan», ya'ni informatika o'qituvchisi boshqa fanlarning predmet sohasi haqida kam tasavvurga, maxsus fanlar o'qituvchilari esa past axborot tayyorgarligiga ega ekanligini ko'rish

mumkin. O'qituvchilarning yaqin munosabatlariga o'quv jarayonining o'zi ham xalaqit beradi, chunki uning asosiga sinf-dars tizimi olingan. Bu holda o'qituvchi talabaga fan bo'yicha zarur bilimlarni uzatishi mumkin, ammo, kompetentli yondoshuv haqida gapishtirishga to'g'ri kelmaydi. Axborot kompetentligining professional darajasiga erishish maqsadida kompyuterda malakali ishlashni o'rgatish uchun sharoitlar yaratish zarur. Talaba zamonaviy qurilma va dasturiy ta'minot (uning faoliyatiga mos keladigan) bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak ekanligi barchaga ma'lum. Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyati elementlari qatnashgan mustaqil ishlarni axborot texnologiyalari imkoniyatlarini faol qo'llash orqali bajarishga jalg etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, uzviylik va ketma-ketlilik tamoyillarining bajarilishini ta'minlash talab etiladi. Bu yerda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarining hamkorligi zarur. O'quv dasturlarida individual ta'limni amalga oshirish uchun talabaning tayyorgarlik darajasini e'tiborga olib axborot kompetentligini kerakli darajaga olib chiquvchi, axborot bilan bog'liq fanlarni tanlash nazarda tutiladi.

Nazorat savollari:

1. Axborot madaniyati deganda nimani tushunasiz ?
2. Axborot kompetentligi deganda nimani tushunasiz?
3. Intellektual salohiyatlari o'qituvchi deganda nimani tushunasiz?
4. "Modernizatsiya" so'zining ma'nosi?
5. Davlat ta'lim standartlarining tayanch g'oyalaridan biri ?

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)

3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

11.MA'RUZA MASHG'ULOTI.

Mavzu:11 Texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning didaktik xususiyatlari.

Mashg'ulot rejasi:

1. Kompetentli yondashuv talabalarning professional tayyorgarligini rivojlantirish omili.
2. Professional ta'limning mazmuni, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha faoliyati va funktsional vazifalari tahlili.
3. Modulli-kompetentli yondashuv asosida kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: An'anaviy, bilim, ko'nikma, professional ta'lim, tahlil, modulli-kompetentlik.

Bo'lajak o'qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari. An'anaviy oliy ta'limda uning maqsadlari bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanadi. Bugungi kunda bunday yondoshuv yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy jamiyatga keyinghayotga kirisha oladigan, oldida paydo bo'lgan har qanday hayotiy va kasbiy muammolarni amaliy hal eta oladigan mutaxassislar zarur. Bu esa, o'znavbatida, olingan bilim, ko'nikma va malakalarga hamda «kompetensiya»,«kompetentlik» tushunchalari orqali izohlanuvchi, ta'limning zamонавиylarini tushunishga ko'proq mos keladigan qandaydir qo'shimcha sifatlarga bog'liq bo'lib, ularni pedagogik amaliyotga kiritish esa, ta'lim mazmuni va usullarini o'zgartirishni, ta'lim oluvchilar ta'lim yakuniga qadar va alohida predmetlarni o'rganishda egallashi lozim bo'lgan faoliyat turlarini aniqlashni talab etadi.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o'qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma'naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas'uliyatlilik,chuqur bilimga ega bo'lishi, o'z o'quvchilarining ijodiy potensialinirivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o'z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi.

Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya'ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o'ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega,ya'ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir.

Erkin va faol fikrlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishlib chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamонавиylarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi.

Kasbiy kompetentli o'qituvchi birinchidan, o'quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta'lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ikkinchidan,o'z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi.

Oliy ta'lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik texnologiyalari,nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlarda jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Jumladan,«bilimli» yondoshuvda ta'lim maqsadi ta'lim oluvchidan har bir fandan alohida bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiradigan bo'lsa, «kompetentli» yondoshuvda ta'lim oluvchida fanlar bo'yicha integrallashgan bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning mavjudshakllari bo'lган ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmun jihatidan o'zgartirish nazarda tutiladi. Ma'ruza darslarining muammoli ta'lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg'ulotlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishligi maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlarni tashkil etishda individuallikka ahamiyat qaratish vauclar hajmi jihatidan ko'proqni tashkil qilishi kerak.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondoshuv ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning ham o'zgartirilishini taqozo etadi. Bilimlarni berishda kreativ pedagogik texnologiyaga o'tish talab etiladi. Kreativ pedagogic texnologiyada o'qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan turli individual topshiriqlar ijodiy faoliyatga qaratilgan bo'lishi va ta'lim oluvchilarda har bir topshiriqni bajarishga ijodiy yondoshuvni talab qilsin. Bu texnologiya o'qituvchi o'z o'quv fani yuzasidan doimiy ijodiy izlanishga, ta'lim oluvchini esa, topshiriqlarni bajarishda faqat o'z bilim va ko'nikmalariga tayanish kerakligini o'rgatadi.

Ta'lim mazmuni, shakli, pedagogik texnologiyalarning o'zgarishlari usullarini takomillashtirish kerakligini ham taqozo etadi. Jumladan, «bilimli» yondoshuv tizimida ta'lim oluvchini har bir fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmalari nazorat qilinib, umumiyl reyting bali o'zlashtirish ko'rsatkichi sifatida qo'llaniladi. Ta'lim

olvuchining kompetentli darajasini aniqlashga qaratilgan «kompetentli» yondoshuvda, eng avvalo kompetentlikni aniqlash talab etilib, bu integrallashgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniqlash degani.

Ta'linda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishning yetakchi g'oyasi shundan iboratki, bitiruvchilarda kompetensiyalar majmuasini shakllantirish ularegallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanuvchi oliy ta'lim muassasasiga an'anaviy bo'lgan maqsadga to'laqonlimos kelmaydi. Bu yondoshuv L.S. Grebnev, N.M. Rozina, S.A. Smirnova, A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, T.D. Makarova, Dj. Raven, N.A. Selezneva, Yu.G. Tatur, G. Xutmaxer, A.V. Xutorskiy, N.A. Muslimov va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan .

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tayyorgarligi sifatini tahlil qilish uchun kompetentlik bilan bog'liq mezонни tanlash shu bilan shartlashilganki, oliy ta'lim muassasasi uzoq mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan kasbiylashtirishni emas, balki bitiruvchining kasbiy tayyorgarligi va kompetentligini ta'minlashi mumkin.

Demak, kompetensiya ta'lim oluvchining ta'limiy (yoki kasbiy) tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan talablarga qaysidir darajada uzoqlikni nazarda tutsa, kompetentlik esa, tayyor bo'lgan shaxsiy sifatlarni nazarda tutar ekan.

Ushbu muammoni tadqiq qilishda, birinchi navbatda kasbiy kompetentlik nima ekanligini, uning tuzilmasi va shakllanish sharoitlarini aniqlash zarur. Psixologo-pedagogik adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili «kasbiy kompetentlik» tushunchasi ta'rifiga bir necha yondoshuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bu tushuncha ko'pincha «chuqurlashtirilgan bilim», «harakatlarning samaradorligi» kabilar sifatida talqin etilgan. Bizning nuqtai nazarimizcha esa, mutaxassis kompetentligi kasbiy faoliyat davomida orttirilgan ijtimoiy-ahamiyatli va shaxsiy-ahamiyatli kompetensiyalar tizimidan iborat. Agar, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi haqida so'z yuritsa, u holda bu tushuncha mazmuniga pedagogik masalalarni mustaqil va yetarlicha samarali hal etish imkonini beruvchi o'qituvchi, tarbiyachi, pedagogning shaxsiy imkoniyatlari kiritiladi. U yoki

bu pedagogic masalalarini hal etish uchun pedagogik nazariya va uning qoidalarini amalda qo'llay olish ko'nikmasi va tayyorgarlik zarur. Shu bilan birga yanao'qituvchining kasbiy kompetentligi uning mehnatida pedagogik faoliyat vapedagogik muloqotning turli tomondan shakllanganligidir.

Turli davrlarda va turli mualliflarda turli xil ta'riflar uchraydi va ular quyidagilardan iborat: ma'lum mehnat faoliyati vazifalarini bajarish ko'nikmasi va qobiliyatiga egalik, psixik holat, ta'lim olish va umummadaniyat darjasи, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorgarlik va nazariyaning birligi. Bular esa, kasbiy kompetentlikni pedagog shaxsining psixologik pedagogik va fan sohasida bilimlarga egaligini, kasbiy ko'nikma va malakalari, shaxsiy tajribasini tavsiflovchi integrallashgan shaxsiy xususiyati sifatida aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagog o'z faoliyati istiqbolinimaqsad qilgan, bilimlarini boyitishga intiluvchan, o'ziga ishongan va kasbiynatijalarga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Ba'zi bir tadqiqotchilar pedagogning kompetentligi tashkilotchilik, javobgarlik, mehnatsevarlik, maqsadga erishish, o'ziga ishonish kabi shaxsiy sifatlarini o'z ichiga oladi - deb hisoblasa, boshqa birlari esa, kompetentlik tuzilmasiga motivatsion-qadriyatli sohani ham kiritish zarur, chunki bu soha bilimlarga egalik darajasini aniqlaydi - deb hisoblaydi. Shunday qilib, kompetentlikning qayd etilgan tashkil etuvchilari insonning kasbiy faoliyatida, kasbiy muloqotida, o'z kasbining ustasi sifatida shakllanib yetishganligini anglatadi.

Bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o'quv predmetlari ro'yxati, balki, fanni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiyko'nikma va bilimlar, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniyhayotdagi faol o'rnidan iborat ta'lim mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buningbarchasi majmuaviy holda, bo'lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, uo'z-o'zini rivojlantirish va o'z komilligi ustida ishlay olish usullariga egabo'ladi, bu esa, o'z vaqtida pedagogga «inson-inson» tizimida kasb ustasi -sub'yekti sifatida samarali faoliyatni ta'minlaydi. Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim va ko'nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan moso'qitish tizimini yaratmasdan mumkin emas. Mutaxassisning

kompetentligini ta'riflashga turlicha yondoshuvlar mavjud. Masalan, N.F. Talizinaning nuqtai nazaricha, u uchta asosiy tarkibiy qismlarga (sifatlar, bilimlar, ko'nikmalar) mos kelishi kerak.

Ularga quyidagilar kiradi:

Sifatlar:

- ishga munosabatni ifodalovchi;
- mehnatsevarlik, e'tiborlilik, ijodiy yondoshuv;
- hatti-harakat va faoliyatning umumiyligi ma'romini tavsiflovchi;
- ijrochilik, mustaqillik, so'ziga sodiqlik, obro'lilik, faollik va shijoatlilik;

Aqliy qobiliyatlar:

10. egiluvchanlik, zukkolik, uzoqni ko'ra bilishlik;

Ma'muriy-tashkiliy:

11. ish muhitini yaratish ko'nikmasi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmasi, jamoani himoya qilish, insonlarni farqlay olish, ularni ishontira olish ko'nikmasi;

Insonlarga munosabatni tavsiflovchi:

12. rostgo'ylik, tarbiyalilik;

O'ziga munosabatni tavsiflovchi:

13. talabchanlik, kamtarlik, dadillik, mukammallik.

Bilimlar:

14. o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy, umummadaniyat, kasbiy faoliyat haqida ma'lumotlilik.

Ko'nikmalar:

15. qo'yilgan masalalarni yechish, adabiyotlar bilan ishlash, faoliyatni rejallashtirish .

Bu ro'yxat faoliyat turiga qarab to'ldirilishi yoki qisqartirilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetensiyalari ajratiladi:

16. o'quv-bilish, axborotli, kommunikativ;

17. ijtimoiy-foydali, shaxsiy ;

18.o'z-o'zini takomillashtirish.

Bularning barchasi bitiruvchiga kasbiy bilim, ko'nikmava keyingi hayotda faoliyat usullari majmuasini ongli ravishda qo'llash imkoniniberadi. Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo'lishi kerak. Umumiy holdabular mehnat, o'quv, o'yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yanaquyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin:

- kompetentlikni faoliyatning yo'naltirilgan ob'yekti bo'yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiat», «inson belgili tizim» sohalarida kompetentlikni beradi;
- kasblarning alohida sinflari va guruhlari sohasidagi kasbiy kompetentlik;
- aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik.

Jamiyatning turli sohalarida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: maishiy xizmat sohasida, san'at sohasida, sport sohasida va boshqalar. «Bilimlilik» tavsiflari ham kompetentlikka kiradi va ijtimoiy bilimlar sohasi (matematika, fizika, gumanitar fanlar, biologiya va boshqa fanlar sohasida kompetentlik), ishlab chiqarish sohalari (energetika, transport, aloqa,mudofaa, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar) bo'yicha tasniflanadi.

Psixologik tavsif sifatida kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv (bilimlar) va operasion-texnologik (faoliyatli), balki motivatsion-etik, ijtimoiyva ahloqiy tashkil etuvchilarni ham o'z ichiga oladi. Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo'lganligi uchun ularning har biri o'z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiy ko'rinishlari bilan kompetensiyaning jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi,umumo'quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylik, badiiy, texnik, shu bilan birgapedagogik-psixologik, ijtimoiy va boshqa ko'nikmalariga mos keladi.

Ijtimoiy rivojlanishi va maqomi pog'onalarini bo'yicha kompetentlikni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

19.bolaning mактабга таъворгарлиги;

20.bitiruvchining kompetentligi; yosh mutaxassisning kompetentligi;

21.ish stajiga egamutaxassisning kompetentligi.

Mutaxassisning kompetentlik modeli, bitiruvchi modeli emas, chunki kompetentlik, talaba ta’lim muassasasida ta’lim olishi davomida kerakli hajmdaegallay olmaydigan muvaffaqiyatli faoliyat tajribasi bilan uzlusiz bog’liq. Darslarda talabalarning ilmiytadqiqot ishlarini bajarishi, rolli, imitasion o’yinlarni ijodiy mustaqil ishlarda, rejalarmi ishlab chiqishda qo’llashni kengaytirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bo’lajak pedagog kompetentliginingmuhim qadriyatli-ma’noli komponentini shakllantirish zarur.

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

- 1) tashkiliy-boshqaruvchanlik (o’quv reja, o’quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta’limjarayonini moddiy-texnik ta’minlash);
- 2) o’quv-uslubiy (mashg’ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g’oyalarni ajratish);
- 3) texnologik (nazorat-baholash, o’qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo’llash);
- 4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o’qitishga motivatsiyani rag’batlantirish, kompetentlikning mezoninianiqlash, talabalarni hamkorlikda ishslashga yo’llash).

Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogic ko’nikmalari orqali, ko’nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogicmasalalarni yechishga yo’naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi. V.A. Slastenin barcha pedagogik ko’nikmalarni quyidagi to’rtta guruhga birlashtirgan:

1. ob’yektiv pedagogik faoliyat, tarbiyalashning ob’yektiv jarayonini aniq pedagogik masalalarga «o’tkazish»ni bilish;

2. mantiqan yakunlangan pedagogik tizimni qurish va amalga oshirishni bilish (ta’lim-tarbiya masalalarini rejalashtirish, ta’lim jarayonining mazmuni, usullari, tashkil etish vositalari, shakllarini tanlash);
3. pedagogik faoliyat natijalarini e’tiborga olish va baholashni bilish, ya’ni ta’lim jarayoni va o’qituvchi faoliyati natijalarini tahlil qila olish;
4. tarbiyaning turli komponentlari va omillari orasida o’zaro bog’lanishlarni ajratish va o’rnatishni bilish .

O’qituvchining nazariy tayyorgarligining mazmuni ko’p hollarda psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar majmuasi sifatida tushuniladi. Ammo, maqsad - faqat bilimlarni shakllantirishdan iborat emas.

O’qituvchi tajribasi tuzilmasida ortiqcha yuk bo’lib hisoblangan va bir tizimga keltirilmagan bilimlar hech kimga kerak bo’lmagan narsa bo’lib qoladi. Shuning uchun ham nazariy tayyorgarlikning shakllariga e’tibor qaratish zarur. Bunday nazariy faoliyat o’qituvchida analitik, bashorat qilish, loyihalash varefleksiv ko’nikmalar mavjudligini nazarda tutuvchi pedagogik fikrlashni umumlashgan holda bilishda namoyon bo’luvchi faoliyatdir.

Analitik ko’nikmalar quyidagi bir qator xususiy ko’nikmalardan iborat:

- pedagogik hodisalarini tahlil qilish, ya’ni ularni asosiy elementlarga ajratish (chartlar, omillar, namoyon bo’lish shakllari va boshqalar);
- pedagogik hodisalarini to’g’ri tashxislash;
- joriy pedagogik masalani ta’riflash;
- masalani yechish uchun optimal usullarni topish.

Bashorat qilish ko’nikmasi ta’lim jarayonini boshqarish bilan bog’liq va boshqarish sub’yekti, uning faoliyatining maqsadi haqida o’qituvchining ongida quyidagi aniq tasavvurlar mavjud bo’lishini nazarda tutadi:

- ta’lim maqsadlari vavazifalarini shakllantirish; ularga erishish usullarini tanlash;
- mumkin bo’lgan cheklanishlarni, o’rinsiz hodisalarini oldindan ko’ra bilish va ularni bartaraf etish usullarini tanlash;
- ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o’zaro hamkorligi mazmunini rejalashtirish.

Bashorat qilish ob'yektiga ko'ra, bashorat qilish ko'nikmalarini quyidagi uchta guruhga birlashtirish mumkin: jamoa rivojlanishini (uning tuzilish dinamikasi, o'zaro munosabatlar tizimining rivojlanishi, faollar va alohida olingan ta'lif oluvchining o'zaro munosabatlar tizimida o'zgarishi va boshqalar) bashorat qilish; shaxs rivojlanishini (uning shaxsiy-ishbilarmonliksifatlari, hissiyotlari, irodasi va ahloqi, shaxs rivojlanishida mumkin bo'lgancheklanishlar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishdagiqiyinchiliklar va boshqalar) bashorat qilish; pedagogik jarayonni (o'quvmaterialining ta'lif, tarbiya va rivojlantiruvchi imkoniyatlari, talabalarningta'lif olish va faoliyatning boshqa turlarida qiyalishi, ta'lif berish vatarbiyalashning u yoki bu usullari, yo'llari va vositalarini qo'llash natijalari vaboshqalar) bashorat qilish.

Loyihalash ko'nikmalarini ta'lif jarayoni loyihasini ishlab chiqish sifatida amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lif va tarbiya chegaralarini aniqlashtirish; ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish usullarini asoslash;
- ta'lif jarayoni ishtirokchilarining talabi va qiziqishlarini, moddiy texnikbaza imkoniyatlarni, shaxsiy tajriba va shaxsiy-ishbilarmonlik sifatlarni e'tiborga olib, ularning faoliyat turlari va mazmunlarini rivojlantirish;
- talabalar bilan ularning qobiliyatları, ijodiy imkoniyatlari va iste'dodlari rivojlanishida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida individual ishlarni rejalashtirish;
- pedagogik jarayonning shakl, usul va vositalarini hamohanglikda tanlash; talabalarning faolligini rag'batlantirish va ularning hulqidagi salbiy holatlarniyo'qotishni rejalashtirish;
- ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan aloqa bog'lashva tarbiyaviy muhitni shakllantirishni rejalashtirish.

Refleksiv ko'nikmalar pedagog tomonidan nazorat-baholash faoliyatini amalga oshirishda zarur va u quyidagilarni nazarda tutadi:

- olingan natijalarni berilgan namunalar bilan moslashtirish asosida nazorat;

- faqat aqliy faoliyatdabajarilishi nazarda tutilgan harakatlar natijalari asosida nazorat;
- bajarilganamallarning tayyor natijalari asosida nazorat.

Refleksiya nazariy faoliyatning shaxsiy harakatlarini anglash va tahlil qilishga yo'naltirilgan maxsus shakli sifatida tushuniladi. O'qituvchi uchun olingan natijalar qay darajada (ijobiy yoki salbiy) uning faoliyat vositalari ekanligini aniqlash juda muhimdir.

Refleksiya - bu amalga oshirilgan faoliyat, tafakkur, muloqot va bu faoliyat davomida insonning o'z psixologik holatini tahlil qilishi, anglashi, maqsadlari harakatlari, his-tuyg'ularini muvofiqlashtirishi jarayonidan iborat. O'qituvchining amaliy tayyorgarligi tashqi ko'nikmalarda, ya'ni kuzatish mumkin bo'lgan harakatlarda ifodalanadi. Ular qatoriga tashkiliy va kommunikativ ko'nikmalar ham kiradi. O'qituvchining tashkilotchilik faoliyatita'lim oluvchilarni faoliyatning turli ko'rinishlariga jalb etish va uni tarbiyaob'yektidan sub'yektiga aylantiruvchi faoliyatni tashkil etishdan iborat. Tashkilotchilik ko'nikmalarga umumpedagogik ko'nikmalar sifatida safarbarlik, axborotlashtiruvchi, rivojlantiruvchi va yo'naltirilgan bilimlar kiradi.

O'qituvchining safarbarlik ko'nikmalari quyidagilarni nazarda tutadi:

- talabalarning e'tiborini jalb qilish va ularda ta'lim olishga qiziqishni rivojlantirish;
- ularda bilimga ehtiyojni shakllantirish; ilmiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'quv jarayonini ilmiy tashkil etish yo'llarini o'rgatish;
- o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan yoki behosdan sodir bo'lgan muammoli holatlarda maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida olgan bilimlarini qo'llash va o'z hayotiy tajribasiga tayangan holda atrofdagi olam hodisalariga ta'lim oluvchining faol, mustaqil va ijodiy munosabatlarini shakllantirish, rag'batlantirish va jazolash usullari tizimini ongli qo'llash.

Axborot bilan ishslash ko'nikmalari nafaqat o'quv axborotini bevosita bayon qilish, balki uni olish va qayta ishslash usullari bilan ham bog'liq. Ungachop etilgan va bioliografik manbalar bilan ishslash, boshqa manbalardan axborotni olish va uni

ta’lim jarayoni maqsadlari va vazifalariga mos holdaqayta ishlash ko’nikmalari kiradi.

Ta’lim berish davrida axborot bilan ishlash ko’nikmalari quyidagi qobiliyatlarda namoyon bo’ladi:

- o’quv materialini fan xususiyatlari, talabalarning tayyorgarlik darajasi, hayotiy tajribasi va yoshini e’tiborga olgan holda tushunarli tarzda bayon etish;
- o’quv axborotini uzatishning turli usullari va ularning mosligi, ya’ni materialni aytib berish, tushuntirish, suhbat, muammoni induktiv va deduktivbayon qilishlarni e’tiborga olgan holda o’quv materialini uzatish jarayonimantiqiy to’g’ri tuzish;
- savollarni tushunarli va to’g’ri ta’riflash;
- talabalar tomonidan o’quv materialini o’zlashtirish darajasini va tavsifini tezkor tashxislash.

Rivojlantiruvchi ko’nikmalar quyidagilarni nazarda tutadi:

- alohida talabaning yoki butun guruhning «yaqin rivojlanish zonası» ni aniqlash;
- talabalarning bilish jarayonlari, hissiyotlari va idroklarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar va boshqa sharoitlarni yaratish;
- bilish mustaqilligi va ijodiy fikrlashini rag’batlantirish, mantiqiy (xususiyini umumiya va boshqalar) va funksional (sabab-natija, maqsadvositalar,sifat-sonlar, harakat-natijalar) munosabatlarni o’rnatish zaruriyati;
- individual xususiyatlarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu maqsadda individual yondoshuvni amalga oshirish.

Mo’ljalli ko’nikmalar talabalarning ma’naviy va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga, o’quv faoliyati va fanga mustahkam qiziqishini rivojlantirishga, ta’lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos kasbiy faoliyatga, shaxsning ijtimoiy ahamiyatli sifatlarini maqsad qilib olgan hamkorli ijodiy faoliyatni tashkil etishga yo’naltirilgan.

Talabaning kommunikativ ko’nikmalari o’zaro bog’liq perceptiv bilimlar guruhi, xususan, muloqot ko’nikmalari, pedagogik malakalari va ko’nikmalarini o’z ichiga oladi. Perceptiv ko’nikmalar muloqotning boshlang’ich bosqichida paydo

bo'lib, umumiy ko'nikmaga, ya'ni boshqalarni (talabalarni, o'qituvchilarni, otaonalarni)tushunishga o'tadi. Buning uchun esa, boshqa shaxsning ideallari,ehtiyojlari va qiziqishlarini bilishi shart. Bundan tashqari talabada o'zi haqidagimavjud tasavvurlarni, ya'ni u nimani o'ziga xos deb hisoblashini va nimalarga qarshilik qilishini bilishi kerak.

V.L. Slastenin perceptiv ko'nikmalar majmuasini quyidagilar orqali ifodalaydi:

- hamkorlik faoliyati davomida sherigi bilan muloqot qilish natijasida olinadigan axborot va signallarni qabul qilish va uni qo'llash;
- boshqa insonlarning shaxsini chuqur o'rganib chiqish;
- shaxsning individual o'ziga xosligini o'rnatish;
- shaxsning tashqi tavsiflari va hatti-harakatini tezkor baholash asosida uning ichki dunyosini, yo'naltirilganligini va insonning kelajakdagi harakatlarinianiqlash;
- shaxsning qaysi turga va qaysi temperamentga munosib ekanligini aniqlash;
- unchalik ju'ziy bo'limgan belgilar bo'yicha hayajon xarakterini, inson holatini, uning u yoki bu hodisalarga bog'liq yoki bog'liq emasligini bilib olish;
- insonning harakatlari va boshqa alomatlarida uning boshqalardan ham o'zidan ham farqli xususiyatlarini topish;
- boshqa insonlarning muhim jihatlarini ko'rish, uning ijtimoiy boyliklarga munosabatini to'g'ri aniqlash, insonlarning hatti - harakatlarida o'rganilayotgan «o'zgartirishlar» ni hisobga olish, boshqa insonni o'rganishining o'ziga xosligi (ideallashtirish va boshqalar) .

Pedagogik muloqot ko'nikmalari «kommunikativ hujum», - deb nomlanuvchi harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq, ya'ni o'ziga e'tiborniquyidagi to'rtta usul bilan jalg etadi:

- nutqli (ta'lim oluvchilarga verbal murojaat);
- faol ichki muloqot bilan jimlik (e'tiborni talab etish bilan);
- harakatli-belgili (jadvallar, ko'rgazmali qurollarni osish, doskada yozish va boshqalar);
- avvalgi uchta usul elementlaridan iborat aralash usul.

Pedagogik texnika quyidagi bilim va ko'nikmalardan iborat:

- talabalar bilan muloqotda to'g'ri yo'l va ohangni tanlash;
- ularning e'tiborini tortish;
- suhbatdoshini o'ziga jalb etish;
- ma'lumotni obrazli uzatish va boshqalar.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi quyidagi amaliy ko'nikmalar guruuhlaridan biriga ega bo'lishi juda muhim hisoblanadi:

- badiiy (kuylash, rasm chizish, musiqa asboblaridan foydalanish vaboshqalar);
- har kim ega bo'la oladigan tashkilotchilik (masalan, bir yoki birnecha sport turlari bo'yicha trener, turizm bo'yicha yo'riqchi, sayohatchi,to'garak rahbari).

Kasbiy kompetentlik tizimini shakllantirish holati, sifat va miqdoriy jihatidan o'zgarishlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish uchun axborot sharoitlarini yaratish sifatida pedagogik monitoring xizmat qilishi mumkin.

Pedagogik monitoring talabaning shaxsi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish maqsadida sosiologik, psixologik va bajaruvchilik monitoringini birlashtiradi.

Talabaning shaxsini o'rganishga bunday majmuali yondoshuv, avvalambor, mavjud real o'quv imkoniyatlarni, ya'ni ta'lim olganlik darajasi, o'qitilishi, bilish va shaxsiy qiziqishlar, o'qish ma'nosi va sust o'zlashtirishning didaktik sabablarini o'rganish, talabalar va pedagoglarning ta'lim jarayoni bilan qoniqishdarajasi, ta'lim oluvchilarining emotsional holati, o'zaro munosabatlar harakteri va boshqalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarni ahamiyati katta. **"Texnologiya" so'zi** – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi degan ma'nolarni bildiradi. Pedagogik texnologiya esa – natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish demakdir. Pedagogik texnologiyaning muammoli o'qitish texnologiyalari, o'yin texnologiyalari, tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi metodlar, mualliflik texnologiyasi, shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar, o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi, o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar, o'qitishni individuallashtirish hamda dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyalari kabi yo'nalishlari mavjud. Hozirgi oliy

o'quv yurtlaridagi samarador o'qitish texnologiyasi — bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs taibiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi. Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlami o'zlashtirish bo'yicha ulaming bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlami o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Mana shunday muammoli ta'lim texnologiyalaridan biri muammoli leksiyadir. Muammoli leksiya talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini taqozo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o'iganilayotgan ilmiy muammolami nazariy jihatdan fikrlashga diqqatni jalg qiladi. Muammoli leksiya davomida talabalarda mavjud bo'lgan bilimlardan foydalaniladi, ulami yangi axborotlar bilan bog'liq ravishda yangilanishini amalga oshiradi. Muammoli leksiya bilish faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi. Shunday qilib, muammoli o'qitish, o'quv jarayonini tashkil etishning shunday shakliki, unda o'qituvchi boshchiligidagi muammoli vaziyat va bu vaziyatning yechilishidagi talabalarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi. Muammoli o'qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtinivchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalami bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftnkorlik ;
- kommunikativlik ;
- o 'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik ;

- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol harakteriga ijod maydoniga ega bo‘ladi. O‘yin uchun hissiy ko‘tarinkilik xosdir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yining o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishningmantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar. O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejallashtirish va amalga oshirish, natijalami tahlii qilishni qamrab O‘yindan tushunchalar, mavzu va hatto o‘quv predmeti bo‘liminio‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalanili. O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O‘yinlar turli maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo‘llaniladi. O‘yining didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘yining tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani taibiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog‘ishtirish, o‘xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ijtimoiylashuv o‘yinlari jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko‘nikish, ehtiroslami nazorat qilish, o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi. Mualliflik texnologiyalari pedagogik strategiya sifatida talaba vao‘qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo‘ladi.

Bunday texnologjyalarga quyidagjlari keltirish mumkin:

- pedagogik jarayonda shaxsni kofzda tutishga asoslangan pedagogic texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);
- o'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);
- o'quv jarayonini samarali boshkarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi va N.P.Guzikning olqitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);
- o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S. Graniskaya va V.D.Shadrikovlar texnologiyasi);
- o'qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bespalko). Shaxsni ko'zda tutish texnologiyasi har tomonlama rivojlangan shaxsfuqaroning shakllanishi, ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, ma'naviy-ahloqiy tarbiya bilan bevosita bog'langan intellektual rivojlanishga qaratilgan.

Bunday texnologiyalar sirasiga "Hamkorlik pedagogikasi" va Sh.M.Amonash vilinin inson-shaxs texnologiyasi kiradi. Hamkorlik pedagogikasi XX asming 80-yillarda rivojvana boshladi vata'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga choriadi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodgers, E.Bem, S.T.Shaskiy, V.A.Suxonilinskiy va boshqalardir.

Hamkorlik pedagogikasi 4ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;
- dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
- tarbiya konsepsiysi;
- atrof-muhitni ta'lim-tariyaga moslash.

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o'zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o'qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi. Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanobinsonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tugdirmoq;
- bolaning qalbi va yuragini uluglamoq;
- boladagi bilishga bo'lgan kuchlami rivojlantirish va shakllantirish; oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogik tizim elementlarining ma'lum qonuniyat asosida birbirlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu bog'lanishlardan foydalanish va eng maqbul bo'lgan tashkiliy shakllar topish-ta'limda rasmiyatchilikni yo'qotishga yo'l ochadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o'quvtarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Zamonaviy o'qituvchi - har tomonlama mahoratlari, yetuk bo'lishi lozim. Mahoratlari o'qituvchi kasbiy yaroqliligi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini rivojlantirishi, maqsadga yo'naltirilganlik sifatlari bilan ajralib turadi. Zamonaviy o'qituvchinig mahorati - bu o'zini namoyon etish, qoniqish va o'zgalar tomonidan tan olinish manbai hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyati bilan qiziqadigan, ular bilan ijobiy muloqot o'rнata oladigan bo'lishi kerak. Zamonaviy pedagogning o'ziga xos alohida xususiyatlari - mukammal va chuqur bilimga ega bo'lishi, doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, o'z-o'ziga tanqidiy qarashi va milliy madaniyatiga ega bo'lishdan iborat.

O'qituvchi mahoratining ortib borishi, mustaqil bilim olish ehtiyoji bilan chegaralanib qolmasdan, balki ijodkor bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashni taqozo qiladi. Chunki, o'qituvchining ijodiy izlanishi samarali natijalar manbai hisoblanadi. O'qituvchi faoliyatidagi asosiy narsa - bu uning bilimi, malakasi va ko'nikmasidir. Tez o'zgarayotgan hozirgi davrda o'qituvchi o'z faoliyatini doimo mukammallashtirib borishi lozim. O'qituvchining kasbiy mahoratini ta'limdag'i ayrim

o'zgarishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim sohasida ham ko'plab yangi tushuncha va ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Bunday tushunchalardan biri kompetentlikdir. Kompetentlik - bu lotincha so'zdan olingen bo'lib, kasbga yaroqli, mos, loyiq, muvofiq kabi ma'noni bildiradi. O'qituvchi kasbiy kompetentligi zamirida pedaogogik foliyatning integral tavsifi, yuksak mahorat bilan ta'lim jarayonini tashkil etish qobiliyati, uning bilimi, tajribasi, hayotiy va ma'naviy qiziqishlari yotadi.

Nazorat savollari?

1. Professional ta'limning mazmuni nima?
2. Texnologiya" so'zining ma'nosi nima ?
3. Refleksiya – bu ?
4. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirish yo'llari ?
5. N.F. Talizin kompetentlik yondashuvga qanday ta'rif beradi?

Adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: O'zbekiston-2016.
2. Mavlyanov A va boshq. Kasb xunar kollejlarida mahsus fanlarni o'qitish metodikasi "Tafakkur bo'stoni" O'quv qo'llanma - T.: 2013. 137 b.
3. D. Tojiboeva, A. Yo'ldoshev. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. T.: "Aloqachi". 2009. 568 bet.
4. Semushina L.G., YAroshenko N.G. Soderdanie i texnologii obucheniya v srednih spetsialnix uchebnix zavedeniyax. – Moskva: Masterstvo, 2001.
5. Abdukudusov O., Rashidov H. Kasb-hunar pedagogikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: O'MKHTTKMO va UQT, 2008. – 240 b. KASBIY TA'LIM METODIKASI 379
6. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007. 18. Abduquodusov O. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim

muassasalarida ta’limtarbiya jarayonini samaradorligini oshirish muammolari.
Metodik qo’llanma. – Toshkent, 2002

7. N.A. Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolieva “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik “ O‘UM Toshkent – 2016
8. Ишмуҳамедов Р., Абдуқародиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиилар / Таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар. – Т.: “Истебдод” жамғармаси, 2009. – 160 б. 21.

12.MA’RUZA MASHG’ULOTI.

Mavzu: 12 Ta’limga an’anaviy va kompetentlikka yo’naltirilgan yondoshuvlarning qiyosiy tavsifi.

Mashg’ulot rejasi:

1. Kompetentlik yondoshuvi – ta’limni yangilashning yetakchi g’oyalaridan biri.
2. Kompetentlikning tuzilmasi komponentlari (motivatsion, kognitiv, operatsion-texnologik, amaliy-faoliyatli, refleksiv).

Tayanch tushunchalar: Kompetentlik yondashuv, motivatsion, kognitiv, operatsion-texnologik, amaliy-faoliyatli, refleksiv.

Ta’lim-tarbiyaga texnologik yondashuv.

Mustaqil shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo’lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqatli kadr darajasigacha tarbiyalash-ko’p qirrali va murakkab jarayondir. Bunda ta’lim tizimini takomillashtirish va uning mazmunini chuqurlashtirish hamda ko’pgina tashkiliy-tarbiyaviy ishlar nazarda tutiladi. Ikkinchisi

tomondan esa, bevosita ushbu masalani amalga oshirishga burchli bo’lgan pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularni zamon talablari bilan hamnafas tarzda kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlash davlat va jamiyat zimmasidagi ulkan ijtimoiy vazifadir. Jumladan birinchi vazifa erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g’oyalariga sodiq bo’lgan ongli fuqaroni, o’z Vatanining jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta’sir ko’rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas’uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish; Ikkinchi vazifa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma’nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmog’i kerak, Uchinchidan, yosh avlod milliy istiqlol g’oyasini anglab olishi, bu g’oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo’lishi uchun hayotiy zarurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo’naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ro’yobga chiqarish lozim. Tabiiyki, bu uzoq davom etadigan, barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlarining, eng avvalo, uzlusiz ta’lim tizimi muassasalarining faoliyati va pedagogik sohadagi ishlar mazmunini tubdan qayta ko’rib chiqishni talab etadigan murakkab jarayondir. Yoshlarni barkamol qilib yetishtirish jarayonida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishini ta’minalashga e’tiborni kuchaytirish va ta’lim sohasida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishiga ustunlik berishni ta’minalashdan iborat.

Ta’lim-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi. Tarbiya, ta’lim, shaxsni rivojlantirish to’liq darajada amalga oshirilishiga erishish lozim. Ta’lim-tarbiya ishida rasmiyatchilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo’naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur. Bugungi kunda pedagogikada o’quvchi-talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o’qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o’qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o’yinlar,

rolli o'yinlar, mavzuiy o'qitish va h.k. Ammo ularni oliv ta'lim tizimida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko'p vaqt ni sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Chunki har bir o'tiladigan mashg'ulot ishlanmasi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir. Uning ustiga ayrim pedagoglar konservativ fikrlash doirasida turib o'qitishning noan'anaviy usul va metodlariga ko'pincha bepisand munosabatda bo'ladilar. An'anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o'zining ma'lum tarixiga ham egadirlar.. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topmayotganligi, qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin. Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihat, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchi-talabalarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan, balki ularni belgilangan maqsad sari yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va o'quv-biluv faoliyatiga ongli ravishda yo'llash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish o'rniga pedagogik jarayonni samarali tashkil etish orqali o'quvchi-talabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish, shaxsning ehtiyoji, istagi, moyilligi va imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning demokratik yo'llariga burish sanaladi. Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul va metodlar majmuasi anglashiladi. Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashning harakatlari, operatsiyalari, usullari majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi. Pedagogik texnologiyaning an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi (ilovaga qaralsin).

Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari ta’limning umumiy maqsadlari (o’qituvchi va talabaning maqsadlari) ni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarini nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi.

Loyihalashtirish faoliyati o’quvchi talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir.

Loyihalash metodi – o’qitishni tashkillashtirilish bo’lib, o’quvchi-talabalar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko’rinishda bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo’llash natijasida loyiha (proekt) ko’rinishidagi bilim o’zlashtiriladi. O’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarning birgalikda ta’lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarning hamkorlikda ta’lim olishlari, ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi. O’quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llashni taqozo qiladi. Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo’llaniladi. Og’zaki ko’rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funktsional, kompleks, texnologik, muammoli-unsurli, faoliyatli yondashuvlar.

Og’zaki-ko’rgazmali yondashuv. U an’anaviy bo’lib, asosan o’qituvchining axborot berishi, o’quvchi-talabalarning bilimni qabul qilishi, to’plashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi. «Bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma’nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo’llay olish ko’nikmalari (imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga bergen javobiga qarab) orqali tekshirib ko’riladi. Bu tizimdagi bilimlar – asosan esda saqlab qolish natijasi, ko’pincha rasmiy ma’lumotdir, u ko’pincha yuzaki bo’lishi ham mumkin. Ular xotira tubida saqlangan bo’ladi yoki boshqa so’z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan to’g’ridan-to’g’ri savol qo’yilganda esga olinadi. Qayta esga olish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saqlanmaydi. Talaba savol berilganda uni eslashi, ba’zan esa umuman eslay olmasligi ham mumkin.Og’zaki-ko’rgazmali yondashuv respublikamiz o’quv yurtlarida keng

tarqalgan. Ma'lumot berish tizimida tayyor bilimlarni «o'qituvchi-talabalarga», ularning ehtiyoji va faollik darajasi bog'liq bo'Imagan holda, bevosita berishi mumkin bo'lgan imkoniyatdan kelib chiqadi. Demak, shunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi – zaruriy axborotni ma'lum qilishi va uni xotirada mustahkamlash ustida ishslashdir. V.Guzeevning ta'kidlashicha, an'anaviy metodikaga xos bo'lgan xususiyat dastur talablarida ifodalanuvchi ta'lim maqsadlarini «o'zlashtirish» tushunchasi qobig'iga o'rالgan qandaydir noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Bunda ta'lim jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun ilg'or o'qituvchi (pedagog)larning pedagogik faoliyati namunasi qidiriladi, ammo ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan bir qator olimlar va amaliyotchilar alohida metodikalarning davri o'tib ketganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini jiddiy ta'kidlashmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi bir qator ijobjiy ishlar, fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi, bugungi kunda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish darajasini yuqori tarzda ta'minlashga nisbatan jamiyat ehtiyojlari bilan o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tug'ilishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida boshqa yondashuvlarni ham qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim va tajribani mustaqil ravishda o'zlashtirish, harakatning yangi zamonaviy usullarini topish va tashabbus ko'rsatishni nazarda tutadi. Tadqiqiy-ijodiy yondashuvda pedagog talabaning o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, shaxsiy tashabbusini qo'llabquvvatlab, u bilan hamkorlik qiladi hamda uning fikr va qiziqishlarini doimo nazarda tutadi. Pedagogning talaba shaxsiga bo'lgan munosabati, ularga muhabbatи va jon koyitishi, yuksak ishonchi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, tahsil olish jarayonida talabalarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha, ijobjiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli

ko'zlangan maqsadga erishish, talabalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'larini qo'llashda namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv bo'yicha pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan. Tadqiqiy-ijodiy yondashuvning ta'lim tizimida o'z o'rni bor va u o'z joyida qo'llanishi lozim.

Izlanuvchan yondashuv. Bu yondashuvdagi maqsad talabalarda muammoni hal etish, yangi, oxirigacha tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir etishning yangi yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir. Izlanuvchan ta'lim andozasida ta'lim mazmuni tabiat va jamiyat bilan uzviy o'zaro ta'sirdagi shaxsni tadqiqotchilik yo'liga boshlash, uning jadal ijodiy faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda demokratik, rag'batlantiruvchi yo'l tutadi, ularning shaxsiy tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, xatti-harakati, harakatning yangi yo'llarini yaratish qibiliyatlarini, shaxsiy ma'no kasb etishini rivojlantirish yo'lini tutadi. Izlanuvchan ta'lim andozasining ta'lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o'zaro ta'siri shaxsni tadqiqotchilik yo'liga boshlashi uning jadal ijodiy faoliyati xarakteri bilan bog'liq. Pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda ijodiy yo'l tutadi, talabalarning o'quv faoliyatining operativ-texnik jihatlarini o'zlashtirishga qadar uning ahamiyati va rag'batlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. Bugungi kunga qadar o'qitishda izlanuvchan yondashuvni o'z ichiga oluvchi pedagogik texnologiya ko'rinishlari ishlab chiqilgan.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega, u pedagogikada keng qo'llanadi. «Tizimli yondashuv» tushunchasi ko'pincha «tizimli metod», «tizimli tahlil usuli» tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda anglanadi. Chunki tizimli tahlil usullari ham ob'ektni yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko'ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning ob'ekti yaxlit narsa yoki hodisa hisoblanadi, u ob'ektning turli qismlarini, qismlarning o'zaro uzviyligini, tizimning chegaralarini va tizimning atrof-muhit bilan bog'liqligi,

aloqadorligini nazarda tutadi. Bu tizimda bir qancha qoida va printsiplar majmuidan foydalilaniladiki, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Texnologik yondashuv. Texnologiya - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanadigan usul va metodlar majmui bo'lib, shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarini amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi. Ta'limga texnologik yondashuv o'quv jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar va amallarga ajratishni va bo'lishni; ta'limdan ko'zlangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirishni; loyihalashtirilgan ish va amallarning barchasini bir xil tarzda bajarishni nazarda tutadi.'qituvchi mahoratining ortib borishi, mustaqil bilim olish ehtiyoji bilan chegaralanib qolmasdan, balki ijodkor bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashni taqozo qiladi. Chunki, o'qituvchining ijodiy izlanishi samarali natijalar manbai hisoblanadi.O'qituvchi faoliyatidagi asosiy narsa - bu uning bilimi, malakasi va ko'nikmasidir. Tez o'zgarayotgan hozirgi davrda o'qituvchi o'z faoliyatini doimo mukammallashtirib borishi lozim. O'qituvchining kasbiy mahoratini ta'limdagি ayrim o'zgarishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim sohasida ham ko'plab yangi tushuncha va ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Bunday tushunchalardan biri kompetentlikdir.

Kompetentlik - bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, kasbga yaroqli, mos, loyiq, muvofiq kabi ma'noni bildiradi. O'qituvchi kasbiy kompetentligi zamirida pedaagogik foliyatning integral tavsifi, yuksak mahorat bilan ta'lim jarayonini tashkil etish qobiliyati, uning bilimi, tajribasi, hayotiy va ma'naviy qiziqishlari yotadi.So'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda kompetentli yondoshuv ko'proq qo'llanilmoqda. Unga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarini, shu jumladan matematika

o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalasi uning kasbiy kompetentligi, kasbiy mahorati nuqtai nazaridan qaralishi lozim. Pedagogika fanida «pedagogning kasbiy kompetentligi» tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan hal etiladigan ilmiy masalalarga bog'liq holda turlicha qaralgan. Agar, bo'lajak pedagogda shakllanadigan kasbiy kompetentlikni oliy ta'lim tizimi ichida qaralsa, u holda uning uchta asosi haqida gapirish mumkin:

- 1) maqsad, mazmun, ob'yekt va pedagog mehnati vositalari haqidagi maxsus bilimlarni o'zlashtirish;
- 2) pedagogik faoliyatning tayyorgarlik, bajaruvchanlik va yakuniy bosqichlarida maxsus ko'nikmalarga ega bo'lish;
- 3) pedagogik faoliyatni amalga oshirish va kutilayotgan natijalarga erishishga imkon beradigan shaxsning o'ziga xos xususiyatlari va tavsifini egallash.

Ushbu nuqtai nazarga ko'ra bo'lajak matematika o'qituvchisining kasbiy kompetentligida kompetentlikning uchta turini ajratish mumkin:

- a) mazmunli (maxsus matematik bilimlarning mavjudligi);
- b) texnologik (matematikani o'qitish usullariga egalik);
- v) shaxsiy (shaxsning ayrim xususiyatlariga ega bo'lish).

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bir qator pedagog olimlarning tadqiqot predmeti bo'lib kelgan, lekin bugungi kunda bu tayyorgarlik mazmunida kasbiy kompetentlikning qayd etilgan uchala turini ham inobatga olish zarurligi asoslandi.

Motivatsion komponent – ehtiyojlar, motivlar, yo'naltirilganlik, ma'lum kasbiy sohadagi mehnat faoliyati, ushbu faoliyatni takomillashtirishga intilish. Motivatsion komponent asosiy komponent, chunki usiz invariantning boshqa barcha komponentlari mavjud bo'lganda ham haqiqiy kompetentlik haqida gapirib bo'lmaydi.

Kommunikativ kompetentlik. Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va pedagogik ta'lif berishni ijodiy amalga oshirish usullarini egallash, pedagog shaxsining kommunikativ kompetentligiga olib keladi.

Pedagogik kompetentlikning kommunikativ komponenti:

- 1) pedagogik faoliyat va shaxs o'rta sidagi o'zaro ta'sirlashuvni aks ettiradi;
- 2) ta'lif jarayonida ta'lif oluvchi va ta'lif beruvchi shaxsini ochishga imkon beradi;
- 3) o'zida tayyorgarlikning o'rgatuvchi va tarbiyalovchi samarasini ifodalaydi. Shunday qilib o'qituvchining kommunikativ kompetentligi uning kasbiy muhim sifati hisoblanadi. U o'z ichiga umumiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchi o'rta sidagi pedagogik maqsadli o'zaro munosabatlarni o'rnatish bilan bog'liq quyidagi harakatlarni oladi:
 - 1) o'zaro ta'sirlashuvchi pedagogik jarayon ishtirokchilarini motivlashtirish harakati;
 - 2) bir-birining ichki olamiga singib borish harakati.

Kommunikativ kompetentlikning tizim tashkil etuvchi elementi bo'lib kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish hisoblanadi. O'qituvchining kommunikativ kompetentligi tuzilmasida motivatsion, akmeologik, axborotli mazmunli, tezkorfaoliyatli komponentlar ajratilgan.

Refleksiv ko'nikmalar pedagog tomonidan nazorat-baholash faoliyatini amalga oshirishda zarur va u quyidagilarni nazarda tutadi: olingan natijalarni berilgan namunalar bilan moslashtirish asosida nazorat; faqat aqliy faoliyatdabajarilishi nazarda tutilgan harakatlar natijalari asosida nazorat; bajarilganamallarning tayyor natijalari asosida nazorat.

Refleksiya- nazariy faoliyatning shaxsiy harakatlarini anglash va tahlil qilishga yo'naltirilgan maxsus shakli sifatida tushuniladi. O'qituvchi uchun olingan natjalar qay darajada (ijobiyl yoki salbiy) uning faoliyat vositalari ekanligini aniqlash juda muhimdir.

Refleksiya - bu amalga oshirilgan faoliyat, tafakkur, muloqot va bu faoliyat davomida insonning o'z psixologik holatini tahlil qilishi, anglashi, maqsadlari harakatlari, his-tuyg'ularini muvofiqlashtirishi jarayonidan iborat. deduktivbayon

qilishlarni e'tiborga olgan holda o'quv materialini uzatish jarayoninimantiqiy to'g'ri tuzish;

- savollarni tushunarli va to'g'ri ta'riflash;
- talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish darajasini va tavsifini tezkor tashxislash.

Rivojlantiruvchi ko'nikmalar quyidagilarni nazarda tutadi:

- alohida talabaning yoki butun guruhning «yaqin rivojlanish zonasasi» ni aniqlash;
- talabalarning bilish jarayonlari, hissiyotlari va idroklarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar va boshqa sharoitlarni yaratish;
- bilish mustaqilligi va ijodiy fikrleshini rag'batlantirish, mantiqiy (xususiyi umumiya va boshqalar) va funksional (sabab-natija, maqsadvositalar,sifat-sonlar, harakat-natijalar) munosabatlarni o'rnatish zaruriyati;
- individual xususiyatlarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu maqsadda individual yondoshuvni amalga oshirish.

Mo'ljalli ko'nikmalar talabalarning ma'naviy va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga, o'quv faoliyati va fanga mustahkam qiziqishini rivojlantirishga, ta'lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos kasbiyfaoliyatga, shaxsning ijtimoiy ahamiyatli sifatlarini maqsad qilib olgan hamkorli ijodiy faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan. Talabaning kommunikativ ko'nikmalari o'zaro bog'liq perceptiv bilimlar guruhi, xususan, muloqot ko'nikmalari, pedagogik malakalari va ko'nikmalarinio'z ichiga oladi.

Perceptiv ko'nikmalar muloqotning boshlang'ich bosqichida paydo bo'lib, umumiy ko'nikmaga, ya'ni boshqalarni (talabalarni, o'qituvchilarni, otaonalarni)tushunishga o'tadi. Buning uchun esa, boshqa shaxsning ideallari,ehtiyojlari va qiziqishlarini bilishi shart. Bundan tashqari talabada o'zi haqidagimavjud tasavvurlarni, ya'ni u nimani o'ziga xos deb hisoblashini va nimalargaqarshilik qilishini bilishi kerak.

V.L. Slastenin perceptiv ko'nikmalar majmuasini quyidagilar orqali ifodalaydi:

- hamkorlik faoliyati davomida sherigi bilan muloqot qilish natijasida olinadigan axborot va signallarni qabul qilish va uni qo'llash;

- boshqa insonlarning shaxsini chuqur o'rganib chiqish;
- shaxsning individual o'ziga xosligini o'rnatish;
- shaxsning tashqi tavsiflari va hatti-harakatini tezkor baholash asosida uning ichki dunyosini, yo'naltirilganligini va insonning kelajakdagi harakatlarinianiqlash;
- shaxsning qaysi turga va qaysi temperamentga munosib ekanligini aniqlash;
- unchalik ju'ziy bo'lмаган belgilar bo'yicha hayajon xarakterini, inson holatini, uning u yoki bu hodisalarga bog'liq yoki bog'liq emasligini bilib olish;
- insonning harakatlari va boshqa alomatlarida uning boshqalardan ham o'zidan ham farqli xususiyatlarini topish;
- boshqa insonlarning muhim jihatlarini ko'rish, uning ijtimoiy boyliklarga munosabatini to'g'ri aniqlash, insonlarning hatti-harakatlarida o'rganilayotgan «o'zgartirishlar» ni hisobga olish, boshqa insonni o'rganishining o'ziga xosligi (ideallashtirish va boshqalar).

Pedagogik muloqot ko'nikmaları «kommunikativ hujum»,

- deb nomlanuvchi harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq, ya'ni o'ziga e'tiborni quyidagi to'rtta usul bilan jalb etadi:
- nutqli (ta'lim oluvchilarga verbal murojaat);
- faol ichki muloqot bilan jimlik (e'tiborni talab etish bilan);
- harakatli-belgili (jadvallar, ko'rgazmali qurollarni osish, doskada yozish va boshqalar);
- avvalgi uchta usul elementlaridan iborat aralash usul.

Pedagogik texnika quyidagi bilim va ko'nikmalardan iborat:

- talabalar bilan muloqotda to'g'ri yo'l va ohangni tanlash;
- ularning e'tiborini tortish;
- suhbatdoshini o'ziga jalb etish;
- ma'lumotni obrazli uzatish va boshqalar.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi quyidagi amaliy ko'nikmalar guruhlaridan biriga ega bo'lishi juda muhim hisoblanadi:

22.badiiy (kuylash, rasm chizish, musiqa asboblaridan foydalanish vaboshqalar);

23.har kim ega bo'la oladigan tashkilotchilik (masalan, bir yoki birnecha sport turlari bo'yicha trener, turizm bo'yicha yo'riqchi, sayohatchi,to'garak rahbari). Kasbiy kompetentlik tizimini shakllantirish holati, sifat va miqdoriy jihatidan o'zgarishlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish uchun axborot sharoitlarini yaratish sifatida pedagogik monitoring xizmat qilishi mumkin. Pedagogik monitoring talabaning shaxsi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish maqsadida sosiologik, psixologik va bajaruvchilik monitoringini birlashtiradi. Talabaning shaxsini o'rganishga bunday majmuali yondoshuv, avvalambor, mavjud real o'quv imkoniyatlarni, ya'ni ta'lim olganlik darajasi, o'qitilishi, bilish va shaxsiy qiziqishlar, o'qish ma'nosi va sust o'zlashtirishning didaktiksabablarini o'rganish, talabalar va pedagoglarning ta'lim jarayoni bilan qoniqishdarajasi, ta'lim oluvchilarning emotSIONAL holati, o'zaro munosabatlar xarakteriva boshqalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

O'qituvchining amaliy tayyorgarligi tashqi ko'nikmalarda, ya'ni kuzatish mumkin bo'lган harakatlarda ifodalanadi. Ular qatoriga tashkiliy va kommunikativ ko'nikmalar ham kiradi. O'qituvchining tashkilotchilik faoliyatita'lim oluvchilarni faoliyatning turli ko'rinishlariga jalb etish va uni tarbiyaob'yektidan sub'yektiga aylantiruvchi faoliyatni tashkil etishdan iborat.Tashkilotchilik ko'nikmalarga umumpedagogik ko'nikmalar sifatida safarbarlik,axborotlashtiruvchi, rivojlantiruvchi va yo'naltirilgan bilimlar kiradi. O'qituvchining safarbarlik ko'nikmalari quyidagilarni nazarda tutadi:

24.talabalarning e'tiborini jalb qilish va ularda ta'lim olishga qiziqishni rivojlantirish;

25.ularda bilimga ehtiyojni shakllantirish; ilmiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'quv jarayonini ilmiy tashkil etish yo'llarini o'rgatish;

26.o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan yoki behosdan sodir bo'lган muammoli holatlarda maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida olgan bilimlarini qo'llash va o'z hayotiy tajribasiga tayangan holda atrofdagi olam hodisalariga ta'lim oluvchining faol, mustaqil va ijodiy munosabatlarini shakllantirish, rag'batlantirish va jazolash usullari tizimini ongli qo'llash.

Axborot bilan ishslash ko'nikmalari nafaqat o'quv axborotini bevosita bayon qilish, balki uni olish va qayta ishslash usullari bilan ham bog'liq. Ungachop etilgan va bibliografik manbalar bilan ishslash, boshqa manbalardan axborotni olish va uni ta'lim jarayoni maqsadlari va vazifalariga mos holdaqayta ishslash ko'nikmalari kiradi. Ta'lim berish davrida axborot bilan ishslash ko'nikmalari quyidagi qobiliyatlarda namoyon bo'ladi:

27. o'quv materialini fan xususiyatlari, talabalarning tayyorgarlik darajasi, hayotiy tajribasi va yoshini e'tiborga olgan holda tushunarli tarzda bayon etish;
28. o'quv axborotini uzatishning turli usullari va ularning mosligi, ya'ni materialni aytib berish, tushuntirish, suhbat, muammoni induktiv va deduktiv bayon qilishlarni e'tiborga olgan holda o'quv materialini uzatish jarayoninimantiqiy to'g'ri tuzish;
 - savollarni tushunarli va to'g'ri ta'riflash;
 - talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish darajasini va tavsifini tezkor tashxislash.

Rivojlantiruvchi ko'nikmalar quyidagilarni nazarda tutadi:

- 29.alohida talabaning yoki butun guruhning «yaqin rivojlanish zonasii» ni aniqlash;
- 30.talabalarning bilish jarayonlari, hissiyotlari va idroklarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar va boshqa sharoitlarni yaratish;
- 31.bilish mustaqilligi va ijodiy fikrlashini rag'batlantirish, mantiqiy (xususiyini umumiyya va boshqalar) va funksional (sabab-natija, maqsadvositalar,sifatsonlar, harakat-natijalar) munosabatlarni o'rnatish zaruriyati;
- 32.individual xususiyatlarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu maqsadda individual yondoshuvni amalga oshirish.

Mo'ljalli ko'nikmalar talabalarning ma'naviy va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga, o'quv faoliyati va fanga mustahkam qiziqishini rivojlantirishga, ta'lim oluvchilarining shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos kasbiyfaoliyatga, shaxsning ijtimoiy ahamiyatli sifatlarini maqsad qilib olgan hamkorli ijodiy faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Pedagogika fani amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. An'anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv shular jumlasidandir. An'anaviy yondashuvning asosiy xususiyati - o'qituvchi axborotni eapirib beradi, talaba esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. "bilim" tushunchasiga xotirada saqlanadigan axborotdir. deb qaraladi. Talabaning bilimi axborotga doir berilgan savolga yoddan bergen javobiga qarab aniqlanadi. Bilim. asosan, esda qoldirishning natijasidir. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi.

Hozirgi paytda an'anaviy ta'lim bo'yicha katta tajriba to'plangan va an'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etmoqda. lekin uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atda rivojlanayotgan fan-texnika talablari ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatdosh. yuqori malakali kadriar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida tafovutni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Ta'limga tushuntiruv-tasviri yondashuv. Ta'limda an'anaviy yondashuvlar qatoriga tushuntiruv-tasviri, reproduktiv usullar kiradi. Tushuntiruv-tasviri yondashuv, asosan, o'qituvchining axborot berishi. talabalarning bu bilimni qabul qilishlari, to'plashlari va xotirada saqlashlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga "bilim" tushunchasining asl mohiyati xotirada saqlanuvchi axborot deb qaraladi. Bunday bilimlar ularni qo'llay olish ko'nikmalari orqali imtihonlarda tekshirib ko'rildi. ya'ni hech qanday qo'llanmasiz xotiradagi bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri savollarga javob tarzida ifoda etiladi. Bu tizimdagi bilimlar, asosan, esda saqlab qolish natijasi. ko'pincha. rasmiy ma'lumotdir. Liar xotira tubidan yuzaga keladi yoki boshqacha so'z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri savol orqali esga olinadi. Qayta esga oiish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saqlanmaydi.

Ma'lumot berish tizimida tayyor bilimlarni "'o'qituvchidan - talabalarga", ularning ehtiyoji va faollik darajasiga bog'liq bo'limgan holda, bevosita berish mumkin bo'lgan imkoniyatidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra zaruriy axborotni ma'lum qilish va uni xotirada mustaqkamlash ustida ishslash o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Bunday o'quv jarayonida o'quv precdmeti soatlari miqdori, ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha soatlar taqsimoti, dars o'tish joyi qat'ey belgilab olinadi. Lekin pedagog mas'uliyatiga oid ta'lim natijalari deyarli hisobga olinmaydi. V.Guzevning ta'kidlashicha. an'anaviy uslubda ta'lim maqsadlari dastur talablariga muvofiq holda noaniq, ya'ni ta'lim oluvchilarning "o'zlashtirish" tushunchasi qobig'iga o'ralgan noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Ko'proq yutuqlarga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun mana shu o'qituvchilarning pedagogik faoliyati namuna sifatida ko'rsatiladi. Ammo bir qator olimlar ta'limning alohida uslubiyotlari davri o'tganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini ta'kidlamoqdalar.

Hozirgi kunda ko'pgina mutavassislar an'anaviy pedagogikani tanqid qilgan holda o'qitishda haligacha umumiyligi tushunchalar, qoida va qonuniyatlar o'rganiladigan yondashuv ustivorligini ta'kidlamoqdalar. O'quvchilarning real dunyo ob'ektlari bilan ishlashi hajm va mazmun jihatidan juda kam. Yetakchi ta'lim sohalarini o'rganish. odatda, o'quv ma'lumotlarining katta hajmini o'zlashtirish bilan cheklanadi.

An'anaviy o'qitish tushunchasi pedagogika adabiyotlarida yangi o'qitish usullariga ko'p yillar davomida zid qo'yilgan. Bunda an'anaviy o'qitishning odatdag'i tavsifi quyidagi asosiy alomatlar bilan tavsiflanadi:

- yangi materialning deyarli hammasi o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinadi;
- darslik, asosan, mustaqil ish uchun qo'llaniiadi;
- auditoriya mashg'ulotlari paytida darsliklar ayrim hollarda pedagog tushuntirishlaridan o'quvchilar diqqatini buzmaslik maqsadida qo'llanilmaydi: ko'pincha, darslikdan uyda ham foydalanilmaydi. uning o'rmini dars paytida tuzilgan konspekt bosadi; bilimlarni tekshirish, asosan, mashg'ulot vaqt in ing sezilarli qismini egallaydigan shaxsiy og'zaki so'rovlar hamda uzoq muddatlarda o'tkaziladigan nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi. Oxirgi yillarda ob'ektiv testlar ham keng tarqaldi;
- mashg'ulotlar paytida aksariyat hollarda ishning frontal usuli qo'llanadi.

mustaqil ishning nisbiy miqdori juda kam.

Bunday o'qitish tizimining eng jiddiy kamchiligi – talabalarning mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqadigan uning salbiy oqibati. Ayrim o'quvchilaming faollik darajasi juda past.

Tushuntiruvchi-tasviriy informatsion retseptiv usulning mohiyati uning quyidagi alomatlari bilan tavsiflanadi:

- bilimlar lalabalarga "tayyor" holda taqdim etiladi;
- o'qituvchi turli yo'llar bilan bu bilimlar qabul qilinishini tashkil qiladi;
- o'quvchilar bilimlarni qabul qiladilar va ularning ma'nosini anglaydilar. o'z xotiralarida saqlab qoladilar.

Bilimlarni qabul qilish paytida informatsiyanine turli manbalari (so'z, ko'rgazmalilik va boshqalar) qo'llanadi, bayon mantiqi ham induktiv, ham deduktiv yo'l bilan rivojlanishi mumkin.

Pedagogning boshqaruv faoliyati, ko'pincha, faqat bilimlarni qabul qilib olishni tashkil qilish bilan cheklanadi va olingan bilimlardan foydalanish mohiyati va ko'nikmalari doim ham shakllantirilmaydi.

Masalan. agar pedagog tashkil qilgan bilim olish faoliyati faqat tayyor bilimlarni eslab qolish va keyinchalik ularni xatosiz. ayrim hollarda tushunmasdan ham. tiklashga olib kelsa, bu aqliy faollikning past darajasi hisoblanadi va unga muvofiq o'qitishning reproduktiv usuli mavjud.

Ta'limning reproduktiv usulida quyidagi alomatlar ajralib turadi:

- o'qituvchi bilimlarni “tayyor” bir holda, faqat bayon qilish bilan cheklanmasdan, ularni tushuntiradi;
- o'quvchiliar bilimlarni lushunib o'zlashtiradilar. O'zlashtirishning mezoni olingan bilimlarni to'g'ri tiklash (reproduktsiya)dir;
- o'zlashtirishning mutbahkamligi informatsiyani ko'p marta takrorlash orqali ta'minlanadi.

Shunday qilib, o'qitishning reproduktiv turi o"quvchiga madaniy-tarixiy qadriyatlamii. an'analarni ta'limning tayyor mazmuni orqali o'zlashtirishga qaratilcan. Bumin ham o'quv dasturlari, darslik va metodik qo'llanmalarning ko'pchiligi o'rganilayotgan fan

usullari orqali haqiqatni o'zlashtirishga emas. Balki fan bo'yicba informatsiyani o'zlashtirishga qaratilgan.

Mana shu kamchiliklarga qaramasdan tushuntiruv-ko'rgazmali usul kam kuch sarflab. bilim va ko'nikmalarning kattagina hajmini o'zlashtirish imkonini beradi.

Bilimlar mustahkamligi ularni ko'p marta qaytarish imkonining mavjudligi tufayli yuqori bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda reproduktiv o'qitish ikkinchi darajali deb qaralmoqda. Lekin aksariyat odamlar aynan reproduktiv mehnat bilan shug'ullanishadi, aks holda jamiyat o'z-o'zini eng zarur narsalar bilan ta'minlay olmas edi. O'qitishda tarbiyalanuvchilarining reproduktiv faoliyati asosiy o'rinni egallashi lozim, faqat shu

shart bajarilganda zaruriy bilimlarni o'zlashtirish va bu orqali ijodga zamin yaratish mumkin.

Shunday qilib. namuna bo'yicha faoliyat usulini tiklash va takrorlash reproduktiv usulning asosiy alomatlaridandir. Pedagog og'zaki va yozma nutqdan foydalanadi, o'rganuvchilar esa tayyor namuna bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar.

Hozirgi oliy ta'lilda qo'llanilayotgan o'qitishning asosiy tashkiliy-uslubiy reproduktiv shakli amalda o'ylash, fikr yuritish jarayonlari rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va bo'lajak mutaxasisda o'z-o'ziga va tanlagan kasbiy faoliyatiga to'liq va keng qarashlar tizimi shakllanishini ta'minlamaydi.

Barcha turdag'i maktablarga qo'yiiadigan eng muhim talab va ilmiy texnikaviy, ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy sharti - ijodiy shaxs sifatlarini rivojlantirish. Ijodiy faoliyatning asosiy turlari tahlili shuni ko'rsatadiki, uni muntazam ravishda amalga oshirish orqali insonda o'zgaruvchan sharoitlarda o'zini yo'qotmaslik, muammoni aniq ko'rish va uning yangiligidan ko"r may, fikr yuritish, ixtirochilik, sezgirlik kabi sifatlar shakllanadi. Bunday sifatlarga hozir ham talab katta, keyinchalik esa ehtiyoj bundan ham oshib boradi. Shu maqsadda zamonaviy o'quv jarayonida reproduktiv usul bilan bir qatorda produktiv va qidiruv-ijodiy usullarni ham qo'llash kerak.

Ta'limga produktiv va izlanuvchan yondashuv o'zlashtirishning produktiv darajasi o'zlashtirilgan bilimlarning namunaviy masalalarini echish uchun mustaqil ravishda o'zgartirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Bu tayyor namuna yoki qoida emas, balki o'quvchi o'zi tuzgan algoritm bo'yicha bajarilgan harakat. Odatda, bu natijani oldindan ko'rishda faraz qilish mumkin bo'lgan aniq masala shartlariga moslashtirilgan ma'lum qoidalar birikuvidir. Bu o'quvchining o'zlashtirgan ma'lumotini amaliy sohada ma'lum masalalarini echish uchun qo'llay olishi va yangi sub'ektiv ma'lumotni olishi bilan tavsiflanadi.

Produktiv usul quyidagi afzalliklarga ega:

- mantiqiy fikr yuritishga, muammolami ilmiy, ijodiy echishga o'rgatadi;
- zaruriy bilimlarni mustaqil ijodiy izlanishgao'rgatadi;
- uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etishga o'rgatadi;
- o'quv materiaiini isbotliroq qiladi;
- o'quv materialini chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishga yordam beradi;
- bilimlar ishonchga aylanishiga ko'maklashadi;
- o'qishga nisbatan ijobiy hislarni hosi! qiladi;
- bilimga qiziqishni shakllantiradi va rivojlantiradi;
- ijodiy shaxsni shakllantiradi.

Lekin produktiv usullarni muvaffaqiyatlari qo'llash uchun o'qituvchining pedagogik malakasi yuqoriroq bo'lishi lozim. Muammoviy mashg'ulotni o'tkazish uchun ham, uni tayyorlash uchun ham ko'proq pedagogik mehnat talab qilinadi.

Izlanuvchan yondashuvning maqsadi o'quvchilarda muammoni hal etish. yangi tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir etishning yangi yo'llarini yaratish qobiliyallarini, shaxsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir.

Oliy ta'lilda hanuzgacha tushuntirish ko'rgazmali yondashuv usulidan foydalilanadi, bu talaba xotirasida olingan bilimlarni jamg'arish va mustahkamlashdan iboratdir.

Produktiv usullarga nisbaian reproduktiv usullarning ko'proq qo'llanishi ijodiy shaxsga bo'lgan talablarni pasaytiradi, bhuningdek, o'quv masalalari talabalarga kelajakni loyihalashga ko'maklashish o'rniga o'tmishni o'rganishga undaydi.

Mutaxassis kundalik faoliyatida ko'p narsalarni kimdir erishgan darajada, ya'ni tayyor stereotiplar (andozalari bo'yicha bajaradi. Lekin stereotiplardan (andozalardan) farqlanadigan holatlar mavjud bo'lib qolsa, u yangi yechimlarni qabul qilib hayotga tatbiq etishga majbur.

Mutaxassisning mahorati xotirasi asosida ma'lum reiseptlar bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan davrlarga qarab emas, balki ko'p uchramaydigan bo'lsada, yangi yechimlarni izlagan paytlar bo'yieha aniqlanadi. Aynan mana shu kam uchraydigan hollar sodir bo'lgan muammolardan chiqib ketish uchun hodisalar va voqealar mohiyatini chuqur tushunish va nazariy bilimlar talab qilinadi.

Demak, mutaxassisning asosiy vazifasi - xotirasidan mavjud yechimlarni izlab topa olish, bular yo'qligida esa optimal qarorlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etishdir.

Mutaxassis sifatini belgilaydigan asosiy masala yechimni topa olishdir va aynan shu faoliyat uning rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozirgi ay rim tanqidchilar o'quvchilar zamonaviy ilmiy bilimning dinamik tavsifini aks ettirmaydigan tayyor va o'zgarmas shaklda oladigan ta'lim mazmuniga qarshi chiqmoqdalar.

Odatda, inson bilishni istagan, unga ehtiyoji bo'lgan narsalarni muvaffaqiyatli o'zlashtiradi va xotirada saqlab qoladi. Ma'lumot berish asosida tuzilgan o'quv jarayoni esa bu ehtiyojni ta'minlamaydi. Natijada tez yoddan chiqish, qiziqishni yo'qotish, mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun qobiliyatlarni etarli darajada rivojlantirmaslik kabi holatlar ro'y beradi, shuningdek, o'z faoliyatiga passiv munosabatni tarbiyalaydi.

O'quv jarayoniga texnologik yondashish yuqoridaagi kamchiliklaridan xoli bo'lib, o'quv maqsadlarining aniq belgilanishi, yakuniy natijalarini kafolatlanishi, o'quv jarayonining takrorlanuvchanligini ta'minlashi va tezkor qaytaruvchi aloqaning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Nazorat savollari:

1. Kompetentlikning tuzilmasi komponentlari nimalardan eborat?
2. Motivatsion komponentlar nimalardan eborat?

3. Kognitiv komponentlar nimalardan eborat?
4. Operatsion-texnologik, amaliy-faoliyatli tushunchalarga ta’rif bering?
5. Produktiv usul qanday usul ?

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar).

13.MA’RUZA MASHG’ULOTI.

Mavzu:13 Texnologik ta’lim o’qituvchisining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish shakllari.

Mashg’ulot rejasi:

1. Mustaqil ta’lim texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish shakli sifatida.

2. Texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishda malakaviy amaliyotni o’rni.

Tayanch tushunchalar: Mustaqil ta’lim, dunyoqarash, ishonch, ong, xuq, yangilanuvchan, tashkilotchilik.

Pedagogik faoliyat – bu inson shaxsini, uning dunyoqarashini, ishonchini, ongini, xulqini shakllantirishga bo’nsundirilgan cheksiz masalalarni yechish jarayonidir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik faoliyat turlari (ta’lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, safarbarlik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik va boshqalar) qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda, pedagogik faoliyat muntazam o’zgaruvchan, yangilanuvchan, rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi, unga ijtimoiy buyurtma uzlucksiz ta’sir ko’rsatadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash vazifasi pedagogdan bevosita ijodiy faoliyatni hamda ishlab chiqarishga tegishli bo’lgan soha bilimlarini talab etadi. Demak, texnologiya mavjud ekan, uni ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirish shart ekan, bu jarayon qaerda kechishi mumkin, degan savol tug’ilishi tabiiy. Bu esa, shaksiz, pedagogik korxonada, ya’ni pedagogik ishlab chiqarish jarayonida ro’y beradi.

Tarbiyalash texnologiyasi – nisbatan yangi atama bo’lishiga qaramay rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi pedagogikada yangi yo’nalish hisoblangan «ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fuqarolik g’ururi, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mas’uliyat hissi va boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga jiddiy ta’sir qilmoqda. Ta’kidlash joizki, tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g’oyasi, mazmuni va tarkibini emas, balki bu sohadagi respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug’ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo’ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta’minlovchi vositalar

majmuasini ko'rib chiqadi. O'qituvchi (pedagog) larning o'zida muloqot, bahs olib borish madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik ta'lif mazmuniga qo'yiladigan talablar, ayniqsa muhimdir. O'zaro hamkorlik pedagogikasi – o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba o'rtaida hamfikrlilik, bir-biriga ishonch, o'zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarning anglab olinishi va e'tirof etilishini kafolatlaydi. Milliy o'zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g'oya va madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar, ko'p millatli xalqimiz an'analaridan ayrim holda tiklab bo'lmaydi. Yoshlarning iqtidori va bilimga chanqoqligi aynan shulardan quvvat oladi, ma'naviyatga erishish va uning rivojlanishi shular bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy mafkura, psixologik va pedagogik fanlardan foydalanib, maqsadlar ketma ketligini to'g'ri «texnologik» tanlay bilish o'ta muhim. Nazariya nuqtai nazaridan tarbiya uslubiyotini ta'riflash yetarli. Lekin texnologik jihatdan barcha tarbiya maqsadlarining qismlarini aniqlash va ularni ro'yobga chiqarish yo'llarini belgilash zarur bo'ladi. O'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijodiy ishlashni talab etadi. Pedagog o'zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya'ni, nazariy-amaliy materiallar, o'quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Pedagog o'zidagi mavjud ma'lumotlar va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta'lif yo'nalishi bo'yicha mavjud metodika va ilg'or o'qitish uslublarini ko'zlagan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Ta'lilda zamonaviy didaktika va ta'lif tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o'tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtaida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lif tizimining yangi shakllarining aprobatasiysi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi. Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar o'rganiladigan ta'lif tizimi doirasida aynan ta'lif jarayonini yetarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo'shliqni pedagogik texnologiya pedagogning loyihalashtirilgan o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o'rin qoldirgan

holda to'ldiradi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetentlikning asosiy elementlari Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq. U o'z ichiga nafaqat kognitiv tashkil etuvchini, balki qadriyatli yo'nalganlikning motivatsion, etik, ijtimoiy va ahloqiy tizimlarini ham oladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish jarayonida kutilayotgan natija umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar orqali taqdim etilgan asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga qo'yilgan talablar ko'rinishida shakllantirilgan. Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak o'qituvchining profilli (mutaxassislik) kompetensiyasi ham aniqlangan bo'lib, u o'qituvchining kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtida u juda kam o'rganilgan muammolardan biridir. Ana shunday masalalardan biri bo'lajak matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga kompetentli yondoshuvni aniqlash va Davlat ta'lim standartlarining asosiy qoidalariga mos holda uning tuzilmaviy modelini ishlab chiqishdan iborat. Bo'lajak matematika o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlash uchun ushbu tushunchani o'rganishga bag'ishlangan ba'zi bir tadqiqotlarga e'tiborni qaratamiz. Kasbiy kompetensiya pedagogik muammo sifatida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan, o'qituvchining xususiyatlari tahlil qilingan V.A. Adolf kasbiy kompetentlikni quyidagicha aniqlagan: kasbiy kompetentlik - bu mahsuldar pedagogik faoliyatga nazariy, metodologik, predmetli, psixologo-pedagogik va texnologik tayyorgarlikni o'z ichiga olgan umumlashgan shaxsiy ta'limdir. U o'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasida predmetli, metodik, metodologik, psixologo-pedagogik tashkil etuvchilarni ajratgan. Uning fikridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash

mumkinki, to'laqonli kasbiy kompetentlik faqatgina harakatchan va yangilikka intiluvchi o'qituvchidagina namoyon bo'lar ekan. V.A. Adolf kompetensiyani ob'yektiv sharoit, ya'ni bo'lajak o'qituvchining huquqi, burchi va javobgarligi sifatida talqin etgan. Matematik kompetensiya bo'lajak matematika o'qituvchisi uchun kasbiy kompetensianing tashkil etuvchisi sifatida predmetli kompetensiya bo'lib hisoblanadi .

V.I. Baydenko «kasbiy kompetentlik» tushunchasini quyidagicha tavsiflagan:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomlik va egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lish;
- kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- faoliyat mezoni (sifat o'lchovi), qo'llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi;
- ish beruvchi talablariga ko'ra kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyatlardan samarali foydalanish;
- insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko'nikmalarning integrallashgan birlashuvi .

O.V. Xovovning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlik - bu nafaqat malaka, ya'ni faoliyat tajribasi, ko'nikma va bilimlar sifatida kasbiy malaka haqidagi, balki kasbiy faoliyatda mustaqillikni ta'minlovchi ijtimoiy-kommunikativ va individual qobiliyatlar haqidagi tasavvurlardan iborat.

Kasbiy kompetentlikka berilgan barcha ta'riflar o'zida ijodkorlikni ifodalaydi. Pedagog ijodkorligi o'z predmeti va unga mos fan sohasida bilimlarga, ta'lim va tarbiya metodikasini egallagan bo'lishga, psixologiyada sinchiklab tekshirib ko'rish ko'nikmasiga asoslanadi. Ijodkorlik uchun quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: pedagogik masalalarining ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish,

o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish hohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik faoliyat –bu ?
2. O.V. Xovov kasbiy kompetentlik tushunchasiga qanday ta'rif bergan?
3. V.I. Baydenko «kasbiy kompetentlik» tushunchasini qanday tavsiflagan ?
4. Tarbiyalash texnologiyasi –bu ?
5. Kim kompetensiyani ob'yektiv sharoit, ya'ni bo'lajak o'qituvchining huquqi, burchi va javobgarligi sifatida talqin etgan.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion

ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar).

14.MA’RUZA MASHG’ULOTI.

Mavzu:14 Texnologik ta’lim o’qituvchisining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish shakllari.

Mashg’ulot rejasi:

3. Mustaqil ta’lim texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish shakli sifatida.
4. Texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishda malakaviy amaliyotni o’rni.

Tayanch tushunchalar: Barkamol, komil inson, pedagog, malaka, rivojlanish, qobiliyat, mahorat.

O’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Yosh avlodni barkamol, komil inson bo’lib yetishishida pedagog tarbiyachi va o’qituvchilarining roli benihoya kattadir. Olimlar ta’kidlaganlaridek, “Birovni o’qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o’zi har tomonlama barkamol bo’lmog’i shart”. Shu sababli pedagoglar ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratini oshirish asosiy birinchi vazifa sifatida qayd etilmoqda. Bugungi kunda ta’lim beruvchilarining kasbiy kompetentligini samarali olib borilishini ta’minalash dolzARB masalaga aylandi. Barcha ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchilarining kasbiy kompetenti muhim o’rin egallaydi. “Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, maxorat va iqtidorni namoyon eta olish. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi,

raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi. "Kompetent" so'zi lotincha "copeto" so'zidan olingan bo'lib, "erishyapman, munosibman" degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorlik va tajribaga ega ekanlikni bildiradi. E.Zeyer, D.Zavodchikovlar "kompetent" atamasiga mutaxassisning o'z faoliyatini samarali tashkil qilishga qaratilgan xatti-harakatlar yig'indisi deb qarashadi. Ogayo shtati universiteti olimlari kompetentlik tushunchasini shaxsning ma'lum soxada samarali ishlashi uchun kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar to'plami deb hisoblaydilar. Ushbu sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan biri amerikalik olim R.Meyers "kompetentlik- bo'lajak mutaxassisning qandaydir ma'lum baxolash me'zonlariga javob berishi emas, balki uni ishlab chiqishda qo'llab, isbotlay olishidir", degan xulosani beradi. Pedagogning kasbiy kompetentligi deganda, uning bilim, ko'nikma, qobilyat, qarashlari, malakasi va ta'lim berish qobilyatlarining nomoyon bo'lishini belgilab beradigon shaxsiy sifatlari va qadriyatlar yig'indisini tushunamiz.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma, malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy axborot vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olishdir. "Texnologik kompetentlik" tushunchasini turli nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shaxsning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ham baholash mumkin. Ahamiyatli belgilar sirasiga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarning jami kiritiladi. Pedagog faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishi, ta'lim berishni va ta'lim olishni yengillashtiradi, tarbiyachi uchun ta'limda qulaylikni ta'minlaydi, ta'lim oluvchilarning bilim olishga qiziqishini, aqliy qobilyatlarini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan shu ma'lum

bo'ladiki, pedagog texnologik kompetentligi va mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim samarasini, balki tarbiyachi ish faoliyati natijasini ham ijobiy tomonga o'zgatiradi. Mahorat bu – ta'lim jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, bolalarda dunyoqarash, qobilyatni shakllantirish, ularda jmiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish.Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o'zgarishlariga olib boradi hamda ta'lim olish usullarining o'zgarishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, internet bilan ishlaganlarida o'quvchilarning faolligi ortadi va ta'lim jarayoni individuallashadi, turli ma'lumot manbalari bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. "Mahorat" (arabcha "mahorat" – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish demkdir. Pedagogik mahorat esa, pedagogning pedagogic jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobilyati va malakasiga egaligi hisoblanadi. Pedagog mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rindi. Shu sababli u pedagogic jarayonning umumiyligi mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogic faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlaarning puxta egallay bilishi lozim.Ta'lim jarayonining faol ishtirikchisi bo'lganpedagogning pedagogic mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqeい, u tomonidan pedagogic texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Ta`limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish darkor. Jahon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak ma`naviyatga, ijtimoiy hayotda ro`y berayotgan o'zgarishlarga to`g`ri munosabatda bo`lishga, milliy qadriyatlarimizning mohiyatini chuqur anglab yetadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash yo`lida faoliyat olib

boruvchi o`qituvchi ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylik na`munalarini ko`rsatishi lozim. Shuningdek, o`qituvchida ham mahorat va san`at bo`lishi kerakki, u o`quvchilarni o`ziga jalg` eta olishi, darsini qiziqarli qilib o`tishi va o`quvchiga bilim va tarbiya bera olishi kerak. Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o`quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdag`i malakalarini samarali ravishda qo`llashga o`rgatish, mustaqil o`rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko`zda tutilmagan noaniq, ya`ni muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallangan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo`llay oladigan Davlat ta`lim standarti asosida o`qitish jarayonini tashkillashtirish ta`limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo`llash vazifasini yuklaydi. Ushbu vazifalarni amalda joriy etish maqsadi, ta`lim beruvchilarning o`qitishning interfaol metodlarini doimiy o`zlashtirishi bugungi kundagi innacatsion texnologiyalardan xabardor bo`lishi va pedagogic diagnostikani o`zlashtira oladigan izlanuvchi-pedagog bo`lishdir. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaiy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimning amal qilishga erishishdir. Ta`limning bugungi vazifasi o`quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ya`lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko`rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o`rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzlucksiz ravishda mustaqil ishslash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Ta`limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to`la egallahshlariga erishish, shaxsning ta`lim diqqat markazida bo`lishini va bo`lajak pedagoglarning mustaqil bilim olishlarini ta`minlash uchun ta`lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko`rgan va o`z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallahdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o`quv va tarbiyaviy mashg`ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o`qituvchilar kerak. Buning uchun, barcha fan o`qituvchilarini innavatsion pedagogic texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o`quv-tarbiyaviy mashg`ulotlarda qo`llash malakalarini oshirib

boorish lozim. Bo'lajak pedagoglar o'z mutaxassisliklaribo'yicha egallagan bilimlari qatorida pedagogik bilimlarni hamda texnologik yondashuv asosida o'qitish uslubiyotlarini ham egallagan bo'lislhlari zarur. Ana shularni e'tiborga olgan holda, bo'lajak pedagoglarni

Texnologik kompetentligini shakllantiruvchi omillar quydagilardir:

- **Dars;**
- **Seminar-treninglar;**
- **Noan'anaviy darslar;**
- **Sayohat-ekskursiyalar;**
- **Amaliy darslar**

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan har bir dars nafaqat bo'lajak pedagoglarning pedagogik bilim olishlarini ta'minlashi balki, ularda pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan o'z faoliyatlarida foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. Bunda bevosita ma'ruza darslarida elektron taqdimot, multimedia, interaktiv doska, audianjuman, videoanjuman, hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kelgusi faoliyatlaridagi mashg'ulotlarda "qanday o'qitaman?" savollariga yechim bo'lishiga zamin yaratadi. Elektron taqdimot – slaydlardan mashg'ulotlarda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish bo'lajak pedagoglarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Beriladigan axborot materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning o'zlashtirilishini yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini talabalarga tarqatma materiallar sifatida ham tarqatish mumkin. Slaydlarga nisbatan talabalar o'zlarining fikrlarini bayon etishlari mumkin va bu orqali ular olib borilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish malakalariga ega bo'ladilar.

Bo'lajak pedagoglarga bunday metodika yangi axborotlarni ko'payib borishi, talabalarning tayyorgarlik darajasini o'zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga

mo'ljallangan slaydni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, eng avvalo, pedagogik talablarga javob berishi kerak. Ta'lim jarayonida pedagogik talablarga mos texnologiyalardan foydalanishni tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi: - taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli sohaning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket, ko'rgazmali, amaliyat bilan bog'langan bo'lishi; - taqdimot materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o'zaro optimal variantida berilishi; - taqdimot materiallarining bayon etilishi talabaga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Berilayotgan axborotlar mashg'ulot mavzusining mazmuniga mos bo'lishi bilan birga talabalarda zarur ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi topshiriqlar va vazifalardan tashkil topishi, talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlar hajmini aniqlashi, ma'lum bir mantiqiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzlucksizlik tamoyillariga mos kelishi, nihoyat, tizimlilik tamoyiliga javob bera olishi zarur. Shuningdek, axborotlarning talabalar tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Multimedia - mashg'ulotlarda axborotning turli xil ko'rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to'laqonli videokliplar, xatto videofilmlardan foydalanishini ta'minlaydi. Interaktiv doska – bu kompyuterdagи tasvirlarni proektor orqali namoyish etadigan sensorli ekrandir. Maxsus dasturiy ta'minot matn, rasm, video va audio ma'lumotlar va ob'ektlar, hamda Internet-resurslar bilan ishslash va ular ustiga yozuv va izohlar tushirish imkonini beradi. xususiyatlarni egallahni tarbiyalashdan iboratdir Videoanjuman – uzoqlashtirilgan foydalanuvchi guruhlari orasida (raqamli videolzuv lki oqimli video ko'rinishida ma'lumotlarni almashinish) yig'ilish va munozaralar o'tkazish jarayonini ta'minlaydi. Audioanjuman – tarmoq texnologiyasi tizimi va telefonidan foydalangan holda turli geografik nuqtalarda joylashgan bir qancha shaxslarning ma'lumotlarni ovozli – raqamli ko'rinishda almashinish jarayonini ta'minlaydi. Bundan tashqari o'quv mashg'ulotlari o'tadigan xona to'g'ri tanlanishi kerak. Mashg'ulot o'tishi belgilangan xona ko'rimsiz bo'lmasligi lozim. Agar mashg'ulot o'tadigan xona zamonaviy texnologiyalar vositalari bilan

jihozlanmagan bo'lsa, bu talabalarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'qituvchi targ'ib qilayotgan g'oyalarga ishonch bilan qarash paydo bo'lmaydi. O'quv mashg'ulotga mo'ljallangan xonalar qanchalik fanga doir ko'rgazmali jihozlar bilan jihozlansa, talabalarda ham g'urur, faxrlanish tuyg'ulari paydo bo'ladi hamda o'tkaziladigan mashg'ulotning samaradorligi ortadi. Bu xonalarni jihozlashda mavzuga doir o'quv plakatlari, tarqatma materiallariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Seminar-treninglar – interfaol metodlarda ishslash va o'sha sharoitlarda ishslash malakalarini hosil qilish uchun tashkil etiladi. Mazkur mashg'ulotda ihtirok etuvchilar ma'lum bo'lgan metodlarni o'z o'quv faoliyatlarida foydalanish uchun malaka va ko'nikmalarni hosil qiladilar. Treninglar davomida mavjud bo'lgan yangi metodlar muxokama qilinadi, o'rganiladi, ko'nikmalar xosil qilinadi. Bo'lajak edagoglar shu asosda yangicha ishslash faoliyatiga o'rganadilar. Umuman treninglar qo'shimcha ta'lim olishning asosiy formalaridandir. Treningni o'ziga xosligi shundaki, mutaxassisni o'z faoliyatini, qobilyatini oshirishga yo'g'rilgan bo'ladi. Shunday semenr – treninglardan biri "Guruhi-munozara" metodi. Bu metod muammoli savollarni hamkorlikda muhokama etishda qatnashuvchilarning nazariya va strategiyalari asosida kechadi. Bunday metodlar masalaning yechimiga turli tomonlardan qarashga mo'ljallanadi, masalaning yechimiga har bir ishtirokchi alohida fikr bildiradi va shular asosida qandaydir yechimga olib kelinadi. Trener munozarani turli savollarni qo'yish asosida boshqaradi va ularni yechim sari boshlaydi. Agar guruh a'zolari biror savolni o'rtaqa tashlasalar, boshqaruvchisiz o'zlarini yechimni izlab topishlari ham mumkin. Trening o'tkazishni didaktik, vaziyatli-rolli, ijodkorlik, faoliyatda tashkil etish, ishchanlik, o'yinli metodlarga bo'lish mumkin. Treninlarni o'yinli metodlar bilan o'tkazilishi juda sermaxsul yo'ldir. Guruhlarda ishslash jarayonida ishtirokchilarni o'zaro tanishtirish o'yinlari ular orasida tortishish zo'riqishlarni oldini olishda kata rol o'ynaydi. Amaliy mashg'ulotlar –bevosita bo'lajak pedagoglar uchun ochiq ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, o'tilgan darslarni muhokama qilish va tanqidiy tahlil etilishiga yo'naltirilgan bo'lib, u bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid innovatsiyalarni faol o'zlashtirish hamda

amaliyotga tatbiq etish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Amaliy mashg’ulotlar:

- Oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakliga qo’yilayotgan zamonaviy talablarni o’zlashtirish, tahlil qilish va baholashga;
- Pedagogik-psixologik hamda maxsus fanlarni o’qitish metodikasiga oid nazariy bilimlarni mustahkamlashiga;
- Tegishli kafedralarning ish tajribasi, professor-o’qituvchilar salohiyati, “Usstoz-shogirt” tizimi asosidagi faoliyatni o’rganish, tahlil qilishga;
- Fanlar bo’yicha mashg’ulotlarni loyihalashtirish, o’quv me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Bo’lajak pedagoglarning kompetentlikka, mahoratga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida mezonlar ishlab chiqish zarur. Mavzuga doir manbalarni o’rganish, o’quvchilarning faoliyatlarini kuzatish, tajriba-sinov ishlarining turli bosqichlarida namoyon bo’lgan holatlar, ro’y bergan o’zgarishlarni inobatga olingan.

Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirgan holda V.I. Baydenko kasbiy kompetentlikni faoliyat talablariga mos ravishda harakat qilishga, masala va muammolarni mustaqil hal etishga, shu bilan birga o’z faoliyati natijalari, ya’ni mos ko’nikmalar, texnik usullarni baholay olishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushunadi.

O.V. Xovovning fikriga ko’ra, kasbiy kompetentlik - bu nafaqat malaka, ya’ni faoliyat tajribasi, ko’nikma va bilimlar sifatida kasbiy malaka haqidagi, balki kasbiy faoliyatda mustaqillikni ta’minlovchi ijtimoiy-kommunikativ va individual qobiliyatlar haqidagi tasavvurlardan iborat.

V.G. Pishulinning fikricha, kasbiy kompetentlikka mutaxassislik kompetentligi (kasbiy amallar va kelajakda kasbiy rivojlanishni mustaqil bajarishni ta’minlovchi

bilim, ko'nikma va malakalar), kommunikativ kompetentlik, autokompetentlik (o'z-o'zini boshqarish), yozma va og'zaki nutq ko'nikmalari, tashkilotchilik va izlanuvchanlik-tadqiqotchilik kompetentliklari ham kiritilishi kerak. Kasbiy kompetentlikka berilgan barcha ta'riflar o'zida ijodkorlikni ifodalaydi. Pedagog ijodkorligi o'z predmeti va unga mos fan sohasida bilimlarga, ta'lim va tarbiya metodikasini egallagan bo'lishga, psixologiyada sinchiklab tekshirib ko'rish ko'nikmasiga asoslanadi. Ijodkorlik uchun quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish hohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch. Barcha katta yoshdagi kishilar kabi pedagogda ham psixika rivojlanishi uning faol kasbiy va ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq holda davom etadi.

S.Ye. Yelkanov pedagog shaxsining quyidagi uch komponentli tuzilmasini taklif etadi: umumpedagogik sifatlar (pedagogik yo'nalganlik va motivatsiya); kasbiy muhim sifatlar; individual psixologik xususiyatlar (qobiliyat, temperament, psixik jarayon va boshqalar) .

Yu.N. Klyutkin pedagog uchun kasbiy ahamiyatli bo'lган boshqa quyidagi uch guruh shaxs sifatlarini qaragan:

- 33.boshqa kishining ichki olamini bilish qobiliyati;
- 34.ta'lim oluvchiga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- o'zini-o'zi bilash qobiliyati .

A.K. Markova pedagog shaxsi tuzilmasida integralli tavsif deb nomalanuvchi quyidagi sifatlarni ajratgan:

- pedagogning kasbiy pedagogik o'z-o'zini anglashi, ya'ni uning professional sifatida o'zi haqidagi tasavvurlari majmuasi;

- pedagogik faoliyat va muloqotning individual stili, ya’ni qaralayotgan pedagog uchun xos bo’lgan pedagogik faoliyat va muloqot vazifalari, vositalari va usullarining mustahkam birlashishi;
- ijodiy potensial, ya’ni shaxsning noyob, shu jumladan nostandard darajada pedagogik masalalarini yechishga imkon beradigan kreativ qobiliyatlari majmuasi .

Nazorat savollari :

1. Texnologik kompetentligini shakllantiruvchi omillar qaysillar?
2. Seminar-treninglar nima ?
3. Texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishda malakaviy amaliyotni o’rni ?
4. Mustaqil ta’lim texnologik ta’lim o’qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishda nimalarga ahamiyat beriladi ?
5. A.K. Markova pedagog shaxsi tuzilmasida integralli tavsif deb nomalanuvchi qanday sifatlarni ajratgan?

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)

4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)

15. MA'RUZA MASHG'ULOTI.

Mavzu:15 Texnologik ta'lif o'qituvchilarining kompetentligini rivojlanganligini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari.

Mashg'ulot rejasi:

1. Texnologik ta'lif o'qituvchilarining kompetentligini rivojlanganligini baholash mazmuni.
2. Texnologik ta'lif o'qituvchilarining kompetentligini baholash shakllari, metodlari va darajalari.

Tayanch tushunchalar: Metodlar, daraja, baholash mezoni, baholash shakllari, tipologik xususiyat, qobiliyatlar.

Texnologik ta'lif o'qituvchilarining kompetentligini rivojlanganligini baholash mezoni quyidagicha:

- 1. Tayyorgarlik** Maxsus xususiyatlari, axborotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari, o'r ganish qobiliyati, tipologik xususiyatlari va boshqalar.
- 2. Bilim** Kompetentlik, stereotiplar, bilim, kompetentlik bilan bog'liq bo'lgan o'r ganishning ustunligi haqidagi tasavvurning mavjudligi.
- 3. Tajriba** Kompetentlikka yaqin yoki aynan unga mos keladigan masala va topshiriqlarni bajarish.
- 4. Munosabat** Kompetentlikni amalga oshirish yoki faoliyat kompetentligi bilan bog'liq holda o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabatlarning shakllanishi.

5. Muntazamlik Kompetentlikka bog'liq amallarga «turtki»larni nazorat qilish qobiliyati, matonat, qat'iyat, sabrlilik, kompetentlikni amalga oshirish bilan bog'liq maqsadga erishishdagi to'siqlarni zabit etishga tayyorgarlik.

Kompetentlikni namoyish qilishga tayyorgarlik darajasini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash mumkin: o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon etish g'oyasi, kasbiy yo'l tanlash, turmush qurish, farzandli bo'lishga nisbatan qaror qabul qila olishga tayyorgarlik, o'z hayotiga javob berishga tayyorlik, hayot yo'lini mustaqil tanlash, kasb sohasida ko'nikishlar hosil qilishga tayyorlik va boshqalar . Kompetentlik mazmuni haqida bilimlarga egalik quyidagi tavsiflarni o'zida aks ettiradi: fikr yuritishning dialektikligi, shaxsning kognitiv yetukligi, tajriba uchun ochiqlik, rasionallik, turli standart va nostandard holatlarda kompetentlikni namoyish etish tajribasini esa, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish va bajarishdagi muvaffaqiyati, hatti-harakat va faoliyatning individual yo'llari va boshqalar.

M.D.

Lapteva fikriga ko'ra, kompetentlik mazmuni va uning tadbiqi ob'yektiga munosabat, kasbiy o'z-o'zini baholashning shaxsga tegishli jihatni va ota-onalik munosabatlarining hissiyotlari orqali amalga oshiriladi. Kompetentlikning namoyon bo'lish natijalarining hissiyotli-idrokli regulyasiyasi baholash mezonlari sifatiga istiqbolli masalalarni qo'yish, ularni hal etish yo'llarini topishda qat'iyatlilik, talabgorlikning moslik darjasini, kasbiy potensialni o'zi baholashni, hissiy-shaxsiyatli avtonomlik va boshqalarga ega. Ijtimoiy kompetentlikning yuqori darjasini o'zarota'sirga turli rollarda kirish va ularga mos harakat qilish, shu bilan birga destruktiv o'zaro ta'sirga yo'l qo'ymaslik qobiliyatini ko'zda tutadi. Hamkorlikdagi kompetentlik ko'rsatkichlari sifatida ishonch, tolerantlik, empatiya, inson huquqi va erkinligi haqidagi bilimlar, refleksiya, raqiblar o'zaro ta'siridagi malaka va ko'nikmalar xizmat qiladi.

Bo'lajak mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda N.S. Aulova, ularning quyidagi tayyorlik mezonlarini keltirgan:

- shaxsning refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o’z kasbiga mosligini baholash, refleksiv harakatlarning shakllanganligi;
- asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operasional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, usullari va yo’llarini egallash;
- bilish faollik darajasi – o’zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo’llash ko’nikmasi;
- kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchlilikning shakllanganligi;
- samarali kasbiy faoliyat usullarini o’zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;
- ularni o’z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo’llarini topishga intilish;
- bashorat qilishning faollik darajasi .

V.A. Serunyanning fikriga ko’ra, kompetentlik mezonlari faoliyatning ob’yektiv natijalari va tavsifini, shuningdek, sub’yektiv omillar, ya’ni motivlari va qiziqishlarini aks ettirishi kerak, ya’ni sub’yekt kompetentligi bir tomondan faoliyat maqsadi shaxsning motivlarining umumiyligi tuzilishiga qanchalik kirishi bilan, boshqa tomondan, u yoki bu natijaga erishish uchun faoliyat qanday amalga oshirilishi bilan baholanadi. O.M. Bobiyenko kompetensiyalarni baholash usullari sifatida quyidagilarni taklif etadi: kuzatish, savolnomalar, natijalar papkasi (portfolio), yozma jurnal (kundalik), rag’batlantirish (ishbilarmonlikni o’rgatish), amaliy topshiriqlar (kasbiy malakalarni namoyish etish), videotasvirlar . Qayd etilganlarni e’tiborga olgan holda faoliyat sub’yekti kompetentligini baholash mezonlarini ikki guruhga ajratish mumkin: tuzilmali (motiv, bilim, ko’nikma, qobiliyat); funksional-faoliyat jarayoni va natijasi tavsifi.Pedagogika va psixologiyada «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari bilan bir qatorda «asosiy kompetensiyalar», «malakalar», «asosiy malakalar», «kasbiy kompetentlik», «kasbiy muhim sifatlar» kabi tushunchalar ham qo’llaniladi. Ammo, bu tushunchalarni tasniflashning yagona

asosi va umumlashtirilgan ta’riflari mavjud emas. Oliy ta’lim tizimida ko’zda tutilgan natijalar sifatida kompetensiyalarga bag’ishlangan ko’pgina taddiqotlarda asosiy urg’u «asosiy kompetensiyalar» va «asosiy malakalar» tushunchalariga berilgan.

Yevropa davlatlari kasbiy ta’limida quyidagi asosiy kompetensiyalar alohida ahamiyatga ega:

- a) **ijtimoiy** – o’ziga mas’uliyatni his etish, hamkorlikda qaror qabul qilish va unda ishtirok etish qobiliyati, turli etik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning korxona va jamiyat talablari bilan mosligi;
- b) **kommunikativ** – turli tillardagi yozma va og’zaki muloqot texnologiyalariga egalik, shu bilan birga kompyuter savodxonligi;
- c) **ijtimoiy-axborotli** – axborot texnologiyalariga ega bo’lish va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;
- d) **kognitiv** – doimiy ravishda ta’lim olganlik darajasini oshirishga tayyorlik, o’z shaxsiy potensialini faollashtirish va amalga oshirishga ehtiyoj, ya’ni bilim va ko’nikmalarni mustaqil egallash, o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyati;
- e) **madaniyatlararo** kompetensiyalar;
- f) **mustaqil bilish faoliyati** sohasidagi kompetentlik;
- h) **maxsus** – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o’z mehnati natijalarini baholash.

Asosiy kasbiy kompetensiyalar mutaxassislarning ijtimoiy-kasbiy harakatchanligini aniqlaydi, turli ijtimoiy va kasbiy jamoalarga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. S.Ye. Shishovning fikriga ko’ra, asosiy kompetensiyalar - insonning kasbiy faoliyati davomida o’zining barcha bilim, ko’nikma va malakalarini safarbar qilish, harakatlarning umumlashtirilgan usullarini qo’llash qobiliyati hisoblanadi . Asosiy kompetensiyalarning ko’rinish jihatidan turli xilligi yuqorida qayd etilgan mualliflar ishlarida umumilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborotkommunikativ va umumkasbiy

bilimlar bilan taqdim etilgan. Kasbiy ta’lim pedagogikasi va psixologiyasida «asosiy kompetensiyalar» tushunchasi bilan bir qatorda «malakalar», «asosiy malakalar» tushunchalari ham uchraydi. E.F. Zeer va G.M. Romansevlarning fikriga ko’ra, malaka – insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo’yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi hisoblanadi. L.G. Semushina esa, malaka «past», «o’rtacha» va «yuqori» darajada bo’lganligi sababli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki mutaxassislikning egallaganlik darajasini tavsiflaydi - deb ta’kidlaydi.

E.F. Zeer «kasbiy malaka» tushunchasini quyidagicha ta’riflagan: kasbiy malaka – mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi va turi, unda ma’lum ishni bajarish uchun zarur bilim, malaka va ko’nikmalarning mavjudligidan iborat .

Shunday qilib, malaka ham kompetensiyalar kabi asosiy va kasbiy bo’lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko’pincha oddiy «malakalar» deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar deb quyidagilar hisoblanadi:

- individning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunktional bilimi, ko’nikmalari, sifatlari va xususiyalari;
- aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo’ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko’nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlar va sifatlari;
- turli kasbiy jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, malakalar va qobiliyatlar.

Asosiy malakalarning tuzilmali elementlari qatoriga shaxsning kasbiy yo’naltirilganligi, kasbiy kompetentligi, kasbiy ahamiyatli sifatlari va psixofiziologik xususiyatlarini kiritish mumkin. Masalan, E.F. Zeer va E.E. Simanyuklar asosiy malakalar tarkibiga metakasbiy sifatlarni, ya’ni mutaxassisning kasbiy va ijtimoiy faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi shaxsning qobiliyatları xususiyatlarini, ya’ni tashkilotchilik, mustaqillik, javobgarlik, ishonchlilik, muammolarni rejalashtirish, muammoni hal qilishga qobiliyatlilik va boshqalarni kiritgan. «Asosiy malakalar» tushunchasining o’zini esa, asosiy kompetensiyalar va metakasbiy

sifatlardan iborat keng miqyosda qo'llaniladigan metakasbiy tizimlar sifatida ta'riflagan .

V.I. Baydenko kompetensiyadan farqli ravishda malaka mustahkam kasbiy maydon va algoritmlar bilan chegaralangan faoliyat ustuvorligini bildirishiga e'tibor qaratgan . Yevropa hamjamiyati mamlakatlarida (masalan, Angliyada) «tayanch malaka» atamasi «bazaviy malaka», «asosiy malakalar» atamalari bilan bir qatorda qo'llaniladi va faoliyatning turli xil holatlari hamda ijtimoiy hayotda turli shakllarida namoyon bo'luvchi shaxsiy va shaxslararo sifatlar kabi ta'riflanadi. Asosiy (bazaviy) malakalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy qobiliyat, psixomotorli malakalar, o'rganish qobiliyatları, umummehnatli sifatlar, individual yo'naltirilgan qobiliyatlar;
- asosiy (savodxonlik, hisob), hayotiy (o'zini boshqarish, kasbiy va ijtimoiy o'sish ko'nikmalari), tayanch (kommunikatsiya), ishbilarmonlik, boshqaruvchanlik ko'nikmalari, tahlil va rejalashtirishga qobiliyat;
- ijtimoiy , kasbiy malakalar, kasbiy kompetentlik, kasbiy-shaxsiy qobiliyatlar.

O'qituvchilarida texnologik kompetentligining shakllanganlik darajasini quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin:

1. Kompetentlik, texnologik kompetentlik, mahorat, pedagogic mahorat kabi tayanch tushunchalar mohiyatini anglay olishlari.
2. Texnologik kompetentlikning muhim sharti davr talabi ekanligini tushunish.
3. Texnologik kompetentlikni shakllantirish ehtiyojiga egalik.
4. O'zida kompetentlikni shakllantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilish.
5. Kasbiy kompetentlikka egalikni to'la namoyon eta olish.

Pedagogik adabiyotlarda qayd etilishicha, muayyan sifat turli shaxslarda turlicha namoyon bo'ladi yoki turli shaxslar o'zlarining muayyan sifatga egaliklarini turlicha

namoyish etadilar. Shundan kelib chiqqan holda bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentligini shakllantirish turli darajalarda namoyon bo'ladi, degan xulosani ilgari surgan holda muayyan sifatlarning namoyon bo'lishi ko'p holatlarda uch ko'rinishda, ya'ni yuqori, o'rta va past darajalarda qayd etiladi Shu sababli yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikka egaliklari quyidagi darajada baholash mumkin degan xulosaga kelindi: Yuqori daraja – texnologik kompetentlikni oshirish, kompetentlik, mahorat kabi tayanch tushunchalarning mohiyatini chuqur anglaydilar, texnologik kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratga ega bo'lishligi bu yo'lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilishligi va unga to'la rioxha eta oladilar. O'rta daraja – texnologik kompetentlikni oshirish, kompetentlik va mahorat kabi tayanch tushunchalarning mohiyatini etarlicha anglaydilar, texnologik kompetentlikni oshirish davr talabi ekanligini tushunsalar-da, biroq, ushbu sifatlarni o'zlarida shakllantirish ehtiyojini doim ham namoyon etavermaydilar. Qolaversa, o'zlarida kasbiy mahoratni shakllantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Quyi daraja – texnologik kompetentlikni oshirish, kompetentlik va mahorat kabi tayanch tushunchalarning mohiyatini deyarli anglamaydilar, kasbiy mahorat davr talabi ekanligini tushunsalar-da, biroq, ushbu sifatlarni o'zlarida shakllantirish ehtiyojiga ega emaslar, shuningdek, o'zlarida texnologik kompetentlikni shakllantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etmaydilar. Shunday qilib yuqoridagi mezonlar asosida tajriba–sinov ishidasinaluvchi o'quvchilar o'rtasidagi texnologik kompetentlikni shakllangallik darajasidagi sezilarli farqlar aniqlandi..

Professional kompetensiyanı baxolash metodlarining prinsiplari

Harakat, urinish bilan yuqori natijalarga erishish ya'ni samaradorlikni kutarish bilan bog'liq. Ma'lum bir prinsiplarni rioxha qilish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Nisbiy ravishda ularni 3 guruxga ajratish mumkin.

1) tashkiliy;

- 2) ilmiy-metodik Professional kompetensiyani baxolash metodikasi eng avvalo, minimal;
- 3) etik.

1.Tashkiliy prinsiplar ishning optimalligiga yunaltirilgan bo'lib, partnerlar orasidagi vazifa va javobgarlik taqsimlanadi.

2.Yuridik huquq prinsipi mexnat soxasidagi normativ xujjatlar, huquqiy aktlarga muvofik, ishni olib borishni nazarda tutadi.

3.Urinishlar koordinatsiyasi prinsipi kompetentliknibaxolashda ishtirok etgan barcha ishtirokchilarning (xodimlarni baxolash buyicha mutaxassislar, kadrlar agentligi, tibbiyat va sotsial xizmatlari xodimlari va boshkalar) xamfikrligini nazarda tutadi.

4.Tomonlarning javobgarligi prinsipi – tomonlarining professional kompetensiyani baxolash ishlarini amalga oshirishda majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashni nazarda tutadi. Qabul qilinayotgan majburiyatlar tegishli xujjatlardakursatilgan bulishi kerak: protokollar, dasturlar, kelishuv bitimlarida.

5.Qabul qilingan kelishuv ustidan nazoratni urnatuvchi tizimli prinsip-yuqori sifatli ishning ta'minlanishning imkoniniberadi. Erishilgan natijalarning kuzatuvi xamda ishda vujudgakelayotgan muammolarning kuzatuv jarayonini nazarda tutadi.

6.Ilmi-medotik prnsipi-ishni anna xam asosli kilib, sifatlinatijalarni erishishga yerdam beradi. Professional kompetensiyanibaxolash xodimlarining bashorat ishining baxosini oshiradi.

7.Tizimli prinsip xodimlarni tanlash yulida tizimli jaraenga xosbulgan yendashuvni taklif etadi. Bu uz navbatida mexnat bozoridasodir bulaetgan dinamik jaraenlarni inobatga olgan xolda modelniyaratishni kuzda tutadi.

8.Kompleks prinsipi kompetentlikni baxolash faoliyatini xartarafdan kurib chiqishni taklif kiladi. Bunda sotsial, iktisodiy, tibbiyat,psixologik, professional va boshqa tomonlar ajratib ko'rsatiladi.

9.Varianlilik prinsipi professional baxolash ishida standartlashmuximligini inkor etmagan xolda, stereotiplashdan kutilish imkoniniberadi. Bu yunalishning muximligi

shundan iboratki, kompetentlikbaxolash jaraeniing kupkirralilagini xamda turli xil xarakteristika vatalablarni inobatga olishni takazo qiladi.

10.Bashoratlilik prinsipi professional loyixani amalga oshirishdagimuvoffakiyatni bashorat kilishni, bulajak raxbar va kollektiv bilanuzaro munosobatlarning xarakterini nazarda tutadi.

11.Maksadga muvofiklik prinsipi kompetentlik baxolash jarayoning optimalligini nazarda tutadi.

12.Individual-tipologik yondashuv prinsipi shaxslarning individual - tipologik xarakteristikalarini ajratishning muximligini kursatishga asoslangan.

13.Etnik prinsiplari kompetentlik baxolash ishi doirasiga kiruvchixizmatlarning sifatini ta'minlashga karatilgan. Bunda inson xuquqlariga rioya kilish, faoliyatning madaniyatini kutarish nazardatutiladi.Kuyidagilar etik prnsiplari orasida eng muximlari xisoblanadi:

14.Konfidensiallik prinsipi kompetentlik baxosini aniklashga murojaat etgan mijozlarning ximoyasiga karatilgan bir kancha talablarni bajarishga karatilgan. Kompetentlikni baxolash bilan bog'liqbulgan jaraenida katnashish uz xoxish irodasini bildirgan xoldaamalga oshirilgan bulishi kerak. Professional kompetensiyanibaxolash buyicha mutaxassis mijoz xakidagi xama ma'lumotnituplashga intilishi kerak emas, balki fakat baxolashga ta'lukli bulganma'lumrtni tuplashi kerak.

15.Kompetentlik prinsipi eng muxim prinsiplardan biri hisoblanadi. Bu prinsipga muvofik, professional kompetentlikni baxolash buyicha hamma ish mazkur soxadagi oxirgi yutuklar bilan tanish bulgan ,maxsus tayerlangan malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishikerak. Professional baxolash olib borietgan mutaxassis uz ishinmukammal bajarishi uchun boshka mutaxassislar bilan xamkorlik qilishi kerak bo'ladi.

16.Pozitivlik prinsipi butun faoliyatni shunday tarzda olib borishni taqozo qiladiki, bunda maksimal pozitiv natijaga erishilishi kerakbuladi. Pofessional baxolashni utaetgan shaxslarning individual xususiyatlarini inobatga oluvchi tomonlariga

e'tiborni qaratishni nazarda tutadi (jinsi, yeshi, millati, sotsial - iqtisodiy mavqe'i, diniva boshqalar).

Ishtirokchilarning manfaatlari va surmatini inobatga olish prinsipi- kompetentlikni baxolash bilan shug'ullanadigan mutuxassislarining faoliyati davomida tomonlarning bir biriga o'zaro hurmati nazarda tutiladi. O'zaro manfaatlarni aniqlash, talab va taklif o'rtasidagi o'zaro kelishuvni izlab, bundan ham samarali profession salloyixatni yaratish yuqoridagi prinsip asosida imkon topadi.

Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholashning shakl , metod va vositalari

Mashg'ulotning maqsadi: Kasbiy-psixologik baholash, mijozni kutish va uning talabini belgilash , qobilyatni baholashda kasbiypsixologik portretdan foydalanish bo'yicha malakalarini shakllantirish.

Ish beruvchining talablariga muvofiq kuzatuv, sinov, baholash vasuhbat natijasida nomzod haqidagi barcha avtobiografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy baholash xulosasi, kasbiy-psixologik xulosa hisoblanadi. Kasbiy-psixologik baholash xulosasi shakli odatda buyurtmachi bilan muhokama qilinadi. Mijoz xarakteristikasini quyidagi shaklda ko'rib chiqish ma'lumotlarni tartibga solishdagi eng ko'p tarqalgan usullardan biri hisoblanadi:

1. Hayotdagi o'mni (konsultantning inson hayot tarzini tushunishi, uning shaxsiy dunyoqarashi,
2. Kasbiy reja va maqsadlari (ularni haqqoniyligi, mukammalligi, mijozning o'ziga tushunarligi, mijozning hissiyotga beriluvchanlik darjasini va boshqalar).
3. Yo'nalganligi, motivatsiya (bu insonni hayotda qanday asosiy ehtiyojlar "harakatlantiradi", motivatsiya uni muvaffaqiyatga erishtiradimi, shuhratparastmi yoki o'zini boshqalardan ustun tutadimi va boshqalar).
4. Mahorati. Ish tajribasi(bilimi, malaka va ko'nikma hamda qobiliyati).

5. Intelektual salohiyati, o'ragtuvchanligi (idroklik, yangiliklarga uquvchanlik, bilim olishga intilish, intelektual xususiyatining sifati va darjasи, intelektual imkoniyatlarining amalga oshish etapi).
6. Shaxsiy va ish sifati (kasbning qanday darajasida, strategik yoki taktik, tanqudga munosabati, vaqtini boshqara olish qobilyati).
7. Emotsional ahvoli (hissiy turg'unligi, vaziyatga bog'liqlik darjasи, hissiy etukligi).
8. Kommunikativ sferasi (o'zgalar bilan munosabati, ekstravert yoki intravert va boshqalar).
9. Nizoli vaziyatlarda o'zini tutishi.
10. O'z-o'zini baholash.
11. O'zini tutishi va faoliyatidagi muntazamlilik (mustaqil qarorqabul qilish darjasи, yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishi, mustaqillik darjasи, o'zini erkin tutishi, harakatchanligi).
12. Javobgarlilik, yaratuvchanlik va tashkilotchilik kabi bir qator universal muhim kasbiy sifatlar mavjud.

Lekin muayyan kasb vadaraja uchun mutaxasislik sifati talab etiladi. Shuning ko'plab yirik kompaniyalarda shaxsning kasbiy hulq-atvori standartlari va asosiy talablari mavjud. Bu talablarga shaxsning muvofiqligini ko'rib chiqishva nazorat qilish menejerning shaxs bilan ishlash vazifasi hisoblanadi.

Xulosa nomzodlarning talab etilayotgan lavozimgamuvofigiga, ularning kuchli-kuchsiz tomonlariga javob berishikerak. Xulosaning grammatik tili to'g'ri, ilmiy terminlardan iborat vatushunarli bo'lishi kerak. Konsultant o'z tadqiqoti natijasida qo'lgakiritgan yakuniy xulosani qisqacha "ha" yoki "yo'q" tahlili asosida nomzod faydalı imkoniyatlarining ta'siri va uning "xavfli zona" sihaqida yozma xulosa beradi. Xulosa yasash maqsadida o'z nuqtainazarimizda talabgor haqidagi ma'lumotlar blokini ko'rib chiqamiz.

Mijozni kutish va uning talabini belgilash. Konsultant buhaqdagi ma'lumotlarni mijoz bilan birinchi uchrashuvdayoq qo'lga kiritadi. Ma'lumot to'liq va ishonchliroq bo'lishi va kompetentnostni baholashda qiyinchilik tug'dirmasligi uchun talabgor bilan qandayaloqa o'rnatishni hisobga olish zarur. O'zaro suhbat va kompetent nosni

baholash jarayoni ko'pincha mijoz uchun yangi va notanish holat hisoblanadi. Birinchi uchrashuvdayoq kompetentnosni baholash texnologiyasining mohiyatini mijozga olib berish kerak, u ishning mazmun-mohiyatini yaxshilab tushunib olishi lozim. Bu bosqichda konsultant nafaqat mijozning vaziyatga moslashishiga yordam beradi,balki mijoz bilan birgalikda baholashnig mazmunini shakllantirib, unibirgalikda amalga oshirishni mo'ljallaydi va kasbiy rejani shakllantirishda mijozga zarur bo'lgan yordamni muhokama qiladi.

Shu yerda proektning dastlabki g'oyasi ayon bo'ladi, insonga qanday tavsif berishadi, o'z maqsadini amalga oshirish yo'lini qanday ifodalaydi. Bu bosqichda vaziyatni baholashdagi to'g'rilik va haqqoniylidka har ikki tomon pozitsiyasini bixillashtirish muhim hisoblanadi.

Qobiliyatni baholashning maqsadi. Baholash o'z-o'zini anglash,o'z imkoniyatlari va mahoratini kengaytirish, ma'lumotga ega bo'lish,mahoratni o'stirishda muvaffaqiyatga erishish yo'lini qayta ishlabchiqish va muayyan lavozimni egallah maqsadida o'tkaziladi.

Ma'lumoti. Talabgor bitirgan oliy ta'lim muassasalar ro'yxati va buning natijasida egallangan mutaxasislik. Talabgor o'qishni qachontamomlagan va egallagan mutaxasisligi bo'yicha faoliyat bilan qanchashug'ullangan. Mijoz uchun ko'rsatilgan mutaxasisliklar kasbiy rejanibajarishda qanchalik muhim.Agar mijoz faqatgina umumiylar ma'lumotga ega bo'lsa, unda quyidagilarni bilib olish mumkin: qaysi maktab, qanday mutaxasislikbo'yicha o'qigan, nega bu sohani tanladi, mukammal mutaxasislikniegallahgas imkon bo'lganmi, nimaga oxirigacha o'qimagan, maktabdaqaysi fanlarni yoqtirgan, o'qishda nima qiyinchilik tug'dirgan va nimada muvaffaqiyatga erishgan.

Boshlang'ich kasbiy ma'lumot: talabgor tamomlagan ta'lim muassasasi; mutaxasislik, darajasi. Amaliy mashg'ulotlarda kattaroq darajaga erishishda qaysi fan ko'proq yoqqan, ishlab chiqarish amaliyotini qayerda va qancha muddat o'tagan. O'rta mutaxasislik ma'lumoti: ta'lim muassasasini tamomlagandan so'ngi mutxasisligi, mahorati; to'liov pulli bo'lganmi, o'qishga kirishdan avval mutaxasiligi bo'lganmi, nega bu mutaxasislikni tanladi, ma'lumoti bilan bog'liq asosiy muvaffaqiyatlari, ilmiy

yo'nalishi, yutuqlari, diplom va kurs ishlari mavzusi, qayerda vaqancha vaqt ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan.

Oliy ma'lumot: qaysi o'quv yurtini tamomlagan, qanchalik muvaffaqiyatli, kasbni qanday tanlagan, o'qish pulli bolganmi yokiyo'q, o'qishni tamomlagach egallagan mutaxasisligi va mahorati, ilmiy yo'nalishi, yutuqlari, diplom va kurs ishlari mavzusi, qayerda vaqancha vaqt ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan.

Ikkinchi oliy ma'lumoti: nega ikkinchi ma'lumotni olish zarurati tug'ildi, bu ma'lumot birinchisini to'ldirishga qanchalar asqotadi.

Qo'shimcha ma'lumot: kursda o'qishni davom ettiruvchanligi qanday, nega ularni tugatish zarurati paydo bo'ldi, ular qanday bilim va ko'nikma berdi, kasbiy faoliyatda bu bilimlar qanday naf keltiradi, kursdagi o'qish faoliyatga o'tishda turtki bo'ldimi.

Ish tajribasi. Mashg'ul bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati, jumladan bu faoliyat turi bilan bog'liq bo'lgan umumiyl majburiyatlar va javobgarlik.

Ishchilar va rahbarlar uchun lavozimning nomi, firmaning nomi, lavozimni egallab turgan muddati, javobgarligi va lavozim majburiyatları. Bizning nazarimizda talabgor bilan uning mehnat faoliyati davomida erishgan yutuqlarini muhokama qilish uchun vaqt ajratib berish muhimdir.

Qobiliyatni baholash jarayonida mijoz o'z kasbiy hayotida nimaga tayanayotganligini anglash juda muhimdir. Ko'p hollarda mijozning kasbiy rejasi uning bu kasb bilan shug'ullanish jarayonida egallangan bilim, malaka va ko'nikmalariga asoslanmaydi.

Kundalik hayot yoki hobbi ham tajriba mahoratni berishi mumkin. Konsultant mijoz hayotini har tomonlama tahlil qilishi, uning haqiqiy malaka, ko'nikma va barcha imkoniyatlarini to'liq anglab yetishi lozim.

Muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirish darjası. Bunday ma'lumotlarni konsultant qobiliyatni baholashining turli metodlarini qo'llash va tashxis bosqichi natijalari asosida qo'lga kiritadi. Ijodiy imkoniyati (intelektual va bilim salohiyati), umumiyl intelektualdarjası qanday, mantiqiy fikrlash qobiliyati, analitik, abstrakt yokikonkret. Intelektual faoliyatining har tomonlama rivojlanishida nomutanosiblik bormi, aqliy faoliyatining tezligi qanday va boshqa dinamik xarakterlari. Intelektual faoliyatni yo'lga qo'yishlik bilanajralib turadimi, emotsiyal tafakkur mahsuliga ta'siri qanday,

kutilmagan vaziyatda qaror qila oladimi, zaruriy qarorni qabul qilaoladimi. Uning kasbiy faoliyati doirasidan tashqarida bo'lgan voqeahodisalar bilan munosabat o'rнata oladimi, voqealar rivojini prognozqila oladimi, ijodiy tasavvuri qanday, tanqidiy qarashlari qay darajada, o'z qobilyatini real baholay oladimi, qayta baholaydimi yoki ularni kam baholaydimi.

Meta-qobilyat (hamkorlikka qobilyati, moslashuvchanligi, o'qituvchiligi, yetukligi).

Motivatsiya-baholash sferasi: qanday asosiy ehtiyojlar insonhayotini "harakatlantiradi", o'z hulq-atvorida bu ehtiyojlar qandayifodalangan, mijoz shuhratparastmi, "hokimyat"ga chanqoqmi, o'ziniustun tutadimi, bu inson uzoqni ko'zlab ish tutadimi yoki uning hattiharakatiayni vaqtga bog'liqmi.

Vaziyatni tahlil, tashxis qilish va faoliyat istiqbolini baholash.

Ishning bu qismi mijoz imkoniyati rivojlanishini qay darajada ko'ribchiqa olish haqida xulosa qilishga qaratiladi. Chunkim uning o'tmishiva buguni kasbiy rejaning muvaffaqiyatli amalga oshishiga asosbo'ladi. Rejani amalga oshirishda qanday to'siqlarga uchrashi mumkin, bu to'siqlarni yengib o'tishga qanday imkoniyatlari bor, bu inson o'zmaqsadini amalga oshirishda qanday dadil qadam qo'yadi.

Qobilyatni baholash natijalari borasida xulosa

1. Anketa ma'lumotlari (F.I.O. yoshi).
2. Qobilyatni baholash maqsadi.
3. Suhbat natijalar, mijozdan kutilagan baho (kelajak haqidagi fikri, kasbiy rejasি haqidagi g'oyalari).
4. Ma'lumoti.
5. Ish tajribasi.
6. Kasbiy muhim sifatlarining rivojlanish darajasi tashxisining natijalari.
7. Bilim, malaka va ko'nikma
8. Meta-qobilyat (hamkorlikka qobilyati, moslashuvchanligi, o'qituvchiligi, yetukligi).
9. Ijodiy imkoniyatlari (intelektual va ilmiy salohiyati).
10. Ruiy-fiziologik imkoniyati (ishga qobilyati, tushkunlikka chidamliligi va boshqalar).

11. Mativatsiya-baholash sferasi.
12. Vaziyatni tahlil, tashxis qilish va faoliyat istiqbolini baholash.
13. Kasbiy rejasining mundarijasi.
14. Mijozning kuchlilik sifati.
15. Rivojlanish imkoniyati.
16. Mijozning zaif tomonlari.
17. Kasbiy rejani amalga oshirishdagi to'siq va cheklovlar.
18. Rejani amalga oshirishda mo'ljallanayotgan qadam.

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'zini o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

Ko'plab manbalarda shaxs tomonidan o'z-o'zini baholash quyidagi formula asosida aniqlanishi ko'rsatilgan:

**O'zini tushunish (o'zi
haqida aniq
ma'lumotlarga ega
bo'lish)**

**Shaxs sifatida o'z qadr-
qimmatini anglash (o'zi
to'g'risidagi ijobiy
ma'lumotlarni to'plash)**

Muhim omillar

**O'zini-o'zi nazorat qilish
(o'zi to'g'risidagi shaxsiy
fikrning atrofdagilar
tomonidan unga
berilayotgan bahoga mos
kelishi.**

**O'zini o'zi baholash
(O'O'B) – shaxsning o'z-
o'zini tahlil qilishi
orqali o'ziga baho
berishi.**

3-rasm. O'z-o'zini baholash formulasi:

Formulaga ko'ra, qandaydir yutuqqa erishgach, shaxs tomonidan o'zini o'zi yuqori baholash (yutuqlar hissasini oshirish) yoki o'ziga nisbatan qo'yayotgan talablarni pasaytirish ro'y beradi.

Bizning fikrimizcha, O'O'B da xolislikka erishishda quyidagi formula ham qo'l keladi:

**Ushbu formula bilan ishslashda pedagog quyidagi o'zini-o'zi
baholash modeliga tayanib ish ko'rishi mumkin (2-jadval): O'zini-o'zi baholash
modeli**

№	Мавжуд ютуқлар	Ўз-ўзини ривожлантириш вазифалари
1.		
2.		
3.		
...		

3-jadval. O'zini-o'zi baholash modeli

№ Mavjud yutuqlar O’z-o’zini rivojlantirish vazifalari

- 1.
- 2.
- 3.

Ushbu model asosida o’z-o’zini baholash nihoyatda oson kechadi. Bordiyu, erishilgan yutuqlar soni o’z-o’zini rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko’p (bir-dan katta) bo’lsa, u holda pedagog yuqori darajada kasbiy kompetentlikni namoyon etadi. Bordiyu, yutuqlar va belgilangan o’zini o’zi rivojlantirish vazifalari o’zaro (birga) teng bo’lsa, u holda u o’zida o’rta darajadagi kasbiy kompetenlikni ifodalaydi. Agarda, yutuqlar soni belgilangan O’O’B = yutuqlar / o’z-o’zini rivojlantirish vazifalari (yoki O’O’B = Yu / O’O’RV) O’O’B = yutuqlar / o’zini yuqori baholashga intilish (yoki O’O’B = Yu / O’YuBI) rivojlantirish vazifalaridan kam (1 dan kichik yoki 0 ga teng) bo’lsa, u holda pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi past hisoblanadi va bu holat pedagogdan o’z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga jiddiy e’tibor berishini talab qiladi.

Formulada “o’zini o’zi rivojlantirish vazifalari” jumlesi qo’llanilgan ekan, eng avvalo, o’zini o’zi rivojlantirish nima ekanligini tushunish olish lozim.

Bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o’z-o’zini rivojlantirishida “Individual rivojlanish dasturi” qo’l kelishi aytildi.

Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo’lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi. Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o’zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chиqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo’lga qo’yishi zarur. Individual rivojlanish dasturi (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o’zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur .

O’z-o’zini rivojlantirish – shaxsning o’zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo’lida aniq maqsad va puxta o’ylangan vazifalar

asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi Pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan “Individual rivojlanish dasturi” quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi. Bugungi kunda bo’lajak pedagoglaar interfaol ta’limda faol qo’llaniluvchi bahs-munozaralar, amaliy treninglar, rolli o’yinlar, ishbilarmonlik o’yinlari, debatlar, intervyyu, namoyish, aqliy hujm, “**Bumerang**”, “**Qora quti**”, “**Qarorlar shajarasi**”, “**Olti o’ylantirgich qalpoqcha**” va boshqa bir qancha interfaol metodlar bilan yetarli darajada tanish bo’lishlari maqsadga muvofiqdir. Quyida biz ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishi mumkin bo’lganba’zi bir interfaol metodlar haqida ma’lumot hamda ularni qo’llash tartibi to’g’risida metodik tavsiyalar beramiz..

“SWOT” – metodi.

Biz ushbu metodni bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda o’qituvchi faoliyati ya’ni zamonaviy o’qituvchi qanday bo’lmog’I kerak degan savolga javob topishimiz mumkin.

“**SWOT**” – metodi inglizcha so’z brikmalarining qisqartmasidan hosil bo’lgan. Ushbu metod bir masalaning to’rt qirrasini ko’rib chiqish imkonini beradi.

Qo’llash tartibi: bugungi kunda o’quvchi shaxsini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’limni joriy etishda o’qituvchidan nimalar talab qilinadi, umuman zamonaviy o’qituvchi qanday bo’lishi kerak degan savollarga maktab direktori va o’quvchilar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ya’ni bu metodni amalga oshirishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratiladi.

1. Strength (kuch) –zamonaviy o’qituvchining ustunlik jihatni nimada, uning kuchli tomonlari sanab o’tiladi.

2. Weakne (zaiflik) – zamonaviy o’qituvchining zaiflik tomoni nimada.

3. Opportunities (imkoniyat) – zamonaviy o’qituvchining atrofida qanday imkoniyatlar mavjud.

4. Threat (xavf-xatar) – o’quvchi shaxsini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’limni joriy etishda qanday tashqi omillar xavf tug’dirishi mumkin.

Kuch (strength) bilimdon, o’z ustida tinimsiz ishlaydigan, qiziquvchan, talabchan, yangilikka intiluvchan.

Zaiflik (Weakne) yumshoq tabiatli, jahldor, xotirasi sust.

Imkoniyat (Opportunities) muassasa jamoasi orasida o’z o’rni bor, hamma hurmat qiladi, o’quvchilarning ota-onalari qo’llab quvvatlashi.

Xavf-xatar (threat) muassasaning moddiy-texnik bazasi nochor, muassasa jamoasida nosog’lom muhit, quvvatlaydi o’quvchilarning ta’lim olishdagi harakatining sustligi .

“Maqollar zanjiri” metodi

“Maqollar zanjiri” metodi. O’quvchilarni o’tilgan mavzuni egallaganlk va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirib olganlik darajasini aniqlash, o’z bilimlarini mustaxkamlash va o’z fikrini erkin bayon eta olishga imkoniyat yaratadi.

Qo’llash tartibi: “**Maqollar zanjiri**” quyidagi berilgan maqollar asosida tuzilgan bo’lib, har bir maqoldan keyin ko’rsatilgan raqam maqol tarkibidagi tushuurib qoldirilgan so’z necha harfdan iborat ekanligini bildiradi. Birinchi maqolning oxirgi harfi bilan ikkinchi maqol boshlanadi. **Maqollar Javob**

1. Ishning o’zini bilgunchaini bil Ko’z
2. Libosingga oro bergunchaga zeb ber Farosating
3. mehmon osh ustidan chiqar Rizqli
4. Ro’zg’ori kattaning ham katta tashvishi

“PANNORAMA” metodi.

“PANNORAMA”metodi. Bu metod munozarali masalalarini hal etishda, bahsmunozaralar o’tkazishda yoki o’tilgan mavzuni mustahkamlashda o’tkazilishi mumkin. Chunki, bu metod o’quvchilarni o’z fikrini himoya qilishga, erkin fikirlashga va o’z fikrini boshqalarga uqtirishga, o’zgalar bilan bahs munozara o’tkazishga, shuningdek, dars jarayonida egallagan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada o’zlashtirganin ibaholashga va bahs munozara o’tkazish madaniyatiga o’rgatadi.

Qo’llanish tartibi: bir muammo yuzasidan har bir ishtirokchi o’z fikr mulohazalarini bildiradi. Ya’ni, ishtirokchi muammoning kelib chiqish sabablarini qidiradi, uning

yechimini topadi va o'zining shaxsiy fikrini aytadi. Muammoli masalaning kelib chiqish sabablari muammoning yechimi shaxsan men nima qilardim.

Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini shakllantirish. Ta'limning samaradorligini oshirish vabilimlarni to'la egallahlariga erishish shaxsning diqqat ta'lim markazida bo'lismi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustaxkam egallahdan tashqari zamonaviy pedagogic texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanaa oladigan o'qituvchilar kerak.

Nazorat savollari:

1. Kompetentlikni baholash mezonlari bular?
2. “SWOT” – metodi. Qo'llanilish tartibi?
3. Shaxsning refleksiv faolligi darajasi - bu?
4. “PANNORAMA”metodi qo'llanilish tartibi?
5. “Maqollar zanjiri” metodi qo'llanilish tartibi bilan tanishtiring?

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik

- kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
 5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion tablim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1– AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Zamonaviy texnologiya o'qituvchisining pedagogik kompetentligi.

Mashg'ulot rejasি:

1. Texnologiya o'qituvchisining pedagogik kompetentligini tahlil qilish.
Insoniyat XXI asr—yuksak rivojlangan texnika, axborot texnologiyalar asriga qadam qo`ydi. Bu texnologiyalarni intellektual, xar tomonlama bilimga ega bo`lgan barkamol avlodni samarali boshqara oladi. Shuningdek bu avlod zimmasiga, Koinotda nuqtadek bo`lgan va xayot baxsh etilgan noyob sayyora—Yer, ona zaminimizni ko`z qorachig`idek avaylab asrash, ekologik muvozanatlash, saqlash, uning moddiy—tabiiy resurslaridan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanish, insonni ma‘naviy yuksaltirish kabi global ahamiyatga molik muammolarni hal etishga hissa qo`shish ma‘suliyatini anglash va amalga oshirishdek sharafli vazifa xam yuklatilgan. Bu vazifalarni xis etadigan xar tomonlama yuksak bilimga ega bo`lgan intellektual yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan xisoblanadi.

Hozirgi davr jahon pedagogikasi yoshlarni tarbiyalashda, ularning kasb bo`yicha tor professional bilimlarni egallashlariga chek qo`yishni, uzlusiz ta`lim tizimida, jumladan, umumta`lim fanlaridan keng integrativ bilimlarga ega bo`lishlari zarurligini taqoza qiladi.

«*Har qanday fan bo`yicha malakali o`qituvchini osongina tayyorlash mumkin va u o`quv jarayoni mexanizmining bir detali sifatida istalgancha dasturlanishi va yo`naltirilishi mumkin?!*» Bu tezis o`z-o`zidan o`qituvchining jamiyatdagi mavqeyini juda ham pasaytirib, o`quvchilarning unga bo`lgan hurmat va e`tiborga sezilarli darajada putur yetkazadi. Natija ham darhol ayon bo`ladi – malakali o`qituvchi bo`lishga intilish yo`qolib, bu sohada yetuk mutaxassis bo`lishga layoqatlilar soni keskin kamayadi. Bu esa, o`z navbatida, ta`lim berish sifatini ancha pasaytiradi. Lekin bu tezis hozirgi jadal sur`atda rivojlanayotgan hayotga aslo mos kelmaydi va uni jadal rivojlanish davriga mos boshqa tezis bilan almashtirish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy o`qituvchi o`z o`quvchilarini ta`lim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida qarashlarini tashkil qilishi, ularda mustaqil ishlar ko`nikma va malakalarini rivojlantirishi va albatta ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo`ladi.

Boshlang`ich ta`lim umuta`lim mакtablarining bosh bo`g`ini bo`lgani sabali, ana shu jarayonda o`quvchi shaxsini mukammal rivojlanib borishiga ko`proq e'tibor berish lozim. Bunda boshlang`ich sinf o`qituvchilarining ma'suliyatlari cheksizdir. Ular maktabostonasiga endigina qadam qo`yan bolalarni mакtab hayotiga ko`niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo`l ochib beradilar. O`qituvchilarining asl maqsadi, o`quvchilarining o`quv istagi va shaxsidagi ijodkorlikni shakllantirib, ularni barcha darslarda faol bo`lishlariga jalb qilish, ta`limga bo`lgan qiziqish va mustaqillik tuyg`usini uyg`otishdir. Boshlang`ich sinflarda o`qituvchi ta`lim jarayonida o`quvchilarни faollikka undovchi yangi o`qish metodalarini o`ylab topishga, ilg`or pedagogik texnologiyalarni boshlang`ich ta`lim tizimiga tadbiq etish yo`llarini izlashga harakat qiladi.

Jamiyat rivjlanishinig har bir davrida bo`lganidek mehnat va mehnat ta`limiga munosabat bugungi shiddatkor davrda ham o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Boshlang`ich ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni olib kirishda mehnat ta'limini o`qitishda keng ko`lamda foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Texnologik ta'limi darslari mazmuni o`quvchining qo`l harakat tizimlarini mukammal shakllantirish, ijodiy fikrlash, amaliy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, amaliy san'at na'munalari bilan tanishtirish, kasb-hunarga qiziqish uyg`otish asosiy vazifa sifatida qaralayotganligi sir emas.

Mana shunday vazifalarini amalga oshirish jarayonida o`qituvchi turli xil interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

«Malakali o`qituvchini tayyorlash juda murakkab va qimmat turadigan faoliyat turi bo`lib, u o`quv jarayonining ijodiy, yaratuvchi va yurituvchi kuchidir. Har bir o`qituvchini juda ham qimmatli insoniy zaxira sifatida hisoblab, uning jamiyatdagi mavqeyini imkon darajasida ko`tarish mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga aynan mos keladi».

Shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatib kelingan edi. Bunday usul o`quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish tashabbuskorlikni so`ndirar edi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta`limning samaradorligini ko`tarishga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo`llanilgan mashg`ulotlar o`quvchilar egallayotgan bilimlarni o`zları qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o`zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O`qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o`qituvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagog-olimlarning yillar davomida ta`lim tizimida :*Nega o`qitamiz? Nimani o`qitamiz? Qanday o`qitamiz?* savollari bilan bir qatorda “Qanday qilib samarali o`qitamiz kabi savollarga javob izlaydilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o`quv jarayonini texnologiyalashtirishga, yani o`qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga o`rinib ko`rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday

fikrning tug`ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo`nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e`tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish masalasiga alohida e`tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o`quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o`qituvchini ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo`lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To`rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo`llashga asoslanganligi sababli, ularning qo`llanilishi talablarini amalga oshirishni ta`minlaydi. O`quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi o`qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o`qituvchidan ko`proq mustaqilllikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Pedagog o`qituvchilarining:O`z- o`zini boshqarish ta`limi texnologiyasini ishlab chiqish

O`z-o`zini boshqarishning asosiy ko`nikmalari.	Samarali o`z-o`zini boshqarishning potentsial(salohiyat) cheklovları
1.O`zini boshqarish qobiliyati (vaqtini, ko`nikmalarni, energiyani boshqarish, stressni yengish)	1.O`zini o`zi boshqara olmaslik
2.Zamonaviy voqeliklarga aniq yoki adekvat bo`lgan oqilona shaxsiy qadriyatlar bilan tanishish	2.Noaniq shaxsiy qadriyatlar(mulohazalar va keying harakatlar uchun mustahkam asoslarning yo`qligi, yangiliklarga tayyor emasligi)

3.Aniq shaxsiy maqsadlar (shaxsiy hayotining aniqligi, hayotdagi real maqsadlar)	3.Tanlovlarni amalga oshirishda haqiqiy muqobillarni yetarlicha baholamaslikka olib keladigan noaniq shaxsiy maqsadlar
4.Doimiy shaxsiy o'sish (innovatsiya va omkoniyatlarni qabul qilish)	4.O'z-o'zini rivojlantirishni to'xtatib qo'yish, "o'-o'zidan o'sish" yo'qligi, bu ta'lim hayotining odatiy holda aylanishiga olib keladi
5.Muammolarni hal qilish ko'nikmalari (zamonaviy muammolarni hal qilish strategiyasini ishlab chiqishda malakalarning mavjudligi	5.Ijodkorlikning yo'qligi, ijodiy fikrlashning yetishmasligi
6.Ijodiy, ijodiy qarorlar qabul qilishda ularning qo'llab-quvvatlashi, ishtiroki va ta'sirini ta'minlash uchun boshqalarga ta'sir o'tkazish qobiliyati	6.Talabalarga ta'sir o'tkaza olmaslik(o'zaro aloqa qilish qat'iyatlilikni, moslashuvchanlikni, o'z fikrini ifoda etish va boshqalarni tinglash qobiliyatini talab qiladi.
7.Zamonaviy axborot texnologiyalar asosida ish tutishi	7.Zamonaviy axborot texnologiyalar asosida darsnintasghkil qila olmaslik

4- jadval:O'z- o'zini boshqarish ta'lumi texnologiyasini ishlab chiqish

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(10-56 betlar)

3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (7-69 betlar)

2-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Zamonaviy texnologiya o'qituvchisining metodik kompetentligi va uni takomillashtirish.

Mashg'ulot rejasি:

1. Texnologiya o'qituvchisining metodik kompetentligi va uni takomillashtirishni loyihasini ishlab chiqish.

“Men XXI asr ma’naviyat asri, ma’rifat asri, ilm-fan, madaniyat va axborot asti bo’lishiga qat’iyan aminman”, degaan edi muxtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov. Darhaqiqat, insoniyat XXI asrga qadam qo’ydiva yangi asr o’z navbatida jamiyatimiz oldiga muhim masalalarni hal qilish vazifasini yuklamoqda. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning zamirida yuqori malakali mutaxassislarning ro’li benihoya kattadir. Prezidentimiz aytganlaridek: “Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy bilimga ega bo’lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi”. Shu sababli xalqimizning boy intellectual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar assosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur’atlar bilan hayotga tatbiq etilmoqda. 1997-yil 29avgustda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risidagi” qonunning 1-moddasida fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o’rgatishning huquqiy asoslari belgilab berildi. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishda oliy ta’lim muassasalarida inavatsion texnologiyalarining roli ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta’lim

olish mumkin. Zero, an'anaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keying payitlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. 2012-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi barcha oliy ta'lim muassasalari o'rtasida birinchi videokonfrentsiya ta'lim texnologiyasi amalga oshirildi va hozirgi kunda bu borada elektron ta'limgakata e'tibor qaratilmoqda. Respublika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish- zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini ta'minlovchi kasbiy ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzlusiz ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning inavatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi. Shu asosda bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash bo'yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning texnologik kompetentligini rivojlantitish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy texnik inovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim talablardan hisoblanadi. Mamlakatimizda ma`nan yetuk , ruhan sog`lom, uyg`un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar bazasini yaratishga erishildi.

Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatiga qaralayotgan ta'lim texnologiyalarni ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdan , multimediya resurslaridan oqilona foydalanishdan, buning mevasi bo`lgan o`quvchi bilish qobiliyatini o`stirishdan iborat. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki,o'quvchini mustaqil fikrlashga,dunyoqarashini kengaytirishga , tinglashga va mushohada etishga , intilish va izlanishga,tafakkurni rivojlantirishga,o'z ustida mustaqil ishslashga

o'rgatadi.O'qituvchi va o'quvchi birgalikda faoliyat yuritadi.O'qituvchi boshqaruvchi sifatida o'quvchiga turli yo'nalishlarni ko'rsatadi.O'quvchi dars jarayonida faol harakat qilib,o'zi mustaqil fikr yuritadi.

Bunda ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;

oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv - uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professoro'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib boorish;

oliy ta'limning axborot-resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; mazkur yo'nalishlarda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni inavatsion faoliyatga yo'naltirish uchun avvalo, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innavatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Respublikamizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari yangi ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Pedagoglarga qo'yilayotgan talablar asosida o'z faoliyatlariga yangiliklar kiritib bormoqda. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida fan, texnika va ilg'or tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanimoqda. Bu jarayon o'qituvchilarda yanada ma'suliyat xissini oshirmoqda. Pedagogik texnologiyaningeng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga aniq ketma-ketlik asosida tizimli, hamkorlikda erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog'liq. Pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilari – loyihalashtirish, amalga oshirish va kafolatli natija. Interfaol usullarning asosiy maqsadi-o'quvchilarni faol harakatga undash, darsga jalb etish, hamkorlikda ishlashga o'rgatishdan iborat. Bunday usulublarga: "Zinama-zina", "Charxpalak", "Bumerang", "Muammo",

“Rezyume”, “FSMU”, “Yelpig’ich”, “Yozma baxslar”, “Venn diagrammasi”, “Tushunchalar tahlili”, “Muloqot”, “Uchga to’rt”, “Blitsso’rov” va shu kabi qator uslublar mavjud. Hozirgi paytda o’quv materiallari, axborotni ekranda ko’rsatish imkonи vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o’quv jarayonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarini o’quv jarayoniga tatbiq etilishi, iqtisodiy samara berish bilan birga ta’limda yangicha o’quv metodlarini keng ravishda qo’llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, videomagnitafon bilan ta’minlangan auditoriyalarda dars o’tish brogan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa o’quv jarayoniga kompyutering kirib kelishi bcha didaktik funktsiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo’llash imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. U:

- o’quvchi talabalarga o’rganayotgan mavzusi, hodisa, jarayon, faoliyat bo’yicha to’liq, ishonchli axborot berish;
- o’quv jarayonida ko’rgazmalilikning rolini oshirish;
- talaba, o’quvchilarni xohish, talab, extiyojlarini, qiziqishlarini qondirish;
- o’qituvchining o’quvchi, talabalarning bilimini, ko’nikmalarini sinash bilan bog’liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o’rnatish;
- talaba-o’quvchilarni o’zlashtirishi bo’yicha ob’ektiv xisobot, to’la va uzuksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishda pedagogning ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol usullarni o’zlashtirish, texnik, texnologik vositalarni amaliy joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko’nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko’nikma hamda malakalar darajasini baxolash o’ituvchidan yuksak pedagogic mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonidagi inovatsiyalar, ilg’or pedagogic texnologiyalar, yangiliklar, dars o’tishning interfaol usullari o’z o’zida

yuqoridan buyruq, ko'rsatma bilan ta'lif jarayoniga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivaysiyasiga bog'liq bo'lgan jarayondir. Zamonaviy infarmatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayonida asosiy o'quvchining berilgan murakkab o'quv axborotlaridan osonlik bilan foydalana olishga yordam berish, o'quvchilarni mustaqil ta'lif olish faoliyatiga imkoniyat yaratish vazifalarini bajaradi. Shularni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lif tizimida o'quv jarayoni va unda o'qituvchining ish faoliyatini rejalashtirishga doir ilmiy ishlarni keng doirada olib boorish kerak deb hisoblaymiz va bu o'z samarashini ko'rsatadi. Bugungi zamonaviy ta'lif tizimi pedagogdan o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro individual munosabat va zamonaviy axborat texnologiyalari imkoniyatlari ta'sirini faollashtirishni talab etmoqda. Ta'lif jarayonida zamonaviy infarmatsion va telakommunikatsion texnologiyalarni faol qo'llash o'quv jarayonida o'qituvchining o'rni, ro'li va pedagogik faoliyatini ma'lum darajada o'zgartirishga olib keladi. Hozirgi vaqtda asosiy e'tibor zamonaviy infarmatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayoni modelini yaratish va multimedya texnoloogiyalariga asoslangan elektron darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'lifi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(10-56 betlar)
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'lifi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (7-69 betlar)

3- AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Texnologiya o'qituvchisining texnologik kompetentligi va madaniyati.

Mashg'ulot rejasi:

1. Texnologiya o'qituvchisining texnologik kompetentligi va madaniyatini loyihalash.

Madaniyat-bu murakkab hodisa, uning yangi va yangi talqin va ta'riflar bilan tasdiqlash mumkin. Ammo uchta yondashuv eng keng tarqalgan hisoblanadi.

- texnologik yondashuv (madaniyat butun jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini rivojlantirishdagi barcha yutuqlarning yig`indisi sifatida);
- faoliyatga asoslangan yondashuv (madaniyat jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti sohasida amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat sifatida);
- qiymat yondashuvi (madaniyat odamlar ishlarida va munosabatlarida umuminsoniy qadriyatlarni amaliy tatbiq etish sifatida .

Texnologik madaniyat o`qituvchi va o`quvchilarining xatti - harakatlaridan iborat . Bunday faoliyat natijasida o`quvchilar bilim iqtidor va ko`nikmalarga ega bo`ladilar , o`z dunyoqarashini shaxsiy qadriyatlар tizimini shakllantiradi. Tahsil natijasida o`quvchi shaxsining turli xislathari shakllantiriladi. Bunday o`zgarishlarni kuzatish , hisobga olish pedagogik tadqiqotlarning asoslaridan hisoblanadi. Yuqorida o`zgarishlar , o`qituvchining didaktik faoliyati ta`siridagi va o`z shaxsiy xatti -harakatlari tasiridagi o`zgarishlar orasidagi qonuniyatlarini ochishga , ularni tahlil qilishga imkon beradi. O`quvchilar va o`qituvchilarining o`quv ishlari sharoitlari, harakatlari, ta`lim mazmuni, metod va vositalari orasidagi bog`liqliklar tabiat qonunlari qanday obyektiv xarakterga ega bo`lsa shunday

obyektiv xarakterga egadir. Ta'lim va tarbiyaga taaluqli xatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usul hisoblanishi Yan Amos Konenskiyniyning “Buyuk didaktika” va K.D.Ushinskiyning “Inson tarbiya fani sifatida” asarlarida ko`rish mumkin. O`quv tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba faktlarga asoslangan empiric tadqiqoqlar natijalariga asoslanishi zarur.

Kasbiy pedagogik madaniyat - bu pedagogik kasbga ega bo`lgan, uning umumiyligi madaniyatini loyihalashtiradigan o`qituvchi shaxsining ajralmas sifati. Bu ustozning yuqori professionalligi va ichki xususiyatlarining sintezi, o`qitish usullarining mohirligi va madaniy va ijodiy qobiliyatlarning mavjudligi. Bu insoniyat tomonidan to`plangan tajribani ijodiy o`zlashtirish va o`zgartirishning o`lchovidir. Pedagogik madaniyatga ega, pedagogik tafakkur va ong yaxshi rivojlangan, ijodiy salohiyatga ega bo`lgan o`qituvchi.

1. Madaniyat *pedagogik fikrlash*- ham pedagogik, ham ijtimoiy voqelikni chuqr nazariy tushunishga asoslangan. Bu pedagogik jarayonni rivojlantirish tamoyillari, kasbiy faoliyat natijalarini oldindan bilishdir. Pedagogik fikrlashning xususiyatlari: moslashuvchanlik, muqobililik, ijodkorlik.
2. Madaniyat *pedagogik ish* kasbiy mahorat va ko`nikmalarni yuqori darajada egallashni, ijodiy bo`lish qobiliyatini nazarda tutadi.
3. Madaniyat *o`qituvchining ijodi*- nazariy bilimlar va amaliy ko`nikmalarning butun to`plamidan foydalanishni, tashqi tanish vaziyatda yangi muammoni va uni hal qilish yo'llarini izlashni, yangi pedagogik muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlashni o`z ichiga oladi.
4. Madaniyat *pedagogik aloqa*- o`qituvchining atrofdagilar bilan munosabatlari me`yorlarini mazmunli rivojlantirish. Ushbu me`yorlarga amal qilgan holda, o`qituvchi his-tuyg'ularini, irodasini, xarakterning shaxsiy namoyonliklarini va boshqalarni tuzatadi.
5. Madaniyat *nutqlar* aloqa madaniyati bilan bog'liq.

Pedagogik faoliyat - bu ijodiy jarayon, chunki har bir o`qituvchi o`ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun pedagogik ish madaniyati soʻf individualdir.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar).

4-AMALIY MASHG’ULOT.

Mavzu: Texnologiya o’qituvchisining umumkasbiy kompetentligini rivojlantirish.

Mashg’ulot rejasi:

1. Texnologiya o'qituvchisining umumkasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish.

Ma'lumki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatda erkin va mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi zaruriy omillardan biri bu ulardag'i kasbiy-pedagogik kompetentlikning shakllanganligi bilan asoslanadi. Bunda pedagogik kompetentlikning o'ziga xos tuzilmasi, shakllanish bosqichlari va bu jarayonda o'qitishning zamonaviy shakl va metodlardan foydalanishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, loyiha ishi mavzusini aynan shu yo'nalishda tanlashga qaror qildik. Pedagoglik kasbi sharaflı bo'lishi bilan birgalikda juda murakkab kasbdir, chunki millatning, davlatning kuch-qudrati, ertangi umidi bo'ladigan yoshlarni aynan mana shu pedagoglar ta'lim berib tarbiyalaydilar. Pedagoglik kasbi bir paytning o'zida ham islohotchilik, ham boshqaruvchilik kasbi hiaoblanadi. Shaxs kamolotini boshqarish uchun esa qobiliyat ,layoqat, bir so'z bilan aytganda kompetent bo'lishi lozim. Shuning uchun o'qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalgam oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning 5-moddasida "yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" ekanligi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi tarkibi pedagogik ko'nikma va malakalar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlik modeli umumiyyidan xususiy ko'nikmalar yo'nalishida belgilanishi maqsadga muvofiq. Ma'lumotlar va voqelikni nazariy tahlil qila olish ko'nikmasi bilan uzviy bog'liqlikda pedagogik fikrlash va amaliyot yurita olish ko'nikmasi umumiyligi ko'nikmalar sirasiga kiradi. Kompetentlik mana shu ko'nikma va malakalar orqali shakllantirib boriladi. Umuman olganda o'qituvchining kasbiy xususiyatlari talablarga mosligi pedagogic ko'nikmalarning pedagogik fikrlash va amaliyot yuritish bilan bog'liq jihatlrning mosligini anglatadi. Egallangan bilim, ko'nikma va tajribalar o'qituvchining yuksak mahoratini belgilab beruvchi mezonlar hisoblanadi. Mavjud pedagogik pedagogik imkoniyatlardan foydalangan holda o'qituvchining kasbiy

kompetentligini shakllantirish juda muhimdir. Chunki davr talabi shuni taqozo etmoqda.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.


Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi:


- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo’la olishda

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o’z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o’zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o’z amaliy faoliyatida samarali qo’llaydi.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:





2-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko’rsatish ko’nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo’lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko’zga tashlanadi. Ular o’zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog’lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o’z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to’g’ri belgilash, metod va vositalarni

maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtiokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiyl muloqotda bo'lism, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

7) Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

8) Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

9) Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Pedagogimlarning ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtainazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o'rganib chiqilgan.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.

2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar).

5-AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Texnologiya o'qituvchisining konstruktiv kompetentligini rivojlantirish.

Mashg'ulot rejasi:

1. Texnologiya o'qituvchisining konstruktiv kompetentligini rivojlantirish bosqichlarini aniqlash.

Zamonaviy ijodkor o'qituvchi pedagogik faoliyatning reproduktiv (esda qolgan narsani tasvirlamoq) usuli va ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o'zligini, balki hayotiy maqsadlarini ham ro'yobga chiqaradi. U o'zini sifat jihatidan o'zgartiradi, psixologik to'siqlarni engadi, kasbiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirish

imkoniyatlarini qidiradi, o‘z pedagogik konsep-siyasini ishlab chiqadi. Umuman olganda, o‘qituvchining pedagogik faoliyati uchun, birinchidan, innovatsion yo‘naltirilganlik, ikkinchidan, o‘z ishiga ijodkorona yondoshuv, individuallik kabi xususiyatlari juda muhimdir. Ijodkor o‘qituvchi o‘z-o‘zini takomillashtirmay turib, individuallikni rivojlantirmay, kasbiy kompetentligini shakllantirmsdan kasbiy faoliyatda yuqori mavqega erishish mumkin emasligini to‘g‘ri anglab etadi. SHu sababli ham kasbiy zarurat bo‘lgan sifatlarni hayotiy maqsad sifatida rivojlantirmay turib, yangi texnologiyalarni egallashi mumkin emas. Aynan ushbu ikki yo‘nalishni pedagogning ijodiy individualligining ko‘rsatkichi sifatida qabul qilish mumkin. O‘qituvchining pedagogik uslubi - bu shaxs tomonidan o‘z individual-ligini kasbiy faoliyat shart-sharoitlarini uyg‘unlashtirish tizimi, shaxs ijodkorligining manbai va ijodiy faoliyat natijasi ko‘rinishida o‘zligini namoyon qilish vositasidir.

O‘qituvchining individualligida psixologik hamda shaxsiy jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning pedagogik faoliyati umumiylar va kasbiy qobiliyatlarining, shuningdek, kasbiy motiva-siyaning namoyon bo‘lish darajasi bilan belgilanadi. Etarli darajada rivojlangan qobiliyatlar, maqsadlar, ehtiyojlar doirasi qanchalik keng bo‘lsa, o‘qituvchining kasbiy mahorat darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatida rivojlanishni ta’minlovchi asosiy ziddiyat inson qobiliyatları hamda pedagogik faoliyat talablari o‘rtasidagi tafovut bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonda yuzaga keluvchi ziddiyatlarni har bir o‘qituvchi o‘z imkoniyatlari va qobiliyatları darajasida hal qiladi. Bu faoliyat o‘qituvchining individual uslubini belgilab beradi.

O‘qituvchida o‘z-o‘zini boshqarish, qat’iylik, jur’atlilik, jasurlik, atrofdagi insonlarga hurmat va e’tibor, kamchilik-larini his qilgan holda o‘z imkoniyatlariga ishonch, faoliyatini baholashda haqqoniylig, kuchli iroda, o‘z kuch-quvvatini maqsadli yo‘naltira olish, faoliyat va belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo‘lida imkoniyatlarini jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda faoliyatini to‘g‘ri boshqarib borish, aqliy faollik va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch hamda ijtimoiy olam bilan o‘z imkoniyatlarini

qiyoslay olish sifatlariga ega bo‘lsagina yuksak kasbiy mahorat darajasiga erisha olishi mumkinligi aniqlangan.

Shakldan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligining shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatar ekan, bular:

- 1) **motivatsion omil** – o‘quv hamda kasbiy harakatlarni eski qarashlardan holi bo‘lgan holda amalga oshirishga intilish, ijodiy qiyinchiliklarga tayyor bo‘lish hamda bu boradagi yutuqlarga, ijodiy jarayonlarga intilish, topilgan echimlardan qoniqish hosil qilish. Bunda etakchi motivlar – o‘zining yangi echimlarini topishga qiziqish, ijodiy faoliyatini tashkil etishga intilishdir, ya’ni o‘qituvchilarda ijodkorlik hamda yangilikka intilish motivlari shakllantiriladi;
- 2) **intellektual omil** – muammoli ta’lim ko‘nikmalarini egallaganligi (muammoni ko‘ra bilish, uni shakllantirish, muammoni hal etish yo‘llarini topish va hokazolar), fikrlashning kreativligi (nostandard echimlar qabul qiluvchi shaxsning botiniy qobiliyati), moslashuvchanligi hamda tizimliligi, ijodiy tasavvur, modellashtirish, loyihalash, bashorat qilishga, yangi g‘oyalarni topishga moyillik. Fan nuqtai nazaridan yuzaga keladigan muammolarni to‘g‘ri hal qilishda o‘qituvchiga berilgan bilimlardan ijodiy tasavvur qilish hamda yangi g‘oyalarni topishga intilish seziladi;
- 3) **irodaviy omil** – izlanish davomida, modellashtirish hamda o‘quv va kasbiy vazifalarni hal qilish uchun o‘z faoliyat yo‘lini yaratishda iroda sifatlarini namoyish qilish. Fanlarda berilgan individual topshiriqlarni bajarishda o‘qituvchining irodaviy sifatlari va izlanish faoliyatları shakllanadi;
- 4) **hissiy omil** – izlanuvchanlik, kashfiyot va ixtirolarni amalga oshirishga xos hissiyotlarning namoyon bo‘lishi, o‘quv hamda kasbiy faoliyatda kreativ echimlarni topish yo‘lida ziyrak bo‘lish. Bunda o‘qituvchidagi emotsional omil shakllanadi;
- 5) **amaliy-predmetli omil** – atrofdagilarga g‘ayrioddiy bo‘lgan xulq egasi bo‘lish (yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish topa olish, noan’anaviy echimlar izlash, fikrlash, harakat va amallarning atrofdagilar uchun kutilmagan yo‘nalishda o‘zgarishi). Bunda o‘qituvchidagi individuallik namoyon bo‘ladi;

6) **o‘z-o‘zini boshqarish omili** – ijodiy jarayonda refleksiya qila olish qobiliyati, o‘z fikrlarini zarur yo‘nalishda boshqara olish, yangi echimlar, g‘oyalar topish imkonini beruvchi manbalarga intilish, o‘z ijodiy faolligini ta’minlash uchun mustaqil ravishda sharoit yarata olish. O‘qituvchining ijodkorligini, yangi echimlar va g‘oyalar topa olishda mustaqil ishlay olishini ko‘rsatadi.

Kelajakda o‘qituvchilik kasbi bilan shug‘ullanuvchi o‘qituvchilarda psixologik-pedagogik komponentlardan biri, bu «esda saqlash» shaxsiy sifatining ma’lum darajada yuqori bo‘lishi taqozo qilinadi. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan ishlar tuzilishiga ko‘ra bir nechta bilimlarning integratsiyasi, o‘zaro aloqadorligi va undan foydalanish metodikasini o‘z ichiga oladi. Professor T.R.Tolaganov o‘z tadqiqotlarida, – «O‘qituvchi har doim o‘quv materialini nazariy va amaliy o‘zaro bog‘liq bo‘lgan dialogida qatnashadi, chunki o‘quv materialiga muvofiq xulosa chiqarishi uchun u o‘zining bilimlar blokiga tez-tez murojaat qilib turadi», - deb ta’kidlagan .

Har bir o‘qituvchi imkoniyatiga, asosan bilimga bo‘lgan intilishiga ko‘ra o‘zining axborot maydoniga ega bo‘ladi. Bu bilimlar tuzilmasiga ko‘ra, texnik va texnologik mazmundagi, psixologik-pedagogik, falsafiy, fizik-matematik hamda boshqa ko‘rinishdagi bilimlar to‘plami bo‘lib, o‘qituvchi qaysi yo‘nalishga mos bilimlar kerakligiga tayangan holda, shu mazmundagi bilimlarni axborot maydonidan ajratadi. Bu bilimlarni chuqurlashtirib talab qilingan maqsadda foydalanishga harakat qiladi. Shu sababli har bir o‘qituvchi uchun o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlar mazmuniga nisbatan uni o‘zlashtirish darjasи kasbiy xarakterga egadir. Boshlang‘ich holatda bilimlar ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligida.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.

2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

6-AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Texnologiya o'qituvchisining maxsus kompetentligini rivojlantirish.

Mashg'ulot rejasি:

1. Texnologiya o'qituvchisining maxsus kompetentligini tizimli tahlil qilish.


Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis.

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi .

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona halqilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi: (3-rasm)da;



3-rasm. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

O‘zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘ranilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi.

- Ijtimoiy kompetentlik.
- Shaxsiy kompetentlik.
- Texnologik kompetentlik.
- Maxsus (yoki kasbiy)kompetentlik.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar).

7- AMALIY MASHG’ULOT

Mavzu: Zamonaviy o’qituvchining loyihalash kompetentligini takomillashtirish yo’llari.

Mashg'ulot rejasi:

1. Zamonaviy o'qituvchining loyihalash kompetentligini takomillashtirish yo'llari aniqlash.

O'qituvchilarning xususiy fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqr o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir.

Pedagogik jarayonni loyihalashda:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindin ko'ra bilih;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Bu bosqichida o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'rinn tutadi. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, albatta, uni qanday metod asosida o'tkazish haqida bosh qotiradi. Yuzaki qaraganda, har bir mavzuni xohlagan metodni qo'llab o'tkazaversa bo'ladi, lekin amalda buning iloji yo'q. Bunga qator ob"yektiv va subyektiv sababiar, mavjud sharoit salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologiya, pedagogika bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlarda dars o'tish metodini tanlashga ta'sir qiluvchi juda ko'p omillar ko'rsatiladi.

«Metodika prepodavaniya ekonomiceskix distsiplin» kitobi mualliflarining fikricha ta'lim metodini tanlash yoki aniqfashning oltita umumiy shart-sharoitlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Bular:

1. O'qitishning qonuniyatlari va tamoyillari.

2. Fanning mazmuni va o'rganish metodi, jumladan, uning predmeti va mavzulari.
3. O'qitishning maqsadi va vazifalari.
4. Talabalarning o'quv imkoniyatlari (yoshi, tayyorgarlik darajasi, guruhning xususiyatlari).
5. Tashqi sliaroitlar (geografik, ishlab chiqarish, atrof-muhit).
6. O'qituvchilarning imkoniyatlari.

Turli-tuman omillarning dars o'tish metodini tanlashdagi o'rinalini ierarxik tarzda joylashtiradigan bo'lsak. ko'pchilik psixologlar va pedagog olimlaming fikricha. birinchi o'rinda ta'larning maqsadi turadi. Aynan dars o'tish maqsadida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi, erishishimiz zarur bo'lgan natija belgilanadi. Ikkinci o'rinda ta'larning motivatsiya darajasi turadi. Motivatsiya – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi asosida individual va guruhiy ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u. Insonni o'qishga o'rganishga ham ana shu tuyg'u undaydi. Subyektiv nuqtayi nazardan esa motivatsiya birinchi o'rinda turadi. O'qituvchi dars o'tish metodini tanlar ekan, albatta, o'quvchi, talabalardagi motivatsiya darajasiga e'tibor berish kerak. Dars o'tish metodini tanlaganda ta'lim qonuniyatlari va prinsiplarini realizatsiya qilishni nazardan qochirmaslik kerak (qonuniyat – ob'yektiv amal qiluvchi hodisalarining muhim aloqadorligi, bog'lanishlari va ularning qonunlari, qonuniy asosda tabiiy ravishda o'z-o'zidan kelib chiquvchi muqarrar ish, hodisa va boshqa shu kabilar). Har bir fanni o'rganishda dars o'tish metodlari ta'lim qonuniyatlaridan, didaktik prinsiplardan kelib chiqqan holda tanlanadi. XV-XVI asrlarda mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat o'qitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asosi sifatida qaraganlar.

Ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar quyidagilarda ifodalanadi:

- ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotini aks ettiradi;
- ta'lim va tarbiya jarayoni hamda o'quvchi;
- talabalar tafakkurini rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'langan;
- o'qitish va o'rganish jarayonlari yaxlit ta'lim jarayoni, muayyan ta'lim mazmuni bilan bir-birini taqozo etadi va ikki tomonlama qonuniy aloqani tashkil etadi;

- o'quvchi, talabani biron-bir faoliyatga o'rgatish uni shu faoliyatga maqsadga muvofiq jalb etish orqali amalga oshiriladi;
- o'qitish maqsadi va o'quv yurti ta'lif mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlik;
- o'quv jarayoni o'quvchi - talaba maqsadining o'qituvchi maqsadiga muvofiq bo'lishi tufayli amalga oshadi. Bunda o'qituvchi faoliyati o'zlashtirishi lozim bo'lgan mazmuniga mos bo'lishi shart;
- ta'lif mazmunini o'zlashtirish sur'ati va puxtaligi, o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'quv faoliyatiga, o'quvchi, talabalarni bilishga bo'lgan qiziqishini ta'minlash;
- ularning har tomonlama rivojlanishi, kamol topishi uchun o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv jarayoniga qay darajada jalb qilinishi;
- o'zlashtirilgan o'quv materiali mazmunining puxtaligini ta'minlashda mavzuni to'liq yoki qisman takrorlash.

O'quv jarayonida talabalar bilim qonuniyatlaridan qanday foydalanishlari didaktik prinsiplarga amal qilish bilan bog'liqdir. Albatta, dars o'tish metodlarini tanlayotganimizda fanni o'rganishga qo'yilgan talablar va fanning mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Bir fanni o'zlashtirishda yaxshi natija bergen metod boshqa fanga talabalarni chuqur o'zlashtirishlari uchun yaxshi yordam bermasligi mumkin. Shuning uchun ham dars o'tish metodlarini tanlaganda, albatta, fanning xususiyatlariga alohida diqqat qaratish lozim. Fanni o'rganishda o'quv materialining murakkabligi va miqdori ham muhim rol o'ynaydi. Demak – dars o'tish metodini tanlashda fanning bu jihatlarini ham hisobga olish lozim.

Loyihalash (lot. rrojectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Loyihalash pedagogning kasbiy faoliyati turi sifatida ishlab chiqilgan muayyan o'qitish texnologiyasini, o'quv jarayoni doirasida joriy etiladigan pedagogik tizimni

didaktik ifodalashni anglatadi. O‘qituvchining konstruktiv faoliyati o‘quv materialini saralash, ishlab chiqish, ya’ni yaratilgan loyihani amaliyotda qo‘llash uchun moddiy asos yaratish bilan bog‘liqdir.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

8-AMALIY MASHG’ULOT.

Mavzu: Zamonaviy texnologiya o‘qituvchisining tashkilotchilik va boshqarish kompetentligi va uni rivojlantirish.

Mashg'ulot rejasi:

1. Texnologiya o'qituvchisining tashkilotchilik va boshqarish kompetentligi va uni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish.

Zamonaviy o'qituvchi – bu avvalo mohir ustoz. U kasbining asosiy vazifasi bilan kurashadi. Bu boshqalarga ta'lism berish uchun berilgan odam. Yaxshi o'qituvchi bolalarga ajoyib sifat –dunyoni o'rghanish va rivojlanish qobiliyatini beradi . U ma'lumotni idrok etish, qayta ishslash va qo'llashga o'rgatadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish , yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida shunday degan edilar ; "Men muallimlarning jamiyatimizdagи obro'sini oshirish haqida ko'p o'ylayman. Chunki o'zim ko'p yillar oliygohda domla bo'lib ishlaganim uchun bu sohaning qanchalik qiyin va mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman"deb ta'kidlagan edilar. Odamlar doimo o'qituvchiga alohida munosabatda bo'lib, "Ustoz" deya nisbat berib kelishgan. Xalq og'zaki ijodida esa "Ustoz –otangdek ulug'" kabi jumlalar ustozlar sha'nini ulug'lab ,ularga bo'lgan hurmatni oshirib kelgan.

Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan bir qator talablar haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo ustoz o'zining shaxsiy xulq- atvori, hayotga munosabati bilan ma'naviy hayotning namunasini ko'rsatishi , talabalarni insoniy fazilatlar , haqiqat va ezgulikning yuksak ideallari asosida tarbuylashga majburdir. Bugungi kun o'qituvchisiga quyiladigan muhim talab – bu talabalar bilan ishslash bolalarga bo'lgan muhabbat va ualrga bilan muloqot qilishdan zavqlanishni namoyon qila oladigan shaxs sifatidagi pedagogic qobiliyatlarning mavjudligi.

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy fazilatlari sifatida – mehantsevarlik samaradorlik, intizom, ma'suliyat, maqsadni qo'yish qobiliyati, unga erishish yo'llari bilan bir qatorda qa'tiyatlilik , kasbiy darajani muntazam va tizimli ravishda yaxshilash istagida bo'lishi talab etiladi .

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lism jarayonini samarali tashkil etish, uning izchilligi va uzlusizligini ta'minlashga erishish masalalari yetuk mutafakkirlar hamda ilg'or pedagoglarning diqqat-e'tiborlarini jalb etib kelgan. Yosh

avlod ta’lim tarbiyasini tashkil etishning ushbu jihatlari o’z davrida Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Yan Amos Komenskiy, Dmitriy Konstantinovich Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy, Abduqodir Shakuriy va boshqalar tomonidan o’rganilgan. Axborotlar almashinuvining globallashuvi, shuningdek, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida ro’y berayotgan ilmiy yangiliklarning son va sifat jihatidan keskin o’sib borishi o’z-o’zidan o’quvchilarga ular borasida tezkor sur’atda va bataysil ma’lumotlar berishni kun tartibiga qo’ymoqda. Ushbu talabning ijobiy ravishda qondirilishi, eng avvalo, ilmiy-nazariy hamda amaliy bilimlarni o’zlashtirishning qulay, maqbul shakli bo’lgan ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o’quv manbalari (o’quv dasturi, rejasi, darslik, qo’llanmalar) saviyasi, shuningdek, pedagogning bilim darajasi va pedagogik mahoratiga bevosita bog’liqdir. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llashda o’quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda qo’llanmalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o’quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy xususiyatlariga ko’ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg’ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shartsharoitlarning mavjudligi, o’qituvchi hamda o’quvchilar o’rtasida ijobiy, samimiynun munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo’llashning yana bir omili - bu muayyan, yaxlit ta’limiy jarayonni oldindan loyihalash, o’quvchilar tomonidan o’zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko’nikma va malakalar darajasini tashhislash hamda ta’lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir. Ayni vaqtda pedagogik yo’nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, xalq ta’limi muassasalari va oliy o’quv yurtlari oldida o’quv jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha turdagи o’quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat’iy nazar tashkil etiladigan ta’lim jarayoni uchun birdek xizmat qiluvchi andozani yaratish maqsadga muvofiqdir.

Keys-stadi texnologiyasi “Case” so‘zi, lotincha “casus”- “voqeа, hodisa” so‘zidan kelib chiqqandir. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqeа yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi. Umuman olganda, keys – stadi (aniq bir holat yoki vaziyat), muayyan

jarayonida sodir bo‘ladigan haqiqiy voqelikni so‘zlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, bu ifoda ta’lim sohasida, hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qo‘llaniladi. Keys-stadi hodisa yoki vaziyatni oddiy tafsilotidan farqli o‘laroq, u o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun ko‘maklashuvchi axborotni o‘z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning echim yo‘llarini izlash orqali erishiladi. Keys-stadi, muayyan o‘quv maqsadli bilim olish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqsadlar keng ko‘lamli bo‘lib, axborotlar, ma’lumotlar yoki tafsilotlar bilan ta’milanishini nazarda tutadi, ular muayyan qarashlar yoki usullarni namoyish etishda qo‘llanilishi mumkin. “Keys-stadi” atamasini o‘qitish va tadqiq etish yo‘nalishlarida qo‘llashda turlicha yondashish zarurligini alohida qayd etish lozim. Keys usul birinchi marta Garvard biznes-maktabida bo‘lg‘usi advokatlarni amaliy malakalarga o‘rgatishda ishlatila boshlangan edi. Vaziyatlar mazmuni va tafsilotini ifodalashning turli xil ko‘rinishlari mavjud. Keys-stadi bor-yo‘g‘i bir necha iboralardan tortib, yuzlab varaqlardagi hajmgacha ega bo‘lishi mumkin. Yirik hajmdagi keys-stadiga duch bo‘lgan tahsil oluvchilar, odatda keys-stadining tafsiloti qanchalik yirik bo‘lsa ular shunchalik murakkab deb hisoblaydilar. Bu noto‘g‘ri xulosadir – chunki ko‘pchilik qisqa keyslar chigalroq bo‘ladi. Keysni tuzishda muayyan vaziyatni ifodalash uchun uning yozma shaklidan foydalanish shart emas. Vaziyatlarni ifodalash uchun fotografiya, videofilmlar, audioyozuvlар yoki slaydlardan foydalanish mumkin. Barcha ushbu vositalar tahsil oluvchilarga vaziyatni haqiqatga yaqinroq gavdalantirishga yordam beradi. SHu bilan birga yozma shakldagi axborot masalan fotografiya shaklidagi axborotdan ko‘ra qayta ishlash va tahlil etish uchun qulayroqdir. Bu hollarda fotografiyalarni yozma shakldagi axborot bilan to‘ldirish zarur. YOzma keyslarni o‘rganish tajribasi bo‘lgan tahsil oluvchilarni o‘qitishda multivositalar axborotlaridan foydalanilgan keyslarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Keys-stadi (muayyan vaziyatlar) individiumlar, sheriklar, guruhlarda, korxonalarda, hattoki butun bir mamlakat miqyosida o‘zining ta’lim xususiyatiga ko‘ra nazarga keluvchi muammolarni ifodalashi mumkin. Keyslar ta’limning turli sohalarida: biznes, boshqaruv, tibbiyot, arxitektura, qurilish, hamda nostandard muammolar majmuasi echimini qabul qilish malakasini talab etadigan barcha fanlarda qo‘llanilishi mumkin. “Keys-stadi” yordamida o‘qitishda muammolar aniqlanadi, echimlar topiladi, tavsiyalar ishlab chiqiladi. Sifatli keys-stadilar, ularni KASBIY TA’LIM METODIKASI 351 tayyorlash, rasmiylashtirish va tekshirish uchun ko‘p vaqt talab etadi. SHu bilan birga to‘g‘ri tuzilgan va o‘quv faniga kiritilgan keys-stadi, fanni o‘zlashtirishda ko‘zlangan natijalarga erishishga imkoniyat beradi. “KEYS №-1” (Matnli keys) Sobir o‘rta maktabning 9-sinfini tamomladi. SHahodatnomasida “uch” baholar ko‘p bo‘lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, Sobir hech bir kasb-hunar kollejiga qabul qilinmadи. Har bir kollejning rahbari Sobirni boshqa akademik litsey va kasbhunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. Biroq, Sobirning ota-onasi har gal o‘g‘illarini o‘zлari yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta’lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi. Savollar: 1. Ayting-chi, kasb-hunar kollejlarining rahbarlari Sobirni o‘qishga qabul qilmaslikka haqlimilar? 2. Sobirning ota-onalari-chi? 3. Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti? Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Talabalar uchun ko‘rsatmalar: 1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling. 2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang. 3. Aniqlangan omillar orasidan

muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating. 4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring. 5. Echimni bayon eting. Keysni echish jarayoni: 1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi. 2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi. 3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

KASBIY TA’LIM METODIKASI 352

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi. 5. Echim individual, kichik guruhlari yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi. “KEYS №-2” Yangi guruhda dars boshladingiz. Birinchi darsdanoq 3-qatorda o‘tirgan talaba luqma tashlab o‘rtoqlarini kuldira boshladi. Siz unga tanbeh berasiz. U uzr so‘raydi, lekin birozdan so‘ng yana boshqa xarakatlar bilan o‘rtoqlari e’tiborini tortadi. Uning qiliqlari shaxsan sizga qaratilmagan bo‘lsada, darsning borishiga salbiy ta’sir qiladi. Sabr kosangiz to‘lib talabani darsdan chiqarib yubordingiz. U indamay chiqib ketdi. Keyingi xافتадаги дарсингизда худди шундай холат ўз берди. Сиз рахбариётга талаба устидан шикоят ўзасиз ва худди шу кун газеталаринг бирда “Талабаси устидан шикоят qilgan o‘qituvchi o‘z kasbining ustasi emas” degan fikrni o‘qib qolasiz. Bu fikr sizni o‘ylantiradi. O‘zingiz chora izlashga xarakat qilasiz. Talabangiz xaqida surishtirasiz. U oilasining yolg‘iz arzandas ekanligi, bunday qiliqlari bilan aynan sizning darsingizga xalaqit berish niyatida emas. Uning tabiat shunday, doimo ota-onasining e’tibor markazida bo‘lgan bu arzanda, kursdoshlarining ham e’tiborini qozonish niyatida shunday qilmoqda. Bunday xolatni bartarf etish uchun siz qanday tadbir qo‘llaysiz...? 1-topshiriq. Matnni yaxshilab o‘qib asosiy tushunchalarini ajratib oling. 2-topshiriq. Strategik reja tuzish. 3-topshiriq. Muammoning kelib chiqish sabablari. 4-topshiriq. Muammoga echim topish.

“KEYS №-3”

Keys bayoni. Ta’lim innovatsiyalaridan samarali foydalanishda pedagoglarning kasbiy mahorati, kompetentligi, iqtidori va ish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog qanchalik darajada kasbiy mahorat, kompetentlik, iqtidor va ish tajribasiga ega bo‘lsa, u ta’lim innovatsiyalarini o‘z faoliyatida shunchalik faol qo‘llaydi va samarali natijalarga erishadi. Keys topshirig‘i. Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing?

KASBIY TA’LIM METODIKASI 353 Muammolar Echim Natija “KEYS №-4” “Pedagogika” kafedrasida ikki yosh o‘qituvchini yangi ishga olish jarayonida ularga “binar” tarzda Ochiq dars o‘tish vazifasi yuklatildi. Dars o‘tish tartibini ikki yosh o‘qituvchi Zarina va Oydin kelishib olishdi. Rejaga ko‘ra 1-2 rejalarни Zarina 3-4 rejalarни Oydin o‘quvchilarga tushuntirib beradigan bo‘lishdi. E’lonlar osildi, dars kuniga dekan va kafedra a’zolari tashrif buyurishdi. Zarina Oydinga qo‘ng‘iroq qilib kela olmasligini farzandini balnitsaga olib ketayotganini, kafedra mudirini ham ogohlantirib qo‘yanini ma’lum qildi. Oydin asbiylashib Zarinaga baqira ketdi. Va asbiylashgan holatda dars boshladi, lekin darsini o‘zi o‘ylagan tarzda tashkil qila olmadi. 1-Oydin faqat 3-4 rejalarни tayyorlangan edi. 2-O‘zi tushkun holatda edi. SHu vaziyat siz bilan sodir

bo‘lganda qanday vaziyatdan chiqardingiz va darsni qanday tashkil qilgan bo‘lardingiz? 1-topshiriq. Bu vaziyatda kim aybdor? 2-topshiriq. Ular darsni qay tarzda o‘tkazishlari kerak edi? 3-topshiriq. Mavzu rejalarini taqsimlab olish qay darajada to‘g‘ri? 4-topshiriq. Siz raxbar bo‘lganingizda bu ikki o‘qituvchini ishga olarmidingiz? (Xa-izox. Yo‘q-izox) KASBIY TA’LIM METODIKASI 354 “KEYS №-5” Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak deb o‘ylaysiz? “KEYS №-6” Hammamizga yaxshi ma’lumki, oliy ta’limda seminar mashg‘ulotlari talabalarda o‘rganilgan materiallarni mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazilish tartibiga e’tibor qarataylik. Odatda, seminar mashg‘ulotlarini assistant o‘qituvchilar olib borishadi. Seminar mashg‘ulotlarini ham tashkil etishda xilma-xil yondashuv mavjud. Ba’zi professor-o‘qituvchilar mashg‘ulot jarayonida tayyorlanib kelgan talabalardan so‘raydi, ularni baholab qo‘yish bilan cheklandi. Kimdir ommaviy tarzda savol-javob o‘tkazish orqali maqsadga erishishga harakat qiladi. Biroq reyting tizimi qoidasiga ko‘ra, har bir seminar mashg‘ulotida talabalarning bilimini tekshirib, belgilangan mezon doirasida hammaning ball olishiga erishish lozim. Lekin ko‘pchilik o‘qituvchilar bunga erishish imkoniyati yo‘q, deb hisoblashadi. Ayrimlar esa talabalar yozib kelgan konsekt va faolliklariga asoslangan holda ball qo‘yib berish mumkin, deb hisoblashadi. Vaziyatni baholash uchun savollar: Seminar mashg‘ulotlarini assistant o‘qituvchilar samarali tashkil etmoqdalar deyish mumkinmi? Seminar mashg‘ulotini tashkil etish samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerak? Seminar mashg‘ulotlarida kutilgan natijaga erishish maqsadida ishni qanday tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq? Seminar mashg‘ulotlarida talabalarning hammasini baholashga qanday erishish mumkin? Muammolar Echim Natija Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishning qanday echimlar bo‘lishi mumkin? KASBIY TA’LIM METODIKASI 355 Vaziyatni o‘rganish va vaziyatni baholashga doir savollarni tahlil etish asosida mavjud seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish yuzasidan SWOT-tahlilni amalga oshiring. KEYS №7: Pedagogik nizo va uni hal etish yo‘llari Ma’lum muddat tibbiy davolanishda bo‘lib, yangi o‘quv yilidan yana qaytadan ishga qaytgan “Kasbiy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi N.Xafizov menejment bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 303 guruhida kasbiy pedagogika fanidan seminar mashg‘ulotini o‘tkazayotgan edi. Seminar mashg‘ulotida talabalarni kichik guruhlarda ishlashlarini tashkillashtirdi. Talabalar kichik guruhlarda ishlarni davom ettirayotgan bir paytda, mashg‘ulot boshlanganiga o‘ttiz daqqa bo‘lganida mazkur guruh talabasi A.Petrova eshiqni olib, auditoriyaga kirishga ruxsat so‘radi. O‘qituvchi esa mashg‘ulot boshlanganiga ancha vaqt bo‘lganini, u bir necha marotabadan bo‘yon kechikib kelayotganini aytib, mashg‘ulot vaqtida kechga qolgan talaba A.Petrovaning auditoriyaga kirishiga ruxsat bermadi. Talaba esa, auditoriyadan chiqib ketishni xohlamadi. O‘qituvchi undan auditoriyadan chiqib ketishni talab etdi va oxir-oqibat xonadan chiqarib yubordi. Ertasi kuni auditoriyaga kiritilmagan qizning onasi nomidan fakultet dekanatiga shikoyat xati kelib tushdi. SHikoyat xatida talaba-qizning onasi homilador ekanligiga qaramasdan va har qanday holatda ham o‘qituvchi talabani mashg‘ulotga kiritmasdan, uni turtib auditoriyadan chiqarib yuborgani pedagogik etika zid ish ekanligi, o‘qituvchining KASBIY TA’LIM METODIKASI 356 kompetentligini aniqlash uchun Davlat test markazidan xolis ekspertlar chaqirib, sinovdan o‘tkazish va shikoyatga yozma ravishda javob qaytarish, agar kerakli chora ko‘rilmasa, yuqori tashkilotlarga murojaat qilishi haqidagi talabni qo‘ygan edi. Ertasi kuni fakultet dekani va o‘rinbosari N.Xafizovni bu haqida ogohlantirdi. O‘qituvchi esa dekanga u hech

qanday ortiqcha harakat qilmagani, talaba qiz hamma vaqt darsga kechikib kelishini aytib qo‘pol munosabatda bo‘ldi. Bir hafta muddat o‘tib, dekan kafedra mudiridan mazkur masalani yig‘ilishda muhokama qilib, qaror chiqarib berishni so‘radi. Kafedra majlisida mazkur masala muhokama etildi. Kafedra professor-o‘qituvchilari har qanday vaziyatda ham N.Xafizovni qo‘llab-quvvatlashlarini bildirdi. Biroq talaba-qizning homilador ekanligini hisobga olib, undan uzr so‘rash haqidagi taklifni kiritishdi. N.Xafizovga so‘z berilganda esa, u pedagoglik odobiga zid hech qanday xatti-harakat sodir etmaganligini, talabaqizzdan uzr so‘ramasligini bildirdi. Oradan bir hafta muddat o‘tib, N.Xafizov kafedra mudirining ishdan bo‘samasligi haqidagi iltimosiga karamasdan, o‘z arizasiga ko‘ra vazifasidan ozod etildi. Yuqorida keltirib o‘tilgan vaziyatni tahlil eting. Siz N.Xafizovning o‘rnida bo‘lganiningizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz? N.Xafizovning ishdan bo‘shab ketishi to‘g‘ri bo‘ldimi? 1. Keys bilan tanishish (individual) – 3 daqiqa Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e’tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag‘ishlanganligini aniqlang. 2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash (individual va kichik guruhlarda) – 5 daqiqa Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O‘z fikringizni guruh bilan o‘rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e’tibordan chetda qoldirmang. 3. Muammo echimini topish va erishiladigan natijani aniqlash – 7 daqiqa Guruh bilan birgalikda muammo echimini toping. Muammoga doir echim bir necha variantda bo‘lishi ham mumkin. SHu bilan birga siz topgan echim qanday natijaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang. 4. Keys echimi uchun taklif etilgan g‘oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa Guruh bilan birgalikda keys echimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida aniqlik, fikrning ixcham bo‘lishi tamoyillariga rioya qiling. KASBIY TA’LIM METODIKASI 357 “KEYS № 8” Pedagogik kengash yig‘ilishida maktab direktori o‘qituvchilarning e’tiborlariga quyidagi ma’lumotni aytib o‘tdi: 6 nafar ota-onan tomonidan farzandini ingliz tili chuqurlashtirilib o‘tiladigan 5-sinfga qabul qilinishi so‘ralgan ariza berildi. Sinfga faqatgina bir nafar o‘quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Sizlar qanday fikrdasizlar, kimni qabul qilamiz? Ariza bergen o‘quvchilarning ijtimoiy ahvoli va tabaqalashtirilgan sinfga qabul qilinishni asoslovchi holatlari: 1-o‘quvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a’lo baholarga o‘qiydi. 2-o‘quvchi: maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, uning mahalladagi barcha do‘stlari ana shu sinfda ta’lim olishganligi sababli shu maktabga o‘tishga qaror qilgan. 3-o‘quvchi: boshqa shahardan kelgan, uning ota-onasi diplomat, shu sababli o‘quvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, 3 oydan so‘ng ular boshqa davlatga ko‘chib ketadi. 4-o‘quvchi: ikkinchi yilga qolgan, 4 fanni “qoniqarsiz” bahoga o‘zlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar bo‘limda ro‘yxatda turadi, biroq, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi. 5-o‘quvchi: qishloqdan ko‘chib kelgan, u erdaga maktabda esa ingliz tili o‘qitilmagan, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, ko‘p vaqtini bekor o‘tkazadi. 6-o‘quvchi: bolalikdan 2-guruh nogironi, bolalar selebral paralichi (BSP) tashxisiga ega, fanlarni “4” va “5” baholarga o‘zlashtiradi, yolg‘iz onaning qo‘lida tarbiyalanadi, shu bilan birga maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi. Sizningcha, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga qaysi o‘quvchi qabul qilinadi? Keysni echish jarayoni: 1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlichcha

anglab oladi. 2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadooshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi. 3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi. KASBIY TA’LIM METODIKASI 358 4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi. 5. Echim individual, kichik guruhlari yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi. O‘qituvchining echimi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to‘g‘risida”gi Qonunlarida bayon etilgan me’yoriy talablarga muvofiq ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga bolalikdan ikkinchi guruh nogironi bo‘lgan o‘quvchi qabul qilinadi. “KEYS № 9” Bir kuni algebra darsida, - deb o‘quvchi qiz hikoya qiladi, - men darsga quloq solmay, hech narsaga e’tibor qilmay, kitob o‘qib o‘tirgan edim. Birdan o‘qituvchi meni doskaning oldiga chaqirdi. Men buni eshitmadim, ammo orqa partada o‘tirgan sinfdoshlarim mening elkamga niqtay boshlashdi. Avval bundan jahlim chiqdim va hech narsaga tushunmay atrofga alanglab qaray boshladim. Butun sinf o‘quvchilari mening ustidan kulishdi. O‘qituvchi: “Nima bo‘ldi?”, deb so‘radi. Men xotirjam holda “Bilmadim” dedim va doskaning oldiga chiqdim. O‘qituvchining savolari juda yaxshi javob berdim va joyimga o‘tirdim. O‘qituvchi esa men u to‘g‘risida sinfdoshlarimga nimadir deganligim uchun ular kulishdi, deb o‘ylagan bo‘lsa kerak, o‘sha kundan boshlab menga g‘alati qaraydigan bo‘ldi. Men ham bolalar nima uchun kulishganligini o‘qituvchiga ochiq ayta olmadim va o‘qituvchidan qochib yuradigan bo‘ldim. Bu holat deyarli bir yil davom etdi. Men algebra fani asoslarini puxta o‘zlashtirdim, biroq, bu fandan bo‘ladigan darslarga borish men uchun azob bo‘ldi”. Savollar: 1. O‘qituvchining pedagogik xatosi nimada edi? 2. Bu vaziyatda o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi zarur? Keysni echish jarayoni: 1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadooshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi. 2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadooshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi. KASBIY TA’LIM METODIKASI 359 3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi. 4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi. 5. Echim individual, kichik guruhlari yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi. O‘qituvchining echimi 1. O‘qituvchining pedagogik xatosi vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaganligida. Avvalo, yumor yordamida vaziyatni aniqlashtirib olishi zarur edi. 2. Bu vaziyatda o‘qituvchi o‘quvchilarining kulgusini bartaraf etish uchun insonning diqqati bir ob’ektdan ikkinchi ob’ektga tez ko‘chishini, fikrlash tezligi esa optik tezlikka nisbatan sust ekanligini, shu sababli miya tomonidan axborotlarni qabul qilishda ba’zan noqulay holatlар ro‘y berishi mumkinligini tushuntirib o‘tishi, nima uchun kulgu ko‘tarilganligining sababini esa tanaffusda o‘quvchi bilan muloqotni tashkil etgan holda aniqlab olishi mumkin edi. KASBIY TA’LIM METODIKASI 360 TESTLAR № Savol A B S D 1. Qaysi variantda ta’lim iborasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan? bilim berish, malaka va ko‘nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi; insonlarning o‘rganish qobiliyati; olamning zarur xususiyatla ri haqidagi axborotlar majmui; 2. O‘qitish jarayoninin g shakllari, usullari, tamoyillari, mazmuni pedagogika ning qaysi qismida o‘rganiladi ? *Didaktika. . Metodika. Kasbiy pedagogika. Pedagogik a 3. Kasbiy ta’lim texnologiyasi deganda nimani

tushunasiz ? *o‘qitish va o‘qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli; olamning zaruriy xususiyatlari haqidagi axborotlar majmui; amaliy ish harakati usullarini shakllantirish qonuniyatlari. bilish jarayonini tartib

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

9-AMALIY MASHG’ULOT.

Mavzu: Zamonaviy o’qituvchining kommunikativ kompetentligiga qo’yiladigan talablar va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish.

Mashg’ulot rejasi:

1. Zamonaviy o'qituvchining kommunikativ kompetentligiga qo'yiladigan talablar va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish.

Kommunikativ faoliyat - bu faoliyat o'qituvchining talabalar, ota-onalar va maktab ma'muriyati bilan o'zaro munosabatlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi bilan talabalar orasidagi munosabat o'quv faoliyatining mazmunini qanday bo'lishini belgilaydi. O'qituvchining talabalarga bo'lgan emotSIONAL munosabatlarini 5 tipga ajratish mumkin:

- 1) emotSIONAL-ijobiy faollik,
- 2) emotSIONAL-ijobiy passivlik,
- 3) emotSIONAL-salbiy faollik,
- 4) emotSIONAL-salbiy passivlik ,
- 5) muvozanatsizlik.

Bunday munosabatning xar biri bolaga turlicha ta'sir ko'rsatadi va o'zaro munosabatlarning mazmunini, sifati tashkil qiladi. Talabalar shu munosabatlarga turlicha berilishlarida ularni o'qishga, mexnatga bo'lgan munosabatlari shakllanadi. Xar bir shaxsning o'ziga xos xususiyati mavjud. Xar bir shaxsning ijobiy va salbiy xususiyatlari ham mavjud. Ammo milliy maktab o'qituvchisi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari va sifatlari, qobiliyatlar, boshqa kishilarnikidan farq qilmog'i, u iloji boricha bola uchun, talaba (talaba) uchun ideal bo'lmog'i, unga taqlid qilishiga munosib bo'lmog'i lozim. Chunki, o'qituvchi qo'lida bo'lg'usi insonning taqdiri yotadi. O'qituvchi shaxsining professional, ya'ni kasbga yo'naluvchi sifatlari, avvalo, uning bilim va bilim berishga bo'lgan ehtiyoji, istedod va qobiliyati, axloqiy sifatlari: haqqoniyligi pritsipialligi, talabchanligi, mexribonligi, o'z burchini his qilishidir. O'qituvchining professional ahamiyatga ega bo'lgan muxim sifatlari - bolani sevishi, talabaning ichki dunyosini tushunishga qobiliyatligi, ularga, maqsadga muvofiq pedagogik-psixologik tasir ko'rsatishi, talabaning ayni paytdagi psixologik holatini tushunib, yosh hamda individual xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rishidir. O'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi turli xil vaziyatlardagi o'zaro munosabatlarni taxlil

qilish natijasida bolalar jamoasidagi psixologik muxit va kommunikativ madaniyat o‘qituvchining talabalar bilan bo‘ladigan muomala stili va uning pedagogik nazokatiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin. O‘quv jarayonini rejalashtirish o‘qituvchining mashg‘ulotlariga tayyorlanishida asosiy o‘rin tutadi. O‘quv jarayonini rejalashtirish tufayli o‘qituvchi va talabalarning mashg‘ulotlarda kasb ta’limining vazifalari va maqsadlariga, uning prinsiplariga va talabalar bilan ishlashga qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq hamma ishlarini oldindan ko‘rish mumkin. O‘quv jarayonini rejalashtirishda o‘qituvchi quyidagi asosiy didaktik vazifalarni hal qiladi.

1. O‘quv protsessini moddiy jihatdan o‘z vaqtida ta’minalash imkoniyati yaratiladi. Xususan, nazariy va amaliy darlarni turli materiallar va asboblar bilan ta’minalash muddatlari oldindan ma’lum bo‘ladi. Buning ahamiyati katta, chunki ta’minton ma’lum qiyinchiliklar bilan bog‘liq, shuningdek, har doim biror vaqt rezerviga ega bo‘lish kerak.
2. Kasb ta’limi mashg‘ulotlarining mazmuni bilan boshqa o‘quv predmetlarining mazmuni orasidagi bog‘lanish yoritiladi. O‘qituvchi o‘quv materialini alohida darslarga taqsimlab, kasb ta’limi bo‘yicha mazkur aniq mavzuni o‘rganishgacha talabalar fizika, ximiya, matematika va boshqa predmet darslarida qanday bilimlar olganliklarini aniqlaydi; shundan kelib chiqib kasb ta’limi bilan fanlarning asoslarini o‘rganish orasida didaktik bog‘lanishni ta’minalash mumkin.
3. O‘quv laboratoriyanining o‘zaro muvofiq ish olib borishga erishiladi. O‘quv laboratoriyalidagi mashg‘ulotlar jarayonida turli kompleks vazifalarni hal qilishlari mumkin. Bunday hollarda talabalarning ishlashini vaqt bo‘yicha moslashtirish juda muhim bo‘lib, bunga esa rejalashtirishda erishiladi.
4. Yarim yillik va yillik yakunlari chiqarishda o‘qituvchi uchun rejaning bajarilishini tekshirish oson. Buning uchun rejalashtirilgan ish bilan amalda bajarilgan ishni taqqoslash yetarli.
5. O‘quv bo‘limi va boshqa yuqori muassasalar tomonidan ta’lim jarayonini nazorat qilish yengillashadi. Ilg‘or o‘qituvchilar ishlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, u

yoki bu mavzu bo‘yicha darslar sistemasini tashkil etishda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) mavzuning o‘quv predmetidagi o‘rnii va talabalar egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar doirasi;
- 2) nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi;
- 3) mavzu materialining talabalar bilan imkoniyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati;
- 4) talabalarning yangi mavzuni o‘zlashtirishga tayyorligi;
- 5) materialning mantiqiy bayoni;
- 6) talabalar ijodiy ishlarining imkoniyatlari;
- 7) temani o‘rganishdan kutilgan natija;
- 8) darslar bilan talabalarning sinfdan tashqari mashg‘ulotlari orasidagi bog‘lanish jarayonlari muhimligini pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘qituvchi har bir mashg‘ulotning mazmunini oldindan bilsa, talabalarning tayyorgarliklarini aniqlash va ular orasidagi o‘tilgan materialni takrorlashga doir topshiriq qo‘yish imkoniga ega bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha ishlar natijasida navbatdagi temani o‘rganishning kalendar reja tuzilishi ham mukin.

O‘qituvchining darsga tayyorlanishida tashkiliy va metodik xarakterdagi tadbirlarni, shuningdek mahoratni oshirish tadbirlarini ifodalash mumkin. Mutlaqo ayonki, o‘qituvchining bilimlari talabalardan talab qilinadigan bilimlardan ancha keng, chuqur bo‘lishi kerak. O‘qituvchi talabalarning o‘quv dasturidan tashqari savollariga javob berishga tayyor bo‘lishi kerak. U shuningdek kasbiy malakalarni puxta egallab olishi zarur.

Maxsus kasbiy kompetentlik bitiruvchining kasbiy tayyorlik darajasi va turi, unda kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetentliklarning mavjudligini o‘z ichiga oladi. Umumiy ijtimoiy-psixologik kompetentlik tarkibiga atrofdagilar bilan samarali o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘lgan tayyorgarlik, intilish va qobiliyatlar,o‘zini va boshqalarni dinamik psixik holat sharoitlarida tushunish, shaxslararo munosabatlar

va ijtimoiy muhit sharoitlari kiradi. Maxsus ijtimoiy-psixologik kompetentlik mazmunini mutaxassisning ma'lum mehnat faoliyati sharoitlarida samarali hamkorlik faoliyati va muloqotini ta'minlovchi shaxs sifatlari tashkil etadi. Mutaxassisning umumiyligi va maxsus ijtimoiy-psixologik kompetentliklarini tabaqalashtirish oson emas. Shu bilan birga, rahbar, o'qituvchi, quruvchi yoki muhandisning kommunikativ kompetentligi birbiridan mazmuni, sifatiy va miqdoriy tavsiflari bo'yicha farqlanishi tushunarli. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining kasbiy kompetentligi invariantini quyidagicha ta'riflaymiz: kasbiy kompetentlik invarianti - bu uning komponentlari orasidagi mustahkam bog'lanishlar tizimi (qadriyatli-ma'noli, motivatsion, uskunaviy, individual psixologik va konativli) bo'lib, kompetentlikning aniq turi – umumiyligi va maxsuskasbiy, umumiyligi va maxsus ijtimoiy-psixologik ko'rinishlarida amalga oshirilishining asosiy belgilariga ega. Mutaxassisning kompetentligi invariantlarini mazmunli to'ldirish aniqlangan me'zonlarning aniq majmuasiga (tuzilmali va funksionalli) tayanganholda amalga oshirilishi kerak. Mutaxassis kasbiy kompetentligi invariantlarining shakllanganlik mezoni .Psixologo-pedagogik adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili «kasbiy kompetentlik» tushunchasi ta'rifiiga bir necha yondoshuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bu tushuncha ko'pincha «chuqurlashtirilgan bilim», «harakatlarning samaradorligi» kabilalar sifatida talqin etilgan. Bizning nuqtai nazarimizcha esa, mutaxassis kompetentligi kasbiy faoliyat davomida orttirilgan ijtimoiy-ahamiyatli va shaxsiy-ahamiyatli kompetensiyalar tizimidan iborat. Agar, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi haqida so'z yuritsa, u holda bu tushuncha mazmuniga pedagogik masalalarni mustaqil va yetarlicha samarali hal etish imkonini beruvchi o'qituvchi,tarbiyachi, pedagogning shaxsiy imkoniyatlari kiritiladi. U yoki bu pedagogik masalalarni hal etish uchun pedagogik nazariya va uning qoidalarini amalda qo'llay olish ko'nikmasi va tayyorgarlik zarur. Shu bilan birga yana o'qituvchining kasbiy kompetentligi uning mehnatida pedagogik faoliyat vapedagogik muloqotning turli tomondan shakllanganligidir. Turli davrlarda va turli mualliflarda turli xil ta'riflar uchraydi va ular quyidagilardan iborat: ma'lum mehnat

faoliyati vazifalarini bajarish ko'nikmasiva qobiliyatiga egalik, psixik holat, ta'limgan olish va umummadaniyat darajasi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorlarlik va nazariyaning birligi. Bular esa, kasbiy kompetentlikni pedagog shaxsining psixologik pedagogik va fan sohasida bilimlarga egaligini, kasbiy ko'nikma va malakalari, shaxsiy tajribasini tavsiflovchi integrallashgan shaxsiy xususiyati sifatida aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagog o'z faoliyatini istiqbolini maqsad qilgan, bilimlarini boyitishga intiluvchan, o'ziga ishongan va kasbiy natijalarga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ba'zi bir tadqiqotchilar pedagogning kompetentligi tashkilotchilik, javobgarlik, mehnatsevarlik, maqsadga erishish, o'ziga ishonish kabi shaxsiy sifatlarini o'z ichiga oladi - deb hisoblasa, boshqa birlari esa, kompetentlik tuzilmasiga motivatsion-qadriyatli sohani ham kiritish zarur, chunki bu soha bilimlarga egalik darajasini aniqlaydi - deb hisoblaydi. Shunday qilib, kompetentlikning qayd etilgan tashkil etuvchilari insonning kasbiy faoliyatida, kasbiy muloqotida, o'z kasbining ustasi sifatida shakllanib yetishganligini anglatadi. Bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o'quv predmetlari ro'yxati, balki, fanni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiy ko'nikma va bilimlar, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagagi faol o'rnidan iborat ta'limgan mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buning barchasi majmuaviy holda, bo'lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, uo'z-o'zini rivojlantirish va o'z komilligi ustida ishlay olish usullariga egabo'ladi, bu esa, o'z vaqtida pedagogga «inson-inson» tizimida kasb ustasi sub'yekti sifatida samarali faoliyatni ta'minlaydi. Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim va ko'nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G. Garanina quyidagi ikkita darajaning mazmunini ko'zda tutuvchi bilim, ko'nikma, malaka va fikrlashni qaragan:

- 1) tushunchalar, hissiy obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar hamda fikrlash tizimlari (kasbiy masalalarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);
- 2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zarota'sirlashuv malaka va ko'nikmalari tizimi .

Yu.V. Verdonyanning fikriga ko'ra, pedagog va psixologning kasbiy kompetentligi mutaxassis shaxsining holati va xususiyatlari, uning kasbiy faoliyati va zarur amallarni bajarishga qobiliyati (bilim va imkoniyati) ning yagona tizimidan iborat . O.A. Bulovenko esa, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilganyoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarashni taklif etadi .

O'z navbatida A.V. Reysev mutaxassisning kasbiy kompetentligini kasbiy va shaxsiy sifatlar, integrativ majmuasi, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat madaniyatini, madaniy-ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish, dunyoqarashga egabo'lishga imkon beruvchi ilmiy bilim va malakalar mavjudligi sifatida aniqlaydi.

«Kompetentlik» tushunchasida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo'ljalli va nutqli. Bunda mutaxassis kompetentligi har doimfaoliyat turiga bog'liq bo'lган aniq holatda namoyon bo'ladi .

O'zining fundamental tadqiqotlarida I.A. Zimnyaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning emotSIONAL-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Muallifning fikriga ko'ra, kompetentlik tuzilmasiquyidagi komponentlar tizimidan iborat:

- a) faoliyat va hatti-harakatda ushbu xususiyatni namoyon qilishga tayyorlik;
- b) amallarni bajarishning vositasi, usullari va dasturlarini bilish, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yechish, tartib-intizom qoidalari va me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensianing mazmunini tashkil etadi;
- v) bilimlarni amalga oshirish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;
- g) kompetensiylar mazmuniga qadriyatli-mazmunli munosabat, uning shaxsiy ahamiyatliligi;
- d) emotSIONAL-irodaviy regulyasiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zarota'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lismeni regulirovka qilish sifatida .

A.A. Dunyushinning fikriga ko'ra, shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lган

bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi. Bu ta'rif, mualliflar tomonidan quyidagi bir qator natijalarda aniqlashtirilgan:

- a) kompetentlik aniq faoliyat sub'yekti tavsifi sifatida qaralishi mumkin;
- b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyatning maqsadi, tuzilmasi va maxsus talablariga bog'liq;
- c) irodaviy va kommunikativ xususiyatlar, intellekt, munosabatlar, asoslovchi dalillar va shaxsning yo'naltirilganlik tizimi kompetentlikka zaminbo'lib xizmat qiladi .

L. Spenser va M. Spenserlar o'z tadqiqotlarida kompetensiyalarni faoliyatning samaradorligi va muvaffaqiyat omili sifatida qaragan. Ular shaxstuzilmasida kompetensiyalarning quyidagi besh turini ajratgan: motivlarkompetensiyasi sifatida; psixofiziologik xususiyatlar; «Men-konsepsiysi»(ko'rsatmalar, qadriyatlar, insonning samarali faoliyat olib borishga ishonchi); inson nimaga qodirligini ko'rsatuvchi bilimlar; ma'lum jismoniy va aqliymasalalarni bajarish qobiliyati sifatida ko'nikma . Ular barchakompetensiyalarni tashxislash va rivojlantirish qiyinroq bo'lgan ichki («menkonsepsiysi», xususiyatlar, motivlar) va treninglar yordamida rivojlantirishmumkin bo'lgan tashqi (bilim va ko'nikmalar) omillarga ajratadi. Ichki omillarbilim va malakalarni qo'llashga «turtki» va intilishlarni ta'minlaydi. Bu yerdagap muhim komponent, ya'ni o'z-o'zini nazorat qilish haqida borayotgandek, ammo mualliflar uni kompetensianing tuzilmasiga kiritmagan. Ular motivlar va psixofiziologik xususiyatlar ishning puxta nazoratsiz ham uzoq vaqtdabajarilishini ta'minlaydi - deb ta'kidlaydilar. Mualliflar ularni biror birlavozimdag'i kishining o'rnini boshqa bir kishi egallagan vaqtdagi harakatlarini aniqlovchi «javobli yoki reaktiv motivlar» sifatida qaragan. Bu yerda, bizningfikrimizga ko'ra, aynan o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilishning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida so'z bormoqda.

Boshqa tadqiqotchilar ham kompetentlik tuzilmasida o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmini ko'rsatgan. Masalan, Ye.V. Burseva kasbiy kompetentlikning shakllanishini o'z-o'zini boshqarish tizimiga kiritilgan kasbiymaqsadlarga aylanuvchi kasbiy motivlar mazmunining yaratilishi sifatidaqaragan. Kasbiy kompetentlik - kasb talablariga javob beruvchi maxsus bilim,ko'nikma, malaka va

shaxs sifatlari majmuasidan iborat. U ijtimoiy foydalinatijalarni olishga yo'naltirilgan bo'lib, unga shaxsiy o'z-o'zini boshqarish natijasida erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

10- AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Zamonaviy o'qituvchining axborot bilan ishlashga (ma'lumot qidirish, saralash, tahrirlash va olingan axborotlarni samarali qo'llashga) oid kasbiy kompetentligi.

Mashg'ulot rejasi

1.Zamonaviy o'qituvchining axborot bilan ishlashga oid kasbiy kompetentligi rivojlantirish metodikasi.

Ta'limda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishning muhim jihatlari. Insoniyat tarihida raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi telekommunikatsion sohada tub o'zgarishlarga olib keldi va bu o'z navbatida an'anaviy tovushli aloqa xizmatlari internet, ma'lumotlarni uzatish, mobilaloqa kabi interaktiv xizmatlar bilan o'rinn mashmoqda. Shunga qaramasdan aksariyat sohalarda internet foydalanish an'anaviy tarzda davom etmoqda bu holat mamlakatimizda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Biz insonlar tamonidan shakillantirilgan jamiyatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak bu jamiyatlar haётiga kundan-kunga axborot kommunikatsion texnologiyalarning kirib borishi ularning o'zaro munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyasining va ularni amalga oshirish vositalarini juda tez rivojlanishi axborot jamiyatning shakllanishini oldindan belgilab beradi. Bunday jamiyatda inson faoliyatining xamma sohalarida mehnat qilaётganlarning mutlaq ko'pchiligi axborotlarni ishlabchiqish, saqlash, qayta ishslash va uning eng yuqori shakli bilimlarni tarqatish bilan shug'ullanadi. Bu sohada Internet texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Axborot texnologiyalari, zamonaviy kompyuterlarga va ofis jihozlariga talab oxirgi yillarda jahon iqtisodiy dinamikasi va sturukturasiga, shuningdek ta'lim tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari sohasida Internet tizimining paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi haqiqiy inqilob bo'ldi. Internet uchinchi ming yillikka kelib jahon iqtisodining yetakchi sohalaridan biriga aylandi, ningyillilikqiymati 500 mlrd. Dollarni tashkil qiladi, bu sohada uch milliondan ortiq kishi band ekanligi ham buning yaqqol misolidir.

Ta’limdan internetdan foydalanish darajasini va unga bo‘lgan ehtiyojning oshib borayotganligi bu boradagi ayrim muammo va kamchiliklarni ham yuzaga keltirmoqda.

Mutaxassislarining hisobiga ko‘ra, XX asr boshida «Bilimlar hajmi» har 50 yilda 2 barobar oshdi. Hozirgi paytda bu jarayon 1 yilda amalga oshirilmoqda, yaqin istiqbolda esa 1 oyda bo‘ladi 3oyda.

Bugungi kunda aksariyat ta’lim yo‘nalishidan qat’iy nazar mustaqil ishlashi uchun berilgan barcha topshiriqlarni tinglovchi u o‘quvchimi, talabami farqi yo‘q barchasi birinchi bo‘lib o‘zlariga berilgan vazifaga doir ma’lumotlarni internetdan izlashadi va bunda internet foydalanuvchilari tamonidan bildirilgan fikr mulohazalar, ayrim asoslanmagan nazariyalar va g‘oyalar yoki mashhur olimlar nomidan bildirilgan fikrlardan iqtiboslarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuchirib olishadi.

Ayrim holatlarda usha internetdamashhur olimlar tamonidan bildirilgan deb iddo qilinayotgan fikrlar olimning birorta kitobidan topa olmaslik kabi tushunarsiz va bahsli holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Shuning uchun ta’lim beruvchi pedagog o‘z tinglovchilariga rasman tan olingan va umum e’tirof etilgan yoki keltirilgan ma’lumotlar rasmiy nashirlarda chop etilganligini tasdiqlash mumkin bo‘lgan internet saytlari ruyhati va undan foydalanish tirtib to‘g‘risida oldindan ma’lumot berib borishi lozim.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot institutlari, davlat idoralari hamda halqaro tashkilotlarining rasmiy saytlari to‘g‘risida va ularning ruyhatini ko‘rsatgan holda tinglovchini habardor qilib borish kelgusida turli asosiz ma’lumotlarning kirib kelishini oldini olgan bo‘lardi.

Bo’lajak o’qituvchida axborot kompetentligining shakllanish xususiyatlari.

Jamiyat rivojining zamonaviy bosqichi ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bosh yo‘nalish sifatida axborotli intellectual rivojlanish yo’lini tanlagan davlatlar katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak pedagoglarnitayyorlash tizimiga yangicha qarashni taqozo etadi. Bugun umumiy o’rta ta’lim makkablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, maktabgachata’lim muassasalari oliy ta’lim muassasalaridan,

shu jumladan pedagogika oliyta'lim muassasalaridan sifatli tayyorlangan, ish jarayoniga tezkorlik bilankirishib keta oladigan mutaxassisni kutmoqda. Uzoq vaqtlar davomidapedagogik tizimlar talabalarning insoniyat tomonidan to'plangan tayyorbilimlarni o'zlashtirishiga yo'naltirilgan. Ammo, bilimlar hajmi va sifati o'sibborayotgan bir vaqtda bu mumkin ekanmi? Javob aniq: mutaxassisni bu tarzda tayyorlashda hech qachon sifat haqida gapirib bo'lmaydi. Bundan esa, ta'limtizimini modernizatsiyalash zaruriyati ko'rinish turibdi. Barcha rivojlangandavlatlarda ta'lim tizimi islohoti davomida pedagogik va axborot texnologiyalari rivojlanishidagi tub burilish kerakli ma'lumotlarni mustaqil topish, muammolarni ajratish va ularni rasional hal etish yo'llarini izlash, olingan bilimlarni tahlil qilish va ularni yangi masalalarni yechishda qo'llashni bilishda amalga oshirilgan. Tayyor bilimlarni o'zlashtirish maqsad bo'lib qolmasdan, balki mutaxassisni tayyorlashda yordamchi vositalardan biri bo'lib qolishikerak. Shunday qilib, zamonaviy jamiyatga mustaqil, tanqidiy fikr yurituvchi, vujudga kelgan muammolarni ijodiy hal etishni biladigan va shu bilan birga o'z-o'zinita'minlash ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxs kerak.

Ta'limni modernizatsiyalashning muhim yo'nalishlaridan biri tabiatiga ko'ra shaxsga yo'naltirilgan kompetentli yondoshuv hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish jamiyatni axborotlashtirishning global jarayonining asosidir.

Bunda u jamiyat faoliyatlarining boshqa yo'nalishlariga ko'ra tezroq odimlashi kerak, chunki aynan ta'lim berish jarayonida axborotlashtirilgan jamiyatning ijtimoiy, psixologik kabi asoslari shakllanadi. Jamiyat va shaxsning yangiehtiyojlari axborotli kompetensiyani asosiy, bazaviy asoslardan biri sifatida aniqlaydi.

Bundan tashqari kompetentlik quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega:

- 1) ulushga ega bo'lmoqda);
- 2) dinamizm (bo'lajak bitiruvchini tayyorlashda faqat axborotlashtirishning zamonaviy holatini hisobga olish yetarli emas, uni axborotrivojlanish tendensiyasiga yo'naltirish shart);
- 3) optimallik (axborot muhitining tezkor rivojlanish holatida bitiruvchini optimal axborotli faoliyatga tayyorlash shart, kompetensiya ko'p ham, oz hambo'lmasligi, u qo'yilgan kasbiy masalalarni hal etishga yetarli bo'lishi lozim).

Jamiyat va ta'limni axborotlashtirish jarayonida ma'lum an'analar, axborotlashtirilgan xulq stereotipi, axborotning muhim manbalari va axborot almashish usullari asta-sekin hosil bo'ladi, shaxsiy qadriyatlar faollashadi, bularning barchasi axborot madaniyatining zamonaviy bosqichi shakllanishidaaks etadi.

Axborot madaniyati - bu ilmiy va amaliy axborotli bilimlar va tajribalarning muhim sohasini qamrab oluvchi yetarlicha keng va umumiyl tushuncha.

Biz axborot madaniyatini shaxs madaniyati tuzilmasi komponenti sifatida qaraymiz. Axborot madaniyati tushunchasi ko'pincha axborot savodxonligi tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Axborot savodxonligi bo'lajak mutaxassisning zaruriy axborot ko'rinishini identifikasiyalash, uni izlash, tanlash va tahlil qilish, kasbiy faoliyatda samarali qo'llash ko'nikmasi sifatida ta'riflanadi. Demak, axborot savodxonligi, eng avvalo, axborot bilan ishslashning texnologik jihatini o'z ichiga oladi. Axborot bilan ishslash texnologiyasini tanlash asosan texnik vositalar bilan aniqlanadi. Zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ishslashni bilishkompyuter savodxonligi sifatida aniqlanadi. Ammo, savodxonlikning kompetentlikdan asosiy farqi shundan iboratki, savodxon inson bilimlarni yetkazib berish qobiliyati shakllanadi.

Axborot olish kompetentligi. Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni tahlil etish, o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)

3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

11-AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Zamonaviy texnologiya o'qituvchisining intellektual kompetentligi hamda vaziyatlarni analiz va sintez qila olishi.

Mashg'ulot rejasi:

1. Zamonaviy texnologiya o'qituvchisining intellektual kompetentligi hamda vaziyatlarni tizimli tahlil qilish.

O'qi tuvchi subyektini rivojlantirishda intellektual salohiyatning ahamiyati.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi davrida bilimli bo'lish, intellektual salohiyat harqachongidan ham muhim ahamiyat kasb etgan. Dunyoda sodir bo'layotgan globallashuvva integratsiya jarayonlari, jahon bozorlarida tobora kuchayib borayotganraqobat, iqtisodiy-moliyaviy beqarorlik bugungi kunda fan va texnologiyalarningeng ilg'or yutuqlarini jadallik bilan o'zlashtirish zaruriyatini tug'dirmoqda. Hozirgi davrda insoniyat oldida bir qator global muammolar, xususan,

iqlim o‘zgarishlari, ekotizim va bioxilma-xillikni saqlash, tabiiy zaxiralarning tugab borishi va boshqa omillar turibdi. Bu muammolarni hal etish intellektual salohiyatni har tomonlama o‘stirishni, chuqur ilmiy tadqiqotlar va tajribalar olib borishni taqozo etadi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti kadrlarning intellektual salohiyati vaprofessionallik darajasiga bog‘liq. Darhaqiqat, intellektual salohiyatli, yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash ta’lim tizimining nafaqat vazifasi, balki pirovard maqsadi hamdir. Binobarin:

- O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatni modernizatsiya qilishva rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishning muhim shartidir;
- intellektual salohiyat mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’milashningasosiy omilidir;
- jamiyatda ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda, insonlarni yagona maqsad sarisafarbar etishda muhim o‘rin egallaydi;
- mamlakatda intellektual salohiyatning yuqori bo‘lishi uning xavfsizligini mustahkamlashgaxizmat qiladi.

Hozirgi davr adabiyotlarida inson intellekti va uning turlariga turli tavsiflar berilgan.

Lug‘atlarda berilgan izohlarni umumlashtirgan holda intellekt (lotincha “intellektus”, o‘zbekcha aql-idrok, bilish, tushunish, zehn) so‘zini quyidagicha ta’riflash mumkin:

- insonning aql-idroki, zehn-zakovati;
- insonning tashqi dunyoni, tabiiy va ijtimoiy olamni ongda aks ettirishi, idrok qilishi;
- shaxsning borliq olamni, ijtimoiy tajribalarni, voqeа-hodisalarни qabul qilish vatushunish darjasи, imkoniyatlar doirasi;
- insonning turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqeа-hodisalarни oldindan ko‘ra bilish layoqati.

Intellektual salohiyat o‘z-o‘zidan bo‘sh joyda paydo bo‘lib qolmaydi. O‘qituvchi Subyektini rivojlantirishda uning pedagogik intellekt darjasи, tug‘ma qobiliyati,

fikrlashimkoniyatlari, ijtimoiy muhit, ixtisoslik turi, uning hayotidagi hissiy jarayonlarni e'tiborga olish zarur.

Ta'kidlash joizki, fan va ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyoti talablariga mos kelishimehnat bozori va jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining barqarorlashuviga xizmat qiladi, uning yetuk mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. O'z navbatida ta'lim, fanva ishlab chiqarish sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat beradi.

Bunday sharoitda o'qituvchi subyektini rivojlantirish, pedagog kadrlarning intellectual salohiyati, kasbiy kompetentligini yanada oshirish juda muhim.

Bugungi kunda pedagogik intellektning dunyodagi global o'zgarishlar bilan, information va texnologik taraqqiyot bilan qanchalik mosligi masalasi dolzarb ahamiyatgaega. Ta'lim va tarbiyaning markazida inson muammosi, ta'lim olishning milliy va jahonmadaniyati yutuqlari, insoniyatning ma'naviy-intellektual tajribasini o'zlashtirishgayo'naltirish masalasi turibdi.

Jahon miqyosida yuz berayotgan aql-zakovat va intellektual salohiyat musobaqasidabellashuvga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalash masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Birinchi Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda, "...bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatorigaqo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin".

O'qituvchi subyekti va uning pedagogik intellekt darajasi ikki tomonlama namoyon bo'ladi. Birinchidan, ta'lim jarayoni moddiy-texnik bazasini mazmun jihatdan takomillashtirish, bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi ko'p jihatdan sohada faoliyat ko'rsatayotgankadrlar fanning so'nggi yutuqlarini, ilg'or va zamonaviy texnika va texnologiyalarnitezroq o'zlashtirib olishi hamda hayotga tatbiq etishiga bog'liq. Ikkinchidan, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalashuv jarayoni o'qituvchiningham, o'quvchining ham intellektual salohiyatini yangilaydi, yanada rivojlantiradi.

Har qanday pedagog, eng avvalo, u shaxsdir. Shunday ekan, pedagog intellekti birinchi navbatda shaxsning aql-zakovati, bilimi va tafakkuri, hayotiy tajribalarni

egallaganlik darajasini ifodalaydi. Pedagogik intellekt esa, bevosita yoki bilvosita kasbiyfaoliyat bilan bog‘liq. Biroq u pedagogik faoliyat bilan professional darajada shug‘ullanmaydigan kishilarda ham mavjud.

Hozirgi davrda jamiyatda pedagogik bilimlarni, pedagogik savodxonlikni rivojlantirish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim vazifasi sanaladi. Pedagogik intellekt ancha keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, pedagogik madaniyat, pedagog imiji kabi tushunchalarni ham o‘zida ifoda etadi. Shaxs intellekti milliy, diniy va umumbashariy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Har bir ijtimoiy hodisa bevosita yoki bilvosita ta’lim-tarbiyaga ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, pedagog intellekti qadriyatlarsiz rivojlanishi mumkin emas.

Har bir xalq milliy o‘ziga xoslikda, o‘zining intellektual darjasini doirasida fikrlaydi, shu asosda borliqni anglaydi, idrok etadi. Bu holat etnik mentalitetning pedagog intellektigata’siri bilan bog‘liq.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya milliy qadriyatlarmiz va sharqona pedagogik tajribalar asosiga qurilgan ekan, bizda pedagogik intellekt milliy mazmun kasb etishini e’tiborgaolish lozim. Agar xalqning ijtimoiy tarixiy tajribasi uning madaniyati bilan uyg‘untarzda o‘quvchilarga taqdim etilmasa, jamiyatda ma’naviy xavf paydo bo‘ladi.

Hozirgi paytda ta’lim taraqqiyoti ayrim yo‘nalishlarda fan va ishlab chiqarishning rivojlanishidan orqada qolayotganligi yoki ta’lim fanning konseptual vazifalarini o‘zidato‘la ifoda etolmayotganligi muammosi mavjud. Bu muammo ta’lim muassasalari moddiy-texnik va o‘quv-metodik bazasidan samarali foydalanilmaslik holatlarida, pedagog kadrlar ta’limga oid huquqiy-meyoriy hujjatlar talablariga rioya qilib faoliyat ko‘rsatishda tushunmovchiliklarga duch kelayotganida, darsliklardagi kamchiliklarda, pedagog xodimlar axborotlarni boshqarishi va media savodxonligida, ta’lim jarayonini rivojlantirish, uni fan bilan integratsiyalashuvini ta’minlash, ta’lim muassasalarida ilmiy-ijodiy muhitni shakllantirish va ilmiy-metodik faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yish, ayrim innovatsiyalarva texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilishda ko‘zga tashlanadi. Mazkur muammolarning hal etilishi bir tomondan

o‘qituvchi subyektini rivojlantirishga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan pedagog kadrlarning intellektual salohiyatiga bog‘liq. Demak, pedagogning intellektual salohiyati nafaqat ta’lim sohasidagi, balki butun jamiyatdagi islohotlar va modernizatsiya jarayonlariga, global o‘zgarishlarga javob bera olishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi davlat siyosatida pedagog kadrlarning intellektual va kasbiy salohiyatiga, shu bilan birga yoshlarning bilim salohiyatiga, ulardagi iqtidor va iste’dodni aniqlash, ro‘yobga chiqarish va rag‘batlantirishga hamalohida e’tibot berib kelinmoqda. Buning huququy, dasturiy asosi, avvalo, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ishlab chiqilgan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida bilimli bo‘lish va iste’dodni rag‘batlantirish ta’kidlangan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida esa, iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va o‘qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratish vazifasi qo‘yilgan.

Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o‘ziga xos qobiliyati va iste’dodini o‘zvaqtida payqash, tarbiyalash va ro‘yobga chiqarish – bu o‘ta muhim vazifani nafaqat ota-onalarning ezgu-maqsadi, balki jamiyatning burchi sifatida o‘rtaga qo‘yish kerak. Mutafakkirlar har qanday ta’lim-tarbiyada eng asosiy narsa muallim, uning tafakkur dunyosidir, deb bejizga aytishmagan. XXI asr intellektual tafakkur va salohiyat asridir.

Kuch – bilim va tafakkurda. Bunday sharoitda o‘z ishidan qoniqmasdan, doimo yangilikka intilib, bilim va malakasini oshirish ustida ishlaydigan, hayot bilan hamqadam bo‘lib yashaydigan o‘qituvchi va muallimlarga har tomonlama yetuk insonlarni kamol toptirishga qodir bo‘ladi.

Demakki, o‘qituvchi va murabbiylarimizning aqli, idrokli, zehnli bo‘lishi, ilm o‘rganishga, o‘z bilimini chuqurlashtirishga bo‘lgan intilishi farzandlarimizning taqdiriga daxldordir. Ilmli, intellektual salohiyatli o‘qituvchigina ana shunday har tomonlama kamoltopgan aql-zakovatli avlodni tarbiyalay oladi. Yangi davr bolasidan ham aynan shu xislatlarning bo‘lishi taqozo etiladi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

12-AMALIY MASHG’ULOT.

Mavzu: Zamonaviy ta’lim sharoitida o’qituvchining operatsion-texnologik kompetentligi va uni takomillashtirish.

Mashg’ulot rejasi:

1.Zamonaviy ta’lim sharoitida o’qituvchining operatsion-texnologik kompetentligi va uni takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish.

Texnologik xarita - ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqtin, sharoitlarini belgilaydi. Umuman, ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli xomashyo materiallariga ishlov berish operatsiyalari yuqori darajali kasb ustalari tomonidan bajarilsagina mahsulot sifati kafolatlanadi.

Ta’limni texnologiyalash - bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Ta’lim texnologiyasining markaziy muammosi - ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat.

Ta’lim texnologiyasi loyihalash fani sifatida. Loyihalash fani sifatida, ta’lim texnologiyasi odamlar, jarayonlar, bilim, texnik vositalar va tashkiliy strukturalarni jalgan qiluvchi majmuaviy kop xajmli jarayonlar bo‘lib ko‘rinadi. O‘rganish va o‘qitishdagi turli muammolarga echim topish, loyihalash jarayoni, tatbiq qilish va boshqaruv, hamda baholashga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim texnologiyasi - ta’limning injiniring fani sifatida. Ta’lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar doimo maqsadli kun tartibiga ega. Ba’zan, u faqatgina joriy amaliyot samarasi yoki samaradorligiga yo‘nalsa, ammo tez-tez u yangi loyihalar kashf etish orqali ta’limni yaxshilashga yo‘naladi. “Texnologiya bizni turli loyihalarni ishlatib ko‘rish uchun kuchli qurollar bilan ta’minlaydi, bunda ta’lim nazariyasi o‘rniga, biz ta’lim fanini rivojlantirishni boshlashimiz mumkin. Ammo, bu fizika yoki psixologiya kabi tahliliy fan bo‘lishi mumkin emas, va u aeronavtika yoki sun’iy intellekt kabi loyiha faniga koproq monand bo‘lishi kerak. Misol uchun, aeronavtikada maqsad - qanday qilib turli ishlanmalar ko‘tarish, manevrlikni oshirishga hissa qo‘shishini izohlashdan iborat. Xuddi shunday, ta’limning loyiha-dizayn fani o‘rganish muhitlarining turli

dizaynlarining o‘rganish, xamkorlik, motivatsiy (tushunish) va ta’lim oluvchilarga qanday yordam berishini aniqlashdan ibora

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan yakuniga etkaziladigan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik jarayon - ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarining yig‘indisi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo’lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo’lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

13-AMALIY MASHG’ULOT.

Mavzu: Innovatsion hamkorlik sharoitida texnologiya o‘qituvchisining amaliy-faoliyatli kompetentligini rivojlantirish.

Mashg'ulot rejasি:

1.Innovatsion hamkorlik sharoitida texnologiya o'qituvchisining amaliy-faoliyatli kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish.

Zamonaviy ta'limga tashkil etishda pedagogning vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baxolash o'ituvchidan yuksak pedagogic mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi inovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z o'zida yuqorida buyruq, ko'rsatma bilan ta'lim jarayoniga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivaysiyasiga bog'liq bo'lgan jarayondir. Zamonaviy infarmatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayonida asosiy o'quvchining berilgan murakkab o'quv axborotlaridan osonlik bilan foydalana olishga yordam berish, o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish faoliyatiga imkoniyat yaratish vazifalarini bajaradi. Shularni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayoni va unda o'qituvchining ish faoliyatini rejalshtirishga doir ilmiy ishlarni keng doirada olib boorish kerak deb hisoblaymiz va bu o'z samarashini ko'rsatadi . Bugungi zamonaviy ta'lim tizimi pedagogdan o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro individual munosabat va zamonaviy axborat texnologiyalari imkoniyatlari ta'sirini faollashtirishni talab etmoqda. Ta'lim jarayonida zamonaviy infarmatsion va telakommunikatsion texnologiyalarni faol qo'llash o'quv jarayonida o'qituvchining o'rni, ro'li va pedagogik faoliyatini ma'lum darajada o'zgartirishga olib keladi. Hozirgi vaqtda asosiy e'tibor zamonaviy infarmatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayoni modelini yaratish va multimediya texnoloqiyalariga asoslangan elektron darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Innovatsiya - Yangilik, yangilik kiritish. Ta'lim innovatsiyalari ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida

qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning innovatsion, hamkorlik, modul, interfaol, individual, dasturiy, loyiha, masofaviy, kompyuter, muammoli, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan va mustaqil ta’lim, shuningdek, o‘yin texnologiyalari kabi turlari farqlanadi. Talabalarning o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta’lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqli. Amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modulli-kredit tizimi, masofali o‘qitish, blended learning (aralash o‘qitish) va mahorat darslari ta’limning innovatsion shakllari sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimida innovatsion xarakterga ega metodlar ham qo‘llanilmoqda. Ular orasida eng keng ommalashgan metodlar yagona nom bilan nomlanuvchi interfaol metodlar sanaladi. Hozirgi kunda ularning 100 dan ortiq turi mavjud bo‘lib, o‘quv materialining xarakteri, talabalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonida ularning har biridan samarali foydalanish mumkin. So‘nggi vaqtarda “Keys-stadi” metodi va “assesment” sinovi xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda. Innovatsion xarakterga ega vositalarning texnologik-didaktik imkoniyati talabalarning o‘quv-bilish faolligini oshirish bilan birga, o‘qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli oliy ta’lim muassasasi (OTM) da tashkil etilayotgan o‘qitish jarayonida kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, proektor, elektron doska, modem, telefon, internet, multimedia, mikrofon, karnay (kolonka), vebkamera, CD-ROM kabi texnik vositalar, ma’lumotlar ombori (bazasi) va vebinlar texnologiyalar kabi innovatsion xarakterga ega vositalar samarali qo‘llanilmoqda. Ta’lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o‘quv loyihalarning tayyorlanishiga e’tibor qaratilmoqda. Loyerha ta’limi texnologiyalaridan o‘quv amaliyotida foydalanishda “o‘quv loyihaviy faoliyat” tushunchasi ham qo‘llaniladi. O‘quv loyihaviy faoliyat o‘quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo‘lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasidir. Zamonaviy

sharoitda nafaqat ta’lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o‘quv faoliyatlarini nazorat qilishda o‘quv portfoliosi ham innovatsion xarakterga ega. Bo’lajak pedagoglarda texnologik kopetentlikni shakllantirishda oliy ta’lim muassasalarida inavatsion texnologiyalarining roli ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta’lim olish mumkin. Zero, an’anaviy ta’lim o’z mavqeini saqlab tursa ham, keying paytlarda masofaviy o’qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. 2012-yildan boshlab O’zbekiston Respublikasi barcha oliy ta’lim muassasalari o’rtasida birinchi videokonfrentsiya ta’lim texnologiyasi amalga oshirildi va hozirgi kunda bu borada elektron ta’limgakata e’tibor qaratilmoqda. Respublika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish- zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini ta’minlovchi kasbiy ta’lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa o’z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzlusiz ta’lim mazmunini yangilash, o’qitishning inavatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratin shakllantirdi. Shu asosda bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, ta’lim bosqichlarining o’zaro uzviyligi va uzlusizligini ta’minlash bo’yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalaridagi o’quvtarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o’qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantitish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy texnik inovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiyfoydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko’nikmalarini rivojlantirish muhim talablardan hisoblanadi. Mamlakatimizda ma`nan yetuk , ruhan sog`lom, uyg`un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar bazasini yaratishga erishildi.”Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat dasturi”ning samarali

amalga oshirilganligi buning yo`rquin dalilidir. Ta`lim-tarbiya samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatiga qaralayotgan ta`lim texnologiyalarni ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdan , multimedya resurslaridan oqilona foydalanishdan, buning mevasi bo`lgan o`quvchi bilish qobiliyatini o`stirishdan iborat. Bugungi kun o`qituvchisi oldiga o`qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini o`quv jarayoniga tatbiq etishni, o`quvchi shaxsiga nisbatan munosabatni tubdan o`zgartirishni va ta’lim muassasalarida o’tkazilayotgan dars jarayonlarini zamonaviylashtirishni taqozo etmoqda. Shu o‘rinda, avvalo, zamonaviy dars o‘zi qanday bo‘lishi kerak, degan savolga javob topish lozim. Zamonaviy darsga pedagogik fanlari doktor professor J.Yo‘ldoshev quyidagicha ta’rif bergan: “Zamonaviy dars shunday darski, unda o`qituvchi o`quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga solib, rivojlantirishni ta’minlaydi”.B.I.Muranov «Mehnat ta’limi muammolari, xususiyatlari». «Qashqadaryo ziyokori, 2000 yil 10soni. Darhaqiqat har bir o`qitilayotgan dars ham ob’ekt, ham sub’ekt sifatida o`quvchiga yo‘naltirilishi lozim. Bu jarayonning tashkilotchisi ham, olib boruvchisi ham, tahlil etuvchisi ham o`qituvchi. Shunday ekan, u dars mavzusini ilmiy, nazariy va amaliy-metodik jihatdan puxta bilishi, uni ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘lay olishi, o`quvchiga uning istakhohishi, ehtiyojiga mos holda sodda, ravon, tushunarli tilda to‘liq yetkaza bilishi lozim.

Bu esa, birinchi navbatda, o`qituvchining darsga qay darajada tayyorlanganligi bilan belgilanadi. Darsga tayyorgarlikni nimadan boshlash kerak?

- darsning mavzusini aniqlash va uni shakllantirish;
- o`quv kursida mavzuning o`rni va rolini belgilash.

Ikkinci navbatda o`qituvchi dars mavzusi mazmunini to‘la ochib berishi uchun belgilangan dars bosqichlarini mukammal, ma’lum bir ketma-ketlik asosida tashkil etishi zarur. Bular:

- darsning tashkiliy qismi;
- o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, uyga berilgan vazifani so‘rash va takrorlash;
- yangi mavzu bayoni;

- mustahkamlash, umumlashtirish;
- o‘quvchilarning bilimini baholash;
- uyga vazifa berish.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ushbu dars bosqichlari muayyan qolip emas, o‘qituvchi o‘zining har bir darsini o‘tiladigan mavzu, uning imurakkablik darajasi, mavjud shart-sharoit va mahoratidan kelib chiqqan holda bu jarayonni ijodkorlik bilan turli xil tartibda tashkil etishi mumkin. Lekin har qanday holatda o‘qituvchi darsdagi uch muhim bosqich-tashkiliy, asosiy va yakuniy qismlarni e’tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Shu asosda darsning rivojlantiruvchi ta’limiy funksiyalari izchillikda amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyaning muvofaqqiyatlari loyihalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda ularni to‘g‘ri baholay olishiga bog‘liq. Har bir darsda ta’limning aniq maqsadi belgilanishi, o‘qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo‘yicha o‘qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Har qanday fan o‘zining paydo bo‘lgan vaqtidan boshlab qayta bilimlar hajmini to‘plagan va yuqori tenglikda boyib bormoqda. Ma’lumki, bilimlarning o‘quvchilar tomonidan egallanishi, ularning xususiy o‘quv faoliyati natijasi tufayli ro‘y beradi. Har qanday o‘quv faoliyati umumiyligi loyiha bo‘yicha ko‘riladi va tuzatuvchi harakatlarni mujassamlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va

texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)

3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)
4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol usullarni o'zlashtirish, texnik, texnologik vositalarni amaliy joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa betlar).

14- AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Zamonaviy texnologiya o'qituvchisining o'zini-o'zi boshqarish va muammoli vaziyatlarni hal eta olish kompetentligi.

Mashg'ulot rejasি:

1.Zamonaviy texnologiya o'qituvchisining o'zini-o'zi boshqarish va muammoli vaziyatlarni hal eta olish kompetentligi metodikasini ishlab chiqish.

Pedagogning o'z ustida ishslash bosqichlari

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;

- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma’lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi (6-jadval):

Босқичлар	Уларда амалга ошириладиган вазифалар	Қайдлар
1-босқич		
2-босқич		
3-босқич		
4-босқич		
5-босқич		

6-jadval. Pedagogning o‘z ustida ishlash modeli

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishida o‘zini o‘zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi

O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir . O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O‘zini o‘zi baholash (O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi. O‘zini o‘zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga obyektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi .

O‘z-o‘zini baholash shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zini o‘zi samarali baholash omillari:

1. O‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish).
2. Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobjiy ma’lumotlarni to‘plash).
3. O‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqlishi yoki qoniqlasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi. Ko‘plab manbalarda shaxs tomonidan o‘z-o‘zini baholash quyidagi formula asosida aniqlanishi ko‘rsatilgan

O‘O‘B = yutuqlar / o‘zini yuqori baholashga intilish (yoki O‘O‘B = YU / O‘YUBI)

Formulaga ko‘ra, qandaydir yutuqqa erishgach, shaxs tomonidan o‘zini o‘zi yuqori baholash (yutuqlar hissasini oshirish) yoki o‘ziga nisbatan qo‘yayotgan talablarni pasaytirish ro‘y beradi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi Bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o‘z- o‘zini rivojlantirishida “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l kelishi aytildi.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o‘zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishi zarur.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi.

Pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan “Individual rivojlanish dasturi” quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- 1) pedagogik bilimlar;
- 2) psixologik bilimlar;
- 3) mutaxassislik bilimlari;
- 4) didaktik malakalar;
- 5) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- 6) ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- 7) o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
- 8) o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
2. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
3. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)

4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)

15-AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Zamonaviy texnologiya o'qituvchisining mustaqil ta'lim kompetentligi hamda "Portfolio"si.

Mashg'ulot rejasi:

1. Zamonaviy texnologiya o'qituvchisining mustaqil ta'lim kompetentligi hamda "Portfolio"sin yaratish.

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarining o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda o'quv portfoliosi ham innovatsion xarakterga ega. Ayni o'rinda ana shu vosita to'g'risida to'xtalib o'tiladi. So'nggi yillarda zamonaviy ta'limda pedagogning kasbiy, talabaning esa o'quv faoliyatini mazmunan takomillashtirish, shuningdek, har ikki faoliyat turining sifatini ma'lum ko'rsatkichlar asosida etarlicha, xolis baholashga nisbatan ehtiyoj kuchaymoqda. Portfolio pedagog hamda talabaning faoliyatiga bilvosita baho berish, qay darajada sifatli va samarali ekanligini tahlil qilish imkoniyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, portfoliolar pedagog va talabalarga ularning shaxsi, faoliyati bilan turli ekspertiza (tekshiruv)lar jarayonida komissiya a'zolarini bilvosita tanishish imkoniyatini beradi.

"Portfolio" (ingl. "portfolio" - "portfel", "hujjatlar solinadigan sumka") avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to'plami . Ushbu to'plam pedagog yoki

talabaning shaxsi, faoliyatining turlari, erishilgan yutuqlari to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlarni berishga xizmat qiladigan individual papka sanaladi. Umuman olganda, portfolio har bir pedagog yoki talabaning maksimal darajada erishgan yutuqlari, ularning ijodiy imkoniyatlari, qiziqish hamda qobiliyatlarini yoritadi.

Portfolio pedagog yoki talaba uchun o‘ziga xos reklamadir.

O‘quv portfoliosi. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar tajribasida keng qo‘llanilayotgan nazorat vositasi bo‘lgan o‘quv portfoliosi quyidagi imkoniyatlarga egaligiga ko‘ra amaliy ahamiyat kasb etadi:

- ko‘p funksiyalilik va o‘zining shaxsiy muvafaqqiyatini baholash;
- individual muvafaqqiyatlar monitoringini amalga oshirish;
- imtihonni tashkil etish;
- ta’lim natijalarini xolis belgilash;
- ta’limiy muvafaqqiyatlar hamda qo‘sishimcha natijalarni aniq ko‘ra olish;
- talabaning mavjud imkoniyat va qobiliyatlarini, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ko‘ra olish, shaxsiy, kasbiy hamda ijodiy salohiyatiga yetarlicha baho berish.

Mohiyatiga ko‘ra talabalarning o‘quv portfoliolari bir necha turga bo‘linadi. Ularning asosiy turlari:

1 -Hujjatlar portfoliosi.

2 - Ishlar portfoliosi.

3 - Natijalar portfoliosi.

4 - Baholovchi portfolio.

5 -Taqrizlar portfoliosi .

6 - On-line portfolio.

Talabalar o‘quv portfoliolarining asosiy turlari.

Quyida talabalar o‘quv portfoliolarining turlariga xos xususiyatlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

1. Hujjatlar portfoliosi (bunda talabaning individuall ta’limiy muvaffaqiyatlari aks ettiruvchi diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va b. jamlanadi).

2. Ishlar portfoliosi (unda talaba tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar, loyihibar, tadqiqotlar, ularning natijalarini aks ettiruvchi reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari,

elektron hujjatlar, modellar, loyihalar, ijtimoiy, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyatga doir hisobotlar, talaba tomonidan mustaqil yoki guruhdoshlar bilan hamkorlikda to‘plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joy oladi).

3. Natijalar portfoliosi (bunda talabaning o‘zi yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlari o‘rin oladi; natijalar portfoliosi individual va guruhli bo‘lishi mumkin; ushbu portfolioda aks etgan ma’lumotlar asosida “Eng yaxshi talabalar guruhi” tanlovini tashkil etish mumkin).

4. Baholovchi portfolio (u talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida shakllantiriladi; bu turdagи portfoliodan nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalar o‘rin oladi).

5. Taqrizlar portfoliosi (bunda talaba tomonidan erishgan yutuqlarni baholashga doir xulosa, taqriz, rezyume, esse, tavsiyanoma va tavsifnomalar jamlanadi)

6. Online portfolio (bu kabi portfolio turli shakllarda namoyon bo‘ladi; masalan:

- 1) talabalar tomonidan oliy ta’lim muassasasi yoki fakultet saytiga materiallarni qo‘shish;
- 2) shaxsiy veb-saytlarni yaratish;
- 3) semestr yakunlari bo‘yicha hisobot tayyorlash).

Portfoliolar yaratilishiga ko‘ra ham turlicha bo‘ladi. Ya’ni ular elektron, bosma va qog‘oz variantlarda yaratiladi. Qaysi variantda portfolioni yaratishni sub’ektning o‘zi tanlaydi. Portfolioda talabaning joriy, oraliq va mustaqil ishlari bo‘yicha bajargan topshiriqlari, ularga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari ham jamlanib boriladi. Portfolio yurgizish talabaning semestr (kurs) va o‘quv muddati davomidagi o‘zlashtirishi, mustaqil ish topshiriqlarini muntazam ravishda bajarib borganligi to‘g‘risidagi daliliy hujjat hisoblanadi.

Portfolio pedagogik jarayonda pedagogga talabaning erishayotgan yutuqlari yuzasidan monitoringni olib borish imkoniyatini yaratadi va o‘zlashtirish ballarining haqqoniy, ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi. Talabaga esa bilim darajasining qay darajadaligini, uning dinamik o‘sishini kuzatib borish, kasbiy jihatdan shaxsan rivojlanish darajasini mustakil baholash uchun zarur sharoitni yaratadi.

- 1. Istiqbolli ish o‘rniga ega bo‘lishda** (rahbariyat va hamkasblar yosh mutaxassis bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar).
- 2. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda** (tadqiqot natijalarini patentlashtirish imkoniyatini ta’minlaydi).
- 3. Fan olipiadalarda ishtirok etishda** (olipiadaning turli bosqichlarida talabaning imkoniyatlarini baholash va chamalashga muvffaq bo‘tinadi).
- 4. Nomdor hamda Prezident stipendiyasiga talabgor bo‘lishda** (tanlov xay’ati talabaning imkoniyatlaridan to‘la xabar bo‘ladi).
- 5. Shaxsiy maqsadlarni amalga oshirishda** (qo‘srimcha faoliyat turi bilan shug‘ullanishda hamkorlarga talaba shaxsini yaqindan tanishtirish imkoniyatini yaratadi).

Quyidagi holatlarda talabalar tomonidan portfoliolarning shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir:

Talabalarning portfoliolari quyidagi tuzilishga ega bo‘ladi:

- 1) titul;**
- 2) mundarija;**
- 3) portfolioning maqsadi;**

Adabiyotlar:

- Muslimov N.A. va b. Kasb ta’limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o’qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. T.: «Fan va texnologiyalar» 2013. – 26-28 b.
- Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo’ysinov O.A., Gaipova N.S. Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.(7-25betlar)
- Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t. (3-7 betlar)

4. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 4,5 b.t. (9-16 betlar)
5. Muslimov N.A., Gaipova N.S., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 5,0 b.t. (56-72 betlar)
6. 1. SH.M.Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: O'zbekiston-2016.
7. Ишмуҳаммадов Р. Тарбияда инновацион технологиялар – Т.: "Fan va texnologiyalar" нашриёти, 2010.
8. N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, SH.Abduraxmonov, Q.M.Abdullayeva N.S.Gaipova Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari metodik qo'llanma.. Toshkent-2014.

Keys-stadi texnologiyasi:

Keys-stadi texnologiyasi "Case" so'zi, lotincha "casus"- "voqeа, hodisa" so'zidan kelib chiqqandir. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqeа yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi. Umuman olganda, keys – stadi (aniq bir holat yoki vaziyat), muayyan jarayonida sodir bo'ladigan haqiqiy voqelikni so'zlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, bu ifoda ta'lim sohasida, hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qo'llaniladi. Keys-stadi hodisa yoki vaziyatni oddiy tafsilotidan farqli o'laroq, u o'quv materialini o'zlashtirish uchun ko'maklashuvchi axborotni o'z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning echim yo'llarini izlash orqali erishiladi. Keys-stadi, muayyan o'quv maqsadli bilim olish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqsadlar keng ko'lami bo'lib, axborotlar, ma'lumotlar yoki tafsilotlar bilan ta'minlanishini nazarda tutadi, ular muayyan qarashlar yoki usullarni namoyish etishda qo'llanilishi mumkin. "Keys-stadi" atamasini o'qitish va tadqiq etish yo'nalishlarida qo'llashda turlicha

yondashish zarurligini alohida qayd etish lozim. Keys usul birinchi marta Garvard biznes-maktabida bo‘lg‘usi advokatlarni amaliy malakalarga o‘rgatishda ishlatila boshlangan edi. Vaziyatlar mazmuni va tafsilotini ifodalashning turli xil ko‘rinishlari mavjud. Keys-stadi bor-yo‘g‘i bir necha iboralardan tortib, yuzlab varaqlardagi hajmgacha ega bo‘lishi mumkin. Yirik hajmdagi keys-stadiga duch bo‘lgan tahsil oluvchilar, odatda keys-stadining tafsiloti qanchalik yirik bo‘lsa ular shunchalik murakkab deb hisoblaydilar. Bu noto‘g‘ri xulosadir – chunki ko‘pchilik qisqa keyslar chigalroq bo‘ladi. Keysni tuzishda muayyan vaziyatni ifodalash uchun uning yozma shaklidan foydalanish shart emas. Vaziyatlarni ifodalash uchun fotografiya, videofilmlar, audioyozuvlар yoki slaydlardan foydalanish mumkin. Barcha ushbu vositalar tahsil oluvchilarga vaziyatni haqiqatga yaqinroq gavdalantirishga yordam beradi. SHu bilan birga yozma shakldagi axborot masalan fotografiya shaklidagi axborotdan ko‘ra qayta ishlash va tahlil etish uchun qulayroqdir. Bu hollarda fotografiyalarni yozma shakldagi axborot bilan to‘ldirish zarur. Yozma keyslarni o‘rganish tajribasi bo‘lgan tahsil oluvchilarni o‘qitishda multivositalar axborotlaridan foydalanilgan keyslarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Keys-stadi (muayyan vaziyatlar) individiumlar, sheriklar, guruhlarda, korxonalarda, hattoki butun bir mamlakat miqyosida o‘zining ta’lim xususiyatiga ko‘ra nazarga keluvchi muammolarni ifodalashi mumkin. Keyslar ta’limning turli sohalarida: biznes, boshqaruv, tibbiyat, arxitektura, qurilish, hamda nostandard muammolar majmuasi echimini qabul qilish malakasini talab etadigan barcha fanlarda qo‘llanilishi mumkin. “Keys-stadi” yordamida o‘qitishda muammolar aniqlanadi, echimlar topiladi, tavsiyalar ishlab chiqiladi. Sifatli keys-stadilar, ularni KASBIY TA’LIM METODIKASI 351 tayyorlash, rasmiylashtirish va tekshirish uchun ko‘p vaqt talab etadi. Shu bilan birga to‘g‘ri tuzilgan va o‘quv faniga kiritilgan keys-stadi, fanni o‘zlashtirishda ko‘zlangan natijalarga erishishga imkoniyat beradi.

“KEYS №-1”

(Matnli keys) Sobir o‘rtta maktabning 9-sinfini tamomladi. Shahodatnomasida “uch” baholar ko‘p bo‘lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, Sobir hech bir kasb-hunar kollejiga qabul qilinmadni. Har bir kollejning rahbari Sobirni boshqa akademik litsey

va kasbhunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. Biroq, Sobirning ota-onasi har gal o‘g‘illarini o‘zлari yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta’lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

Savollar: 1. Ayting-chi, kasb-hunar kollejlarining rahbarlari Sobirni o‘qishga qabul qilmaslikka haqlimilar?

2. Sobirnining ota-onalari-chi?

3. Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Talabalar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratting.

4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.

5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

“KEYS №-2”

Yangi guruhda dars boshladingiz. Birinchi darsdanoq 3-qatorda o‘tirgan talaba luqma tashlab o‘rtoqlarini kuldira boshladi. Siz unga tanbeh berasiz. U uzr so‘raydi, lekin birozdan so‘ng yana boshqa xarakatlar bilan o‘rtoqlari e’tiborini tortadi. Uning qiliqlari shaxsan sizga qaratilmagan bo‘lsada, darsning borishiga salbiy ta’sir qiladi. Sabr kosangiz to‘lib talabani darsdan chiqarib yubordingiz. U indamay chiqib ketdi. Keyingi xaftadagi darsingizda xuddi shunday xolat yuz berdi. Siz raxbariyatga talaba ustidan shikoyat yozasiz va xuddi shu kun gazetalarining birida “Talabasi ustidan shikoyat qilgan o‘qituvchi o‘z kasbining ustasi emas” degan fikrni o‘qib qolasiz. Bu fikr sizni o‘ylantiradi. O‘zingiz chora izlashga xarakat qilasiz. Talabangiz xaqida surishtirasiz. U oilasining yolg‘iz arzandasini ekanligi, bunday qiliqlari bilan aynan sizning darsingizga xalaqit berish niyatida emas. Uning tabiat shunday, doimo ota-onasining e’tibor markazida bo‘lgan bu arzanda, kursdoshlarining ham e’tiborini qozonish niyatida shunday qilmoqda.

Bunday xolatni bartarf etish uchun siz qanday tadbir qo‘llaysiz...?

1-topshiriq. Matnni yaxshilab o‘qib asosiy tushunchalarini ajratib oling.

2-topshiriq. Strategik reja tuzish.

3-topshiriq. Muammoning kelib chiqish sabablari.

4-topshiriq. Muammoga echim topish.

“KEYS №-3”

Keys bayoni. Ta’lim innovatsiyalaridan samarali foydalanishda pedagoglarning kasbiy mahorati, kompetentligi, iqtidori va ish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog qanchalik darajada kasbiy mahorat, kompetentlik, iqtidor va ish tajribasiga ega bo‘lsa, u ta’lim innovatsiyalarini o‘z faoliyatida shunchalik faol qo‘llaydi va samarali natijalarga erishadi. Keys topshirig‘i.

Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing?

Muammolar Echim Natija

“KEYS №-4”

“Pedagogika” kafedrasida ikki yosh o‘qituvchini yangi ishga olish jarayonida ularga “binar” tarzda Ochiq dars o‘tish vazifasi yuklatildi. Dars o‘tish tartibini ikki yosh o‘qituvchi Zarina va Oydin kelishib olishdi. Rejaga ko‘ra 1-2 rejalar ni Zarina 3-4 rejalar ni Oydin o‘quvchilarga tushuntirib beradigan bo‘lishdi. E’lonlar osildi, dars kuniga dekan va kafedra a’zolari tashrif buyurishdi. Zarina Oydinga qo‘ng‘iroq qilib kela olmasligini farzandini balnitsaga olib ketayotganini, kafedra mudirini ham ogohlantirib qo‘yganini ma’lum qildi. Oydin asbiylashib Zarinaga baqira ketdi. Va asabiylashgan holatda dars boshladi, lekin darsini o‘zi o‘ylagan tarzda tashkil qila olmadi. 1-Oydin faqat 3-4 rejalarga tayyorlangan edi. 2-O‘zi tushkun holatda edi. Shu vaziyat siz bilan sodir bo‘lganda qanday vaziyatdan chiqardingiz va darsni qanday tashkil qilgan bo‘lardingiz?

1-topshiriq. Bu vaziyatda kim aybdor?

2-topshiriq. Ular darsni qay tarzda o‘tkazishlari kerak edi?

3-topshiriq. Mavzu rejalarini taqsimlab olish qay darajada to‘g‘ri?

4-topshiriq. Siz raxbar bo‘lganingizda bu ikki o‘qituvchini ishga olarmidингiz?

(Xa-izox. Yo‘q-izox)

“KEYS №-5”

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak deb o‘ylaysiz?

“KEYS №- 6”

Hammamizga yaxshi ma’lumki, oliy ta’limda seminar mashg‘ulotlari talabalarda o‘rganilgan materiallarni mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazilish tartibiga e’tibor qarataylik. Odatda, seminar mashg‘ulotlarini assistant o‘qituvchilar olib borishadi. Seminar mashg‘ulotlarini ham tashkil etishda xilma-xil yondashuv mavjud. Ba’zi professor-o‘qituvchilar mashg‘ulot jarayonida tayyorlanib kelgan talabalardan so‘raydi, ularni baholab qo‘yish bilan cheklanadi. Kimdir ommaviy tarzda savolvjavob o‘tkazish orqali maqsadga erishishga harakat qiladi. Biroq reyting tizimi

qoidasiga ko‘ra, har bir seminar mashg‘ulotida talabalarning bilimini tekshirib, belgilangan mezon doirasida hammaning ball olishiga erishish lozim. Lekin ko‘pchilik o‘qituvchilar bunga erishish imkoniyati yo‘q, deb hisoblashadi. Ayrimlar esa talabalar yozib kelgan konspekt va faolliklariga asoslangan holda ball qo‘yib berish mumkin, deb hisoblashadi. Vaziyatni baholash uchun savollar: Seminar mashg‘ulotlarini assistent o‘qituvchilar samarali tashkil etmoqdalar deyish mumkinmi?

Seminar mashg‘ulotini tashkil etish samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerak?

Seminar mashg‘ulotlarida kutilgan natijaga erishish maqsadida ishni qanday tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq?

Seminar mashg‘ulotlarida talabalarning hammasini baholashga qanday erishish mumkin?

Muammolar Echim Natija

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishning qanday echimlar bo‘lishi mumkin? Vaziyatni o‘rganish va vaziyatni baholashga doir savollarni tahlil etish asosida mavjud seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish yuzasidan SWOT-tahlilni amalga oshiring.

KEYS №7

Pedagogik nizo va uni hal etish yo‘llari Ma’lum muddat tibbiy davolanishda bo‘lib, yangi o‘quv yilidan yana qaytadan ishga qaytgan “Texnologgi ta’lim ” kafedrasi o‘qituvchisi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 303 guruhida Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fanidan seminar mashg‘ulotini o‘tkazayotgan edi. Seminar mashg‘ulotida talabalarni kichik guruhlarda ishlashlarini tashkillashtirdi. Talabalar kichik guruhlarda ishlarni davom ettirayotgan bir paytda, mashg‘ulot boshlanganiga o‘ttiz daqiqa bo‘lganida mazkur guruh talabasi A.Petrova eshikni ochib, auditoriyaga kirishga ruxsat so‘radi. O‘qituvchi esa mashg‘ulot boshlanganiga ancha vaqt bo‘lganini, u bir necha marotabadan bo‘yon kechikib kelayotganini aytib, mashg‘ulot vaqtida kechga qolgan talaba A.Petrovaning auditoriyaga kirishiga ruxsat bermadi. Talaba esa, auditoriyadan chiqib ketishni xohlamadi. O‘qituvchi undan auditoriyadan chiqib ketishni talab etdi va oxir-oqibat xonadan chiqarib yubordi. Ertasi kuni

auditoriyaga kiritilmagan qizning onasi nomidan fakultet dekanatiga shikoyat xati kelib tushdi. Shikoyat xatida talaba-qizning onasi homilador ekanligiga qaramasdan va har qanday holatda ham o‘qituvchi talabani mashg‘ulotga kiritmasdan, uni turtib auditoriyadan chiqarib yuborgani pedagogik etika zid ish ekanligi, o‘qituvchining kompetentligini aniqlash uchun Davlat test markazidan xolis ekspertlar chaqirib, sinovdan o‘tkazish va shikoyatga yozma ravishda javob qaytarish, agar kerakli chora ko‘rilmasa, yuqori tashkilotlarga murojaat qilishi haqidagi talabni qo‘ygan edi. Ertasi kuni fakultet dekani va o‘rinbosari N.Xafizovni bu haqida ogohlantirdi. O‘qituvchi esa dekanga u hech qanday ortiqcha harakat qilmagani, talaba qiz hamma vaqt darsga kechikib kelishini aytib qo‘pol munosabatda bo‘ldi. Bir hafta muddat o‘tib, dekan kafedra mudiridan mazkur masalani yig‘ilishda muhokama qilib, qaror chiqarib berishni so‘radi. Kafedra majlisida mazkur masala muhokama etildi. Kafedra professor-o‘qituvchilari har qanday vaziyatda ham N.Xafizovni qo‘llab-quvvatlashlarini bildirdi. Biroq talaba-qizning homilador ekanligini hisobga olib, undan uzr so‘rash haqidagi taklifni kiritishdi. N.Xafizovga so‘z berilganda esa, u pedagoglik odobiga zid hech qanday xatti-harakat sodir etmaganligini, talabaqizdan uzr so‘ramasligini bildirdi. Oradan bir hafta muddat o‘tib, N.Xafizov kafedra mudirining ishdan bo‘samasligi haqidagi iltimosiga karamasdan, o‘z arizasiga ko‘ra vazifasidan ozod etildi. Yuqorida keltirib o‘tilgan vaziyatni tahlil eting.

Siz N.Xafizovning o‘rnida bo‘lganiningizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz? N.Xafizovning ishdan bo‘shab ketishi to‘g‘ri bo‘ldimi?

1. Keys bilan tanishish (individual) – 3 daqiqa Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e’tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag‘ishlanganligini aniqlang.
2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash (individual va kichik guruhlarda) – 5 daqiqa Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O‘z fikringizni guruh bilan o‘rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e’tibordan chetda qoldirmang.
3. Muammo echimini topish va erishiladigan natijani aniqlash – 7 daqiqa Guruh bilan birgalikda muammo echimini toping. Muammoga doir echim bir necha variantda

bo‘lishi ham mumkin. SHu bilan birga siz topgan echim qanday natijaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang.

4. Keys echimi uchun taklif etilgan g‘oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa Guruh bilan birgalikda keys echimiga doir taqdimotni tayyorlang.

Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida aniqlik, fikrning ixcham bo‘lishi tamoyillariga rioya qiling.

“KEYS № 8”

Pedagogik kengash yig‘ilishida maktab direktori o‘qituvchilarning e’tiborlariga quyidagi ma’lumotni aytib o‘tdi: 6 nafar ota-onanidan farzandini ingliz tili chuqurlashtirilib o‘tiladigan 5-sinfga qabul qilinishi so‘ralgan ariza berildi. Sinfga faqatgina bir nafar o‘quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Sizlar qanday fikrdasizlar, kimni qabul qilamiz? Ariza bergan o‘quvchilarning ijtimoiy ahvoli va tabaqlashtirilgan sinfga qabul qilinishni asoslovchi holatlari: 1-o‘quvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a’lo baholarga o‘qiydi. 2-o‘quvchi: mакtab joylashgan hududda istiqomat qiladi, uning mahalladagi barcha do‘satlari ana shu sinfda ta’lim olishganligi sababli shu maktabga o‘tishga qaror qilgan. 3-o‘quvchi: boshqa shahardan kelgan, uning ota-onasi diplomat, shu sababli o‘quvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, 3 oydan so‘ng ular boshqa davlatga ko‘chib ketadi. 4-o‘quvchi: ikkinchi yilga qolgan, 4 fanni “qoniqarsiz” bahoga o‘zlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar bo‘limda ro‘yxatda turadi, biroq, mакtab joylashgan hududda istiqomat qiladi. 5-o‘quvchi: qishloqdan ko‘chib kelgan, u erdaga mакtabda esa ingliz tili o‘qitilmagan, mакtab joylashgan hududda istiqomat qiladi, ko‘p vaqtini bekor o‘tkazadi. 6-o‘quvchi: bolalikdan 2-guruh nogironi, bolalar selebral paralichi (BSP) tashxisiga ega, fanlarni “4” va “5” baholarga o‘zlashtiradi, yolg‘iz onaning qo‘lida tarbiyalanadi, shu bilan birga mакtab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

Sizningcha, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga qaysi o‘quvchi qabul qilinadi? Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi. O‘qituvchining echimi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to‘g‘risida”gi Qonunlarida bayon etilgan me’yoriy talablarga muvofiq ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga bolalikdan ikkinchi guruh nogironi bo‘lgan o‘quvchi qabul qilinadi.

“KEYS № 9”

Bir kuni algebra darsida, - deb o‘quvchi qiz hikoya qiladi, - men darsga qulq solmay, hech narsaga e’tibor qilmay, kitob o‘qib o‘tirgan edim. Birdan o‘qituvchi meni doskaning oldiga chaqirdi. Men buni eshitmadim, ammo orqa partada o‘tirgan sinfdoshlarim mening el kamga niqtay boshlashdi. Avval bundan jahlim chiqdim va hech narsaga tushunmay atrofga alanglab qaray boshladim. Butun sinf o‘quvchilarini mening ustidan kulishdi. O‘qituvchi: “Nima bo‘ldi?”, deb so‘radi. Men xotirjam holda “Bilmadim” dedim va doskaning oldiga chiqdim. O‘qituvchining savolari juda yaxshi javob berdim va joyimga o‘tirdim. O‘qituvchi esa men u to‘g‘risida sinfdoshlarimga nimadir deganligim uchun ular kulishdi, deb o‘ylagan bo‘lsa kerak, o‘sha kundan boshlab menga g‘alati qaraydigan bo‘ldi. Men ham bolalar nima uchun kulishganligini o‘qituvchiga ochiq aytma olmadim va o‘qituvchidan qochib yuradigan bo‘ldim. Bu holat deyarli bir yil davom etdi. Men algebra fani asoslarini puxta o‘zlashtirdim, biroq, bu fandan bo‘ladigan darslarga borish men uchun azob bo‘ldi”. Savollar:

1. O‘qituvchining pedagogik xatosi nimada edi?
2. Bu vaziyatda o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi zarur?

Keysni echish jarayoni: 1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
 3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
 4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
 5. Echim individual, kichik guruhlari yoki jamaa ishtirokida muhokama qilinadi.
- O‘qituvchining echimi 1. O‘qituvchining pedagogik xatosi vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaganligida. Avvalo, humor yordamida vaziyatni aniqlashtirib olishi zarur edi. 2. Bu vaziyatda o‘qituvchi o‘quvchilarining kulgusini bartaraf etish uchun insonning diqqati bir ob’ektdan ikkinchi ob’ektga tez ko‘chishini, fikrlash tezligi esa optik tezlikka nisbatan sust ekanligini, shu sababli miya tomonidan axborotlarni qabul qilishda ba’zan noqulay holatlar ro‘y berishi mumkinligini tushuntirib o‘tishi, nima uchun kulgu ko‘tarilganligining sababini esa tanaffusda o‘quvchi bilan muloqotni tashkil etgan holda aniqlab olishi mumkin edi.

GLOSSARIY.

Kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo’llay olish;

Kompetentlik - shaxsning muayyan ta’lim yo’nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo’llay olish qobiliyatidir.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kognitiv – doimiy ravishda ta’lim olganlik darajasini oshirishga tayyorlik, o’z shaxsiy potensialini faollashtirish va amalga oshirishga ehtiyoji.

Kommunikativ – turli tillardagi yozma va og’zaki muloqot texnologiyalariga egalik, shu bilan birga kompyuter savodxonligi.

Kommunikativ kompetensiya – bu o‘rganilayotgan chet tili bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llay olish layoqatidir.

Kasbiy pedagogik madaniyat - bu pedagogik kasbga ega bo‘lgan, uning umumiyligi madaniyatini loyihalashtiradigan o‘qituvchi shaxsining ajralmas sifat.

Konstruktiv - pedagogik vazifalarni belgilash qobiliyati (tahlil qilish, natijalarni prognozlash, harakatlarni rejalashtirish).

Konfidensiallik prinsipi kompetentlik baxosini aniklashga murojaat etgan mijozlarning ximoyasiga qaratilgan bir qancha talablarni bajarishga qaratilgan.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Ko‘nikma - insонning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.

O‘quv dastur - muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiyligi vaqtning mavzularni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat.

O‘quv rejasi - ta’lim muassasida o‘qitiladigan o‘quv fanlarining tartibi, ularning o‘quv yili bo‘yicha taqsimlanishi, har bir o‘quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o‘quv soatlari, shuningdek, o‘quv yili tuzilishini belgilovchi me’yoriy hujjat.

Tashkiliy - pedagogik jarayonni amalga oshirish bilan bog’liq pedagogik harakatlarni dasturlash qobiliyati

Texnologiya-yunoncha ikki so‘zdan - "texnos" (Techne) - san’at, hunar va "logos" (logos) - fan so‘zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma’nosini anglatadi.

Ta’lim texnologiyasi - ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Texnologik yondashuv. Texnologiya - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo’llanadigan usul va metodlar majmui bo’lib, shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta’riflanadi.

Ta’lim vositalari - o‘quv jarayonining tashkil etilishi va o‘tib borishini ta’minlaydigan xilma-xil o‘quv jixozlari.

Ta’lim mazmuni - insonni o‘qitish jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi va harakteri.

Tashqi madaniyat –boshqa odamlar bilan jamiyat va o’zaro yuqumli inson xulq hisoblanadi. Ayrim hollarda tashqi va rasmiy madaniyat butunlay bir biriga , bazan xatto bir-biriga zid bo’lishi mumkin.

Tizim – yaxlitlik, bir butunlik.

Tahlil qilish - materiallarni qismlarga ajratish.

Ta’lim metodi - ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakan boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Texnologik jarayon - ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan yakuniga etkaziladigan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita - ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqtin, sharoitlarini belgilaydi. Umuman, ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli xomashyo materiallariga ishlov berish operatsiyalari yuqori darajali kasb ustalari tomonidan bajarilsagina mahsulot sifati kafolatlanadi.

Taqrizlar portfoliosi (bunda talaba tomonidan erishgan yutuqlarni baholashga doir xulosa, taqriz, rezyume, esse, tavsiyano ma’lumatlari jamlanadi).

Taksonomiya tushunchasi- (grekcha tartib bilan joylashtirish) biologiya

fanidan olingan. Ob'ektlarni, ularning tabiiiv o'zaro bogliqligiga asoslanib va

toifalari murakkablashib boradigan ketma-kctlikda (ya'ni ierarxik) joylashtirish.

Texnologik operatsiya- bir eki bir necha tomondan bir ish urnida bajariladigan texnologik jarayonning tugal kismini bildiradi. (masalan : kirkish, sharklash, aralash.). Texnologik jarayonning navbatdagi elementi utishdir (perexod). O’tish texnologik operatsiyaning bir ish urnida bir asbob bilan bajariladigan qismidir.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayonishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish,to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

Innovatsiya - Yangilik, yangilik kiritish. Ta’lim innovatsiyalari - Ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida

qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyatga samarali tatbiq etish;

Internet- (angl. "Internet" - butunjahon kompyuter tarmoqlarining birlashgan tizimi).

"Integratsiya"- so'zi lug'atda lotincha "tegragrac" so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish ("integr"— to'liq, butun, yaxlit) degan ma'noni anglatadi.

Interfaol ta'lim - talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Ilmiy-medotik prnsipi-ishni anna xam asosli kilib, sifatlinatijalarni erishishga yerdam beradi. Professional kompetensiyani baxolash xodimlarining bashorat ishining baxosini oshiradi.

Ichki madaniyat – maxoratm bilim va har bir inson hayotining asosi tuyg'ulari hisoblanadi. Bu bo'lishi mumkin: razvedka, ta'lim akslokiy va tarbiya rivojlantirish.

Ilmiy bilim - o'bektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi.

Ixtisoslik- insonning mexnat taksimoti natiyjasida kasb ichida aloxidalangan doimiy ishlab chikarish faoliyati (asbob soz slesor, yiguvchi slesor, universal chilangir). **Idrok** - sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarining unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir.

Natijalar portfoliosi (bunda talabaning o'zi yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlari o'rinn oladi;

Pedagogik faoliyat – bu inson shaxsini, uning dunyoqarashini, ishonchini, ongini, xulqini shakllantirishga bo'nsundirilgan cheksiz masalalarini yechish jarayonidir.

Pedagogik faoliyat - bu ijodiy jarayon, chunki har bir o'qituvchi o'ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun pedagogik ish madaniyati so'f individualdir.

“Pedagogik texnologiya” - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik muammo - hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma’lum bo‘lgan pedagogik xarakterdagi masala.

Pedagogik texnologiya - ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash.

Pedagogik texnika - o‘qituvchining o‘z xatti-harakatlarini boshqarishga aytildi.

“Portfolio” (ingl. “portfolio” - “portfel”, “hujjatlar solinadigan sumka”) avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to‘plami .

Metodik kompetentlik – pedagogik jaraènni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakli.

Motivatsion komponent – ehtiyojlar, motivlar, yo‘naltirilganlik, kasbiy sohadagi mehnat faoliyati, ushbu faoliyatni takomillashtirishga intilish.

Multimedia - (ingl. “multi” - ko‘p, “media” - muhit) - bitta raqamli taqdim etishda matn, ovoz, garfika, foto, videoni birlashtiradigan zamonaviy texnik va dasturiy vositalarni qo‘llash asosida interfaol dasturiy ta’milot boshqaruviga ko‘ra sodir bo‘ladigan vizual va audioeffektlarning o‘zaro ta’siri.

Metod- so‘zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli deganidir.

Malaka - avtomatlashgan, o‘rganib qolning harakatdir.

Mahorat-arabcha “mahorat” – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o’ta mohirlik bilan bajarish demkdir.

Nazariy bilim - narsa va hodisalar mohiyatini bilish, qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi.

Baholovchi portfolio (u talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida shakllantiriladi; bu turdagи portfolio dan nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalar o‘rin oladi) .

Bilim - o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir.

Baholash - natijalar bilan maqsadni qiyoslash.

Uzluksizlik - ish harakat usullarini belgilangan vaqt davomida berish.

Reyting - baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash.

Refleksiya - bu amalga oshirilgan faoliyat, tafakkur, muloqot va bu faoliyat davomida insonning o'z psixologik holatini tahlil qilishi, anglashi, maqsadlari harakatlari, histuyg'ularini muvofiqlashtirishi jarayonidan iborat.

"SWOT" – metodi inglizcha so'z brikmalarining qisqartmasidan hosil bo'lgan. Ushbu metod bir masalaning to'rt qirrasini ko'rib chiqish imkonini beradi.

Loyihalash (lot. rrojectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz).

Didaktika – grekcha didaskien so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'tgataman mahnolarini anglatadi. Shunga ko'ra didaktika – bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika ukitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maksadlarini ishlab chikadi.

Sezish - ongning tashqi olam bilan bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodi-salarning sezgi organlari (bizga ma'lumki, ular beshta)ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his ettiradi. Sezish muayyan narsa, voqea-hodisalar mazmunini ongda idrok etilishiga olib keladi.

Idrok - sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir.

Nazorat testlari:

1. Lug'aviy jihatdan "competence" tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?
 - a) xarakter;
 - b) temperament;
 - c) qobiliyat;

d) idrok.

2. Kasbiy faoliyatni amalgalashda oshirishda mutaxassis tomonidan o‘zi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi qanday sifatni ifodalaydi?

- a) bilimni;
- b) kompetentlikni;
- c) ko‘nikmani;
- d) malakani.

3. Kasbiy kompetentlik sifatlarini belgilang.

- a) ijtimoiy, maxsus, kreativ, innovatsion va ektremal kompetentlik;
- b) psixologik, maxsus, shaxsiy, individual va texnologik kompetentlik;
- c) ijtimoiy, maxsus, shaxsiy, texnologik va ektremal kompetentlik;
- d) ijtimoiy, metodik, tashkilotchilik, texnologik va individual kompetentlik.

4. Ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish. Bu holatlar pedagogda qanday kompetentlik mavjudligini ifodalaydi?

- a) shaxsiy kompetentlik;
- b) maxsus kompetentlik;
- c) ijtimoiy kompetentlik;
- d) ekstremal kasbiy kompetentlik.

5. “Kreativlik” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi – bu...

- a) yaratish;
- b) yangilik kiritish;
- c) o‘zgartirish kiritish;
- d) shaxs ijodkorligi.

6. Individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiradigan ijodiy qobiliyati qanday nomlanadi?

- a) eruditsiya;
- b) intuitsiya;
- c) kreativlik;
- d) evrika.

7. Lug‘aviy jihatdan “competence” tushunchasi qanday ma’noni ifodalaydi?

- a) xarakter;
- b) temperament;
- c) qobiliyat;
- d) idrok.

8. Kasbiy faoliyatni amalga oshirishda mutaxassis tomonidan o‘zi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi qanday sifatni ifodalaydi?

- a) bilimni;
- b) kompetentlikni;
- c) ko‘nikmani;
- d) malakani.

9. 1) murakkab jarayonlarda; 2) raqobatchilar bilan kurashishda; 3) noaniq vazifalarni bajarishda; 4) bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda; 5) har qanday vaziyatda ham yutuqqa erishishga intilishda; 6) kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda. Kompetentlik yaqqol namoyon bo‘ladigan holatlarni belgilang.

- a) 1; 2; 3; 4;
- b) 2; 3; 5; 6;

c) 1; 3; 4; 6;

d) 1; 3; 4; 5.

10. A.K. Markovaning fikriga ko‘ra, pedagogda kasbiy kompetentlikning qaysi jihatlari namoyon bo‘ladi?

a) maxsus (kasbiy) kompetentlik; axborot kompetentligi; shaxsiy kompetentlik; psixologik kompetentlik;

b) metodik kompetentlik; innovatsion kompetentlik; shaxsiy kompetentlik; individual kompetentlik;

c) maxsus (kasbiy) kompetentlik; psixologik kompetentlik; innovatsion kompetentlik; kommunikativ kompetentlik;

d) maxsus (kasbiy) kompetentlik; ijtimoiy kompetentlik; shaxsiy kompetentlik; individual kompetentlik.

11. B.Nazarova pedagogning kasbiy kompetentligida qaysi jihatlarni ustuvor deb belgilagan?

a) maxsus kompetentlik; ijtimoiy kompetentlik; psixologik kompetentlik; innovatsion kompetentlik;

b) maxsus kompetentlik; ijtimoiy kompetentlik; autokompetentlik; ekstremal kasbiy kompetentlik;

c) metodik kompetentlik; kreativ kompetentlik; autokompetentlik; ekstremal kasbiy kompetentlik;

d) innovatsion kompetentlik; metodik kompetentlik; autokompetentlik; ekstremal kasbiy kompetentlik.

12. Kasbiy kompetentlik sifatlarini belgilang.

a) ijtimoiy, maxsus, kreativ, innovatsion va ektremal kompetentlik;

b) psixologik, maxsus, shaxsiy, individual va texnologik kompetentlik;

c) ijtimoiy, maxsus, shaxsiy, texnologik va ektremal kompetentlik;

d) ijtimoiy, metodik, tashkilotchilik, texnologik va individual kompetentlik.

13. Ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish. Bu holatlar pedagogda qanday kompetentlik mavjudligini ifodalaydi?

- a) shaxsiy kompetentlik;
- b) maxsus kompetentlik;
- c) ijtimoiy kompetentlik;
- d) ekstremal kasbiy kompetentlik.

14. Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik. Ushbu tarkibiy asoslar pedagogga xos qanday kompetentlikka xos?

- a) shaxsiy kompetentlikka;
- b) maxsus kompetentlikka;
- c) ijtimoiy kompetentlikka;
- d) ekstremal kasbiy kompetentlikka.

15. Izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish negizida pedagogga xos qanday kompetentlik aks etadi?

- a) shaxsiy kompetentlik;
- b) maxsus kompetentlik;
- c) ijtimoiy kompetentlik;
- d) ekstremal kasbiy kompetentlik.

16. Kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish pedagogga xos kompetentlikning qaysi sifatini ifodalaydi?

- a) texnologik kompetentlikni;
- b) maxsus kompetentlikni;
- c) ijtimoiy kompetentlikni;

d) ekstremal kasbiy kompetentlikni.

17. Favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. Ushbu malakalarga egalikni ifodalovchi kompetentlikka xos sifat – bu ...

- a) maxsus kompetentlik;
- b) ekstremal kompetentlik;
- c) ijtimoiy kompetentlik;
- d) texnologik kompetentlik.

18. Pedagogning o‘z ustida ishlashi necha bosqichda kechadi?

- a) 3 bosqichda;
- b) 5 bosqichda;
- c) 7 bosqichda;
- d) 9 bosqichda.

19. O‘z ustida ishlaganda pedagogning yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelishi qaysi bosqichda ro‘y beradi?

- a) 1 bosqichda;
- b) 2 bosqichda;
- c) 3 bosqichda;
- d) 4 bosqichda.

20. O‘z ustida ishslashning 1-bosqichida pedagog tomonidan qanday harakatlar tashkil etiladi?

- a) yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelish;
- b) ushbu qaror bo‘yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo‘llarini izlash;
- c) o‘z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash;

d) qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish.

21. Pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishi – bu ...

- a) o‘z-o‘zini rivojlantirish;
- b) o‘z-o‘zini baholash;
- c) o‘zini o‘z tahlil qilish;
- d) o‘zini o‘zi anglash.

22. Shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi qanday nomlanadi?

- a) o‘z-o‘zini rivojlantirish;
- b) o‘z-o‘zini baholash;
- c) o‘zini o‘zi tahlil qilish;
- d) o‘zini o‘zi anglash.

23. Shaxsning o‘zini o‘zi samarali baholashiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

- a) o‘zini o‘zi tahlil qilish; shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash; o‘zini-o‘zi nazorat qilish;
- b) o‘zini tushunish; o‘zini o‘zi hurmat qilish; o‘zini-o‘zi boshqarish;
- c) o‘zini tushunish; o‘zini o‘zi boshqarish; o‘zini o‘zi tahlil qilish;
- d) o‘zini tushunish; shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash; o‘zini-o‘zi nazorat qilish.

24. Shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqlishi yoki qoniqmasligi nimani belgilaydi?

- a) o‘z-o‘zini baholash darajasini;
- b) o‘zini o‘zi anglash ko‘rsatkichlarini;
- c) shaxsning ijtimoiy maqomini;
- d) shaxsning o‘ziga nisbatan talabchanligini.

25. O‘O‘B = yutuqlar/o‘zini yuqori baholashga intilish (yoki O‘O‘B = YU / O‘YUBI). Ushbu formula yordamida qanday jarayon amalga oshiriladi?

- a) o‘z-o‘zini anglash;
- b) o‘z-o‘zini baholash;
- c) o‘zini o‘zi rivojlantirish;
- d) o‘zini o‘zi tahlil qilish.

26. Shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka, mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi qanday nomlanadi?

- a) o‘z-o‘zini anglash;
- b) o‘z-o‘zini baholash;
- c) o‘zini o‘zi rivojlantirish;
- d) o‘zini o‘zi tahlil qilish.

27. Har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy xarakterdagi dastur qanday nomlanadi?

- a) individual rivojlanish dasturi;
- b) maqsadli rivojlanish dasturi;
- c) istiqbolli rivojlanish dasturi;
- d) majmuaviy rivojlanish dasturi.

28. Biror bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish qanday nomlanadi?

- a) bilim;
- b) mahorat;
- c) ko‘nikma;
- d) malaka.

29. Pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o‘ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko‘nikma-malakasiga egaligi ... deb nomlanadi?

- a) pedagogik tajriba;
- b) pedagogik yondashuv;
- c) pedagogik mahorat;
- d) pedagogik bilimdonlik.

30. Pedagogik odob; pedagogik bilimdonlik; pedagogik qobiliyat; pedagogik muloqot madaniyati; pedagogik relaksatsiya; kommunikativ ta’sir ko‘rsatish qobiliyati; pedagogik takt (nazokat); pedagogik texnika; nutq texnikasi; pedagogik ijodkorlik; pedagogik tajriba; pedagogik madaniyat. Ular nimaning tarkibiy qismlari?

- a) pedagogik tajriba;
- b) kasbiy kompetentlik;
- c) pedagogik mahorat;
- d) pedagogik malaka.

31. Pedagogning o‘z oldiga o‘ziga, kasbiga, jamiyatga, talabalarga va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatda bo‘lishiga qo‘yadigan axloqiy talablari tizimi qanday nomlanadi?

- a) pedagogik bilimdonlik;
- b) pedagogik obro‘;
- c) pedagogik odob;
- d) pedagogik nazokat.

32. Pedagogik odobning asosiy shakllarini ko‘rsating.

- a) pedagogik malaka; pedagogikadolat; pedagogik empatiya; pedagogik obro‘;
- b) kasbiy-pedagogik burch; pedagogik nazokat; pedagogik majburiyat; pedagogik bilimdonlik;

- c) kasbiy-pedagogik burch; pedagogik adolat; pedagogik majburiyat (deontologiya); pedagogik obro‘;
- d) kasbiy-pedagogik burch; pedagogik qobiliyat; pedagogik texnika; pedagogik obro‘.

33. Pedagogning o‘quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy maqomi qanday nomlanadi?

- a) pedagogik madaniyat;
- b) pedagogik nazokat;
- c) pedagogik obro‘;
- d) pedagogik odob.

34. Pedagogga xos bo‘lib, pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan xususiyatlar qanday nomlanadi?

- a) pedagogik malaka;
- b) pedagogik tajriba;
- c) pedagogik yondashuv;
- d) pedagogik qobiliyat.

35. Didaktik qobiliyat; akademik qobiliyat; perseptiv-pedagogik qobiliyat; nutq qobiliyati; tashkilotchilik qobiliyati; avtoritar qobiliyat; kommunikativ qobiliyat; pedagogik xayolot; diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Pedagogik qobiliyatning ushbu turlari kim tomonidan guruhlangan?

- a) V.A.Krutetskiy;
- b) A.K.Markova;
- c) R.Dekart;
- d) J.Piaje.

36. Pedagogik muloqot uslublarini ko‘rsating.

- a) avtoritar, demokratik va liberal;
- b) avtoritar, muqobil va demokratik;
- c) muqobil, demokratik va insonparvar;
- d) demokratik, insonparvar va huquqiy.

37. Talabalarining hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash qanday nomlanadi?

- a) pedagogik refleksiya;
- b) pedagogik relaksatsiya;
- c) pedagogik deontologiya;
- d) pedagogik texnika.

38. Talabaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; talabchanlik; suhbatdoshni qiziqish (diqqat) bilan tinglay olish va qayg‘urish malakasi; ruhiy barqarorlik, dadillik, og‘ir vazminlik; munosabatlar jarayonida ishonch bilan so‘zlay olish; qat’iyatlilik (qaysarlik emas); talabalarga e’tiborli, hushyor bo‘lish. Ushbu asosiy ko‘rinishlar nimaga xos?

- a) pedagogik odobga;
- b) pedagogik obro‘ga;
- c) pedagogik nazokatga;
- d) pedagogik mahoratga.

39. O‘zini o‘zi hissiy boshqarish; pantomimika; mimika; jest (qo‘l, oyoq harakat)dan o‘rinli foydalanish; nutq texnikasi; alohida so‘z yoki ifodalarni ifodalash sur’ati (ritmika). Ular nimaning asosiy turlari sanaladi?

- a) pedagogik texnikaning;
- b) nutq texnikasining;
- c) pedagogik bilimdonlikning;
- d) pedagogik nazokatning.

40. V.A.Suxomlinskiyning fikriga ko‘ra, qosh-qovoqni uyub yurmaslik; boshqalarning kamchiliklari, nuqsonlarini oshirib ko‘rsatmaslik; hazil-mutoyibaga moyil bo‘lish; xushmuomala bo‘lish va kelajakka ishonch bilan qarash. Ular qanday holatning muhim shartlari sanaladi?

- a) o‘z-o‘zini boshqarish;
- b) o‘zini o‘zi tahlil qilish;
- c) ruhiy barqarorlikka erishish;
- d) o‘zini o‘zi anglash.

41. Shaxs ichki kechinmalari, o‘y-fikrlari, xarakterining gavda harakati va imo-ishoralar yordamidagi ifodasi qanday nomlanadi?

- a) etiket;
- b) jest;
- c) mimika;
- d) pantomimika.

42. Shaxsning yuz muskullari harakatlari orqali o‘z fikri, his-tuyg‘ulari, kayfiyati va mavjud voqelikka nisbatan munosabatini ifodalashi qanday nomlanadi?

- a) etiket;
- b) jest;
- c) mimika;
- d) pantomimika.

43. Nutqni tinglovchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui qanday nomlanadi?

- a) nutq dialektikasi;
- b) nutq texnikasi;
- c) nutq strukturasi;
- d) nutq fakturasi.

44. Kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan orttirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui qanday nomlanadi?

- a) pedagogik qobiliyat;
- b) pedagogik tajriba;
- c) pedagogik malaka;
- d) pedagogik ko‘nikma.

45. Pedagogning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko‘rinishi o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik, mutanosiblik nimani ifodalaydi?

- a) pedagogning obro‘sini;
- b) pedagogning nazokatini;
- c) pedagogning qobiliyatini;
- d) pedagogning imidjini.

46. “Kreativlik” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi – bu...

- a) yaratish;
- b) yangilik kiritish;
- c) o‘zgartirish kiritish;
- d) shaxs ijodkorligi.

47. Individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiradigan ijodiy qobiliyati qanday nomlanadi?

- a) eruditsiya;
- b) intuitsiya;
- c) kreativlik;
- d) evrika.

48. Muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini

topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik. Kreativlikni ifodalovchi ushbu holatlar kim tomonidan asoslangan?

- a) V.A.Krutetskiy;
- b) P.Torrens;
- c) R.Dekart;
- d) J.Piaje.

49. Ijodiy yo‘nalganlik, mantiqiy fikrlay olish, eruditsiya (bilag‘onlik), boy tasavvur, ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlik, o‘z ijodkorligini to‘la-to‘kis namoyish etish, refleksiya qobiliyati, hissiyotga boylik, mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi. Ular nimaning negizida aks etuvchi sifatlar sanaladi?

- a) kreativlikning;
- b) eruditsiyaning;
- c) bilimdonlikning;
- d) intuitsiyaning.

50. O‘zini tavakkal qilishdan olib qochish; fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish; shaxs fantaziyasini va tasavvurining yuqori baholanmasligi; boshqalarga tobe bo‘lish; har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash. Ular qanday omillar sanaladi?

- a) shaxs qobiliyatini shakllantirishga to‘sinqinlik qiluvchi;
- b) shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi;
- c) shaxs intuitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi;
- d) shaxs kreativligini rivojlantirishga to‘sinqinlik qiluvchi.

51. Pedagog kreativ potensialining tarkibiy asoslarini ko‘rsating.

- a) tizimli yondashuv; majmuaviy yondashuv; nazorat; tahlil va baholash;
- b) maqsadli-motivli yondashuv; mazmunli yondashuv; tezkor-faoliyatli yondashuv; refleksiv-baholash;

- c) tizimli yondashuv; tizimli tahlil; faoliyatli yondashuv; baholash;
- d) majmuaviy yondashuv; innovatsion yondashuv; motivatsion faoliyat; tizimli tahlil.

52. Muammoli xarakterga egalik; ijodiy yo‘naltirilganlik; imkoniyatlarni oshirib borish; individuallikka erishish; kreativlikning yorqin namoyon bo‘lishi; bir butunlik, izchillik va tizimlilik; shaxsnинг individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda orttirgan sifatlarining o‘zaro uyg‘unligi. Ushbu tamoyillar qanday sifatni belgilashga xizmat qiladi?

- a) pedagogga xos pedagogik mahoratni;
- b) pedagogga xos kreativlik potensialini;
- c) pedagogga xos kasbiy sezgirlikni;
- d) pedagogga xos pedagogik qobiliyatni.

53. Pedagogning kreativ potensiali darajasini aniqlovchi mezonlarni ko‘rsating.

- a) tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatga egalik, ijtimoiy faollik, izlanuvchanlik;
- b) hissiyotga boylik, kreativ qobiliyatga egalik, fantaziyaning boyligi, izlanuvchanlik;
- c) tashabbuskorlik, kreativ qobiliyatga egalik, kreativ faollik, izlanuvchanlik;
- d) tashabbuskorlik, kreativ qobiliyatga egalik, dunyoqarashning kengligi, tirishqoqlik.

54. Pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minalashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratishi, mayjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati qanday nomlanadi?

- a) pedagogik sezgirlik;
- b) pedagogik kreativlik;
- c) pedagogik ijodkorlik;

d) pedagogik novatorlik.

55. Shaxsning kreativ faoliyatini baholovchi testlar necha turga bo‘linadi?

- a) 2 turga;
- b) 3 turga;
- c) 4 turga;
- d) 5 turga.

56. Pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiradigan suhbati qanday nomlanadi?

- a) pedagogik muomala madaniyati;
- b) pedagogik hulq madaniyati;
- c) pedagogik muloqot madaniyati;
- d) pedagogik nutq madaniyati.

57. Ta’lim jarayonida o’qituvchining pedagogik kasbiy mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalarni belgilang?

- a) Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining o’zaro faoliyati;
- b) standart va nostandard mashg’ulotlarni o’tkazish;
- c) o’quvchining nazariy hamda amaliy faoliyatida erishadigan yutuqlari va ijobjiy natijalari;

58. O’qituvchi kasbiy mahoratining muvaffaqiyati va samaradorligi asosan nimalarga bog’liq?

- a) Ilmiy jihatdan mehnatni puxta tashkil etishga.
- b) Mehnatni oqilona uyushtirishga ta’sir etadigan shart - sharoitlarga.
- c) V.Mehnatni amalga oshirish yo’llarini to’g’ri belgilashga.

59. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo’lishi

kerak?

- a) Sog'lom bo'lishi, barcha qobiliyatlarga ega bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi
- b) Iymon-e'tiqodli, dunyoqarashining kengligi, odob-axloqi, fuqarolik burchini his etishi, ma'naviyati, dilkashligi
- c) V.Bolalarni yoqtirishi, o'z fanini mustahkam egallashi, nutqining ravnligi

60. O'qituvchi kasbiy mahoratining asosiy mohiyatini belgilang?

- a) Etnopedagogik tuyg'ular, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, o'zbekona tavoze' va muomala madaniyati
- b) Ixtisoslikka doir vijdon, adolatparvarlik, har qanday vaziyatda o'zini tuta bilishi, pedagogik oriyat
- c) V. O'qituvchi tashqi qiyofasining go'zalligi, o'quvchilarga demokratik talablar asosida dars o'tishi

61. Pedagogik kasbiy mahorat - bu ...

- a) Muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.
- b) O'qituvchi tomonidan pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omilidir.
- c) V.Didaktik hamda tarbiyaviy jarayonning o'qituvchi tomonidan samarali, mahoratlari tarzda tashkil etishdir

62. Ta'lim jarayoni nimalardan iborat?

- a) Harakatlarni tekshirish
- b) maqsad, nazorat, baholash, natija, ta'lim metodlari
- c) xatoni tuzatish, baholash
- d) maqsad, xatoni tuzatish

63. O'quv jarayoni nimalardan iborat?

- a) ta'larning maqsadi va mazmuni, baholash, o'qish-o'qitish
- b) matnli belgi, ovozli belgi
- c) harakatlarni, shakllar va chizuvlar
- d) ishchi fazo, yordamchi vositalar paneli

64. Pedagogning umumiyligi madaniyati nimalardan iborat?

- a) Ijtimoiy madaniyat
- b) bilimi, ishonchi, qobiliyati va xulqi
- c) Kasbiy ahamiyatli madaniyat
- d) Kasbiy faoliyatda yetukligi

65. Oliy ta'limgan nechta bosqichdan iborat?

- a) 5

- b) 4

- c) 3

- d) 2

66. Shaxs shakllanishining asosini nima tashkil etadi?

- a) Malaka
- b) Ko'nikma
- c) Bilim
- d) Hammasi

67. Innovatsiya faoliyatidagi «kreativlik» deganda siz nimani tushunasiz?

a) Individning yangi tushuncha yaratish va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyatini bildiradi

b) o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvi

c) ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnnini anglab olish

d) shaxs o'zini namoyon qila olish va o'zining muayyan ishlarini amalga oshirish

68. Innovatsion faoliyatining samaradorligi nima bilan belgilanadi?

a) Pedagog faoliyat

b) Pedagog shaxsiyati

c) Pedagogning ish faoliyati

d) Pedagogning muomalasi bilan

69. O'qituvchining pedagogik faoliyati turlari - bu ...

a) Konstruktiv, tadqiqotchilik, kommunikativ, tashkilotchilik, gnostik

b) Ta'lif beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi

c) o'quvchi faoliyatini tashkil etish va boshqarish

d) Shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi

70. «O'qituvchi atamasi»ga berilgan ta'rifning qaysi biri mukammal?

a) O'qituvchi - murabbiy, ustoz.

b) O'qituvchi - inson qalbining muhandisi (injeneri).

c) O'qituvchi -yoshlarga ta'lif-tarbiya beruvchi kishi.

d) O'qituvchi - ziyo nurini tarqatuvchi shaxs.

71. Pedagogik mahorat – bu:

a) Ta'lif va tarbiyaviy faoliyatda yuqori darajaga erishishni va uni doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyat bo'lib, har bir O'qituvchi - fazilatida namoyon boiadi.

- b) Muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir
- c) O'qituvchi tomonidan pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimal- lashtirishga bo'lган ijtimoiy ehtiyojni qondirish omilidir.
- d) Didaktik hamda tarbiyaviy jarayonning O'qituvchi tomonidan samarali, mahoratli tarzda tashkil etishdir.

72. Pedagogik jarayonning harakat vositasi... ?

- a) Pedagogik vaziyat.
- b) Pedagogik o'zaro ta'sir.
- c) Faoliyat .
- d) Pedagogik hodisa.

73.O'quvchi ijodkorligida namoyon bo'luvchi komponentlar...?

- a) Evristik ijodkorlik.
- b) Mahsuldor ijodkorlik.
- c) Kreativ ijodkorlik.
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

74.O'quvchilar qalbiga yo'1 topa olish, ularga yondashish uchui mehrini qozonish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilai o'zaro aloqa bogiashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyati...?

- a) O'qituvchining kommunikativ qobiliyatidir.
- b) O'qituvchining pedagogik mahoratidir.
- c) Pedagogik muloqot qila olish iqtidoridir.
- d) Muomala madaniyatidir.

75.Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari?

- a) Talab; istiqbol; rag'batlantirish va jazolash; jamoatchilik fikri.
- b) Diqqat; hotira; fikrlashni va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- c) O'quvchining muayyan hislatlari; xarakter hususiyatlarini bilish; ishontirish.
- d) Texnik fikrlash: mimika va pantomimika. notiqlik san'ati.

76. O'qituvchining ta'lif jarayonini boshqarish bosqichlari?

- a) O'qitishga muammoviy-fanlararo yondashish, e'tibomi amaliyotga yoki qo'llashga qaratilganligi.
- b) Rejalashtirish, tashkil etish, o'quv harakatlari, natijalami baholash va tahlil qilish.
- c) O'qituvchi to'g'ri javobni formal holatda deb qabul qiladi, asosiy e'tibor o'qitishning mazmuniga qaratilgan.
- d) Holatlar «yuqorida pastga» qaraladi, asosiy e'tibor nazariyaga qaratilgan, faoliyat produktiv shaklda.

77. Kommunikativ qobiliyatni namoyon etuvchi asosiy komponentni belgilang?

- a) Pedagogik ta'sir ko'rsatish.
- b) Mimika va pantomimika.
- c) O'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega boiish.
- d) Nutq madaniyatiga doir bilimlar.

78. "O'qituvchi so'z aytishdan awal Pedagogik mahorat komponentlarini belgilang?

- a.) O'qituvchining o'z kasbiga sadoqati.
- b) O'z fanini o'qitish metodikasini puxta bilishi.
- c) Pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi.
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

79. Pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?

- a) Pedagogik faoliyat - inson shaxsini har tomonlama shakllantirishi qaratilgan j aray on.
- b) O'quvchilarga ta'lif - tarbiya berishga maxsus tayyorlangan, chuqi bilim va malakalar bilan qurollangan shaxs.
- c) Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldi(javob beradigan, ta'lif-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan kish laming mehnat faoliyati.

d) Bolalar va o'smirlar orasida ta'lif-tarbiya ishiga mas'ul kishilamir bиргалидаги фаолияти.

80. O'qituvchi pedagogik madaniyatini shakllantirish uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?

- a) Kishilar bilan o'zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllantirib borishi.
- b) Muosharat odobining muhim xususiyatlarini mukammal egallashi, dilkashlik va xushmuomalalik kayfiyatida yurishi.
- c) Muloqot jarayonida paydo boiadigan salbiy holatlami engish ko'nikmalanga ega bo'lish.
- d). Barcha javoblar to'g'ri.

81. Shaxsning bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, hattiharakatiga ta'sir eta olish va uni qisman o'zgartirish nima?

- a). Kreativlik.
- b) Relaksatsiya.
- c) Empativa.
- d) Ishontirish.

82. Zamonaviy, bilimli, vatanparvar insonlarni tarbiyalash kimning vazifasi?

- a) Faylasufiing.
- b) Pedagogning.
- c) Jamiyatning.
- d) Hokimiyatning.

83. O'qituvchi mehnat faoliyatida evristik ijodkorlik bu ... ?

- a) Kasbiy faoliyatiga oid so'nggi yangiliklarni o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi.
- b) O'qituvchining ta'lif jarayonida shaxslararo va texnik tizimlararo aloqasi.
- c) Pedagogik mehnat faoliyatida o'quvchilar jamoasi bilan muloqotni to'g'ri tashkil etish.
- d) O'quvchilar jamoasi bilan hamjihatlikda pedagogik faoliyat olib borish.

H.O. UZOQOV, SH.H. QULIYEVA, O.N. MUXIDOVA, K.T. XOLMATOVA

(5112100 - Texnologik ta'lif yo'nalishi magistr talabalari uchun)

TEXNOLOGIK MADANIYAT KOMPETENTLIK ASOSLARI

Muharrir:

E. Eshov

Tex.muharrir:

D. Abduraxmonova

Musahhih:

M.Shodiyeva

Badiiy rahbar:

M.Sattorov

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.

Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 25.06.2022. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. "Times New Roman" garniture 1/16.

Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'oz.

Bosma tabog'i 19. Adadi 20. Buyurtma №45.



"BUXORO DETERMINANTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahar Namozgoh ko'chasi 24 uy

Tel.: + 998 98 778 47 27

ISBN: 978-9943-8333-7-1



9 789943 833371